81
Ч 47

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

I.MIRZAYEV, B.QODIROVA

O'ZBEK TILI

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

81
Ў47

I.MIRZAYEV, B.QODIROVA

O‘ZBEK TILI

Oliy o‘quv yurtlarining rus guruhlari talabalari uchun darslik

Professor Ibodulla Mirzayevning umumiy tahriri ostida

-4211-

Samarqand – 2019

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

I.Mirzayev, B.Qodirova

O‘zbek tili. Oliy o‘quv yurtlarining rus guruhlari talabalari uchun darslik.

Taqrizchilar:
Omonturdiyev A. J. – filologiya fanlari doktori, professor.
Boltayev M. B. – dotsent.

DARSLIKDA QO‘LLANILGAN SHARTLI BELGILAR:

- matnni o‘qing;

_ savollarga javob bering;

- topshiriqni bajaring;

– e’tibor bering, eslab qoling;

- yozib oling;

- uyga vazifa.

SamDU kengashining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (2019-yil 5-iyul, 12-bayonnoma).

ISBN – 978-9943-6427-7-5

SO‘Z BOSHI

Ma’lumki, o‘zbek tili ona tili, davlat tili, ikkinchi til va chet tili sifatida o‘qitiladi. Shuning uchun ularning o‘qitish tamoyil va usullari ham mushtarak bo‘lmaydi. Bizda ona (o‘zbek) tili o‘qitish metodikasi nisbatan ko‘proq o‘rganilgan. Uni davlat tili, ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari deyarli o‘rganilmagan. Bunda asosan ona tili ta’limi qolip va qoidalarga tayaniladi. Bu esa, ko‘rinib turganidek, ko‘zlangan natija berolmaydi.

Demak, o‘zbek tilini qayd etilgan sohalarda o‘qitish muammolarini o‘rganish lingvodidaktlarning eng dolzarb, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridandir.

Biz ushbu darslikni yozishda asosiy e’tiborni tovushlar talaffuzi va imlosiga, qo‘llaniluvchi so‘zlarni o‘rgatishga, matnni tushunib yoki tushuntirib o‘qitishga harakat qildik hamda shu maqsadda noan’anaviy topshiriqlar va mashqlardan ko‘proq foydalandik.

Davlat ta’lim standarti, o‘quv va ishchi rejalar asosida tuzilgan ushbu darslik oliy o‘quv yurtlari rus guruhlari talabalari uchun umumiy qo‘llanma sifatida yozildi. Ushbu darslik tuzilajak ixtisoslik darsliklari uchun namuna vazifasini bajarishi mumkin.

Darslikda O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari, ularning sharhlari, bugungi talabalarni qiziqtirishi mumkin bo‘lgan matnlar va shu matnlar ustida ishlash uchun topshiriq va mashqlar berildi.

O‘zbek tilida ravon, mantiqan izchil va erkin so‘zlash uchun uning fonetikasini, morfologiya va sintaksisini, so‘z birikmasi va gaplarning metodikasini, gapda so‘zlarning joylashish tartib qoidalarini chuqur bilish kerak bo‘ladi.

Mualliflar

1-DARS

MATN: O‘ZBEKISTON – YAGONA VATAN

Vatan bu eng aziz go‘sha, muqaddas dargoh. Insonga ato etilgan baxtlararo eng yuksagi ozod Vatanda yashash saodatidir. Vatan tuyg‘usi bu Vatanni anglash har bir umr davom etadigan uzluksiz jarayondir. Biz har gal o‘lkamiz bahori, yozi, kuzi va qishiga ro‘baro‘ kelganda, uning tog‘-u toshlari, daryo-yu o‘rmonlari, bepoyon dalalari, tarixiy obidalari, obod shahar-u qishloqlarini ko‘rganda, ko‘nglimizda yangi-yangi tuyg‘ular paydo bo‘ladi.

Dunyoda millat, xalq va davlatlar juda ko‘p. Har birining o‘ziga xos manfaatlari, maqsad va orzu-umidlari bor. Ana shu orzu-umidlar va maqsadlarni ifoda etadigan, ularni ro‘yobga chiqarish uchun xalqni safarbar qiladigan g‘oyalar ham bor. Bugun bizning jamiyatimizda, O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, orzu-istaklarini, olijanob maqsad-muddaolarini o‘zida mujassam etadigan o‘z g‘oyasi shakllandi. Bu milliy istiqlol g‘oyasidir. O‘zbekiston ota-bobolarimiz yashab o‘tgan azaliy va muqaddas makon, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko‘hna o‘choqlaridan biridir. Bu zaminda jahonni hayratga solgan buyuk sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub qadriyat va an'analar shakllangan. Qadimgi Yunon faylasufi Geraklit bu yurtni «falsafiy tafakkurning beshigidir» deya e'tirof etgan.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rta va shimoliy qismida joylashgan mamlakat. U shimoli-sharqda Qirg‘iziston, shimol va shimoli-g‘arbda Qozog‘iston bilan, janubi-g‘arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Tojikiston bilan, janubda qisman Afg‘oniston bilan chegaradosh. Umumiy maydoni 447 ming 400 kvadrat kilometr. Maydonining beshdan to‘rt qismi tekislik, oz qismi tog‘, adir, tog‘ yonbag‘irlaridan iborat. O‘zbekiston hududidan Markaziy Osiyoning eng katta daryolari — Amudaryo va Sirdaryo oqib o‘tadi. Mamlakatimizning sharqiy va janubi-sharqiy qismida Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘lari bor. Bu tog‘lar orasida Farg‘ona, Zarafshon, Kitob-Shahrisabz, Surxon-Sherobod, Chirchiq-Ohangaron kabi katta vodiylar joylashgan. Aholining asosiy qismi ana shu vodiylarda yashaydi.

Yurtimiz tasviri tushirilgan xaritaga diqqat bilan qarab ko‘rganmisiz? Unda har bir viloyat alohida ajralib turibdi. Har bir mintaqa va viloyat o‘zining betakror tabiati, odamlari, shahar va qishloqlariga ega. O‘zbekiston deganda, ko‘z o‘ngimizda Farg‘ona vodiysining so‘lim shahar va qishloqlari, Samarqand, Buxoro va Xivaning ko‘hna me’moriy obidalari, - Qoraqalpog‘iston zaminidagi qadimiy qal’a-qo‘rg‘onlar, Ustyurt kengliklari, Toshkentning go‘zal va azim qiyofasi, Qashqadaryoning bepoyon qirlari, Surxon tog‘lari, har bir mintaqa va viloyat xalqining o‘ziga xos fe’l-atvori va udumlari namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonni bir ko‘rgan odam, hech shubhasiz, uni sevib qoladi. Har yili yurtimizga ming-minglab sayyohlar tashrif buyuradi va ularning barchasi bu tarovatli, serquyosh zamin ularni o‘ziga maftun etgani haqida to‘lqinlanib, hayajonlanib so‘zlashadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing.
2. Notanish so‘zlarni toping va tarjima qiling.
3. O‘zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
4. O‘zbekiston hududidagi daryolarni sanab bering.
5. Matnda qaysi tog‘ nomlari keltirilgan?
6. O‘zbekiston deganda, ko‘z o‘ngimizda qanday o‘lka gavdalanadi?
7. Matnning birinchi xatboshisidagi ikki harf bir tovushni ifodalagan so‘zlarni daftaringizga yozing.

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

vatan –	hudud –	tog‘–
xalq –	manfaat –	vodiy –
el –	chegaradosh –	aholi –
millat –	tekislik –	obida –

FONETIKAGA OID MATERIALLAR

Unli tovushlar

2-topshiriq. *Alla, iroda, saodat, mehr, sadoqat, muhabbat, soat, itoat, mamlakat, ozoda, adolat, singil, dengiz* kabi so‘zlarni namunadagidek bo‘g‘inlarga ajrating.

Namuna: Al-la, i-ro-da...

1-mashq. Quyidagi maqolni bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlarni tovushlarga ajrating. Maqolning necha bo‘g‘in va tovushdan iborat ekanini ayting.

Vatan ostonadan boshlanadi.

Eslab qoling. Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo bo‘lishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo‘ladigan turli xil fonetik o‘zgarishlar kabi hodisalar o‘rganiladi. Demak, fonetika – (yunon. **Phone** - tovush) tilshunoslikning tovush tizimini o‘rganuvchi bo‘limi.

2-mashq. Quyida berilgan jadvaldagi nutq organlarining harakati yordamida unli va undosh tovushlarning paydo bo‘lishiga diqqat qiling.

Faol nutq organi	Nofaol nutq organi
Tovush paychalari, til, kichik til, lablar, pastki jag‘, yumshoq tanglay.	Yuqori jag‘, tish, qattiq tanglay, burun bo‘shlig‘i.

3-mashq. Quyidagi nutq tovushlarini talaffuz qiling. Ularning hosil bo‘lishida nutq organlari ishtirokini kuzating.

b, p, m, h, t, o, u, q

4-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring. O va a unlilarini talaffuz qiling va lablarning harakatiga diqqat qiling.

SUHBAT QOIDALARI BAYONI

Umr mol-mulk to‘plash uchun emas, balki mol-mulk osuda hayot kechirish uchundir!

Bir oqildan so‘radilarki: “Kim baxtiyor-u kim baxtsiz?” Oqil dedi: “Baxtiyor – yeb-ichadi, ekadi; baxtsiz – yig‘ib-yig‘ib o‘lib ketadi”.

...Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo‘ladi: biri mol-mulk yig‘ib, foydalanmagan va ikkinchisi esa, ilm olib unga amal qilmagan odam.

(*Sa’diy “Guliston. Bo‘ston.” Toshkent.; “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” 2014-yil, 126-bet*)

3-topshiriq. Quyidagi tez aytishlarni o‘qing va tovushlarning talaffuziga e’tibor bering.

Qishda kishmish pishmasmish,

Pishsa kishmish qishmasmish.

***

Turpning tomirini tut tutib turibdimi?

Tutning tomirini turp tutib turibdimi?

TOVUSH VA HARF

TOVUSH	HARF
Og‘zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan qismi nutq tovushi deyiladi: [b], [l], [q], [g‘]. Bir tovush bir harf bilan ham, ikki harf bilan ham ifodalanishi mumkin: [o], [s], [v], [sh], [ch], [ng].	Tovushning yozuvdagi ifodasiga harf deyiladi: b, l, q, g‘. Ikki harf bir tovushni ifodalaydi: sh, ch, ng; *bosh, soch, tong* kabi. Eslatma: S va h yonma-yon kelib, alohida tovushlarni ifodalaganda, ular orasiga tutuq belgisi (’) qo‘yiladi: Is’hoq

5-mashq. Quyidagi maqolni daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring. S tovushining talaffuzi va hosil bo‘lishiga diqqat qiling.

Sabr tagi sariq oltin.

Eslab qoling. Bo‘g‘izda hosil bo‘luvchi, sof ovozdan iborat bo‘lgan, og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramaydigan, urg‘u qabul qiluvchi, uzoq cho‘zilish va musiqiy xususiyatga ega bo‘lgan hamda yakka holda bo‘g‘in hosil qiluvchi tovushlar – unli tovushlardir. O‘zbek tilida oltita unli tovush mavjud: i, e, a, u, o‘, o.

4-topshiriq. Berilgan so‘zlarning birinchi tovushini talaffuz qilib ko‘ring va hech qanday to‘siqqa uchramay hosil bo‘luvchi nutq tovushlarini ajrating.

Yayov, uzmoq, eslamoq, sodiq, ikkiyoqlama, abadiyat.

6-mashq. Quyidagi matnni o‘qing. Matnning birinchi xatboshisini daftaringizga yozib, nechta unli tovushlar qatnashganligini aniqlang.

“Amma”m bilan “amaki”m

Amma bilan amaki hayotda qarindosh bo‘lgani kabi tilda ham bir-biriga qarindoshdir. Bu so‘zlar ikki tomchi suvday bir-biriga o‘xshaydi.

Bir qarashda “amma” so‘zining “amaki” so‘zi bilan tub ma’nosi bir xil ekanligini anglash qiyinroqday. Chunki bu so‘zlarning biri ayollarga nisbatan, biri esa erkak qarindoshga nisbatan qo‘llanadi. Biroq mohiyat nuqtayi nazaridan bu ikki so‘z bitta so‘z ekanligini ilg‘asa bo‘ladi. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da izohlanishicha, “amaki” so‘zi ham “amma” so‘zi ham bitta ildizdan o‘sib chiqqan bo‘lib, ularning tub ma’nosi arabchada “otaning akasi” ma’nosini anglatadi. Ma’no taraqqiyoti natijasida bu so‘z ikkiga ajralib, biri otaning aka-ukasi, biri esa otaning opasi yoki singlisi mazmunini ifodalaydigan bo‘lib ketgan. (*Eshqobil Shukur. “Bobo so‘z izidan” Toshkent.; “Mashhur-press” 2018-yil, 28-bet)*

7-mashq. Berilgan matnni o‘qing. Matndagi unlilar soni bilan bo‘g‘inlar sonini qiyoslang.

Vatanni sev, tuprog‘ini o‘p.
Har qarichi muqaddas bizga,
Cho‘lidagi hatto quruq cho‘p,
Jondan yaqin yuragimizga.
(Oybek)

8-mashq. Navoiyning quyidagi baytiga diqqat qiling. Undagi unli va undosh tovushlarni ajrating.

Odamiy ersang demagil odamiy,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

5-topshiriq. Berilgan matnni o‘qing va yonma-yon keladigan unlilar imlosini eslab qoling.

1) unlilar orasiga ba’zan **y** undoshi qo‘shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) **ia:** *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) **io:** *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

d) **ai:** *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;

e) **oi:** *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

f) **ea:** *teatr, okean, laureat* kabi;

2) **ae, oe** unlilar so‘z ichida kelganda ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

9-mashq. So‘zlarni daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring. X va h harflarining yozilishi va talaffuziga diqqat qiling. Bu tovushlarning hosil bo‘lishida qaysi nutq organlari ishtirok etganligini ayting.

Xulq, xurmo, xursand, xullas, xushdil, xushfe’l, xom, xonadon, xomush, xoin, xohlamoq, xazina, xachir, xazon, xislat, xirmon, xabar, xalacho‘p, xalq, xandon, xarita, xarsang, xanjar.

Hordiq, hosil, hovli, hokimiyat, hayajon, hasharot, hijjalamoq, haykal, hayfsan, halloslamoq, hamtovoq, hamkor, harorat, hasad, havas, hassa, haqiqat, habash, hadik, hajv, hadya, haftiyak, hafta, hajm, humo, hukmdor.

10-mashq. “O‘zbekiston – yagona Vatan” matnidagi birinchi xatboshini daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring. u, o‘, e, i unlilari ishtirok etgan so‘zlarning talaffuzi hamda yozilishini eslab qoling.

11-mashq. Maqollarni davom ettiring va talaffuzida lablar ishtirok etgan unlilarning tagiga chizing.

Vataning tinch - .... Ona yurting omon bo‘lsa, …. Oltin olma, …. Olim bo‘lma,…. Ota rozi - …. Osmon yiroq, …. Aql yoshda emas …. Onaning ko‘ngli bolada, …. Qarisi bor uyning …. Qiz saqlasang, ….

2-DARS

MATN: O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI

1989-yilning 21-oktabrida o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Buning natijasida o‘zbek tili respublikamizning barcha jabhalarida yuritiladigan, rivojlanish istiqboli qonun bilan belgilangan tilga aylandi. Har yili 21-oktabr yurtimizda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida keng nishonlanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizning jahon hamjamiyati o‘rtasidagi obro‘-e’tibor oshdi. O‘zbek degan millat va uning milliy tili jahon jamoatchiligining diqqatini tortdi. Ana shunday sharoitda mustaqillik qo‘lga kiritilgunga qadar qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi Qonunning ko‘p moddalari o‘z kuchini yo‘qotdi yoki tahrirtalab bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham amaldagi qonunni isloh qilish ehtiyoji paydo bo‘ldi.

1995-yilning 21-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasi “Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahririni qabul qildi. Ushbu Qonun jami 24 moddadan iborat bo‘lib, bu qonunning 1-moddasida ham “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili O‘zbek tilidir”, deb yozib qo‘yilgan.

Qonunga asosan eng muhim qadriyatlardan biri hisoblangan til qonun darajasida huquqiy asosga ega bo‘ldi. Bu qonun bilan o‘zbek millatining ma’naviyatini, ruhiyatini, qadrini ko‘rsatadigan muhim omil, ya’ni tilning huquqiy maqomi mustahkamlandi. Mazkur huquqiy asos orqali yangi shakllanayotgan davlatning, hukumatning, uning yangi rahbarining elga, yurtga nisbatan e’tibor, ehtiromi namoyon etildi. Til har bir millatning ulkan boyligi, benazir qadriyati va bebaho mulki hisoblanadi. Har bir xalq, har bir elat, o‘zi hurmat va ehtirom qiladigan tilga ega. Tilda ana shu tilning ijodkori bo‘lgan xalq, elatning tarixi va madaniyati aks etadi. Ayni zamonda, til ijtimoiy taraqqiyotda ulug‘vor ahamiyat kasb etadi. Til – har bir millat o‘zligining ajralmas belgisidir.

O‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasi aholisining ko‘pchiligi bo‘lmish o‘zbek xalqining ona tilidir. U O‘zbekiston birligi va yaxlitligi, jamiyat jipsligining muhim omili hisoblanadi. O‘zbek xalqining, uning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo‘lmish o‘zbek tilining har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, mazkur tilning davlat tili maqomidek salohiyatini izchil va to‘liq ro‘yobga chiqarish muhim vazifadir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda o‘zbek adabiy tilini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasida o‘zbek tili davlat tili, davlat ramzi, milliy madaniyat va ma’naviyatni ifodalovchi hamda ularni kelajak avlodga yetkazuvchi muhim muloqot vositasi darajasiga ko‘tarildi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuvlar, muzokaralarda tilimiz keng qo‘llanilayotgani, xorijdagi ko‘plab universitetlar, ilmiy muassasalarda o‘zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o‘rganishga qiziquvchilar safi tobora ortib bormoqda.

O‘zbekistonda nafaqat o‘zbek tili, balki boshqa millat va elatlarning tillari, urf-odatlari hurmat qilinishi milliy qonunchiligimizda aks etgan. Uning amaliy

isbotini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasidagi quyidagi norma misolida ko‘rish mumkin: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning 7-moddasida qayd etilishicha, davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi. Bu orqali davlat o‘zbek tilini asrash, boyitish va rivojlantirishda mas’ullikni o‘z zimmasiga olgan. Shu asosda yurtimizda o‘zbek tilini boyitish va takomillashtirishga doir ko‘plab ilmiy izlanishlar, loyihalar olib borilmoqda, turli sohalarga oid lug‘atlar, ilmiy risolalar muntazam nashr etilmoqda. Ayni paytda mamlakatimizdagi barcha nashriyot matbaa-ijodiy uylari tomonidan ona tilimizning jozibasini bor bo‘y-basti bilan namoyon etishga doir nashrlar chop etilib, kitobxonlar e’tiboriga havola etilayotganini alohida qayd etish lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbek tiliga qachon Davlat tili maqomi berilgan?
2. Tilning jamiyat bilan qanday aloqadorligi bor?
3. “Davlat tili to‘grisida”gi qonunga qachon o‘zgartirishlar kiritilgan?
4. Yangi tahrirdagi qonuni necha moddadan iborat?
5. Til deganda nimani tushunasiz?
6. Nutq deganda-chi?

6-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

qonun –	til –	davlat tili –
rivojlanmoq –	istiqbol –	nishonlanmoq –
mustaqillik –	amaldagi –	qadriyat –
huquqiy –	nufuz –	ehtirom –

FONETIKAGA OID MATERIALLAR

Tovushlar talaffuzi. Undosh tovushlar.

7-topshiriq. Quyidagi matnlarni o‘qing. Til va jamiyat tushunchalarining aloqadorligi haqida fikr yuriting.

Insonning eng asosiy, uni boshqa mavjudotlardan farqlab turuvchi belgisi – ong va tilga egaligi. Til faqat insonga va u mansub jamiyatga xos bo‘lgan hodisa. Til bir kishi tomonidan emas, balki kishilik jamiyati tomonidan uzoq davr mobaynida yaratilgan. Shuningdek, u ayrim shaxsga emas, balki jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun til ijtimoiy hodisa deyiladi.

Kishilar til yordamida o‘zaro fikriy aloqa o‘rnatadilar, bir-birlarini tushunadilar. Til kishi faoliyatining barcha sohalarida bevosita ishtirok etadi, chunki inson faoliyati go‘daklik chog‘idan to umrining oxirigacha til bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Til insonga koinotning juda murakkab sirlarini o‘rganishda, o‘tmish asrlarning xazinalaridan bahramand bo‘lishda, o‘z tafakkurining mevasini kelajak avlodga yetkazishda, tabiat va ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini idrok etishda, fan, texnika, san’at va madaniyatni olg‘a siljitishda katta yordam beradi.

Hikoyat

Undoq eshitdimki, bir kecha Xorun-ar Rashid bir tush ko‘rdikim, og‘zidan barcha tishlari to‘kulmish. Erta tong turib bir muabbir[1]ni chaqirib so‘radikim, “bu tushning ta’biri nedur?” Muabbir dedi: “Ey amiralmo‘minin, sening oldingda barcha xesh, aqrabo va qarindoshlaring o‘lg‘usidur”. Bu so‘zni eshitg‘on Xorun-ar Rashid: “Mening yuzimga bundog‘ dardlig‘ va anduhlig‘ so‘zni aytding. Mening barcha qarindoshlarim o‘lsalar, so‘ngra men qandog‘ ishga yararman va na yanglig‘ no‘zg‘or surarman?” – dedi va unga yuz tayoq urmoq buyurdi. So‘ng boshqa bir muabbirni chaqirib, tushin unga tahrir qildi. Muabbir dedi: “Ey amiralmo‘minin, sening umring barcha aqrabolaring umridin uzoq bo‘lur”. Xorun-ar Rashid dedi: “Barcha aqlning yo‘li birdur va ikkovining ta’birining negizi bir yerga borur, ammo bu ibora bila ul iboraning farqi bag‘oyat ko‘pdur”. Buyurdi, so‘nggi muabbirga yuz tillo berdilar…

(“Qobusnoma”, 38-bet)

Eslab qoling. Undosh tovushlar o‘pkadan chiqayotgan havoning nutq a’zolarida ma’lum bir to‘siqqa uchrash yo‘li bilan hosil bo‘ladi. O‘zbek tilida 24 ta undosh tovush bor: b, v, g, d, z, j, dj, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h, ng.

Undoshlarning ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra turlari:

1. Jarangli undoshlar: b, v, g, d, z, j, y, g‘, l, m, n, ng, r.
2. Jarangsiz undoshlar: p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h.

O‘zbek tilida quyidagi sakkizta jarangli undosh o‘zining jarangsiz juftiga ega: b-p, v-f, d-t, z-s, j (jirafa)-sh, J (jo‘ja)-ch, g-k, g‘-x.

12-mashq. Quyidagi tez aytishlarni daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring va yod oling. Bir nafasda sakkiz martagacha aytib ko‘ring.

Qopqoq qop yonida,
Qop qopqoq yonida.

Qopqoqni top, qopqoqni yop.

Qo‘ng‘iroq qo‘g‘irchoqnikimi, qo‘zichoqnikimi?

G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

[1] Tush ta’birini aytuvchi kishi

13-mashq. Gaplarni ko‘chiring, ng undoshli so‘zlarni topib, ostiga chizing.

FIKR TARBIYASI

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratli bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur. Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur.

“Turkiy guliston yohud axloq”

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

8-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va yonma-yon keladigan undoshlarning imlosini eslab qoling.

1) *baland, Samarqand, poyezd; do‘st, artist, g‘isht* kabi so‘zlarda **d, t** tovushi ba’zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o‘zlashma so‘zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so‘zlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo‘shilsa, so‘z oxiridagi bir harf yozilmaydi: metall+lar=metallar, kilogramm+mi=kilogrammi kabi.

9-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning talaffuziga diqqat qiling. Qanday ma’no anglatayotganligini eslab qoling.

Bob – kitobning qismlari	Bop – munosib
Dub – daraxt(qurilishbop)	Dup – tovushga taqlid
Qolib – qolmoq	Qolip – kiyim tikish moslamasi
Tib – meditsina	Tip – toifa
Tub – tag, ost	Tup – o‘simlik har donasi

14-mashq. Quyidagi she’rni ifodali o‘qing va misra boshidagi tovushlarning talaffuziga diqqat qiling. She’r tarkibida harfiy birikmalar ishtirok etgan so‘zlarni aniqlang va daftaringizga ko‘chiring.

AHMADJON

Azizlikda boboga tortgan,
Halollikda momoga yoqqan.
Mo‘jizaga boy fazilatli,
Adolatli shaffof niyatli.

Dilga yaqin yurish-turishi,
Jamshid kabi umr qurishi.
Oilaning orzu bahori,
Nash’u namo topmoq shiori.

Jumagul Suvonova

15-mashq. Quyidagi she’rni yod oling. S tovushi ishtirok etgan so‘zlarning imlosini eslab qoling.

Salqin saharlarda sizni so‘roqlab,
Subhi sabolardan sizni so‘radim.
Sevgining sog‘inchli satrini sozlab,
Subhidam sevgimni sarxush so‘zladim.
Sevgi sabrim sinab sochim sarg‘aytsa,
Sevgi sahnasida suxandon so‘zim.
Sizni sinamoqqa sokin sur’atda,
Sukunatga sotdim sog‘inchli so‘zim.

Umida Eshqulova

3-DARS

MATN: **DAVLATIMIZ RAMZLARI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI[2]

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrdagi 768-XII-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida” gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

Abdulla Oripov so‘zi
Mutal Burhonov musiqasi

Serquyosh hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:
Oltin bu vodiylar - jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

[2] Madhiya (arab. – maqtov, ta’rif) - biror shaxs, voqea yoki narsaning maqtoviga bag‘ishlangan badiiy asar. Muayyan davlatga bag‘ishlangan she’riy-musiqiy asar ham madhiya hisoblanadi.

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash'ali tinchlik posboni,
Xaqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqarot:
Oltin bu vodiylar - jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Madhiya matnini daftaringizga husnixat asosida ko‘chiring.
3. *O‘zbekiston, vatan, o‘lka, zamon, olam, iymon, xaqsevar* so‘zlarini izohlang va ular yordamida gaplar tuzing.
4. *Bag‘ri keng o‘zbek* deganda nimani tushunasiz?
5. O‘zbekistonning sifatlarini belgilovchi so‘zlarni toping va izohlang.
6. *Yashnagay* so‘zining o‘zakdoshlarini keltiring.
7. Matndan o‘zlashma so‘zlarni toping va daftaringizga ko‘chiring.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG‘I[3]

Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrdagi 407-XII-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i — bayroqning butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy rang, oq rang va to‘q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi matodir.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining uzunligi 250 santimetrga, kengligi 125 santimetrga teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrga tengdir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining o‘rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrga teng qizil hoshiyalar o‘tkazilgan.

---

[3]. **Bayroq** – 1) tayoq yoki simga mahkamlangan muayyan rang va o‘lchamdagi mato. O‘rta asrlarda turkiy xalqlar orasida tug‘ deb atalgan; 2) davlatning rasmiy ramzi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining yuqori qismidagi moviy rangli enning yuz tomoni va orqa tomonida dastaga yaqin joyida oq rangli yangi oy va uning yonida o‘n ikkita oq rangdagi besh qirrali yulduz tasvirlangan.

Oq rangli yangi oy va o‘n ikkita oq rangli besh qirrali yulduzning tasviri moviy rangli yuqori enning o‘rtasidan 70x30 santimetrga teng to‘g‘ri to‘rtburchakka sig‘adigan qilib joylashtirilgan.

Oq rangli yangi oy vertikal holatda do‘ng tomoni dastaga qaratilgan, dastadan 20 santimetr masofada joylashtirilgan bo‘lib, diametri 30 santimetrli doiraga sig‘adi.

O‘n ikkita oq rangli besh qirrali yulduz diametri 6 santimetrli doiraga sig‘adi. Doiralar orasidagi masofa 6 santimetr. Yulduzlar uzunasiga va tikkasiga quyidagi tartibda joylashadi: yuqori qatorda uchta, o‘rta qatorda to‘rtta va quyi qatorda beshta yulduz. Quyi qatordagi yulduzlar yangi oyning pastki uchidan 3,5 santimetr masofada joylashadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Ikkinchi xatboshini husnixat bilan ko‘chiring.
3. Notanish so‘zlarni toping va izohlang.
4. Bayroq so‘zini sharhlang va ma’nodoshlarini keltiring.
5. Rangni ifodalovchi so‘zlarni toping.
7. Yulduz so‘zi bilan kelgan maqol, topishmoq va tez aytishlarga misollar keltiring.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI[4]

Davlat gerbi O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi 616-XII sonli «O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

---

[4]. Gerb (polyakcha – "herb", nemischa "Erbe" – meros so‘zidan olingan) – biron bir mamlakat yoki hududning siyosiy va tarixiy xarakterdagi g‘oyalari majmuasini, o‘ziga xos tabiiy va xo‘jalik xususiyatlari, tabaqaviy ierarxiyalarini, shaxs, urug‘ va boshqalarning shajaralarini ifodalovchi alohida ramziy belgi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko‘rinishga ega: tog‘lar, daryolar va so‘l tomoni bug‘doy boshoqlaridan, o‘ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g‘o‘za shoxlaridan iborat chambarga o‘ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko‘rinishida: Humo qushi va daryolar — kumush rangida; quyosh, boshoqlar, paxta chanoqlari va “O‘zbekiston” yozuvi — oltin rangida; g‘o‘za shoxlari va barglari, tog‘lar va vodiy — yashil rangda; chanoqlardagi paxta — oq rangda; lenta — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkizburchak — oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarim oy va yulduzlar — oq rangida tasvirlangan.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Matnning oxirgi xatboshisini daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring.
3. *“Gerb”* so‘zining ma’nodoshlarini keltiring.
4. Humo qushi haqida so‘zlab bering. Yana qanday afsonaviy qushlarni bilasiz?
5. *Humo* so‘zi bilan bog‘liq ikkita so‘z birikmasi va ikkita sodda gapga misollar keltiring.
6. Kumush qanday metall? Yana qanday qimmatbaho metallarni bilasiz?
7. Matndan egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llangan otlarni toping.

ORFOGRAFIYA VA ORFOEPIYAGA OID MATERIALLAR

O‘zbek tilining imlo qoidalari

Eslab qoling. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘zbek tilining tovushlar tizimi, ohangdorligi va imlosini to‘la ifodalay oladigan yozuvga – alifboga o‘tish imkoniyati tug‘ildi. 1993-yil 2 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” Qonun qabul qildi. Bu alifbo 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat etib belgilandi. Yangi alifbodagi ba’zi harflar jahon aloqa-aralashuv tizimiga kirishimizda ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkinligi hisobga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6 mayda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritdi. Yangi o‘zbek alifbosi 26 harf va 3 harflar birikmasidan iborat etib belgilan edi.

Yangi alifbo asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qarori bilan “O‘zbek tilining asosiy imlo

qoidalari” tasdiqlandi. Unda harflar bilan tovushlar mutanosibligi, asos va qo‘shimchalar imlosi, qo‘shib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko‘chirish qoidalari o‘z ifodasini topgan.

Topshiriq. Quyida berilgan matnni o‘qing va bosh harflarning imlosini tekshiring.

BOSH HARFLAR IMLOSI

1. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O‘rinova Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So‘fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Uyg‘un Ixson, Salomjon Alikov* kabi.

2. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar), Xonobod, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahallalar), Zavraq (ekin), Yorqoq (vodiy), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Sirdaryo, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar)* kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

3. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo‘lib kelgandagina bosh harfbilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.*

4. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san’at asarlariga, ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *"Tong" (mehmonxona), "Sanoat" (firma), "Navro‘z" (xayriya jamg‘armasi), „Kamalak" (matbaa birlashmasi), "G‘uncha" (bog‘cha), "Botanika" (sanatoriy), "Paxtakor" (stadion), "Shohu gon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Hamrohlik" (yodgorlik), "Sino" (sovutgich)* kabi.

5. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro‘z bayrami* kabi.

6. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekison Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o‘rinbosari; Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog‘liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

7. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *"O‘zbekiston Qahramoni" (unvon), "Oltin Yulduz" (medal)*. Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: "Sog‘lom avlod uchun" (orden), "O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi" (faxriy unvon), "Matbaa a’lochisi" (nishon) kabi.

8. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim.* (O. Yoqubov)

16-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va bosh harflar imlosiga e’tibor bering. Bosh harflar bilan yozilgan so‘zlarni daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring va uning yozilish sababini izohlang.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti - mintaqaviy xalqaro tashkilot bo‘lib, uning tarkibiga Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston kiradi. 2001-yilda olti mamlakat rahbarlari Shanxay Hamkorlik Tashkilotini tuzish haqida Deklaratsiya imzolashdi. Tashkilotning maqsadi - Markaziy Osiyodagi vaziyatni barqarorlashtirish, davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik va qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlash, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, gumanitar va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish deb belgilandi. Ilk uchrashuv natijalariga ko‘ra ShHT a’zolari terrorchilik, separatizm va ekstremizm bilan kurashishga doir Shanxay konvensiyasini imzolashdi.

2005-yil mamlakat rahbarlari kengashib, uchta Osiyo mamlakatiga kuzatuvchi maqomi berilishi to‘g‘risida qaror qabul qildi - Hindiston, Eron va Pokiston. Tashkilot geografik jihatdan kengaydi va bu ShHTning xalqaro mavqeini yana-da yuksaltirdi. Bundan tashqari Afg‘oniston va Mo‘g‘uliston mamlakatlari ham kuzatuvchi maqomiga ega bo‘lishdi, Turkiya esa muloqot bo‘yicha sherik aylandi. 2014-yilda Hindiston va Pokiston mamlakatlari Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo bo‘lish uchun rasman murojaat qilishdi. 2015-yilda esa ShHT mamlakatlari yetakchilari bu davlatlarni tashkilot safiga qabul qilish jarayoni boshlanishi to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlashdi. Shu bilan birga Belorusiyaga ShHT kuzatuvchisi maqomini taqdim etish haqidagi qarori ham imzolandi. Ozarbayjon, Armaniston, Kambodja va Nepalga esa muloqot bo‘yicha sherik maqomi taqdim etiladi. Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga to‘liq huquqli a’zolikka Eron va Afg‘oniston mamlakatlari ham da’vogarlik qilishmoqda.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining yuqori organi - davlat rahbarlari kengashi; sammit yilda bir marta o‘tkaziladi. Tashkilot doirasida Tashqi ishlar

kengashi, vazirlik va idoralar rahbarlari kengashi, Milliy koordinatorlar kengashi tuzilgan. ShHTning ikkita doimiy organi mavjud - Pekindagi kotibiyat va Toshkentdagi Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo‘mitasi. ShHT harbiy blok emas, biroq tashkilot a’zolari xavfsizlik va terrorizm bilan kurashga doir birgalikni ko‘rib chiqishadi. 2002-yildan buyon tashkilot a’zolari muntazam qo‘shma aksilterror mashqlarini o‘tkazishadi. 2011-yilning 15-iyunida ShHTning 10 yillik sammitida mamlakatlar rahbarlari giyohvandlikka qarshi strategiya va uni amalga oshirish dasturini tasdiqlashdi.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

17-mashq. Berilgan so‘zlarning imlosiga diqqat qiling va imlo qoidalari bo‘yicha to‘g‘rilab daftaringizga husnixat asosida ko‘chiring.

Samarqand davlat universiteti, xalq ta’limi vazirligi, o‘zbekiston respublikasi qurilish mahkamasi, toshkent traktor zavodi, birlashgan arab amirligi, xalqaro olimpiya qo‘mitasi, o‘zbekiston respublikasi oliy sudi

18-mashq. Topishmoqlarning javoblarini toping va h, o‘, i harflari ishtirok etgan so‘zlarning imlosiga diqqat qiling.

Quyoshda tovlanadi,
Shirasi til yoradi.
Hidi tutar falakni,
Biz yesak…

***

U bo‘ladi yong‘oqli,
Murabbo va qaymoqli.
Shokoladli, pushti oq,
Muzdekkina…

***

To‘ni yashil, ichi qizil,
Qo‘lga olsang zil-u zambil.
Pishar vaqti yoz-u kuz,
Uning nomidir…

***

O‘rtog‘im ruchka, qalam,
Bir chiziq, katak dalam.
Ikkichiga kaptarman,
A’lochiga…

19-mashq. Quyida berilgan tez aytishlarni daftaringizga ko‘chiring va siz ham bir nafasda sakkiz martagacha aytib ko‘ring.

Shirinning shirchoyiga shiringina shirmoynon.

***

Qayiq qirg‘oqda qimirlab turibdimi,
Ayiq qirg‘oqda g‘imirlab yuribdimi?

***

O‘yinni o‘ylab o‘ynadim,
O‘yinni o‘ynab o‘ynadim.

***

Shavkat sharbatni Sharifga tutdimi,
Sharif Shavkatga sharini tutdimi?

***

Mastura va Mastona maktabda mahmadona.

11-topshiriq. Quyida berilgan ko‘chirish qoidalari bilan bog‘liq bo‘lgan matnni o‘qing va imlosini eslab qoling.

KO‘CHIRISH QOIDALARI

Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: *to‘q-son, si-fatli, sifat-li, pax-ta-kor, paxtakor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi: *va’-da, ma’-rifat, mash’-al, in’-om* kabi.

So‘zning bosh yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, ular quyidagicha ko‘chiriladi:

1) so‘z boshidagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan* kabi;

2) so‘z oxiridagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi keyingi satrga ko‘chirilmaydi: *mudofa-a* emas, *mudo-faa*, *matba-a* emas, *mat-baa* kabi.

O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko‘chiriladi:

1) ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi.

2) uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi: *silin-drik* kabi.

Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko‘chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

Bosh harflardan yoki bo‘g‘inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko‘p xonali raqamlar satrdan satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

Harflar bilan berilgan shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: *A-1 sinf, V–B guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chiriladi: *Sharq-91 (festival), "O‘qituvchi–91" (ko‘rik tanlov), „Andijon – 9", "16" (g‘o‘za navlari), "Boing–767" (samolyot), Foton–774" (televizor)* kabi.

A. I. Ishboev, A. D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfidan keng qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi. Shuningdek, **v.b.** (*va boshqa*), **sh. k.** (*shu kabilar*) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.

4-DARS

MATN: MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI

Qadriyatlar har doim insonlarni mehr-oqibatga, o‘zaro hamjihatlikka chaqiruvchi, asrlardan asrlarga o‘tib xalq turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan moddiy va ma’naviy jarayonlarning sara namunalaridir. Zero, qadriyat bu millatning o‘tmishi, bugunni va kelajagini belgilab beruvchi muhim omildir. Bizga ma’lumki, har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlar silsilasi mavjud bo‘lib, u millatning ko‘zgusi hisoblanadi. Shuning asosida millatning turmush tarzida, ijtimoiy va ma’naviyatida, ongi-shuurida, o‘zaro muloqotida aks etib, o‘z ifodasini topadi. Qadriyatlar har bir xalqning qon-qonigacha singib, insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi va shu tariqa, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiluvchi, shu tufayli ular insonlar tomonidan qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari hodisalaridir. Qadriyatlar mavjud millat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy xarakteriga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Milliy;
2. Diniy;
3. Mintaqaviy;
4. Umuminsoniy.

Jamiyatning rivojlanish bosqichlarida, insonlar ijtimoiy hodisalarga turli xil munosabatda bo‘lish asosida ularning dunyoqarashi, yashash tarzi, mentaliteti shakllanadi. Milliy qadriyatlar millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analarini, jamiki moddiy va ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bulardan tashqari, milliy qadriyatlar o‘ziga xos, tor doiralar bilan cheklanib qolmaydi, balki rivojlanib, turmush sharoiti chig‘iriqlaridan o‘tib, yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining namunalari bilan to‘ldirilib, boyib boradi. Bizga ma’lumki, xalqimizning ming yillardan beri sayqallanib muhimligi jihatidan o‘zining ahamiyatini saqlab qolayotgan o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimi mavjud. Bu qadriyatlar tizimi, yillar silsilasi, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllanib

kelmoqda. Milliy qadriyatlarimiz millatimizning naqadar muhim, jozibali insoniyat hayoti uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanligini bot-bot isbotlab, uning ruhini o‘zida aks ettirib kelmoqda. Bu qadriyatlar tizimini millat taraqqiyotining asosiy omili deb ta’kidlash o‘rinli. Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligidir. Uni avaylab-asrash, rivojlantirish, boyitish har bir yurtdoshimizning muqaddas burchidir.

Barchamizga ma’lumki, yurtimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq hayotimizning barcha jabhalarida “qadriyatlar”, “milliy g‘oya”, “o‘zlikni anglash”, “milliy tiklanish”, “ijtimoiy adolat”, “milliy ong”, “milliy g‘urur”, “milliy iftixor”, “Vatanparvarlik” kabi atamalar paydo bo‘ldi. Bu atamalar, bir maqsad sari: “Vatan taraqqiyoti uchun xizmat qilib, erkin va farovon hayot” barpo etishda xalqimiz birdam va hamjihatlikda harakat qilishga undab kelmoqda. Zero, istiqlol ayni paytda milliy o‘zlikni anglash demakdir.

Yurtimizda inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Insoniy paydo bo‘libdiki, uning qadr-qimmati, sha’ni, ezgu qarashlari ulug‘lanib kelinadi. Shu boisdan inson sha’ni va qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmush sharoiti, bilimi va madaniy-ma’rifiy saviyasini rivojlantirish, salomatligini yaxshilash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi” konstitutsiyamizda ham belgilab qo‘yilgan. Hozirgi kunda yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar, islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyati ham aynan shundadir.

Milliy qadriyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Umuminsoniy qadriyatlar ko‘lami va mazmuni jihatidan chuqur va keng qamrovli bo‘lib, barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad intilishlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar bilan qanchalik ko‘p uyg‘unlashgan bo‘lsa, ularning rivojlanishiga, ommalashishiga keng imkoniyat yaratadi. Umuminsoniy qadriyatlar tizimi insoniyat tamaddunining taraqqiyoti bilan bog‘liqligi va umumbashariy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bular: Inson va uning qadr-qimmati ardoqlanishini, barcha millat va elatlar tinch-totuvlik asosida o‘zaro hamkorlikda yashash, moddiy va ma’naviy boyliklarni asrab-avaylash, ilm-fan rivojiga hissa qo‘shish, tinchlikni saqlash, qirg‘in qurollarini to‘xtatish, tabiatni muhofaza qilish kabilarni o‘zida namoyon etadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Umuminsoniy qadriyatlar biz istiqomat qiladigan kurrai zaminda yashayotgan barcha millat va elatlarning manfaatlarini himoya qiladi. Shuningdek, insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarni asrab-avaylab, kelajak avlodga yetkazishni nazarda tutadi. Bu umuminsoniy qadriyatlarning bosh mezonidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Notanish so‘zlarni ajrating va o‘quv tilingizga tarjima qiling.
3. Qadriyat deganda nimani tushunasiz?

millat -
ma’naviyat -
o‘zlikni anglash -
milliy ong -

umuminsoniy -
ongi-shuuri –
milliy tiklanish –
milliy iftixor -

ORFOGRAFIYA VA ORFOEPIYAGA OID MATERIALLAR

O‘zbek tilining imlo qoidalari

Eslab qoling. To‘g‘ri talaffuz me’yorlarini o‘rganuvchi tilshunoslik orfoepiya (yunoncha: orfo – «to‘g‘ri», epos – «so‘zlamoq», «nutq») To‘g‘ri yozish me’yorlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga (yunoncha: orfo –«to‘g‘ri», grafo –«chizmoq») deyiladi.

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN YANGI O‘ZBEK ALIFBOSI

Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
Aa		a	Qq		qe
Bb		be	Rr		er
Dd		de	Ss		es
Ee		e	Tt		te
Ff		ef	Uu		u
Gg		ge	Vv		ve
Hh		he	Xx		xe
Ii		i	Yy		ye
Jj		je	Zz		ze
Kk		ke	O‘o‘		o‘
Ll		el	G‘g‘		g‘e
Mm		em	Sh sh		she
Nn		en	Ch ch		che
Oo		o	Ng ng		nge
Pp		pe			

Asos va qo‘shimchalar imlosi

k undoshi bilan tugagan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **-ga**, [illegible] ma’nosini bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach, -**

guncha, -gani, -gudek, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining II shaxs ko‘rsatkichi **-gin**, shuningdek, **-gina** qo‘shimchasi qo‘shilganda bo qo‘shimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: *tokka yo‘lakkacha, ko‘nikkach, zerikkuncha, to‘kkani, kechikkudek, bukkan, ekkin kichikkina.*

Q undoshi bilan tugagan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -ga chegara ma’nosini bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach, guncha, -gani, -gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining II shaxs ko‘rsatkichi **-gin**, shuningdek, **-gina** qo‘shimchasi qo‘shilganda bo qo‘shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo‘rqqudek, achchiqqina.*

Qolgan barcha hollarda, so‘z qanday tovush bilan tugashidan va bo qo‘shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qat’i nazar, **g** yoziladi bargga, pedagogga, *bug‘ga, tog‘ga, og‘gan, sig‘guncha...*

20-mashq. Quyidagi qoidani o‘qing va siz ham mustaqil ravishda misollar keltiring.

K yoki q undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga, shuningdek, ayrim bir bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda k undoshi g undoshiga yoki q undoshi g‘ undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak-tilaging, o‘rtoq o‘rtog‘ing, …

21-mashq. Quyida berilgan so‘zlarda qo‘llanilgan ng harflar birikmasining talaffuzini tushuntiring.

Keng, eng, ming, yengil, singil, ko‘ngil.

Eslab qoling. Ng harflar birikmasi bitta til orqa undoshini ifodalab so‘z boshida kela olmaydi: *yangi, dengiz, keling, tong, ming, teng.*

Bu harflar birikmasini ikkita alohida n va g undoshlarini ifodalovch harflarning yonma-yon kelishidan farqlash lozim. Ng harflar birikmasi bir bo‘g‘i tarkibida, n va g harflari boshqa-boshqa bo‘g‘inlar tarkibida keladi. Solishtiring shud-ring, ko‘-ngil, si-ngil, ko‘rdi-ngiz; men-ga, osmon-ga, kon-gress, shtan-ga.

22-mashq. Avval ng undoshi ishtirok etgan so‘zlarni, keyin alohida n va g tovushlari yonma-yon ishtirok etgan so‘zlarni ko‘chiring.

Menga, unga, ingramoq, kenglik, mingashmoq, dengiz, tanga, jiringlamoq ko‘ngil, alanga, sening, tonggi, tungi, dangasa, zang, donga, jonga, bong, donga.

23-mashq. O‘qing, bir tovushni ifodalagan harflar birikmalari qatnashgan so‘zlarni ko‘chiring.

Toshkent – O‘zbekistondagi eng chiroyli va qadimiy shahar. U o‘tmishd Shosh va Choch nomlari bilan atalgan. Uning yoshi ikki ming yildan ham ortiq

chiroyiga chiroy qo‘shilmoqda. Katta-kichik xiyobonlar, ko‘chalar yana-da obodonlashdi. Chet ellardan, dengiz orti mehmonlar kelmoqdalar. Ko‘chalar chetida chaman- gullar yo‘lovchilar bahri-dilini ochadi. **(«Gulxan»)**

IMLO, SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

11-mashq. Quyidagi so‘zlarga egalik (-im, -ing, -i, -si) qo‘shimchalarini qo‘shib ko‘chiring va imlosiga diqqat qiling.

Idrok, zehn, erk, idrok, nok, chok, huquq, ravnaq, yuq, haq.

12-mashq. Quyidagi so‘zlarga -ga, -gan, -gach qo‘shimchalaridan birini qo‘shib ko‘chiring.

Ko‘prik, tarmoq, so‘roq, boqmoq, osmoq, sog‘moq, elak, yurmoq, quloq, yuborgan, pishmoq, qovoq, kindik, kiprik, tirnoq, qoqmoq, ekmoq, aytmoq, tikmoq.

13-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va osh so‘zining ma’no torayishini tushuntiring. Fg, sh, ch harfiy birikmalari qatnashgan so‘zlarni uch ustunga bo‘lib ko‘chiring.

Palov osh – asosan turkiy va eroniy xalqlar, shuningdek, Osiyoning boshqa mamlakatlarida keng tarqalgan taom. Masallig‘i va tayyorlanish uslubi bo‘yicha turlarga bo‘linadi va har bir mamlakatda o‘zgacha tarzda tayyorlanadi. Asosini guruch tashkil etadi. Ushbu masalliqdan tashqari yog‘, go‘sht, sabzi, piyoz va boshqa masalliqlar ishlatiladi. O‘zbekistonda o‘zbekcha palov o‘zbek oshxonasining eng asosiy taomlaridan biri hisoblanib, har bir xonadonda, to‘y marosimlarida va dunyoning boshqa davlatlarida sevib iste’mol qilinadi.

14-mashq. Jaloliddin Rumiy qalamiga mansub quyidagi matnni o‘qing va tarjimasiga hurmat bilan ko‘chiring. -ga, -gan qo‘shimchalarining tagiga chizing.

DEHQON VA SHER

Bir kuni tunda sher dehqonning og‘ilxonasiga kirib, sigirini yebdi-da, o‘sha yerning o‘zida dam olgani cho‘zilibdi. Dehqon esa tunda uyg‘onib, shamni ham yoqmasdan sigiridan xabar olish uchun og‘ilxonaga yo‘l olibdi. U og‘ilxonaga kirishi da paypaslanib sherning yelkasini silabdi. Shunda sherning xayolidan shunday so‘zlar o‘tibdi: «Eh, ikki oyoqli nodon-a! U meni sigir deb o‘yladi. Agar buni bilganda meni ko‘rib, tanamga qo‘l tekkizish uyoqda tursin, qo‘rqqanidan o‘zakasi yorilardi!» Ey dono odam, sen eng avvalo narsalarning mohiyatini bil, ularning aldamchi shakliga ishonma!

5-DARS

MATN: NAVRO‘Z – QADIMIY BAYRAM

Navro‘z bayrami turkiy xalqlarning qadimiy bayramlaridan biridir. U bayram 21-mart kuni nishonlanib, aynan kun va tun teng bo‘lgan paytga to‘g‘ri keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko‘ra, Navro‘zning shakllanish davri – eng qadimgi zamonlardan “zardushtiylik” dinining paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga olgan ekan. Navro‘z so‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib “Yangi kun” degan ma’noni bildiradi. Qadimdan Navro‘z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo‘lib kelgan. O‘sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to‘xtatilgan, gina-kudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o‘tishgan. Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan. Ana quvonchli damlarda ko‘pchilikning “Navro‘z qayerda va qachon paydo bo‘lgan ekan?” — degan savoliga “Saodat” jurnalida e’lon qilingan “Onaqutining saxovati” maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: «Dunyoga 8 alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Qadimgi Parfiya davlati shaharlaridan biri sanalgan Niso shahridagi Burgut qal’a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lgan. Maqbara mehrob qismida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlik – quyosh shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 21-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga yoqqan», deyilgan. Firdavsiyning “Shohnoma”sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, ilm bunyod qiladi. Nihoyat, “ishlari gurkirab berganda meva” bir kuni taxt yasatib unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan. Alisher Navoiy “Tarixi muluki ajam” (“Ajam shohlari tarixi”) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘z ta’sis qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: “Jamshid “Chihil minor” nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib… “bu inshoot tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig‘ib, anda azim jashn qildi va vaqtkim, quyosh nuqta e’tiqodli rabiyg‘a taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat sayt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunining otin navro‘z qo‘ydi”. Darhaqiqat, Navro‘zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya’ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat’i nazar Navro‘zni uyg‘onish bayrami sifatida nishonlash uchun

Navro‘z qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muxtasham bayramdir. Uning tarkibiga, qadimgi ota-bobolarimizning animistik tasavvurlaridan tortib, bugungi zamondoshlarimizning hayotiga mustahkam ma’naviyat olami singib ketgan bo‘lib, u insoniyat taqdirining har bir yutug‘idan doimo kuch va quvvat olib turadi. X asrda yashagan buyuk tarixchi olim Abu Bakr Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” kitobida dehqonlarning Navro‘zda aytiladigan Siyovush nomi bilan bog‘liq qo‘shiqlari haqida ma’lumot berib, “Bu gaplar bo‘lib o‘tganiga hozir uch ming yil to‘lgan edi”, deb yozadi. Bahor va mehnat bayramining paydo bo‘lishi haqidagi tarixiy ma’lumotlar davrlar o‘tishi bilan turli o‘zgarishlarga duch kelgan holda bizgacha yetib kelgan. Ana shunday afsonalarning aksariyati Navro‘zning vujudga kelishini afsonaviy Jamshid bilan bog‘laydi. Navro‘z haqidagi afsonalarda esa bu umumxalq bayramining paydo bo‘lishi tabiatning bahor fasli va ko‘klamgi dala ishlarining boshlanishiga aloqador ekanligi bilan bog‘lanadi. Navro‘z 21-martdan 22-martga o‘tar kechasi “Qozon to‘la” kechasi hisoblanadi. Shu oqshomda kechasi bilan ko‘pchilik bo‘lib sumalak va halim pishirilgan. Bu taomlar qozoni ertasiga ochilgan. Navro‘z “qozon to‘la” va ul qut-baraka tantana qiladigan xalq bayramidir. Navro‘zda qozon-tuvoqlar qaynashi — to‘kin-sochinlik, dalalar serhosilligi, mevaga to‘la bo‘lishidan dalolat beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing va mazmunini qisqacha gapirib bering.
2. Matnda so‘zlarni ajrating va o‘quv tilingizga tarjima qiling.
3. Navro‘z nima uchun aynan 21-mart sanasida nishonlanadi?
4. Navro‘z oldidan pishiriladigan qanday milliy taomlarni bilasiz?
5. “Qozon to‘la” udumining ma’nosi nima?
6. Matn tarkibidagi qo‘sh undosh va qator undoshli so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing va imlosini eslab qoling.

11-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

tug‘ilish -	gina-kudrat -	yaxshilik -
hukmdorning -	mahbus -	dehqon–
yangi kun -	ko‘pchilik-	vujudga kelgan–
ezgu niyatli -	izlanish-	qut-baraka -

LEKSIKOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Shakldosh va paronim so‘zlar

12-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va so‘zning qudrati haqida fikr

So‘zlar misoli yerga sochilgan urug‘ doni. Agar og‘izdan chiqqudek bo‘lsa, ularni bittalab terib olish mumkin emas. El-yurt eshitganidan keyin bu so‘zlar pardalab bo‘lmaydi.

Og‘izdan goho o‘t, goho suv chiqar,
Yashnatar birisi, birisi yiqar.
Yonar o‘t misoli keraksiz so‘zing,
Og‘izdan chiqarma, kuyarsan o‘zing.

Shirin so‘zga hamma: katta ham, kichik ham eriydi. Shirin va ezgu so‘z oqib turgan zilol suvga o‘xshaydi. Zilol suv qayerga oqib borsa, u yerdan sersoy chechaklar unib chiqadi…

"QUTADG‘U BI…

Eslab qoling. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi leksika deyiladi. Ular shu tilning lug‘at boyligini tashkil etadi. Leksikologiyada so‘zlar va ularni atash (lug‘aviy) ma’nosi o‘rganiladi. Tilimizdagi so‘zlar mustaqil ma’no va grammatik ma’nolarga ega bo‘ladi. So‘zdan anglatilishi, bu uning atash (lug‘aviy) ma’nosi deb yuritiladi. So‘zning ma’lum grammatik shaklda bo‘lishi, grammatik vazifani bajarishi so‘zning grammatik ma’nosi hisoblanadi.

28-mashq. Quyidagi matnni ifodali o‘qing. So‘zlarning ma’nosiga e’tibor bering.

BALIQCHI VA BALIQCHA

Baliqchi kun bo‘yi baliq tutishga harakat qilib faqat kichkinagina Baliqcha tutibdi.

— Yolvoraman, meni qo‘yib yubor, — debdi Baliqcha. — Men hali yeyishing uchun judayam kichkinalik qilaman. Agar hozir meni daryoga qo‘yib yuborsang, men tezda o‘saman, keyin sen mendan ajoyib taom tayyorlaysan.

— Yo‘q, yo‘q, Baliqcham, — debdi Baliqchi, — men seni hozir yeyman, bundan keyin seni tutolmasligim mumkin. *Qissadan hissa: Kelajakdagi naqd katta narsadan ko‘ra, qo‘lingdagi naqd kichik narsa afzal.*

EZOP MASAL…

29-mashq. Topishmoqlarni o‘qing va javobini toping. Topishmoqlar berilgan so‘zlarning ma’nosiga diqqat qiling.

Qo‘l bilan ekilar,
Og‘iz bilan yig‘ilar.

(Yozish, o‘qish)

Tog‘dan tashladim sinmadi,
Suvga tashladim sindi.

(Qog‘oz)

Sirti tayoq,
Ichi bo‘yoq

(Qalam)

Uzun bo‘yli,
Yo‘rma to‘nli.

(Qamish qalam)

[illegible] Quyidagi so‘zlarning lug‘aviy (atash) ma’nolariga diqqat qiling. Ularni izohlab bering.

[illegible] qizil – rang, gul – o‘simlik, qizil – rang, ikki – (son) raqam, kelmoq

[illegible] Quyidagi shakldosh so‘zlarning ma’nolariga diqqat qiling. Siz ham misollar keltiring.

[illegible] tomon, *ort* – fe’l, biror transport vositasi ustiga tartib bilan [illegible] fe’l, miqdori yana ham ko‘paymoq: Shahrimiz aholisi ortmoqda.

[illegible] Shakldosh so‘zlar - (Omonimlar yunoncha *homos* – “bir xil” yoki *onuma* – “nom” degan ma’nolarni bildiradi) talaffuzi va yozilishi bir xil bo‘lgan so‘zlardir: *yuz* (ot) – *yuz* (son), *tut* (daraxt)– [illegible]

[illegible] so‘zlar bir so‘z turkumiga (*yosh* – ko‘z yoshi, *yosh* – umr [illegible] xil so‘z turkumiga (*och* – sifat, *och* - fe’l), uch xil so‘z turkumiga [illegible] fe’l, *oshiq* – sifat; *hur* – ot, *hur* – sifat, *hur* - fe’l) ham oid [illegible] Bir turkum doirasidagi shakldoshlik asosan ot va fe’llarda [illegible] shakldosh so‘zlar qo‘shimchalar qabul qilganda ham [illegible] qolaveradi.

[illegible] Quyidagi Jomiy qalamiga mansub hikoyani o‘qing va [illegible] hissiyot asosida ko‘chiring. Shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan [illegible] chizing.

[illegible] osh bo‘lsang, qanday osh, non ko‘rsang senga qattiq ishtaha [illegible] non bilan o‘tirgan ulfatlaringda esa ishtahang senga nisbatan nafrat [illegible]

Quyuq, suyuq har na topsang uyingda,
To‘yib yeb olganing yaxshidir be shak.
O‘zgalar taomin havas aylama,
Pastlar atosidan qoqib ket etak.

"BAHORISTON"

[illegible] Shakldosh so‘zlar ishtirok etgan tuyuqlardan namunalar yozing

17-topshiriq. Quyidagi shakldosh so‘zlarni davom ettiring.

Qovoq – poliz ekini, qovoq – inson a’zosi; Son – raqam, son – inson a’zosi; Nota – musiqa yozuvi, nota – shartnoma, bitim; G‘oz – parranda, g‘oz – kuch kaloriya: g‘ozi yo‘q ovqat - kuchi yo‘q ovqat…

32-mashq. Quyidagi matnni ifodali o‘qing va shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlarnigina daftaringizga ma’nolari bilan ko‘chiring.

Qog‘oz oq bo‘lgani uchun unga So‘z bitadilar. Paytava kir bo‘lgani uchun unga So‘z yozib bo‘lmaydi. Qog‘oz pok bo‘lgani uchun zarracha cho‘g‘ tushsa yonib ketadi. Paytava kir bo‘lgani uchun tutaydi-yu, yonmaydi. Yozuvchi bo‘lish uchun iste’dodning o‘zi kamlik qiladi.

Qalbi qog‘ozdek oppoq, qog‘ozdek lovillab yonadigan odamdangina chinakam adib chiqadi.

“DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR”

18-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning talaffuzi va imlosiga diqqat qiling. Anglatayotgan ma’nosini eslab qoling.

Ahil (totuv, inoq)-ahl (bir soha odamlari), tib (tibbiyot)-tip (toifa), o‘tkazmoq (bir joydan boshqa joyga o‘tkazmoq)-o‘tqazmoq (niholni ekmoq), qism (bo‘lak)-qisim (siqim), qurt (hasharot)-qurut (suzma qurutilgani).

Eslab qoling. Paronimlar (talaffuzdosh so‘zlar) – ruscha *para,* ya’ni “juft” va yunoncha *onoma* yoki *onyma,* ya’ni “nom” degani bo‘lib, aytilishi biri biriga yaqin, ammo yozilishi va ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlardir. Paronimlar ko‘pincha bir tovush bilan bir-biridan farq qiladi: *asr - asir, tanbur - tambur, amr - amir.* Paronimlar ba'zan og‘zaki nutqda, badiiy asarlarda uchraydi. Ular bir so‘z turkumiga ham, turli so‘z turkumlariga ham oid bo‘lishi mumkin: *zirak* (ot) – *ziyrak* (sifat); *asr* (ot) – *asir* (ot).

33-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va mazmuni bo‘yicha fikr yuriting. Matndan so‘z qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan xatoni topib daftaringizga to‘g‘rilab ko‘chiring.

TOVUQ BILAN TULKI

Baland daraxt shohiga qo‘nib, qag‘-qag‘lab yotgan Tovuqning tovushi butun o‘rmonga taralib, ochlikdan sillasi qurigan Tulkining e’tiborni tortibdi. Tovuqning baland shohda turganini ko‘rgan Tulki uni xiyla bilan pastga tushirib, yemoqchi bo‘libdi.

— Kechirasan, qadrdonim Tovuq, — deb gap boshlabdi u, — sen yirtqichlar bilan qushlar, umuman, o‘rmonimizdagi barcha jonzotlar o‘rtasida tuzilgan tinchlik bitimi haqida hali eshitmadingmi? Bundan keyin biz bir-birimizni ovlamaymiz, aldamaymiz va o‘g‘irlamaymiz, balki tinchlikda, hamjihatlikda yashaymiz. Past tush, bu haqida yaxshilab gaplashib olamiz. Tulkining mug‘ombirligini yaxshi

Tovuq hech narsa demay, xuddi bir narsaga tikilgandek yo‘lga qarab

— Nimaga buncha tikilib qolding? — deb so‘rabdi Tulki.

— Men bir to‘da itlarni ko‘rayapman, — debdi Tovuq, — adashmasam, ular bizga kelishyapti, janob Tulki.

— Shunaqami, unda men ketishim kerak, — debdi Tulki.

— Iltimos, janob Tulki, ketmay turing, — debdi Tovuq, — men endi tinchlikparvar bo‘lib turuvdim. Keling, itlarni kutib turamiz, ular kelgandan so‘ng tinchlik bitimini birga muhokama qilamiz.

— Yo‘q, yo‘q, — debdi Tulki, — men ketishim kerak, itlar hali tinchlik bitimi haqida eshitmagan bo‘lishlari mumkin.

Qissadan hissa: To‘satdan taklif qilingan do‘stlikdan ehtiyot bo‘ling.

EZOP MASALLARIDAN

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

34-mashq. Quyida Muhammad Yusuf qalamiga mansub “Xalqona” she’rni ifodali o‘qing va millatning o‘ziga xosligi, urf-odatlari, sodda va samimiyligining she’rdagi ifodasi bo‘yicha fikr yuriting. She’r matnida qo‘llangan shakldoshlik va paronimlik xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlarni topib daftaringizga ko‘chiring.

Qiz deganning ko‘ksi to‘la o‘y bo‘lar,
Yigit bir kun yetilib bo‘y bo‘ladi,
Bir tandir non o‘rtada, bir kosa suv,
O‘nta o‘zbek yig‘ilsa to‘y bo‘ladi.

Ro‘yoblarga chiqadi shirin tushlar,
Kelinchakning yengidan kuyov ushlar,
Beshiklarni bo‘shatib bir - biriga,
Tug‘iladi To‘maris, Alpomishlar

Suyungandan onalar ko‘zida yosh,
Otalar yuzida porlar quyosh.
Nabiralar to‘ladi hovlilarga,
Bari bir xil - qora soch-u qora qosh,

Bola gapin yoqtirmas qaytganini,
Bizda bola qildirar aytganini,
Mayli sodiq o‘ssa bas, yurtiga u,
Boshlariga ko‘tarib vatanini.

Dabdabasiz davralarda nur bo'ladi,
Kuyov to'ra kelinchak hur bo'ladi,
Qayda yalla yangrasa kelavering.
O'zbegimning to'ylari zo'r bo'ladi.

35-mashq. Quyidagi paronim so'zlarning yozilishi va ma'nolarini [illegible] qoling.

Xalq – el, ulus	Halq – halqum
Xam – egik, quyi solingan	Ham – (men) ham
Xol – badandagi qora nuqta	Hol – ahvol
Xosiyat – xususiyat	Hosiyat – his etish
Xoli – bo'sh, band emas	Holi – ahvoli
Xush – yaxshi, ma'qul	Hush – aql, es-hush
Xil-xil – turli-tuman	Hil-hil – juda pishgan

36-mashq. Quyidagi Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub she'rni yod [illegible] so'zning inson hayotidagi o'rni haqida matn tuzing.

Donolik ramzi — so'z, bilib so'zlansa,
Nodonning o'zi ham so'zi qo'lansa.

Ko'p so'zlab topmadim ochunda bir naf,
Ko'zlangan bu naf ham so'z ko'pidan daf.

Erkim so'z vajhidan taxtga egadir,
So'zkim, er boshini pastga egadir.

Bor so'zni keltirsam, sig'dirmas naql,
O'zida bor odam bilar: So'z — aql,

Mendan ulush qolsa, yumushdan o'zga,
Oltin-u kumushni teng ko'rma so'zga.

6-DARS

MATN: SALOMLASHISH - INSONIY FAZILAT

Salom Allohning ismlaridan biridir. O'rtalaringizda salomni [illegible]
Hadi[illegible]

Millat ma'naviyatiga daxldor neki bor, unga befarq qarab bo'[illegible] Salomlashish borasida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Salom insoniyli[illegible] boshidir. Dunyodagi barcha xalqlar o'zaro munosabat, muomala va [illegible] salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq bo'lgan [illegible] odatlari bor. Salomlashish odobi turli xalqlarda turlicha bo'lmasin, mazmun[illegible] biriga yaqin: muddao bir-biriga yaxshi tilak bildirishdir.

[illegible] musulmon kishining salomlashish odobi o'ziga xos [illegible] "Assalomu alaykum" – "Sizga tinchlik tilayman" yoki [illegible] Shu so'zlar bilan boshlangan har bir nutq yana ham [illegible] kerak. Shundanmi, qo'l siqishib yoki tabassum bilan bir- [illegible] salomatlik tilash ajoyib odatga aylangan. Ana shunday [illegible] bilan "almashtirish" mumkinmi?

[illegible] bo'lsin, biz odamlarni doimo salomlashib qarshi [illegible] va o'zaro muloqotni boshlash uchun yaxshi vosita [illegible] salomlashish shunchaki madaniyat belgisi emas. Olimlar uning [illegible] ham ta'kidlaydilar. Ma'lumki, insoniyat o'z tarixining [illegible] qabila-qabila bo'lib yashagan. Bu xavfsizlik, jon saqlash [illegible] edi. Biroq yashash uchun kurash qabilalararo [illegible] bo'lardi. Nimaiki kerak bo'lsa, u jang bilan egallanishi, [illegible] qurol bo'lishi kerak edi. Lekin o'zaro mahsulot ayrboshlash, [illegible] yangi munosabatlar o'rnatilishini talab etardi. Shu bois [illegible] yaxshi niyatda kelganini bildirish uchun qo'lida quroli [illegible] qolochlarini katta yozish usulini o'ylab topdilar. Bu esa [illegible] salomlashish deya atala boshladi. Ma'lum ma'noda [illegible] birinchi ko'rinishi deyish ham mumkin. Qadimgi [illegible] hatto hozir ham yuqori doiralarda salomlashish san'at [illegible] Buni Xitoy, Hindiston, Yevropa xalqlari madaniyatidan [illegible] takroriy, biroz vaqt talab etiladigan salom berish [illegible] va sadoqatni bildirgan. Davrlar o'tishi bilan har bir xalq [illegible] nisbatan munosabati va madaniy me'yorlaridan [illegible] turli shakllarini qabul qilganlar. Jahondagi ko'pgina [illegible] bajariladi. Lekin bu o'rinda qo'l, bosh kabi tana [illegible] ham qo'shimcha vazifa bajarishi mumkin. Har qanday [illegible] muomala qilishdan oldin salom berish va alik olish insoniy

[illegible] — bu o'zbek xalqi qabul qilgan salomlashish turi. [illegible] arabcha so'z bo'lib, sizga tinchlik, salomatlik tilayman, [illegible] Bu so'z musulmonlar o'zaro uchrashganda ishlatadigan [illegible] qabul qilingan. Salomni qabul qiluvchi «Va alaykum [illegible] ham tinchlik, salomatlik tilayman»), deb javob qaytaradi. [illegible] ma'lum qoidalar mavjud. Unga ko'ra, kichik yoshdagilar yoshi [illegible] odam piyodaga, piyoda ketayotgan kishi o'tirganga, [illegible] salom beradi. Assalomu alaykum ko'pchilik huzuriga kirib [illegible] Salom berganda uning samimiy va muloyim chiqishini, [illegible] ta'minlash lozim. Uni oshkora aytish kishilar o'rtasida [illegible] o'rtadagi gina va kuduratlarni ketkazadi. Assalomu alaykum [illegible] qaytarish esa vojib hisoblanadi, deya keltiriladi axloq-odob [illegible] Amir, xonlarning qabulxonasi salomxona deb nomlanib, [illegible] salom og'asi deb yuritilgan. Kelinni kuyov xonadoniga kelgan [illegible] xonadon kattalariga, yaqin qarindoshlariga ta'zimga olib [illegible] yoki umuman kelinchak ta'zimi ham salom nomini olgan.

O‘zbekistondagi salomlashish harakatlari, ishlatiladigan so‘zlar hududlararo bo‘lsa-da, farqlanadi. Lekin o‘zaro aloqalarning mustahkamligi, aholining jihatdan u qadar farqlanmasligi sababli keskin tafovutlar uchramaydi. Qo‘l quchoqlashish, yelka olish, bir-birining tirsagini ushlab so‘rashish (ayollar o deyarli hamma joyda uchraydi. Shuningdek, erkaklar bilan erkaklar, ayollar ayollar, erkaklar bilan ayollarning so‘rashishida ham (qo‘l harakatlari nu nazaridan) farqlar mavjud. Qolaversa, ikki qayta ko‘rishish ham an’anaga ay qolgan. Ya’ni, davralarda avval umumiy, keyin esa alohida-alohida so‘rash o‘tiladi. Har bir mehmon mezbondan, keyin o‘zaro bir-biridan hol-ahvol so chiqadi. Buni salomning ikkinchi qismi deb atash ham mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Notanish so‘zlarni ajrating va o‘quv tilingizga tarjima qiling.
3. “Qayerda qanday salomlashiladi?” mavzusida dialog tuzing.
4. Salomlashishda tana harakatlari qay darajada ishtirok etadi?
5. Salomlashishning ma’lum qoidalarini sanab bering.
6. Matn tarkibidagi shakldoshlik va paronimlik xususiyatiga ega bo‘l so‘zlarni ajrating.

19-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

assalomu alaykum -	muomala -	urf-odatlar -
va alaykum assalom -	muloqot -	tarixiy zarurat –
salomlashish odobi -	murojaat -	ulov mingan –
qo‘l siqishmoq-	quchoqlashish -	oshkora aytish -

LEKSIKOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlar

20-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning bir-biriga yaqin ma’nolarini kuzating siz ham davom ettiring.

Avval, ilgari, oldin, burun, qadim; Ayyor, mug‘ombir, hiylagar, dog‘ Bahs, tortishuv, munozara, mubohasa; Dushman, yov, g‘anim; Iflos, isqirt, ivir isliqi; Ixtiyor, izm, mayl; Lavozim, …. Maslahat, …. Maqsad, …. Sabr, Tayyor, …. Vatan, ….

Eslab qoling. **Ma’nodosh so‘zlar - (Sinonimlar** yunon *“synonymos”* yoki *“synonymon”*, ya’ni “bir nomli” degan ma’noni bildiradi) sha har xil bo‘lsa ham, ma’nolari bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Ma’nodoshlar xil predmetlarni *(ovqat, osh, taom),* predmetning bir xil belgisini *(ishch harakatchan, tirishqoq),* bir xildagi harakatni *(asramoq, saqlamoq)* bildira

ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan sinonimik qatorni ma’nosi betaraf bo‘lgan, ko‘p qo‘llanadigan so‘z **asosiy** boshqa so‘z) deb ataladi: ***chiroyli****, go‘zal, ko‘hlik.*

17-mashq. Quyidagi dialogni o‘qing va ma’nodosh so‘zlarni toping. ma’nodosh so‘zlar ishtirok etgan gaplarni, keyin esa ko‘chma ma’noli so‘z ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring.

Jalil yana birpas sukutga tolib qoldi-da:
— So‘rama, — dedi. Keyin yuzi tirishib ketdi. — So‘rama... Ont ichganman.
— Ey!
— Qasam ichganman.
— Tavba!
— Qo‘y uni.
— Endi
— Bolam, ovora bo‘lma.
— Qiziq odatlaringiz bor-da.
— Shu-shu.
— Ha. Oqshom yana kiraman.
— Xo‘p.
Shu bilan ota-bolaning orasi soviy boshladi. Shokir kelib, Mo‘min aka bilan gap boshlaydi. Jalil ota ko‘zini yumib oladi. O‘rtada boshqa gap bo‘lmagandek. Shokir chiqib ketadi, chol xayol surib, ijirg‘anib yotadi.

SHUKUR XOLMIRZAYEV

18-mashq. Quyidagi ma’nodosh so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Begona, yot, birov; Belgi, nishon, alomat; Nomusli, iboli, hayoli; Nur, ziyo; Obro‘, e’tibor, nufuz; Ozod, erkin, hur, sarbast.

21-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning o‘zaro munosabati va ma’nolariga e’tibor qiling.

Oq-qora, yaxshi-yomon, katta-kichik, baland-past,uzun-qisqa.

Eslab qoling. Zid ma’noli so‘zlar – (antonimlar yunoncha *anti* – “zid”, *onoma* yoki *onyma* “nom”) qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlardir. Antonimik juftlikdagi so‘zlar faqat bir xil so‘z turkumlariga oid bo‘ladi: *yer-osmon* (ot), *uzun-qisqa* (sifat), *ko‘p – oz* (ravish), *keldi – ketdi* (fe’l).

39-mashq. Matnni o‘qing va matn mazmunini izohlang. Zid ma’noli so‘zlarni toping va daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring.

"TOSHBAQA BILAN CHAYON"

Toshbaqa bilan chayon do'st edilar. Bir kun ular safarga otlandilar. No yo'lda bir anhorga duch keldilar. Chayon o'ta olmasligini sezib, hayron bo to'xtadi. Toshbaqa dedi: — Ey aziz do'stim, senga nima bo'ldi, g'amgin bo turibsan? Chayon dedi: — Birodar, men bu suvdan qanday o'taman, — hayronman. Toshbaqa dedi: — G'am yema, orqamga mindirib, seni suv bexatar o'tkazib qo'yaman. Toshbaqa chayonni orqasiga mindirib, suvga tus Suzib borayotganida uning qulog'iga bir narsaning tiqirlagani eshitildi chayonning harakatidan shubhalanib so'radi: — Eshitayotganim qanday ovoz nima qilyapsan? Chayon javob berdi: — Nishimni sening qalqoningga sanc ko'rayapman. Toshbaqa dedi: — Men o'zimni girdobga tashlab, seni suv bexatar o'tkazmoqchi bo'lsam-u, sen orqamga nish ursang. Bilasanki, nayz mening qalqonimga zarar yetkazolmaydi. Chayon dedi: — Mening odatim do'st orqasiga, xoh dushman siynasiga bo'lsin, nish urishdan iborat. Donishmandlar yomonga yaxshilik qilma, deb bekorga aytmaganlar. Shunday d toshbaqa suvga sho'ng'idi, chayon esa suvga tushib, halok bo'ldi.

Gulha

40-mashq. Quyidagi she'rni o'qing va daftaringizga husnixat bil ko'chiring. Zid ma'noli so'zlarni topib tagiga chizing.

Egri shoxni bog'bon ham
Kesib tashlar ko'rgan dam.
Shu sabab to'g'ri o'zar
Egri esa ozar, to'zar.

Quddus Muhammad

22-topshiriq. Matnni o'qing va siz ham qo'l, bosh kabi tana a'zolarini harakati orqali turli xalqlarning salomlashish madaniyatini ko'rsatib bering.

QAYERDA QANDAY SALOMLASHILADI?

- Misrliklarning qadimgi salomlashish usullari bugungi harbiylarni salomlashishiga o'xshab ketadi. Ular kaftlarini peshonalariga qo'yishgan.
- Sermulozamat fransiyaliklar do'stlari bilan har uchrashganida qo'l be ko'rishadi yoki o'pishib qo'yadi va xuddi shu tarzda xayrlasha
- AQShda esa oddiygina tarzda qo'l berib ko'rishiladi.
- Xitoyliklar ilgari zamonlarda bir-birlari bilan ko'rishish belgisi sifatida o qo'llarini siqib qo'yishgan. Bizning davrimizga kelib esa, bu usuld tinglovchilarni qarshi olayotgan ma'ruzachilar foydalanadi.
- Yaponiyaliklar biror kishi bilan salomlashganda ta'zim qiladi. Bu ju nazokatli va madaniyatli ko'rinadi.
- Kanadaliklar «burun berib» ko'rishadilar, ya'ni ular uchun bir-bir uchratganda burunlarini tegizib qo'yish odatga aylangan. Bunday salomlashi usuli shotlandiyaliklarga ham begona emas.

[illegible] qo'li bilan o'zining yuzini silab salomlashish odati esa, [illegible] xos.

[illegible] do'stlarini uchratganda, «salom» deb qo'ya qoladi. Bunday [illegible] katta yoshli kishilarda ham mavjud.

[illegible] salomlashish usuli biroz g'alatiroq: ular salomlashishni bir- [illegible] chiqarib ko'rsatish orqali ifodalashadi.

[illegible] esa so'rashayotgan kishilarning boshi va yelkasiga yengil [illegible] urib qo'yadilar.

[illegible] ayrim xalqlar bir qo'lida oshqovoq uzatadilar. Ikkinchi qo'li [illegible] ushlaydilar. Bu chuqur ehtirom belgisi hisoblanadi.

[illegible] ikki kaftini birlashtirib va biroz egilgan holda salomlashadi.

[illegible] SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

41-mashq. Quyidagi ma'nodosh so'zlar qatorini daftaringizga [illegible] bilan ko'chiring va yod oling. Siz ham davom ettiring.

Bemalol, baxuzur, bazur.
Berk, bekik, yopiq.
Boshqa, bo'lak, o'zga.
Buyruq, amr, farmon.
Ko'krak, bag'ir, siyna, to'sh
Munosabat, aloqa, robita.
Odam, kishi, inson, bashar.
Ovoz, tovush, un, sado, sas.
Peshona, manglay.
Yagona, yolg'iz, tanho.
Zavq, maroq, shavq.
Chora, iloj, tadbir.

42-mashq. She'rni ifodali o'qing. She'r matnida qo'llanilgan [illegible] so'zlarni topib daftaringizga ko'chiring va ma'nosini izohlang.

Yoz

"O'tin tashlab" quyoshga, o'tni baland yoqdi yoz,
Gurzailon qishdagi po'stinidan kechdi voz.

Siyraklatib yungini, tullay boshlar Tulkilar,
Ortiqcharoq patlarin cho'qib-cho'qib yuldi G'oz.

Kaklik bashang kiyindi, yechib eski libosin.
Uning chipor nimchasi tog' rangiga tushdi mos…

Xachir yotar soyada, dumi haydar chivinni,
Quyosh nurin yalamoq Mushuk uchun buncha soz?

Shod kavshanib Semizqurt, Chumakari baxtiyor,
To‘rtko‘z ko‘cha changitib tinmay chopar Itga xos.

G‘uncha iliq, gul iliq, borliq iliq, dil iliq,
Bu faslni, Bulbulvoy, qancha sevsang, shuncha oz.

ANVAR OBID

43-mashq. Quyidagi so‘zlarning zid ma’nolarini toping daftaringizga ko‘chiring.

Aqlli-…, arzon-…, aziz-…, band-…, badbo‘y-…, ayyor-…, sabrli dangasa-…, donishmand-…, dono-…, bekik-…, e’zozladi-…, sekin-…, him …, gunoh-…, erkin-…, obod-…, mushkul-…, botir-…, mehr-…, ongli-…, o …, oddiy-…, qarg‘ish-…, qisqa-…, qo‘pol-…, salbiy-…, rohat-…, tanqid tirik-…, tashqi-…, sekin-…, sovuq-…, tor-….

44-mashq. Quyidagi zid ma’noli so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Tiniq-loyqa, semiz-ozg‘in, sokin-shovqin, dastlabki-so‘nggi, vafo bevafo, tejamkor-isrofgar, xato-to‘g‘ri, yalqov-ishchan, yashirin-oshkora.

45-mashq. “Salomlashish - insoniy fazilat” matnidagi 3-xatboshini o‘z tilingizga tarjima qiling.

7-DARS

MATN: **ULUG‘ AJDODLARIMIZ**

TO‘MARIS

Eng qadimgi zamonlarda Araks (Amudaryo) yoqalarida boshqa qabila qatori massagetlar ham yashar edi. Ularga marhum podshoning bevasi - mal To‘maris boshchilik qilar edi. Tabiati go‘zal bu yurtga va uning xalqiga eg qilmoqchi bo‘lgan Eron shohi Kir (Kayxusrav) malika To‘marisga uylanmoq bo‘ladi. To‘maris uning asl maqsadini fahmlab, taklifni rad etadi. Kir massagetlar yurtiga qo‘shin tortib keladi. Malika To‘maris uni mudhish niyati qaytarishga urinadi. Kirning o‘z fikridan qaytmasligini bilgan To‘maris uning qo‘shinlari bilan daryodan massagetlar yurtiga o‘tishiga imkon beradi.

To‘maris o‘z yurtdoshlari bilan daryodan uch kunlik yo‘lga borib tur Kirning qo‘shini massagetlar yurtiga o‘tib olgach, urush tadbirlarini ko‘radi. hiyla ishlatib, To‘marisning o‘g‘li Sparganisni yigitlari bilan asir qilib oladi. Hi bilan asir tushganligini fahmlagan Sparganis uyatdan o‘limni afzal ko‘rib, o‘z o‘ldiradi. Bu voqeadan xabar topgan To‘maris Kirning qo‘shini bilan urush chiqadi.

Malika To‘maris bosqinchi Kirga qarshi jangga borar ekan: “Sening qonga [illegible] qondiraman”, deb ont ichadi. Malika To‘maris qo‘shini bilan Kir [illegible] o‘rtasida dahshatli to‘qnashuv bo‘ladi. Jangda o‘z yurti, o‘z ozodligi uchun [illegible] ham qaytmaydigan massagetlar g‘olib chiqadi. Eron shohi Kir o‘ldiriladi. [illegible] yigitlari qurol-aslahalarini tashlab qochadilar. O‘z qasamiga sodiq malika [illegible] ayovsiz jangda o‘ldirilgan bosqinchi Kirning boshini kestirib, qon bilan [illegible] meshga soldiradi. O‘z yurtini, xalqini sevgan, uning ozodligi uchun [illegible] kabi janglarda qatnashgan malika To‘marisdek mard xotin-qizlar bu yurtda [illegible] o‘tishgan. Shuning uchun ham xalq ularning qahramonliklari haqida [illegible] dostonlar, rivoyatlar to‘qigan.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing va birinchi xatboshini tarjima qiling.
2. Matndan tushunilishi qiyin so‘zlarni aniqlang.
3. Matnning ikkinchi xatboshisida qo‘llangan shakldoshlik va paronimlik [illegible] ega bo‘lgan so‘zlarni aniqlang va daftaringizga ko‘chiring.
4. Matdan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib ko‘ring.
5. Matn mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering.

SHIROQ

O‘rta Osiyo xalqlari qadim-qadim zamonlardan o‘zlari tug‘ilib o‘sgan yurtni [illegible] dushmanlardan mardonavor himoya qilganlar. Bu janglarda qo‘shni qabilalar - [illegible] massagetlar, sug‘dlar, saklarning qo‘rquv nima bilmas yigitlari beqiyos [illegible] va jasorat ko‘rsatganlar. Tarixda ba’zan bir kishining butun bir qo‘shinga bas [illegible] hollari ham bo‘lgan. Bunga oddiy cho‘pon yigit Shiroqning ko‘rsatgan [illegible]monligi misoldir.

Doro qo‘shini bilan saklar o‘rtasida qaqshatqich urush borar edi. Sak [illegible]lachilaridan Shiroq o‘z podsholari Sakesfor Omarg va To‘marislar huzuriga kelib, [illegible] qo‘shinini bir o‘zi hiyla bilan halok etajagini aytadi. Buning evaziga [illegible]shalardan o‘zining oilasi, bolalari, avlodiga g‘amxo‘rlik qilish to‘g‘risidagi [illegible]dalarini oladi. Shundan so‘ng Shiroq ular oldida o‘zining quloq, burunlarini kesib, [illegible] a’zoyi badaniga ozor yetkazadi. O‘zini rosa qiynab, azoblangan holatga [illegible]tirgach, Eron qo‘shinlari joylashgan tomonga ketadi.

Hamma yog‘i qonga belangan Shiroq Eron shohi Doroga arz qilib, uni [illegible]doshlari shunday ahvolga solganliklarini aytadi. U saklardan o‘ch olish [illegible]sadida Doro qo‘shinini saklar yashiringan joyga boshlab borishga ahd qilganligini [illegible]lum qiladi. Unga ishongan Doro qo‘shini bir haftalik oziq-ovqat, suv olib yo‘lga [illegible]adi. Uzoq yo‘l yurgach Doro qo‘shinining oziq-ovqatlari, suv va otlarga beradigan [illegible]mishlari tugaydi. Atrof esa suvsiz quruq qum va hech narsa o‘smagan sahro edi. [illegible]unda Doro jangchilari jasur cho‘pon yigit Shiroqning hiylasidan voqif bo‘ladilar. [illegible]azablangan dushman jangchilari uni qatl etadi. Shunday qilib, cho‘pon Shiroqning [illegible] o‘zi vatandoshlarini saqlab qoladi va bosqinchi Eron qo‘shinining ochlik, [illegible]suvsizlikdan qirilib ketishiga sabab bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing va qisqacha gapirib bering.
2. Matndagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ling, satrdan-satrga ko‘chirilg bo‘g‘inlarni aniqlang.
3. Tarixdan yoki badiiy asarlardan qahramon cho‘pon Shiroq o‘qiganlaringizni matn bilan qiyoslang. Matn mazmunini og‘zaki hikoya qiling
4. Cho‘pon Shiroq ko‘rsatgan qahramonlikka o‘z munosabatingizni bildiring

SPITAMEN

Spitamen O‘rta Osiyo xalqlari tarixida Aleksandr Makedonskiyga ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘oloni rahbari sifatida nom qoldirgan. Qo‘rqmas xalq boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar makedoniyaliklarni ko‘plab marta jangla etganlar. Grek va Rim tarixchilari asarlarida Spitamenning qaysi shahar qishloqdan ekanligi aniq yozilmagan. Ammo u asosan Politamet (Zarafshon bo‘ylarida, Maroqand (Samarqand) shahri atroflarida kechgan voqealar ko‘plab tilga olinadi.

Aleksandr qo‘shinlari qancha-qancha shaharlarni, yurtlarni osongina bosib ammo Sug‘diyonani egallash ularga oson bo‘lmaydi. Ular bu yerda xalqning qarshiligiga uchrab, ko‘pdan-ko‘p talofat ko‘radilar. Spitamen boshchilik jangchilar hech kutilmagan paytda va joylarda paydo bo‘lishar, shiddatli qaqshatqich zarba berishar va yana tutqich bermay, qutulib ketishar edi. U jasur, farosatli, tadbirkor, ayni choqda juda hushyor va ziyrak edi. Uning qo‘l O‘rta Osiyoning mahalliy aholisi bo‘lgan massagetlar, skiflar, saklar, sug‘diylar birikib harakat qilar edilar. Ular Spitamenni o‘zlarining haqiqiy xalosatkor bilardilar. Spitamen boylikka qiziqmas, qo‘lga tushgan o‘ljalarni jangchilarga berar edi. U nafaqat dushmanlarni, balki sotqinlik qilgan yurtdoshlarini ham edi. Spitamen Aleksandrga O‘rta Osiyo qabilalarining nimalarga qodirligini ko‘rsatdi. Vatanini, xalqini sevishni, o‘z qishlog‘ini, shahrini, yurtini ardoqlashni osiyoliklardan o‘rganish kerakligini isbotladi.

Spitamenning o‘limi haqida ham turli xil rivoyatlar mavjud. Ba’zi rivoyatlarda o‘z xotini tomonidan o‘ldirilgan deyilsa, ayrimlarida sotqin qabiladoshlari tomonidan vahshiylarcha qatl etilgan deyiladi. Sharqning jasur, yengilmas, vatanparvar o‘g‘loni Spitamenning nomi, uning dushmanga qarshi ko‘rsatgan qahramonliklari necha asrlardan beri tildan-tilga, avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. U haqida qahramonliklari haqida shoir va yozuvchilarimiz tomonidan ko‘plab badiiy asarlar yaratilgan. Shaharlarimizdagi go‘zal xiyobonlar, ko‘rkam ko‘chalar uning nomi bilan ataladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing va matn mazmunini qisqacha gapirib bering
2. Spitamenning fazilatlarini aytib bering.
3. Matndagi undoshlarni talaffuzi va imlosiga ko‘ra tahlil qiling.

o‘zbek tilida va o‘quv tilingizda hikoya qiling.
o‘larni daftaringizga yozing va ma’nosini izohlang.
haqiqiy vatanparvar inson qanday qahramonlik ko‘rsatishi

Mustaqil o‘qish uchun

ABU NASR FOROBIY

873-yili Sirdaryo bo‘yidagi Forob shahriga yaqin xizmatchi oilasida tug‘ildi. U boshlang‘ich ta’limni olib, boshqa shaharlarda mashhur olimlardan tahsil ko‘rgan. U ilk bora dahda falsafiy ilmlarni, ayniqsa yunon olimlarining boshqa fanlarni chuqur egalladi. Forobiy ko‘p yillar bilan shug‘ullanadi va 950-yili shu yerda vafot etadi.

tibbiyot, astronomiya, kimyo, mantiq, musiqashunoslik, doir 160 dan ortiq ilmiy meros qoldirgan. Ammo bizgacha yetib kelgan. Forobiy asarlarida ijtimoiy shakllanishi, rivojlanishi, davlatni boshqarish usullari, psixologiya, tabiatshunoslik hamda falsafaga doir bo‘lgan. Forobiy tarixda Aristoteldan so‘ng “ikkinchi olingan olimdir. Uning asarlari XII asrdan boshlab qadimgi yunoncha, lotincha, ingliz, fransuz, nemis, fors, turk, rus, urdu, o‘zbek, tillariga tarjima qilingan.

Yevropa mamlakatlarida mashhur arab mutafakkiri sifatida e’zozlansa, Sharq olimi sifatida yuksak qadrlanib kelingan. Forobiy til masalasini falsafa bilan qo‘shib olib olishdan hech charchamagan. Ma’lumotlarga ko‘ra, u ona tilida erkin so‘zlashgan. Bir asarni tushunib yetmagunicha o‘qimagan. Forobiy Aristotelning barcha falsafiy, tibbiy, Ptolomeyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodisiyskiyga oid, Evkledning geometriyaga, Galenning Gippokratning asarlariga ilmiy talqinlar yaratgan. XII-XIII Bayhaqiy: “Abu Nasr o‘z ta’limoti evaziga “ikkinchi Islomda unga teng keladigan odam dunyoga kelgan

Forobiyning ona yurti - O‘rta Osiyoda uning 1100 yillik tantanali ravishda nishonlandi. Uning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan o‘nlab kitoblar, ko‘plab ilmiy ishlar, kitoblar nashr etildi. Hozirgi kunda mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida Forobiy nomi bilan ataladigan ilmiy markazlar faoliyat ko‘rsatmoqda. (*Ахмаджон Хошимий. “Кўҳна Шарқ даргалари”. Бадиий Шарқ, 2004. 25-б.)*

ABU RAYHON BERUNIY

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973-yili Xorazmning Kat shahrida tug‘ilgan. Ayrim manbalarda Beruniyni Kat shahrining tashqarisida

tug‘ilgan, shu sababli uni “Beruniy”, ya’ni “tashqarilik” degan taxallus bi atashgan deyishadi. Beruniy yashagan davr Xorazm va butun O‘rta Osiyo arablar hukmronligidan ozod bo‘lgan paytiga to‘g‘ri keladi. U dastlabki chuqur keng qamrovli ma’lumotni Xorazmning yirik madaniyat hamda savdo mar Urganch shahrida oladi. Beruniy arab, sug‘diy, fors va qadimgi yahudiy tilla yaxshi bilgan. U buxorolik buyuk olim Abu Ali ibn Sino bilan yaqin do‘st bo ilmiy aloqada bo‘lgan. Beruniy 18 yoshidan boshlab Xorazm rasadxonasida ilk kuzatishlar olib borgan. 19 yoshida esa “Ajdodlarimiz xotirasi” nomli birin asarini yozgan. Shohlarning o‘zaro urushlari iste’dodli olimning bir joyda yash ilmiy ishlar bilan shug‘ullanishiga to‘sqinlik qilgan. U o‘z yurtidan uzoqlarg Bag‘dodda, Hindiston va boshqa mamlakatlarda yashab, dunyo ilm ahlini hayra qoldirgan ilmiy asarlarini yaratgan.

Beruniy barcha ko‘rgan narsalari va kuzatgan hodisalari, olib borgan ilm ishlari asosida 150 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Ularda matema astronomiya, fizika, geografiya, kartografiya, umumiy geologiya, mineralog botanika, farmakologiya, tibbiyot, iqlimshunoslik, etnografiya, tarix, falsa filologiya kabi ko‘plab fanlarga oid qimmatli ilmiy xulosalar yoritilgan. Ber birinchi bo‘lib Yerning Quyosh atrofida aylanishini aytgan. Yer aylanasin uzunligini aniqlab bergan. Uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” no asarida ko‘pgina xalqlarning islom dinigacha bo‘lgan tarixi, madaniy kalendarlari haqida ajoyib ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, uning “Hindiston” a Hindistonning ilk o‘rta asrlar tarixiga doir muhim manba hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy 1048-yili 75 yoshda vafot etdi. Beruniy o‘zin o‘lmas asarlari bilan jahonning eng buyuk olimlari safidan o‘rin oldi. U shar birinchi bo‘lib Yerning yumaloq shaklida ekanligini aniqladi, eni 5 metr keladi globus yasadi, dunyo xaritasini chizdi. Oy va Quyoshning tutulishi sabablar izohladi, dunyoning qayerida qanday boyliklar borligini aytib berdi. Uning asar dunyoning ko‘pgina tillariga tarjima qilingan hamda ko‘plab nusxalarda na etilgan. Buyuk olimning tug‘ilganiga ming yil to‘lishi butun jahon fani madaniyati tarixidagi katta voqea sifatida keng nishonlandi. Bobokalonimizn nomi abadiylashtirilgan. Respublikamizdagi bir qator o‘quv yurtlari, maydon xiyobonlar, ko‘chalar uning nomi bilan atalgan. *(“Ўзбекистон - буюк аллома юрти”. Биринчи китоб. Тошкент, “Маънавият”, “Моваройннахр”, 20 127-б.)*

ABU ALI IBN SINO

Abu Ali ibn Sino 980-yili Buxoro shahri yaqinidagi Afshona (hozi Peshku tumani) qishlog‘ida tug‘ildi. Uning bolalik va o‘smirlik yillari Buxo shahrida o‘tdi. U yoshligidanoq o‘z davrining buyuk olimlari asarlarini o‘ o‘rgangan. 16 yoshida ilm-fanning ko‘pgina sohalarini egallab iste’dodli tab sifatida taniladi. Og‘ir dardga chalingan Buxoro shohi Mansurni davolab, buni evaziga shohning boy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yo tabib bu yerda o‘z bilimini yana-da boyitadi.

Ibn Sino Buxoroda uzoq yashamadi. Zamonning notinchligi tufayli

Hamadon, Ray, Isfahon kabi shaharlarda yashashga majbur Ibn Sino zamonasining buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy bilan va ular orasida do‘stlik hamda ilmiy aloqa bog‘lanadi. Abu Ali ibn Sino tib, matematik, faylasuf va shoir sifatida dunyoga mashhur olimdir. U davomida 280 dan ortiq qimmatbaho asarlar yozib qoldirgan. Uning asarlari yo‘nalishlar ilmi, matematika, kimyo, geografiya, musiqa, falsafa, mantiq, va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan. Ibn Sinoni mashhur qilgan asari “Tib qonunlari”dir. Ibn Sinoning 5 qismdan iborat “Tib qonunlari” ko‘p asrlar davomida Yevropa va qator Sharq mamlakatlarida tibbiyotdan bo‘lib keldi. Bu asar juda ko‘p tillarga tarjima qilinib, ming-minglab nashr etilgan. Faqatgina lotin tilida 30 martacha nashr etilganligi

butun kuch-g‘ayratini ilmga bag‘ishlagan, xalq xizmati yo‘lida o‘z sog‘ligini buyuk mutafakkir olim 1037-yil 18-iyun kuni olamdan o‘tdi. 1980-yil qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning 1000 yillik qutlug‘ sanasini nishonladi. Uning asarlari qayta-qayta nashr etilib, xalqqa yetkazilmoqda. nomi jahonning barcha mamlakatlarida hurmat va ehtirom bilan tilanadi. Uning hayoti va ijodi tasvirlangan ko‘plab badiiy asarlar, filmlar *(Нуриддин Исаев. Абу Али ибн Сино. Тошкент. “Tafakkur”. 2011.*

Savol va topshiriqlar:

1. Matndan parcha tarjima qiling.
2. Matnda qo‘llangan shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli so‘zlarni ajrating.
3. Matn mazmunini rus tilida so‘zlab bering.
4. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing.
5. Matn mazmunidan kelib chiqib “Buyuk tarixiy shaxslar” mavzusida matn tuzing.

LEKSIKOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Tilning leksik qatlamlari

Eslab qoling. Eskirgan so‘zlar – kundalik hayotda ishlatilmaydigan bo‘lib qolgan so‘zlardir. Jamiyat to‘xtovsiz rivojlanib boradi. Yillar o‘tishi bilan texnika qurollari, kiyim-kechak, uy jihozlarining yangi nusxalari paydo bo‘ladi, ularning ba’zilari ishlatilmaydigan bo‘lib qoladi, natijada ularni ifodalovchi so‘zlar ham bora-bora juda kam qo‘llanadi yoki iste’moldan chiqib ketadi. Eskirgan so‘zlar ikkita guruhga ajratiladi:

1. Tarixiy so‘zlar (yoki istorizmlar).
2. Arxaik so‘zlar (yoki arxaizmlar).

Tarixiy so‘zlar – hozirda mavjud bo‘lmagan narsa-hodisalarning iste’moldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir. Bunda so‘z o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: *mingboshi, ellikboshi, kanizak, omoch, ulkoh, xalfa, mo‘ndi...*

Arxaik so‘zlar - hozirda mavjud bo‘lgan narsa-hodisalarning eskirib qo atamalaridir. Bunda so‘z eskiradi, lekin tushuncha eskirmaydi, u boshqa so‘z ifodalanadigan bo‘lib qoladi. Bunday so‘zlar iste’moldan chiqish arafasida tu hozirgi tilda sinonimi bo‘lgan so‘zlardir. Masalan: bitik (kitob), ulus, budun (x o‘miz (ko‘krak) kabi.

46-mashq. Pirimqul Qodirov qalamiga mansub “Humoyun va Ak tarixiy romanidan keltirilgan quyidagi dialogni o‘qing va eskirgan so‘z daftaringizga ko‘chiring.

Me’mor Akbar chizgan xomaki suratga ko‘z tashlar ekan:

- Tasanno, amirzodam! – dedi. – Faqat ijozat bo‘lsa bitta mulohaza aytsam…

- Marhamat, mavlono.

- Bu rasmda siz maqbara devorini to‘g‘ri yer yuzasidan ko‘tarib Samarqand-u Hirotda shunday qilish mumkin. Chunki u yoqlarda yer osti suvi uncha yaqin emas. Amir Temur dahmasi ham yer ostiga qurilgan. Ammo Dehl yomg‘irlar ko‘p bo‘lg‘ay, yer osti suvlari yuqori ko‘tarilib, dahmaga kirm uchun, uni balandroq joyga o‘rnatmoq darkor. O‘shanda maqbara sahni yer besh-olti gaz baland turgay.

- Demak, maqbara bundan ham yuksakroq ko‘tarilgay, shundoqmi? so‘radi begim.

- Ayni shunday.

- Qancha baland bo‘lsa shuncha yaxshi, - dedi Akbar. – Dehlining eng ul obidasi shu bo‘lmog‘i kerak.

47-mashq. Quyidagi berilgan so‘zlarning tilning qaysi leksik qatlam mansubligini aniqlang.

foytun, yasovul, taxt, kanizak, dinor (tilla pul), chaqirim (1 km), tosh chaqirim – 8 km), gaz (71 sm), botmon (176, 128 kg), misqol (4,25 g.), miri tiyin).

48-mashq. Ibn Sino qalamiga mansub quyidagi she’rni ifodali o‘qing ma’nosini izohlang. She’rda qo‘llanilgan arxaik so‘zlarni daftaringizga ko‘chiri

Otalik xizmati nimadir bilsang:
Bor-yo‘g‘in farzandga bermak beminnat.
Lek otadan o‘pka qilmasun farzand,
Zamona keltirsa boshiga kulfat.
Qaro yer qa’ridan to avji Zuhal -
Koinot mushkulin barin qildim hal,
Ko‘p mushkul tugunni angladim, yechdim,
Yechilmay qolgani birgina ajal.
Olamning sayriga qo‘ydimki qadam,
Qarshimda namoyon bo‘ldi har ne bor.
Hayratimda qo‘lim tutgan soqoldan
Boshqa biror narsa bo‘lmadi oshkor.

May mastga dushman-u hushyorga yordir.
Ozi taryok, ko‘pi bir zahri mordir,
Ko‘p bo‘lsa zarari oz emas uning,
Oz bo‘lsa undan ko‘p manfaat bordir.

49-mashq. Quyida “Mehrobdan chayon” romanidan olingan parchada izohini topib daftaringizga ko‘chiring.

Devonda rasmiy mirzo bo‘lishning uchinchi yilida Anvar juda katta e’tibor Buni mirzolardan boshlab saroy shoirlari, saroy muftilari, bosh Muhammad Rajabbek, hatto xonning o‘zi ham e’tirof qilar edilar.

Eslab qoling. Shevaga xos so‘zlar - ma’lum hududdagina ishlatilib, shu yerda yashovchi kishilarga tushunarli bo‘lgan so‘zlardir. Masalan, Surxonda *momo* (buvi), *gashir* (sabzi), *moyak* (tuxum), *o‘jak* (buzoq), *xo‘ppi*), *secha* (chumchuq), taka (yostiq), hovva (ha); farg‘onacha shatta valish (ishkom) paqir (chelak); buxorocha kallapo‘sh (do‘ppi), inak nana (ona), toshkentcha ada (ota), doda (bobo).

50-mashq. Tilning leksik qatlamlariga oid bo‘lgan quyidagi matnni ko‘ring va daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring. Matn mazmuniga mos ravishda o‘zingiz misol keltiring.

Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar - fan, texnika va san’atning rivojlanishi bilan yangi paydo bo‘lgan tushunchalarning nomlarini ifodalovchi so‘zlardir: *limonzor, fermer, teleminora, kompyuter, disket, sayt, fayl, chip, shou,*

Jargon so‘zlar (fransuzcha jargon – “buzilgan til” degani) - qiziqishlari, kasb-ulotlari umumiy bo‘lgan odamlar (saroy aristokratiyasi, savdogarlar, talabalar, o‘quvchilar) tomonidan ishlatiladigan so‘zlardir: *oftobi olam* (boshoh), *tish* (guruch), *ellik olti* (ipak), *qaychi* (revizor) kabi.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

51-mashq. Quyida berilgan matnni o‘qing. Leksik (atash) ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlarni ajrating.

Bir lofchi ikkinchi lofchining uyiga kelib dedi:

– Sizga bir gilamni sovg‘a qilib keltirdim, uning bir uchi bu yerda bo‘lsa, ikkinchi uchi Samarqandda turibdi.

Ikkinchi lofchi unga darhol javob berdi:

– Rahmat, yaxshi qilibsan, mehmonxonadagi gilamning ozgina yeriga o‘t yoqib kuygan edi, sen sovg‘a qilgan gilamni o‘shanga yamoq qilaman.

52-mashq. Nuqtalar o‘rniga o‘ yoki u tovushini qo‘yib, m… ko‘chiring. Arxaik so‘zlarni aniqlang. Qator kelgan unlilar qatnashgan so‘zla… tagiga chizing.

Ibn Sinoning ilk tahsil olgan ustozi

Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki …stozi Ab… Abd…lloh N… b…lgan. U Notiliy q…lida mantiq, handasa (geometriya) va falakiyotni ...r… va ba’zi falsafiy masalalarda ...stozidan ham ...zib ketadi. …stozi uning il… y…qori baho berib, yana-da ch…qurroq ilm olishni tayinlaydi.

Ab… Ali tinmay mutolaa qilib, turli ilm sohalarini …zlashtirishga kirish… U m…siqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni …qiydi, xususan, tabobatni … …rganadi va bu ilmda tez kamol topa boshlaydi. (*(Йўлдошхон Исаев. Абу … ибн Сино. Тошкент. “Tafakkur”. 2011. 5-бет.)*)

53-mashq. Quyidagi so‘zlarni tarixiy va arxaik so‘zlarga ajratib … ustunga yozing.

bilga, ulus, hoqon, yuzboshi, budun, tilmoch, bitik, mirshab, darv… qalandar, amir, qul, cho‘ri, kanizak, o‘lpon, sovut, paranji, mirza, zindon, qozi…

54-mashq. Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozi…

Ma’nodosh so‘zlar (Sinonimlar)	Paronim so‘zlar	Qiyin so‘…
Ko‘krak, ko‘ks, bag‘ir, siyna, to‘sh	Davo-da’vo (shifo-talap)	Armug‘on-…
Lavozim, mansab, amal, o‘rin.	Ganj-ganch (boylik-ganchkorlik)	Baqamti-yu… yuz
Maslahat, kengash, mashvarat.	Jayron-jiyron (ohu-otning turi)	Bot-tez
Maqsad, niyat, muddao.	Jodi-jodu (asbob-sehr)	Bexirad-bc…
Mujimoq, kemirmoq, g‘ajimoq.	Kechinma-kechirma (ichki tuyg‘u-boshidan kechirganlari)	Dushvor-qiy…
		Dom-tuzoq

8-DARS

MATN: **MUZEYLAR – O‘TMISH VA KELAJAK ORASIDA… KO‘PRIK**

Muzeylar tarixiy yodgorliklarni asrovchi, saqlovchi, o‘rganuvchi va xal… namoyish qiluvchi muassasadir. Muzeylar kishilarning o‘zlari uchun qadrli yodgorlik bo‘lib qoladigan buyumlarni to‘plab, ularni kelgusi avlodlarga qoldir… ehtiyoji natijasida paydo bo‘ldi. Muzeylarning turlari juda ko‘p. Tarixga, adabiy… va san’atga, texnikaga, tibbiyotga, hayvonot olamiga, harbiy qurol-yar… kabilarga oid muzeylar mavjuddir. Muzeylar dastlab ibodatxonalarda tash…

Yevropada ko‘plab muzeylarning tashkil etilishi XIV–XVII asrlarga to‘g‘ri … xususiylardan joy olgan eksponatlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

…ya, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya … jahonning mashhur muzeylari joylashgan mamlakatlar hisoblanadi. …ning Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj, Parijdagi Luvr, Londondagi … muzeyi, Italiyadagi Uffitsi kabi dunyoga dong‘i ketgan muzeylarning … tarkibida tarixiy buyumlarning nodir nusxalari saqlanadi. Masalan, … qurilgan va dastlab qirol saroyi vazifasini o‘tagan, hozirda esa … eng katta muzeyi hisoblanmish Parijdagi «Luvr» muzeyida qadimgi … va qadimgi Rimda yaratilgan noyob san’at durdonalarining asl … saqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ko‘plab muzeylar mavjud. Bu …dagi eksponatlar jahonning mashhur muzeylari eksponatlaridan …ydi. Hozirgi kunda respublikamizda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, … tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston san’at muzeyi, O‘zbekiston xalqlari … va san’ati tarixi muzeyi, O‘zbekiston sog‘liqni saqlash muzeyi kabi … faoliyat ko‘rsatmoqda. Birgina O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining … 150 mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar mavjud. Ular xalqimizga va chet … O‘zbekistonning o‘tmish tarixini ko‘z-ko‘z qilib turadi. Temuriylar tarixi … muzeyi 1996-yilda bunyod etilgan. Balandligi 31 metr bo‘lgan muzey binosi … qavatlidir. Muzey ko‘rgazma zalining markazida devorga ajoyib tasviriy san’at … ishlangan. Unga «Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor» deb nom berilgan. … «Tug‘ilish», «Yuksalish» va «Faxrlanish» nomlari bilan ataluvchi 3 qismdan … «Tug‘ilish» qismida Sohibqironning (buyuk bobomiz Amir Temurning) … ishi bilan bog‘liq urf-odatlar tasvirlangan. «Yuksalish» qismida buyuk … hayotida doimo amal qilgan «Rosti-rusti», ya’ni «Tog‘rilik najotdir» … shiori oltin harflar bilan yozib qo‘yilgan. Shuningdek, bu qismda …ronning vazirlar, harbiy sarkardalar va olimlar bilan o‘tkazayotgan … aks ettirilgan. «Faxrlanish» qismida esa Amir Temur va temuriylar davri … avloddan avlodga o‘tib kelayotganligi g‘oyasi tasvirlangan. Jahon …daridagi muzeylar xalqaro tashkilotga birlashgan. U xalqaro YUNESKO …idagi «Muzeylar xalqaro kengashi» deb ataladi.

Eksponat – muzeylarda ko‘rgazmaga qo‘yilgan buyumlar, rasmlar, hujjatlar, …dar. Kolleksiya – muzeylarda saqlanayotgan buyumlarning tartibga solingan …lami.

Savol va topshiriqlar:

1. Muzeylar qanday vazifalarni o‘tashi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Dastlabki muzeylar qayerda tashkil etilgan?
3. Jahondagi mashhur muzeylar haqida gapirib bering.
4. O‘zbekiston muzeylari haqida nimalarni bilasiz.
5. O‘zingiz yashayotgan hududdagi muzeylar haqida matn tuzing.

23-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

muzey –	yodgorlik -	buyum -
avlod -	adabiyot -	san’at –
hayvonot -	ibodatxona -	nodir –
saqlanmoq -	tarkibi -	devor –
bunyodkor -	tasvirla -	qirol -

FRAZEOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

IBORALAR

24-topshiriq. Quyidagi birikmalarni bitta so‘zga tenglab ko‘ring.

Bir yoqadan bosh chiqarmoq – hamjihat, yoqasini ushlamoq - …, ig… narsani tuyadek qilmoq - …, tirnoq ostidan kir qidirmoq - …, quloq-miy… yemoq - …, qoni qaynamoq - …, ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq - …, ko… bog‘lamoq - …, oyog‘ini qo‘liga olib kelmoq - …, o‘tkazgani joy topolmaslik …

Eslab qoling. Iboralar - ma’nosi odatda bitta so‘zga teng keladig… ko‘chma ma’noda qo‘llaniladigan gap yoki so‘z birikmalaridir. Mas… *qovog‘idan qor yog‘adi – xafa, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan – yuvosh, ham… qil sug‘urganday – oson.* Iboralar, asosan, so‘zlashuv va badiiy uslubda … ishlatiladi, rasmiy va ilmiy uslublarda qo‘llanilmaydi.

Frazeologiya *fraza* va *logos* so‘zlaridan olingan bo‘lib, fraza –*«ibora»*, lo… –*«bilim»* ma'nosini bildiradi. Ko‘rinadiki, frazeologiya iboralar haqidagi bilim…

55-mashq. Berilgan iboralarning antonimlarini topib daftaring… ko‘chiring.

Gapida turmoq, yerga urmoq, ko‘ngli bo‘sh, tili uzun, yuzi shu… do‘ppisini osmonga otmoq, ko‘kka ko‘tarmoq, ichi qora, so‘xtasi sovuq, duny… kelmoq, qildan qiyiq qidirmoq.

25-topshiriq. Quyidagi nutqda qo‘llanuvchi iboralarning shakldoshli… kuzating va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Gap tegdi – gapirishga imkon berildi, gap tegdi – tanbeh eshitdi; joni ch… – o‘ldi, joni chiqdi – qattiq g‘azablandi; boshga ko‘tarmoq – qattiq shov… solmoq, boshga ko‘tarmoq – hurmat qilmoq, e’zozlamoq.

56-mashq. Said Ahmadning “Qoplon” hikoyasidan olingan quyid… parchadan iboralarni toping va daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring.

Tillayev bilan Qurbonboy orasida yaqinlik paydo bo‘ldi. Bir kuni … orasida u ro‘zg‘ordan orttirib, uchastkasining tomini yopolmayotganini aytib qol… — Ayb o‘zimda, yoshligimdan shunaqaman, o‘zimga qaramayman, osh…

…ishi bitsin, deyman. Ha, odam bolasidan shu qolar ekan. Bo‘lmasa, …da ham, raypoda ham oshnam bor, yuztagina shifer so‘rasam, yo‘q …ramayman. Aslo so‘ramayman. — Nechta shifer yetmayapti? — dedi …

Yo‘q, so‘jayin, so‘ramang, skladga yuz ellikta shifer yozib bersangiz …Siz bilan shu maqsadda oshna bo‘lmaganman. Bunaqa gapni …ingizga ikkinchi qadam bosmay ketaman. Shu-shu bo‘ldi-yu, …unga ishosi oshib ketdi. Shundoq yaxshi odam garajda mashina yuvib …deb uni garaj mudiriga muovin qilib qo‘ydi. Uyiga bir yuz saksonta …tilla tanuka tushirib berdi. Ammo Qurbonboy har tushlikda kelib, …o‘ynatib kelishini tark qilmadi. Bu orada Tillayevning eski bod kasali …qoldi. Avvaliga Qurbonboy kelib, uning holidan xabar olib turdi. …endi bo‘lmaydi, pensiyaga chiqing, deb maslahat berishgandan keyin …ministrlikka ariza yozib, ishdan bo‘shatishlarini so‘radi. Ministrlik uning …qanoatlantirib, o‘rniga boshqa direktor tayinladi. Qurbonboy o‘sha kuni kelib, …xotinini aylantirgani olib chiqib ketdi-yu, qaytib kelmadi. Tillayev Qoplonga …o‘rganib qolgan ekan, to yarim kechagacha ikki ko‘zi ko‘chada bo‘lib, itni …kutdi. Yo‘q, Qoplon bedarak ketdi. Qurbonboy ham qorasini ko‘rsatmay qo‘ydi. …anchagina vaqt o‘tdi. Tillayev hassaga tayanib ko‘cha aylangani chiqdi. Bir …qarasa ko‘chaning narigi betida Qurbonboy Qoplonni yetaklab yuribdi. …ko‘rdi-yu, Qurbonboy qaramadi. O‘sha kuni yangi direktor o‘g‘lining …kuniga o‘tirish qilib berayotgan ekan. Tillayevga mashina yuboribdi. Er… …borishdi. Darvozadan kirishlari bilan yo‘lakda yotgan Qoplon ularni ko‘rib, …ikkilanib erkalandi.

…ning it qalay? — dedi yangi direktor.

Bu itni taniyman, — dedi Tillayev va nariroqda yangi direktorning charm …niftab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi.

57-mashq. Quyidagi matndan iboralarni topib daftaringizga …chiring.

Xadicha buvi yonidagi xotinlar oldida yomon o‘sal bo‘ldi – yer yorilmadi-… kirib ketmadi. Xijolatpazlikning zo‘ridan qo‘lidagi tuguni tushib …yozdi. Bir zum nima qilarini bilmay turdi, keyin peshanasi oldidagi o‘ymakor …ni qaltiray boshlagan qo‘li bilan asta itarib, yalinuvchi tovush bilan iltijo …di:

– Hay, Maston xola, eshon oyim, unday qilmang, aylanay…

– Yo‘qol dedim ko‘zimdan! Hali zamon burningdan qora qoningni …aman, juvon o‘lgur!

Bu sovuq tovush Xadicha buvining quloqlariga bolg‘adek urilibgina qolmay, …niga, qalbiga minglarcha igna ham bo‘lib sanchildi. U zir-zir titrab, qaqshab …yana yalindi:

– Aylanay Maston xola! Quloq soling gapimga axir, jon xola...

- Bor, bor! Sen qoracha qaysi yuz bilan nevaramga sovchi bo‘lib kel
Payg‘ambar suyagimni xorlab meni el oldida oyoqosti qilding-ku, betamiz. T
men bu notavonning gapiga quloq ham solarmishman? ...

"FARG'ONA TONG OTGUN

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

58-mashq. Quyidagi matnni o‘qing. Mazmuni bo‘yicha fikr yur
Matnda qo‘llanilgan iboralarni toping.

ISKANDAR HAQIDA HIKOYA

Barcha iqlimlarni egallagan Iskandar butun jahon mulkiga sulton bo‘ld
yurib olmagan biron yeri qolmadi. Hatto dengizlar-u ummonlargacha uning am
kirdi. Qullig‘ini shohlar ixtiyor qilib, qulluq qilish ularga iftixor bo‘lib qoldi. H
shoh, ham valiy, ham payg‘ambar bilimlar sohasida tengsiz olim bo‘ldi. Jam
ishini davom ettirib, jahonni ko‘rsatadigan jomlar ijod qildirdi. Yetti ko‘k hu
muyassar bo‘lib, ham yetti iqlim unga bo‘ysundi. Shunchalik davlat, sho
shavkat baxt bo‘lsa ham bu dunyoni tark etar ekan, ko‘p ojizlig-u bechor
ko‘rdi, ko‘plab ovoraliklar unga duch keldi, ketar chog‘i oldida amirlari h
xizmatchilari ham bo‘lmadi. Ularning barchalari yashil bog‘da qolib, o‘zi
tuproq ichiga kirdi. Narigi olamga jo‘nash chog‘ida ichini bu xil so‘zlar b
bo‘shatdi: "Kim bu nafas bejon holda jo‘nar ekanman, shunday vasiyat qilam
"Mening jonim uzilgach, oh bilan olamni qaro aylab qabr tomon olib b
ekansizlar, tobutim yonidan bir qo‘limni chiqarib qo‘yinglar, to bu qo‘lga kim
nazari tushsa, unga ibrat ko‘zi bilan boqsin. Bilsinkim, yetti kishvar shohi, y
falak mushkillarini hal qila olgan shoh bu makondan jismida jon yo‘q holi
bo‘sh qo‘li bilan ketyapti. Jahon mulkini havas qilgan kishiga shu tajriba, ko‘r
yetarlidir".

"Hayratul abr

59-mashq. Matnni o‘qing. U va o‘, x va h tovushlari ishtirok et
so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring va imlosini eslab qoling.

TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI

Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yil 18-oktabrda ochildi.
Toshkentdagi Amir Temur xiyobonining shimoli-g‘arbiy tomonida barpo etilgan
Muzeyning tashqi ko‘rinishiga alohida e’tibor berilgan. Salobatli mo
gumbazi, ustunlari unga ko‘rk berib turibdi. Bino uch qavatdan iborat. Birin
qavatda xazinaxonalar, kutubxona, majlislar zali, chiptaxona, garder
ma’muriyat, texnik vositalar uchun xonalar joylashgan.
Ikkinchi qavatdagi eksponatlarda qadim zamonlarga borib taqaluv
tariximiz haqida hikoya qilinadi. Devorga ishlangan tasvirda Amir Temur va un

hayotidan lavhalar berilgan. Muzey majlisxonasida uchrashuvlar, ekran
ni yorituvchi ko‘rsatuvlar namoyish etiladi.
Uchinchi qavatda Amir Temur va temuriylar tarixi bilan bog‘liq eksponatlar
qo‘yilgan. Ular me’moriy obidalar, kulolchilik, misgarlik, zargarlik
qo‘lyozmalardan iborat. Bu yerda uchta televizion ekran joylashtirilgan
temuriylar davridan ma’lumot beruvchi filmlar namoyish etiladi.

58-mashq. Quyidagi iboralarni bitta so‘zga tenglang va gaplar tuzing.

boshi osmonda –
og‘zi qulog‘ida –
qo‘lni yuvib qo‘ltiqqa urish –
hafsalasi pir bo‘lish –
kayfi uchib ketdi –

9-DARS

MATN: TOSHKENT – MAMLAKATIMIZ POYTAXTI

Toshkent shahri qadimda "Choch", "Shosh" nomlari bilan atalgan. XI asrdan
kent deb yuritila boshlagan. Toshkent geografik jihatdan qulay yerda
iqlim sharoiti ham mo‘tadil bo‘lganligi uchun dehqonchilik va
chilik rivojlangan. Qadimgi Toshkentning atrofi baland va qalin devorli
bilan o‘ralgan edi. Shaharning bo‘yi ham, eni ham 6-7 kilometr uzunlikka
bo‘lgan. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar shaharning yoshi 2000
ortiqligini tasdiqlaydi.
Shahar devoridan tashqarida eng sersuv yerlar o‘zlashtirilib, obod etilgan.
meva, sabzavot va g‘allaga zoriqmagan.
Toshkent o‘zaro urushlar, qo‘zg‘olonlar, ko‘chmanchi qabilalar hujumlari
bir necha marta vayron qilindi va qayta tiklandi. XIII asrgacha Toshkent
ichki va tashqi shahardan iborat bo‘lib, atrofi bir necha qator mudofaa devori
o‘rab olindi. Shaharda kulolchilik, o‘q-yoy, gazlama, charm mahsulotlari
chiqarish rivojlangan. XV-XVI asrlarda Toshkentda yirik tarixiy ansambllar
ko‘taradi. XVIII-XIX asrlarga kelib, shahar yana-da kengaydi va hududi 15
gektarga yetdi. Shahar to‘rt daha va yuzlab mahallalarga bo‘lingan. Shaharga
darvoza orqali kirilgan.
Toshkent 1930-yildan O‘zbekistonning poytaxti deb e’lon qilindi. Shu yillar
Toshkentning qiyofasi tubdan o‘zgardi. Tor, qing‘ir-qiyshiq ko‘chalar
keng va elektrlashtirilgan yorug‘ xiyobonlar barpo etildi, ko‘p qavatli
qurildi. Ayniqsa, 1966-yilgi zilziladan so‘ng Toshkent tanib bo‘lmas
o‘zgardi. Shahar maydoni kengaydi, uning chegarasidan 67 kilometrli
yo‘l o‘tkazildi. 1977-yili O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan Toshkent metrosi
tushdi. 1985-yili bo‘yi 375 metrli ulkan teleminora qurildi. 18 qavatli
ma’muriy bino, Matbuot uyi, "Paxtakor", "Bunyodkor" stadionlari, "O‘zbekiston",
kabi mehmonxonalar, Navoiy, Muqimiy, Hamza teatrlari, Xalqlar

do‘stligi saroyi, Rassomlar uyi, Oliy Majlis, Senat, Milliy bank binolari, A.Te… va adabiyot muzeylari Toshkentni yana-da ulug‘vor ko‘rsatadi.

Yirik ilmiy va ma’rifat markazi hisoblangan poytaxtimizda O‘zbek… Fanlar akademiyasi, o‘nlab ilmiy tekshirish institutlari, 40 ga yaqin oliy o‘… yurtlari, 20 ga yaqin muzey, 700 ga yaqin kutubxona, o‘ndan ortiq teatr, o‘… madaniyat saroylari, yuzlab kinoteatrlar mavjud.

Toshkent mamlakatimizning ulkan sanoat markazi bo‘lib, bu yerda 300… ortiq yirik zavod va fabrikalar muntazam ishlab turibdi. Toshkentda mashinaso… yengil va oziq-ovqat sanoati tez rivojlanmoqda. Poytaxtimizdagi to‘qimach… trikotaj kombinatlari, traktor, samolyotsozlik zavodlari, boshqa davlatlar b… hamkorlikda ochilayotgan qo‘shma korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsul… jahon bozorida o‘z xaridorini topmoqda.

Toshkent sharqda rivojlangan shaharlardan biri bo‘lib, bu yerda har… ijtimoiy taraqqiyot, tinchlik, ekologiya, fan va texnika, madaniyat, san’at… boshqa sohalarga bag‘ishlangan o‘nlab xalqaro anjumanlar, sport musobaq… o‘tkaziladi. Toshkent ko‘p millatli ulkan shahar bo‘lib, hozir unda 2,9 million… ortiq aholi yashaydi. Uning chiroyi kundan kunga ortib boryapti.

Savol va topshiriqlar:

1. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing.
2. Matnning birinchi xatboshisini tarjima qiling.
3. Matnda qo‘llangan sinonimlarni aniqlang.
4. Matnning mazmunini o‘zbek tilida gapirib bering.
5. Matndan ijodiy foydalangan holda “Poytaxtga sayohat” mavzu… mustaqil matn tuzing.

26-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

mo‘tadil -	qulay -	iqlim -
chorvachilik -	qo‘rg‘on -	uzunlik –
sersuv -	meva -	sabzavot –
g‘alla -	charm -	zilzila –
kutubxona -	to‘qimachilik -	hamkorlik -

FRAZEOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Erkin va turg‘un birikmalar

Eslab qoling. Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun so‘… yordamidagina emas, balki bir necha so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan h… bo‘lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Masalan, *Toshkentdagi istiqlol dav… qurilgan inshootlarni ko‘rib og‘zim ochilib qoldi. Bobom to‘g‘ri aytadilar q… bilganini pari bilmas.* Bu gaplarda (*og‘zim ochilib qoldi, qari bilganini p… bilmas)* so‘zlovchi tomonidan nutqqa tayyor holda olib kiritilgan ibora… maqollarni ko‘rsatish mumkin.

Frazemalar tarkibidagi so‘zlarning bog‘lanishi erkin birikma yoki gap …dagi so‘zlarning bog‘lanishidan farq qilmaydi: ularning barchasida so‘zlar …ma asosida bog‘lanadi, biroq: a) erkin birikmadagi yoki gapdagi bog‘lanish …frazemada, nutq bilan bir paytda sodir bo‘ladi; frazemadagi bog‘lanish esa …qtdan ancha avval yuzaga kelib, turg‘unlashib qoladi, inson xotirasida va …qtiligicha saqlanadi; b) erkin birikmadagi yoki gapdagi so‘zlarni …chi o‘z ixtiyori bilan almashtira oladi: «keng ko‘cha» birikmasi o‘rnida «tor …birikmasini, «men o‘qiyman» gapi o‘rnida «men ishlayman» gapini …mumkin, ammo «yulduzni benarvon urmoq» birikmasi o‘rnida «yulduzni …urmoq», «yulduzni shotisiz urmoq», «yulduzni beshoti urmoq» …qo‘llanmaydi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, har qanday turg‘un …frazema bo‘lavermaydi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti …turg‘un konstruksiyadir, ammo to‘g‘ri ma’noli turg‘un konstruksiya …ligidan frazema hisoblanmaydi. Frazema yaxlit holda ko‘chma ma’no …shi shart.

Turg‘un birikuv xalq tomonidan, erkin birikuv esa bir kishi tomonidan …iladi.

61-mashq. Quyidagi gaplarda ajratib ko‘rsatilgan birikmalarni erkin …turg‘un birikmalarga ajrating va faqat turg‘un birikmalar qatnashgan gaplarni …ingizga ko‘chiring.

Uzumdan *bir shingilini* yedim – *Bir shingil* hazil bo‘lsa yo‘q demas edim. …qo‘y *o‘z yog‘ida o‘zi qovruldi* – Dilnoza aybini tushinib *o‘z yog‘ida o‘zi …ldi.* O‘qituvchi mavzuni o‘quvchining *qulog‘iga quydi* – Shifokor dorini …ning *qulog‘iga quydi.* Uning ko‘zlari *yaxshi ko‘radi* – U onasini juda *yaxshi …radi.* Opasi erta tongdan isitmasi tushib *ko‘zini ochdi* – Do‘stim hamma gapni …lib *ko‘zimni ochdi.*

62-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va og‘zaki hikoya qilib bering. Matndan …a bilan ajratilgan gapni erkin birikmalarga ajrating.

TOSHKENT HAYVONOT BOG‘I

Yunusobod tumani hududi, Bog‘ishamol ko‘chasi, 232- “A” manzilda …lashgan. 1924-yil O‘rta Osiyo davlat universiteti (SAGU) olimlari tomonidan …kil etilgan. Hayvonot bog‘i tashkil etilishiga Turkiston general-gubernatori …g‘i, Sirdaryo viloyati gubernatorining Sadoviy (hozirgi O‘zbekiston ovozi) …chasi oxirida joylashgan dala bog‘i hamda knyaz Nikolay Konstantinovich …midan Romanov uyi hovlisida, «Xiva» kinoteatrida ko‘ngilxushlik uchun …langan yovvoyi va yirtqich hayvonlar, qushlar asos bo‘lgan.

1921-yilning mart oyida Turkiston general-gubernatorligi bog‘i o‘rnida …anika bog‘i tashkil etilib, tajriba va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun …rta Osiy davlat universiteti tasarrufiga berildi. ***Universitet olimlari tomonidan …anika bog‘i hududida hayvonlar ko‘rgazmasi tashkil etilib, uning negizida …shkent hayvonot bog‘i tashkil etilgan.*** Toshkent hayvonot bog‘i tashkil

etilishida universitetning zoolog olimlari N. A. Kayzer, N. N. Kuznetsova, V Trizna singari olimlarning xizmati katta bo‘lgan. 1938-yil Toshkent hayv bog‘i mustaqil muassasa sifatida to‘liq shakllanib bo‘lgach, sobiq Sirdaryo vil gubernatorining bog‘iga ko‘chirilgan.

O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan «Flora va faunaning yo‘q borayotgan turlari bilan xalqaro savdo qilish to‘g‘risida»gi xalqaro Konven (SITES) talablari ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vaz Mahkamasining 1998-yil 1-apreldagi «Biologik rang-baranglikni saqlash bo‘y milliy strategiyasi va harakatlar rejasi to‘g‘risida»gi 139-sonli qarori Tosh hayvonot bog‘ining asosiy me’yoriy hujjati hisoblanadi. Har tomonlama rivojl va shakllanib borayotgan Toshkent hayvonot bog‘i faoliyati uchun tegishli sh sharoitlar yaratish maqsadida, mustaqillik davrida zamon talablari aso Toshkentning shimoliy-sharqida, Botanika bog‘i yonida yangi Toshkent hayv bog‘i hududi bunyod etildi.

Yangi hudud tarkibida ma’muriy bino, akvarium, terrarium, maymunx to‘tixona, mayda sut emizuvchilar, insektariy pavilonlari, sut emizuvch qushlar, suvda suzib yuruvchi qushlar, tuyoqlilar va filxona volyerlari ta etildi. Yangi Toshkent hayvonot bog‘ining ochilishi marosimi 1997-yil 1-sen kuni bo‘lib o‘tdi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2008-yil 28-yanv «Toshkent hayvonot bog‘i kolleksiyasini yana-da boyitish chora-tadbi to‘g‘risida» qarori qabul qilindi. 2010-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, Tosh hayvonot bog‘ida noyob hayvonlar, qushlar, baliqlar turi 450 tani, ular umumiy soni esa 5000 tani tashkil etdi. Hayvonot bog‘ida «Qizil kitob»ga ki sut emizuvchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar, baliqlar, yovvoyi va yirt hayvonlar oilasiga mansub qator hayvonlar turi saqlanadi.

63-mashq. Quyidagi o‘zbek xalq ertagini o‘qing va mazmu so‘zlab bering. Ertak matnidan iboralarni aniqlab daftaringizga ko‘chiring.

TULKINING JAZOSI

Kunlarning birida bir gala tovuq tulkining ustidan ayiqqa arz qilib bori – Taqsir, tulkining dastidan kun ko‘rolmayapmiz. U hech kimdan tormaydi. Hatto sizning ham yuz xotiringizni qilib, bir og‘iz so‘ramay, tovuql qirgani-qirgan.

– Voy, yaramas-ey, – debdi ayiq g‘azablanib. – Men u muttahamning ta‘z beraman.

U darrov tulkini chaqirtirib kelibdi. – Men sizning biqiningiz yerga botm deb paryostiq qilish tashvishi bilan yurgan edim, – debdi tulki va qo‘ltig‘i yostiqni darrov ayiqning yonboshiga qo‘yibdi. – Bu miyasi yo‘q tovuqlar sizn g‘amingizda yurganimni bilmay, ustimdan arz qilishibdi. Ayiq yostiqqa suya tovuqlarga o‘shqiribdi. -Qani, ko‘zimdan yo‘qolinglar. Ikkinchi bunaqa bema gap bilan miyamni qotirmanglar. Shu kuni kechasi yana ikki tovuqning sh quribdi. Tovuqlar endi bo‘rining oldiga arzga borishibdi. – Tulkining dast aziyat chekayapmiz. Yordam bering, – deyishibdi ular. Bo‘ri shu zahoti tul

kelibdi. – Bo‘ri janoblari, men tuni bilan mijja qoqmay sizga paryostiq tutdim, – tulki bo‘rining yonboshiga yostiq qo‘yibdi. – Bu nodonlar sizning yurganimni bilmay, ustimdan arz qilishibdi.

Bo‘ri tovuqlarni tiriqtirib quvibdi. «Tulki o‘z ishini bilib qiladi», deb o‘ylabdi. Shu kuni kechasi uch tovuqning sho‘ri quribdi. Ertasiga tovuqlar tozi bilan ovga borishibdi. Tulki unga ham paryostiq olib boribdi. Biroq tozi it yostiqqa ham qo‘ymabdi.

Bu shum tulkining sho‘rini quritinglar, – degan ekan, itlar tulkini rosa – Uni cho‘lga quvinglar. Bo‘lmasa u tovuqlarni qiyratib, patidan tayyorlab, ishini bitirib yuraveradi. Shu-shu tulki cho‘lga badarg‘a Adolatli tozi itdan qo‘rqib haligacha u bor joyga yaqin yo‘lamas ekan.

64-mashq. Quyidagi maqollarni o‘qing va ma’nolarini izohlang.

Azizlarning ko‘ngli qurtova tilar.

Butoqda xo‘roz qichqirar,
Mezanada — so‘fi.

Uyutqisiz qatiq uyumas,
Achitqisiz — qimiz.

Eshak munchoq toj bo‘lmas,
It uzumi tok bo‘lmas.

Yung olaman desang, jaydari,
Boy bo‘laman desang, hisori.

Bir yil tut ekkan kishi
Qirq yil gavhar terar.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

17-topshiriq. Quyidagi tez aytishni o‘qing va bir nafasda aytib ko‘ring.

G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

Fil fantanga cho‘mildi, faqat yarmi ko‘mildi.

Oq choynakka ko‘k qopqoq,
Ko‘k choynakka oq qopqoq.

65-mashq. Quyidagi tasviriy ifodalarni daftaringizga yozing va yod

Charm qo‘lqop ustasi – mashhur bokschi
Yaylov bahodirlari – cho‘ponlar
Qalam ahli – ijodkorlar
Qahramon ona – 10 va undan ortiq farzandning ona
Hayotning birinchi bobi – Ona
Vatan posponlari – askarlar
Jufti halol – yor
Yurt boshi – prezident
Afsonaviy qush – semurg‘
Baxt qushi – Humo
Bahor elchilari – qaldirg‘ochlar

66-mashq. Quyidagi matnni o‘qing. Bosh harflar imlosiga e bering. H va x undosh tovushlari bilan boshlanuvchi so‘zlarni daftarin husnixat bilan ko‘chiring.

MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining tashkil topishi. 1991-yil 8-dek Minskda uch slavyan respublikasi - Rossiya, Ukraina, Belorus rahbar B.Yelsin, L.Kravchuk, S.Shushkevichlarning uchrashuvi bo‘ldi. O‘sha Belovejskoye Pushcheda uch davlat boshliqlari Mustaqil Davlatlar Hamdo (MDH)ni tuzish to‘g‘risida Shartnoma imzoladilar. Shartnomada yagona iqt makon, yagona valyuta va moliya-bank sistemasi bo‘ladi, fan, ta'lim, madaniy boshqa sohalarda hamkorlik qilinadi, tashqi siyosat, armiya sohasidagi si kelishilgan holda yuritiladi, deb belgilangan edi. Hujjatda SSSRning mavjudl SSSR Konstitutsiyasi to‘xtatiladi, deb e’lon qilindi.

Ukraina, Belorussiya, Rossiya parlamentlari MDHni tuzish haq shartnomani ratifikatsiya qildilar va 1922-yil 30-dekabrdagi SSSRni t to‘g‘risidagi shartnomani bekor qildilar.

Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkman Prezidentlari MDHga uni ta'sis etuvchilar rolida kirishga tayyor ekan bildirdilar.

1991-yil 21-dekabrda Rossiya (B.Yelsin), Ukraina (L.Kravchuk), Be (S.Shushkevich), Qozog‘iston (N.Nazarboyev), O‘zbekiston (I.Karim Qirg‘iziston (A.Akayev), Tojikiston (R.Nabiyev), Turkmaniston (S.Niya Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldaviya (M.Sn davlat boshliqlarining kengashi bo‘ldi. O‘sha kuni 11 davlat boshl Belovejskoye Pushche shartnomasi yuzasidan protokolni imzolab, «Teng huq va ahdlashayotgan oliy tomonlar» maqomida MDH tashkil etildi.

67-mashq. Quyida berilgan she’rni ifodali o‘qing va yod oling. Matn erkin va turg‘un birikmalarni toping hamda daftaringizga husnixat b ko‘chiring.

“Onajon”

Goho sizning borligingiz unutdim,
Yo‘llarimda zorligingiz unutdim.
Umidlari kesilgan bu dunyoda
Yolg‘iz umidvorligingiz unutdim.
G‘animatim, omonatim — onajon.

Oshno topdim, va lekin do‘st topmadim,
Oq ko‘ngilli bir qorako‘z topmadim.
Shamollarga sovurdim gul so‘zlarni,
Lekin Sizga bir shirin so‘z topmadim.
G‘animatim, omonatim — onajon.

Ba’zan falak menga bag‘ritosh keldi,
Ishonganim g‘animga yo‘ldosh keldi.
Omad ketsa, hamma kuldi ustimdan,
Faqat Sizning ko‘zingizga yosh keldi.
G‘animatim, omonatim — onajon.

Fursat o‘tib, sochga qirov qo‘narkan,
Sevgi otashlari asta so‘narkan.
Barcha tuyg‘u aldamchi va o‘tkinchi,
Ona mehri yolg‘iz sobit qolarkan.
G‘animatim, omonatim — onajon.

Hoki poyingizni ko‘zimga suray,
O‘zim yarim ko‘nglingizni to‘ldiray.
Bir chekkaga surib qo‘yib dunyoni,
O‘g‘il bo‘lib, yoningizda o‘ltiray.
G‘animatim, omonatim — onajon.

Iqbol Mirzo

10-DARS

MATN: **SAMARQAND – SHARQ GAVHARI**

Samarqand ham dunyoga mashhur Bobil, Afina, Rim shaharlari kabi boy ga ega. Uning yoshi 2700 yildan ortiq. Samarqand dastlab Siyob daryosi da qad ko‘targan. U o‘n yarim kilometrli mudofaa devori bilan o‘ralgan ib, shaharga uchta darvoza orqali kirilgan. Samarqandni miloddan avval 329- Aleksandr Makedonskiy, VIII asrda Qutayba, XIII asrda Chingizxon shinlari bosib olib, vayron qilishgan. Qadimgi Samarqand shahri xarobalari Afrosiyob nomi bilan yuritiladi.

XV asrga kelib Samarqand Afrosiyob xarobalaridan janubroqda
tiklandi. Tez orada yana dunyoga dong'i ketgan go'zal shaharga aylandi. Ay
Sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxtiga aylantirilganidan so'ng sha
ma'muriy binolar, masjidlar, madrasalar, hammomlar, savdo mark
karvonsaroylar ko'plab qurildi. Shahar atrofi olti darvozali mudofaa devori
o'rab olindi. Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Shoh
ansambllarining qurilishi shaharni yana-da go'zallashtiradi. Shahar at
Bog'ishamol, Bog'idilkusho, Bog'ibaland, Bog'imaydon, Bog'ibe
Bog'izag'on kabi 12 ta ko'rkam bog' barpo etildi.

Amir Temurdan so'ng Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarq
obodonlashtirish ishlari davom ettirildi. Ulug'bek rasadxonasi va Ulu
madrasasi, XVII asrga kelib Sherdor hamda Tillakori madrasalari qurildi.
davrda qurilgan Ko'ksaroy va Bo'stonsaroyga davlat idoralari, qurol-y
ustaxonalari, xazina, zarbxona va qamoqxona joylashtirildi.

XVI asrda Buxoro xonligi tashkil topgandan so'ng poytaxt Buxo
ko'chirildi. XVII-XVIII asrlarda Samarqand yana turli bosqinchilar tomo
talanib, vayron etilgan. Shaharning mehnatkash aholisi uni yana va yana
tiklayvergan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Samarqandda zamonaviy bi
qurila boshladi. 1924-1930-yillarda u O'zbekiston Respublikasining poy
bo'ldi. Hozirgi paytda Samarqand shahri aholi soni va sanoat korxonalari ko'
jihatidan respublikamizda ikkinchi o'rinda turadi. Samarqand kengayib, ya
obodonlashib bormoqda. Turar joylar ko'paydi, yangi jamoat binolari, ma
xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq majmualari, keng va ko'rkam istirohat bog
xiyobonlar, maydonlar, ko'chalar, ko'p qavatli uylar qurilgan mikrorayonlar
etildi. Tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, yangilarini qurishga e'tibor berilmo
Shaharda Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jo
Abulqosim Rudakiy, Islom Karimov kabi ulug' insonlarga mahobatli hayk
o'rnatilgan.

Samarqand rivojlangan sanoat shahridir. Bu yerda muzlatgichlar, liftso
avtomobilsozlik, chinni buyumlar, kino asbob-uskunalari, burg'ulash asbo
motor qismlari ishlab chiqaruvchi yirik zavodlar, poyabzal, shohi va ba
to'qish, trikotaj, galanteriya fabrikalari va ko'plab milliy hunarmand
korxonalari mavjud.

Samarqand respublikamizning yirik ilm-fan markazlaridan biri. Univer
qishloq xo'jalik, savdo va servis, tibbiyot, chet tillari, me'morchilik-qur
institutlari, axborot texnologiyalari universitetining filiali, ko'plab maktab
litseylarda yoshlar fan sirlarini o'rganmoqdalar.

Samarqand shahri va viloyat hududida joylashgan Doniyol payg'am
Imom Ismoil Buxoriy, Maxdumi A'zam, Moturudiy, Xo'ja Ahrori Valiy, Qu
ibn Abbos, Amir Temur maqbaralarini ziyorat qilish uchun har yili millio
sayyohlar kelishadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matn bo'yicha tarixiy terminlar lug'atini tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo'llangan fe'llarni aniqlang va ularni morfologik tahlil qiling.
4. Matnning mazmunini so'zlab bering.
5. Matndan ijodiy foydalangan holda "Ona shahrim" mavzusida mustaqil matn tuzing.

TERMINOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Atamalar va ularning vujudga kelishi

Eslab qoling. Atama (ya'ni termin – lotincha "termnus" – chek, chegara belgisi) fan, texnika va boshqa sohalarga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi. Atamalarni o'rganuvchi soha esa atamashunoslik (terminologiya) deb ataladi.

Atamalarni dastlab ikki katta guruhga bo'lish mumkin: Kasb-hunar atamalari va ilmiy atamalar.

Kasb-hunar atamalari uzoq davrlardan beri xalqimiz tomonidan kasb-hunar turlari rivojlantirilib kelinayotgan chorvachilik, dehqonchilik, kulolchilik, temirchilik, duradgorlik, gilamchilik, kashtachilik, oshpazlik, qandolatpazlik, to'quvchilik va boshqa shu kabi ko'plab kasblarga doir tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilib kelmoqda. Ilmiy atamalar ham ko'p asrlik tarixga ega. Chunki o'z davrining yetuk ilmiy bilimlar egasi bo'lgan M. Koshg'ariy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Az-Zamaxshariy, A. Navoiy, Bobur va boshqa buyuk allomalarimizning turli fanlarga oid asarlarining yaratilishi bilan bog'liq holda paydo bo'lgan.

Bajaring. Quyidagi matnni ifodali o'qing va tarixiy terminlar lug'atini tuzing.

REGISTON MAYDONI

Samarqanddagi Registon ansambli uchta salobatli binodan tashkil topgan. Ular Ulug'bek madrasasi, Sherdor madrasasi va Tillakori madrasasidir.

Ulug'bek madrasasi 1417-yilda barpo etilgan. Bu bino Ulug'bek qurdirgan madrasalarning eng kattasi va eng hashamatlisi edi. Uning monumental darvozalari, yon gumbazlari va minoralari hozir ham kishini hayratga soladi. Madrasada diniy nazariyadan tashqari, turli amaliy fanlar ham o'qitilgan. Bu yer o'z davrida ilm-fanning yirik markazi bo'lgan.

Madrasada mashhur olimlar, jumladan Ulug'bekning o'zi ham dars bergan. Sherdor madrasasi 1619-1636-yillarda Samarqand hukmdori Yalangto'sh bahodirning topshirig'i bilan qurilgan. Bahaybat peshtoq tepasida sher va ohular tasvir solingani uchun Sherdor madrasasi deb atalgan. Madrasa o'z davrining yirik ilm maktabi hisoblangan.

Tillakori madrasasi 1647-1660-yillarda barpo etilgan. U zarhal naqshlar ishlanganligidan shunday nom olgan. Bu madrasa binosi qurilishi Registonning ajoyib ansambli mukammal shakl olgan.

Registon maydonidagi bu uchala bino hozirgi kunda qayta ta'mirlanib Samarqand husniga husn qo'shmoqda.

69-mashq. Quyidagi matnni o'qing. Ilmiy atamalarni topib daftaringizga ko'chiring.

Nyuton halqasi - shisha plastinkaning yassi sirtiga tegib turgan yassiqavariq, linzadan o'tayotgan yorug'likning qaytishi (sinishi) dan hosil bo'ladigan interferension halqasimon yo'llar. Birinchi marta 1675-yilda I. Nyuton kuzatgan qilgan. Halqalar diametri kattalashgan sari ularning zichligi ortadi va halqalar polosasi kengligi, ya'ni ikki qo'shni halqa orasidagi masofa kichiklashadi. Nyuton halqasi maxsus mikroskopda kuzatilgan.

Mikroskop stolida yassi shisha plastinka joylashgan, uning ustiga egrilik kichik qavariq linza qo'yilgan. Mikroskopda shisha plastinka tekisligiga perpendikulyar yo'nalishda kuzatish olib boriladi. Plastinka Nyuton halqasini kuzatishga xalaqit bermaydi, chunki undan yetarli darajada yoruglik o'tadi. Nyuton halqasi sferik va yassi sirtlarning shaklini to'g'rilashni tekshirish va boshqalarda qo'llaniladi.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

70-mashq. Quyidagi so'zlarning talaffuzi va imlosiga diqqat qiling. O'zingiz ham ushbu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Doktor, dovdir, dog'uli, dudoq, dubulg'a, dumbul, duo, duxoba, do'ppi, do'ppi, dutor, durda, dupurlamoq.

Tolqon, tomat, tomoq, tutatqi, tuproq, tuzoq, tushov, tuyuq, tuxum, to'g'on, to'qay, to'qim, to'plam, to'polon.

71-mashq. Nuqtalar o'rniga **u** yoki **o'** harflaridan mosini qo'yib so'zlarni ko'chiring va tarjima qiling.

....zak	k...z	....pka	...simlik
...o'zbek	k...z	q...sh	.....tkir
d...st	...zoq	s...z	q...sh
...loq	...ch	.zuk	s...z
...rmon	b...taloq	...ch	...zum
...ng	...lug'	t...rt	t...rmush

28-topshiriq. Quyidagi so'zlarning talaffuzi va imlosiga e'tibor berib Imlosini eslab qoling.

a'lo, a'mal, a'yon, a'zam, a'zo, ba'zan, ba'zi, da'vat, da'vo, fe'l-[illegible], ja'm, ka'ba, la'l, la'nat, mal'un, ma'no, mash'al, mash'ala, [illegible] ma'lum, ma'lumot, ma'mur, ma'naviy, ma'raka, ma'ruza, [illegible] na'ra.

[illegible] Matnni o'qing va daftaringizga tarjimasini yozing.

ЧТО ЕСТЬ ДОБРО?

(По Марку Аврелию)

[illegible] люди, если сделают кому-нибудь услугу, ждут себе за это [illegible] или благодарность. Другие, может и не ждут награды и [illegible], но всё-таки не забывают того, что они сделали. А потому [illegible] тех, кому они сделали добро, своими должниками. Но истинное, [illegible] добро - добро только тогда, когда оно сделано не для другого, а [illegible] Когда человек, который сделал добро, не ищет награды. Он делает [illegible], как плодовое дерево, когда оно вырастит свои плоды, довольно [illegible] плодами этими пользуются те, кому они нужны.

11-DARS

MATN: **BUXORO-QADIMIY SHAHAR**

Buxoro - jahonning eng ko'hna shaharlaridan. Bu shahar bundan XXV asr [illegible] Zarafshon vodiysining quyi qismida qad ko'targan. Dastavval u [illegible] Zerrud nomli quyi tarmog'ining ikki sohilida bir-biriga qarama-qarshi [illegible] 3 ta qo'rg'on shaklida paydo bo'lgan. Qo'rg'onlarning biri Foxira, [illegible] Navmichkat, uchinchisi Farovis nomlari bilan yuritilgan. Qo'rg'onlar [illegible] atrofi suvga to'la ko'lmaklar va botqoqliklar hamda anvoyi chechaklar [illegible] qoplangan bepoyon dala-yu dashtdan iborat nihoyatda xushmanzara bo'lgan. [illegible] voliy bo'ylab atrofni qoplab yotgan asriy qalin daraxtzor, chakalakzor va [illegible] son-sanoqsiz turli-tuman, yovvoyi hayvonlar hamda ajoyib-g'aroyib [illegible] uya qurgan. Shuning uchun bu o'lkani va unda qad ko'targan dastlabki [illegible] aholi qadimda "Bug'-oro", ya'ni "Tangri bezagi", "Tangri jilosi" yoki [illegible] jamoli" ma'nolarini anglatuvchi yagona nom bilan yuritgan.

Bu qadim uch qo'rg'onning atrofi o'sha zamonlarida alohida-alohida mudofaa [illegible] bilan o'ralgan edi. Devorlar baland va qalin bo'lgan. Ular paxsa va yirik [illegible] g'ishtlar bilan o'rab chiqilgan. Ularning u yer-bu yerida baland tayanch [illegible] bino qilingan. Qamal vaqtlarida dushmanga o'q uzish maqsadida devor [illegible] minoralar bo'ylab bir necha qator nishon tuynuk-shinaklar ishlangan. [illegible] bir necha darvozasi bo'lib, har bir qismiga markaziy ko'cha orqali [illegible] kirilgan. Darvozaxonalarda maxsus soqchilar-darvozabonlar [illegible] qilib turgan. Kech tushishi bilan darvozalar berkitilib, erta saharda [illegible] Qamal vaqtlarda ular kecha-yu kunduz tanbalanib turgan.

Shaharning maxsus devor bilan o'ralgan eng baland qismida bino [illegible] istehkomli qo'rg'oni Ark deb ataladi. Unda podshoh va amirlar yashagan. [illegible] podshohning Ko'shki va saroylaridan tashqari devonxona, xazina, chaqa

tangalar chiqariladigan zarbxona, qamoqxona navkarlar uchun bostirmalar b
Shaharning qolgan asosiy ikki qismida shahar a'yonlari, hunarmandlar savd
yashagan.

Qadimdan Buxoro Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan bo'lib b
orqali buxorolik savdogarlar Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiyaga
karvoni bilan turli xil savdo mollarini olib borganlar.

Aholi soni ko'paygan sari shaharlar ham kengayib borgan. Shah
kengaygan qismining xavfsizligini ta`minlash maqsadida IX asrda Buxoro q
uchta qismni ham o'z ichiga olgan yagona tashqi devor halqasi bilan o'rab o
Asrlar o'tishi bilan shahar maydoni yana-da kengaygan. Uning atrofida,
devori tashqarisida, yangi ko'chalar, guzarlar va mahallalar qad ko'targan
XVI asrlarda esa yangi joylarni o'rab turgan navbatdagi tashqi devor halqala
qilingan. Bu davrda shaharga 11 darvozadan kirilgan. Shaharda 12 mahall
dan ortiq guzar va masjidlar bo'lgan. Har bir mahallaning katxudosi,
oqsoqoli, imomi va poykori-ellikboshisi bo'lgan. Har bir mahallaning
bo'lgani kabi, har bir guzarning alohida masjidi bo'lgan. Shahar yuzdan
hovuzlar orqali ichimlik suv bilan ta'minlangan.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o'qib chiqing.
2. "Bug'-oro" so'zining ma'nosini izohlang.
3. Matn mazmuni bo'yicha qisqacha gapirib bering.
4. Buxorodagi ziyoratgohlar haqida gapirib bering.
5. "Buxoro sharqning mash'ali" mavzusida matn tayyorlang.

TERMINOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Sohaviy terminlar va ularning qo'llanilishi

Eslab qoling. Tilda shunday atamalar ham borki, ular ma'lum b
(masalan, tilshunoslikka oid ***tovush, fon, fonema, ega, kesim, aniqlo
aniqlanmish, sifatlovhi, sifatlanmish, to'ldiruvchi, hol, gap, undalma*** va
texnika (***kalit, ko'targich, qisqich, gayka, shayba, bolt*** va h.), sport (***to'p,
darvoza, himoya, hujum, kurash, yonbosh, chala, halol*** va h.), madaniyat (***s
musiqa, qo'shiq, lapar, raqs, ijro, soz, nutq*** va h.)ga oid tushunchalarni ifod
uchun xizmat qiladi.

Ilmiy atamalar bugungi kunda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa,
pedagogika, psixologiya, biologiya, tibbiyot, geografiya, astronomiya, fi
matematika, huquqshunoslik, kimyo, geologiya, minerologiya, falsafa, iqtisod
yuzlab zamonaviy fanlar sohasida keng qo'llanilmoqda.

73-mashq. Quyida berilgan matnni o'qing. Tarix faniga
atamalarni aniqlang va daftaringizga yozing.

SHOGIRDLIKKA BERISH TO'G'RISIDA SHARTNOMA

[illegible] yil safar oyining o'n yettinchisi (1589-yil 27-dekabr)da Badr
[illegible] ustod Muhammad Ali shariatda to'g'ri iqror qildi: shar'an o'z
[illegible] bo'lgan Sulton Ali nomli sag'ir ukamni ustod Nazar Muhammad
[illegible] ustod Do'st Aliga 3 yil muddat bilan muomalada bo'lgan 4 ming
[illegible] pul badaliga shogirdlikka berdim. Shu muddat ichida ustod har qanday
[illegible] tuyursa, toqati boricha va qudrati yetguncha bajo keltiradi va yana
[illegible] Yuqorida zikr etilgan 4 ming dinor fulusdan 2 mingi badaliga
[illegible] va unga tegishli hunarni, shu san'at ustalari yoqtiradigan darajada
[illegible] yana ustodga qolgan pul badaliga mazkur sag'irning nafaqasini ta'min
[illegible] va ust-boshiga sarf qilsin deb ijozat beraman.
[illegible] ishonchli kishilar huzurida tuzildi.
[illegible] mullo Muhammad Sharif, mullo Abdurahim muxtasib. Qozi
Tarixdan to'plami. – Toshkent: Fan, 1982, 84-bet.

74-mashq. Quyidagi matnlarni o'qing va fizikaga oid bo'lgan atamalar
[illegible]

Mexanika

Jismlarning yoki jism qismlarining bir-biriga nisbatan vaziyatning
[illegible] mexanik harakat deyiladi.

Fizikaning mexanik harakat qonunlari, hamda bu harakatni vujudga
[illegible] va o'zgartiruvchi sabablarini o'rganuvchi bo'limiga mexanika deyiladi.

Mexanika – o'rganilayotgan jismlarning o'lchamlari va tezliklariga qarab
[illegible], relyativistik va kvant mexanikalariga ajratiladi.

Klassik mexanika

Tezliklari yorug'likning bo'shliqdagi tezligidan juda kichik bo'lgan
[illegible] harakat qonunlarini o'rganadi. Klassik mexanikaning asosiy
[illegible] italiyalik fizik va astronom G.Galiley tomonidan aniqlangan bo'lib,
[illegible] I. Nyuton tomonidan mukammal tavsiflangandir.

Relyativistik mexanika

Yorug'likning bo'shliqdagi tezligiga yaqin bo'lgan tezliklar bilan
[illegible] jismlarning harakat qonunlarini o'rganadi. Relyativistik mexanika
[illegible] maxsus nisbiylik nazariyasi asosida yaratilgan mexanikadir.

Kvant mexanikasi

Kvant mexanikasida mikrojismlarning (atomlar va elementar zarralarning)
[illegible] qonunlari o'rganiladi.

[illegible] uch qismga bo'linadi: 1. Kinematika. 2. Dinamika. 3. Statika.

Kinematika – jismlarning harakat qonunlarini bu harakatni vujudga
[illegible] sabablarni e'tiborga olmay o'rganadi.

Dinamika – jismlarning harakat qonunlarini bu harakatni vujudga keltiruvchi
[illegible] sabablar bilan birgalikda o'rganadi.

Statika – jismlar sistemasining muvozanat qonunlarini o'rganadi va fizikada
[illegible] qonunlari bilan birgalikda ko'riladi.

75-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va biologiyaga oid bo‘lgan t… lug‘atini tuzing.

HAVONI TOZALOVCHI GULLAR

Turli xil maishiy texnika, plastik mebellar, linoleum, panellar, bo‘yoq… yuvish kukunlari va yuvish vositalari kvartira va ofislardagi havoni benzol, formaldegid, karbonat angidrid gazi, azot oksidlari va ammiak bilan zah… Bugun biz kvartira va ofislarda ekologik vaziyatni yaxshilashga yordam b… xona gullari bilan tanishamiz.

1. Shefflera (Schéfflera yoki Soyabon daraxti) – chekuvchilar yashaydig… ishlaydigan xonalarda o‘stirish mumkin. Bu o‘simlik tamaki tutuni tark… nikotin va smolani tez “yutib yuboradi”.

2. Tillarang ssindapsus (Epipremnum aureum yoki Potos) havoni ben… tozalaydi. O‘simlikning keng barglari bu moddani katta miqdorda “o‘zlashtira” oladi. Potos tez o‘sadi, uni ko‘p sug‘orish ham talab etilmaydi.

3. Dratsena (Dracaena) formaldegidni zararsizlantiradi. Bu o‘simlik oz miq… bo‘lsa ham laklar, yelim va mebeldan chiqadigan formaldegidni zararsizlantir…

4. Xlorofitum (Chlorophytum) – havoga chiqariladigan gazlarni y… “o‘zlashtiradi”. Shuning uchun birinchi va ikkinchi qavatda istiqomat qiluv… uchun bu gul juda foydali.

5. Hamedoreya (Chamaedorea elegans yoki xonaki palma) h… namlantiradi, plastmassadan chiqadigan moddalarni filtrlaydi.

6. Pechak (Hedera helix) – havoni tozalash bo‘yicha rekordchi o‘… hisoblanadi. U formaldegid, benzol, ammiak kabi zaharli moddalarni o… singdiradi.

7. Benjamin fikusi (Ficus benjamina) – havoni eng yaxshi tozalo… o‘simliklardan ikkinchi o‘rinda turadi. Pechak singari ko‘pgina zaharli modda… o‘ziga singdiradi va changni oxanrabodek o‘ziga tortib oladi.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

29-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni satrdan satrga ko‘chirishda bo‘g‘in… ajrating.

Opangiz, singil, dengiz, ko‘ngil, ifoda, iroda, iboli, ozoda, adolat, alomat… Namuna: Opa-ngiz, …

76-mashq. Nuqtalar o‘rniga **i** yoki **u** harflaridan mosini qo… ko‘chiring.

tuz…m	yoz…sh	bul…t	ko‘r….k	..t
kum…sh	to‘q….v	bo‘y….n	o‘r…k	ur….g‘
mud…r	yoz…v	to‘lq….n	ko‘ng…l	o‘r…..n
mumk…n	to‘q…moq	uchq….n	huq…q	qosh…q
o‘r…n	bo‘l….m	bur…n	ho‘k….z	but…n

77-mashq. Topishmoqlarni o‘qing va javobini toping. Topishmoqlarda … so‘zlarning ma’nosiga diqqat qiling.

Uzun-uzun iz kelar,
Uzun bo’yli qiz kelar,
Qoshginasi qaltirab,
Ko’zginasi yaltirab.

(Suv, ariq)

Otasi egri-bugri,
Onasi silliq juvon,
O’g‘li qo’shiqchi,
Qizi o’yinchi.

(Ariq, suv, baqa, baliq)

Qozonda emas qaynaydi,
Qishin-yozin tinmaydi.

(Buloq)

78-mashq. Quyidagi matnni o‘qing. Mazmuni bo‘yicha fikr yuriting. … va o‘, h va x harflari qo‘llangan so‘zlarni topib daftaringizga … Imlosini eslab qo‘ling.

LUQMONI HAKIM

Luqmoni hakim dunyoga dong‘i ketgan tabib ekan. U odamlarning dil-dilini, …larning, jamiki hayvon, jonli-jonsiz mavjudodlarning tilini ham bilar ekan. … xastalansa, dardga chalinsa, davolar ekan.

Kunlardan bir kuni bir kishining ko‘zi qattiq og‘rib qolibdi. U ko‘zini juda … tabiblarga ko‘rsatibdi, davo topa olmabdi, olim-u ulamolarga boqtiribdi, …lanmabdi. Oxiri izlab-izlab, uzoq bir o‘lkaga yashovchi Luqmoni Hakim …ida darak topib, uning oldiga boribdi. Luqmoni Hakim ko‘zi og‘riganning u … bu yog‘ini ko‘rgan bo‘libdi-da, oyog‘iga xina qo‘yishni maslahat beribdi. …sida bemor tabibga qarab:

– Ey, ulug‘ hakim, bu nima deganing, yo men bilan hazillashyapsanmi? Axir, …ning oyog‘im og‘rigani yo‘q-ku, unga xina qo‘ysam. Ko‘zim og‘riyapti, ko‘z …ga yu, oyoq qayoqda? – deb xafa bo‘libdi. Shunda Luqmoni Hakim bemorga …day debdi:

– To‘g‘ri aytasan, men ham sening qayering kasalligini ko‘rib-bilib …iman: sening ko‘zing og‘rigan, bizning fahm-u farosatimizga ko‘ra, ko‘zning … tomiri oyoqning ostida joylashgan. Sening o‘sha joying, ya’ni ko‘zingning

oyog‘ing ostiga ulangan tomiri shamollagan. Shunga xina qo‘ysang, zora
tuzalib, asl holiga qaytsa.

Ko‘zi og‘rigan kishi Luqmoni Hakim aytganday qilib, oyog‘ining
xina qo‘ygan ekan, ikki-uch kun o‘tmasdan tuzalib, hech narsa ko‘rma
bo‘lib ketibdi.

79-mashq. “Buxoro-qadimiy shahar” matnidan tushunilishi qiyin
so‘zlar lug‘atini tuzing.

12-DARS

MATN: SAN’AT VA MADANIYAT

San’at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o‘ziga xos shakli.
qadimiy tarixga ega bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida
jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq
vujudga kela boshlagan. San’at odamlarning estetik talablarini qondirish
birga, o‘z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a’zolarini ma’lum
tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida
qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-yuyg‘u, manfaat ideallarini ifoda
San’at insonning moddiy va ma’naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahor
qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir.

Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari
taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining
ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boylik
ifodalanadi.

San’at turli ko‘rinishlari bilan o‘ziga xos badiiy-estetik qadriya
to‘plash, saqlash va boshqalarga uzatish xususiyatiga ega bo‘lgan estetik ti
tashkil etadi. San’at tasviriy san’at, me’morchilik, rassomlik, haykaltaro
musiqa, teatr, kino, sirk, badiiy adabiyot, xoreografiya va boshqalarni o‘z
oladi. San’atning turlari o‘z predmeti, tasvir vositalari va ifoda imkoniy
jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, adabiyotda asosiy ifoda vositasi
so‘z xizmat qiladi; tasviriy san’atda bo‘yoqlar orqali konkret-hissiy
gavdalantiriladi; teatrda pyesa qahramonlarining siymosi aktyorlarda o‘z
topadi. Ko‘rinadiki, san’at va madaniyat bir-biri bilan bevosita bog‘liq.

San’atshunoslik alohida fan sifatida XVI-XIX asrlar mobaynida shakll
San’atga doir ma’lumotlar dastlab Yunonistonda qadimdan o‘rganila boshla
ma’lum. Aristotel, Platon kabi o‘sha davrning yirik faylasuflari Yunonist
san’at tarixi bilan ham shug‘ullanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar saqla
Qadimgi Rimda yunon san’atiga katta e’tibor bilan qaralgan. Milodiy dats
asrlarda O‘rta Osiyo mamlakatlarida me’morchilik va san’atga oid riso
yaratilgan. Ular mazmuni jihatdan hammabop bo‘lib, ham metodik qo‘llanma,
o‘qish kitobi sifatida xizmat qilar, kitobxon e’tiboriga tarix, hikoyat, nasiha
mushohadalar havola qilinardi.

san’at turlarida qo‘llaniladigan ijodiy uslub yoki san’at uslubi ham jiddiy
ega. San’at mahorati faqat texnika bilan o‘lchanmasa ham, uni
mohir ustа bo‘lib yetishish mumkin emas. Barcha san’at turlari
qonuniga bo‘ysunadilar.

san’at turlarida badiiy tuzilma (kompozitsiya), vazn, tasviriy-ifodaviy va
vositalar majmui san’at shaklini tashkil etadi. Shakl hamma vaqt muayyan
mazmunni ifodalaydi. San’at asarlarida mavzu sujet yordamida oydinlashadi. Sujet
aks ettirilmoqchi bo‘lgan hodisa yoki hodisalar yig‘indisi bo‘lib, u o‘z
navbatida asar personajlarini bir-biriga bog‘lab turadi. San’at asarlarining mazmuni
g‘oya, asar mavzusi, asar sujeti hamda san’atkor tomonidan baholangan
hodisalarning yig‘indisidan iborat.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Matndan san’atshunoslikka oid terminlarni ajrating.
3. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing va lug‘at daftaringizga yozing.
4. Qanday san’at turlarini bilasiz? Klaster texnologiyasi yordamida yozing.
5. O‘zingiz qiziqqan san’at turi bo‘yicha mikro matn tuzing.

TERMINOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Umumxalq leksikasiga kirgan san’atshunoslik terminlari

Eslab qoling. San’atshunoslik terminlari uning barcha sohalarida
ishlatilishi mumkin. Masalan, tasviriy san’at, haykaltaroshlik, estrada orkestri,
xoreografiya, teatr san’ati, so‘z san’ati, badiiy adabiyot va boshqa shu kabilardir.

80-mashq. Berilgan matnni o‘qing va tasviriy san’atga oid terminlar
ajratib tuzing.

Tasviriy san’atning eng ommaviy turlaridan biri grafikadir. «Grafika» so‘zi
yunoncha «yozaman», «chizaman» degan ma’noni anglatadi. Qalamda yoki
bo‘yoqda ishlangan rasmlar, kitob, gazeta va jurnallarga chizilgan illustratsiyalar,
qog‘ozga o‘yilgan gravyuralar, plakat, stend, buyumlarning etiketkalari,
pullari, oziq-ovqatlar o‘raladigan yozuvli qog‘ozlar – bularning barchasi grafika
asarlari hisoblanadi.

Rangtasvir. Rangtasvir tasviriy san’atning eng jozibali va ta’sirli turi. Unda
tasvir bo‘yoqlar vositasida matoga, qog‘ozga yoki boshqa tekis yuzaga hayotiy
hodisalarni badiiy tasvirlab beradi. Rangtasvir asarlari, asosan, akvarel, tempera va
moyli bo‘yoqlar vositasida yaratiladi.

Tasviriy san’at janrlari

Tasviriy san’at asarlari mavzusi, mazmuni, ishlanish uslubiga ko‘ra turli
janrlarga bo‘linadi. «Janr» so‘zi fransuzcha so‘z bo‘lib, «tur» yoki «ko‘rinish»
ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’at janrlari ularning turlariga ham bog‘liq.

Rangtasvir va grafika asarlari quyidagi asosiy janrlarda yaratiladi: 1. Po
Naturmort. 3. Manzara. 4. Maishiy. 5. Tarixiy. 6. Batal. 7. Animali
Marinistik. Agar kartinada aniq bir insonning tashqi qiyofasi tasvirlangan
bunday asar portret janriga mansub bo'ladi. Italiyaning mashhur rassomi L
da Vinchining «Mona Liza», Muhammad Nuriddinovning «Ona» asari
janriga mansubdir.

Naturmort janridagi asarlarda jonsiz narsalar tasvirlanadi. Fra
«nature morte» – «jonsiz tabiat» degan ma'noni bildiradi.

Tasviriy san'atning eng ommaviy janrlaridan biri manzara janridir
rassom tabiat go'zalligini tasvirlash bilan birga inson va tabiat munosabatla
ettiradi.

Maishiy hayot, turmushdagi voqea va hodisalarni tasvirlovchi tasviriy
asarlari maishiy janrga oid hisoblanadi.

Biror tarixiy voqea yoki tarixiy shaxslarning tasviriga oid tasviriy
asarlari tarixiy janrga, jang, harbiy yurishlar tasviriga oid ishlar batal ja
hayvonlar tasviriga oid asarlar animalistik janrga, suvli manzara tasviriga oid
marinistik janrga mansub bo'ladi.

81-mashq. Haykaltaroshlikka oid matnni o'qing va daftarin
husnixat bilan ko'chiring.

Haykaltaroshlik

Haykaltaroshlik – borliqni uch o'lchovli shaklda tasvirlaydigan san'a
Haykalni har tarafdan aylanib tomosha qilishimiz mumkin. Haykaltarosh
Jabborovning "Amir Temur", "Ahmad al-Farg'oniy", Jaloliddin Mirtojiye
"Bobur", "Ibn Sino", "Alisher Navoiy", "Mirzo Ulug'bek" an
haykaltaroshlikning yumaloq turiga kiradi. Agar inson qiyofasi bos
ko'kragigacha tasvirlangan bo'lsa, bunday haykal byust deyiladi. Byustlar t
tarixiy shaxslarga bag'ishlab o'rnatiladi. Binolarning devorlari va peshtoql
tanga, medal kabi buyumlarning yuzasiga ishlangan bo'rtma-qavariq tas
haykaltaroshlikning relyefli haykal namunalaridir. Relyefli haykaltaro
qavariqliq darajasiga ko'ra barelyef (kamroq o'yiq), gorelyef (ko'proq o
turlariga bo'linadi. Haykaltaroshlik asarlarini yaratishda loy, plastilin,
yog'och, marmar, granit, bronza, hatto oltin, mis, kumush kabi qimmat
metallardan ham foydalaniladi.

82-mashq. Quyida berilgan matnni o'qing va siz ham hozirgi o'zbek
san'ati namoyandalari haqida gapirib bering.

Zaynab Sadriyeva
(1912-1991)

Zaynab Sadriyeva har bir o'zbek uchun qadrdon. Qattiqqo'l, sodda
samimiy qiyofasi yuzimizga tabassum, qalbimizga hamisha iliqlik olib ke
Zaynab Sadriyeva 1912-yilning 25-oktabrida Astraxan shahrida tug'ilgan. O
Sadri bobo Astraxandagi un zavodida oddiy ishchi bo'lib ishlagan. Onasi u
farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullangan. 1916-yilda Astraxandagi un za

Yangiyo'l tumaniga ko'chiriladi va shu munosabat bilan
otasi barcha oila a'zolari bilan Yangiyo'lning Qovunchi
kelishadi. O'shanda Zaynab Sadriyeva to'rt yoshda edi.
bo'lajak aktrisaning bolaligi Yangiyo'lning Qovunchi qishlog'ida
o'tadi. U voyaga yetgach, Toshkentdagi xotin-qizlar bilim
kiradi. Texnikumda Zaynab Sadriyeva Zulfiyaxonim bilan birga
Ular bu ikki ayolni chin ma'noda yurtning "malikasi"ga aylantirdi.
adabiyotda, Zaynabxonim esa san'atda haqiqiy yulduzga aylandi.
parasidagi Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik drama teatri
Milliy akademik teatri) o'tkazgan kastingda o'n yetti yoshli
mashhur san'atkorlar e'tiboriga tushadi va butun umrini san'at
1929-yilda dastlab ishchi – sayyor truppasida faoliyatini boshlagan
oxiriga qadar Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik drama
ijod qildi.

Sadriyeva teatrda ishlab yurgan kezlari aktyor Obid Hasanov bilan
turmush quradi. U "Makr va Muhabbat" pyesasida Mildford xonim,
"Vatanim" asarida Zaynab, "Aybsiz aybdorlar"da Glafira, "Vassa
Vassa Jeleznova kabi bir-birini takrorlamaydigan, badiiy jihatdan
obrazlari bilan o'zbek teatri rivojiga munosib hissa qo'shdi. Turli yillar-
Poshshaoyim va Hoji ona (Hamza, "Boy ila xizmatchi"), Xolnisa
Shohi so'zana"), Tanga beka (M.Karim, "Oy tutilgan tunda"), Marina
Umarbekov, "Komissiya") kabi murakkab va kuchli dramatik obrazlar
Sadriyeva ijodida alohida o'rin tutadi. Farmonbibi ham, Anzirat buvi ham
Aktrisa umrining so'nggi yillarida sahnada yana bir karra o'zini
eta oldi va xalq qahramoniga aylandi. U 1975-yilda buyuk rejissyor
Yo'ldoshev sahnalashtirgan O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekiston
Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" spektaklida Farmonbibi
gavdalantirdi va barcha uchun yana-da sevimli qiyofaga aylandi. 1982-
olingan "Suyunchi" kinokartinasi o'zbekona qadriyatlarning sof va
chizgilarini namoyon eta oldi. Ushbu film davomida tomoshabin Anzirat
yonidan bir zum jilmaydi, uning tashvishlariga, quvonchlariga o'zini
qila oladi. Zero, san'atdagi eng katta muvafaqqiyat ham aynan shu bo'lsa
Shu ma'noda O'zbekiston xalq aristi Zaynab Sadriyeva san'atdan o'zini
olgan buyuk san'atkor edi. Aktrisaning Astraxandan Toshkentgacha bo'lgan
yo'li bugun barchamiz uchun qadrli. 1952-yilda O'zbekiston xalq artisti,
hayotlik esa Davlat Mukofotiga sazovar bo'lgan Zaynab Sadriyeva 1991-yil
vafot etdi.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

83-mashq. Berilgan matnni daftaringizga ko'chiring va
imlosiga oid bilan bog'liq bo'lgan so'zlarning imlosini eslab qoling.

ESTRADA ORKESTRI – orkestr turi; estrada musiqasi va jaz namunal ijro etuvchi ijodiy jamoa. XX asrning 20-yillarida jaz orkestri negizida yu kelgan. Tarkibi 14 nafardan 30 nafargacha (va undan ortiq) sozandalardan ta topadi: kuy yo‘lini ijro etuvchi melodik (asosan, mis-puflama cholg‘ular – truba, 3-4 trombon, 4-5 saksofon) va ritmik (fortepiano, elektr gitaralar, u cholg‘ular) guruhlardan iborat. Estrada orkestrining torli-kamonli (skr violonchel kabi) va boshqa cholg‘ular qo‘shilishi hisobiga kengaytirilgan simfojaz (estrada-simfonik orkestri) deb ataladi. Estrada orkestrining tarki shuningdek, xonanda, raqqos va boshqa san’atkorlar kirishi mumkin.

84-mashq. Quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. Aytilishida qiluvchi j (jo‘ja) va j (jirafa) tovushlari bilan boshlanuvchi so‘zlarni ikki ust ajratib ko‘chiring.

Jabduq, jabr, jurnal, jadval, jarroh, jyuri, jeton, janob, jamoa, jigarb jenshen, jiblajibon, jentelmen, jodugar, jingalak, jimjit, jurnalist, jur’at, j joynamoz, jonkuyar.

85-mashq. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridan oli quyidagi matnni o‘qing. So‘z san’atining o‘ziga xos jihatlarini kuzating. U va va h tovushlari ishtirok etgan so‘zlarning imlosiga diqqat qiling.

...Ko‘ngil barcha ma’nolarni jamlagan ummondir, so‘z — ko‘ dengizidagi bir inju. Dengizdan injuni g‘avvos olib chiqqani va uning qiym tayin etganidek, ko‘ngildagi so‘z injusi so‘zlovchi tarafidan bezaladi, qiymati anglash darajasining nisbatiga ko‘ra belgilanadi. Injuning qiymati haq “darajalari ko‘p”, hatto; “qiymati bir dirhamdan 100.000 dirhamgacha bo‘ injular bor” deyish mumkin...

So‘z injusining qiymati bundan-da ulug‘, darajasi bundan-da yuksak Uning ulug‘ligi shu darajaki, o‘lik tanga ruh bag‘ishlaydi. Ayni paytda, tirik j ruhdan mahrum etmog‘i mumkin. Har bir jamiyatning so‘z boyligi boshqalari so‘zlarning ma’nolarida o‘zgalaridan farqlidir va bir-birlarida bo‘lmagan bir n xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qushlarning, hayvonlarning, yirtqichlarning t ham shundaydir. Har birining o‘ziga xos gapirish tarzi, bir bo‘lmagan tovush sayrashlari bor. Ammo so‘z ma’no ifodalash xususiyatiga, inson fikr salohiyatiga egadir. So‘z — ma’no, inson esa bayon bulog‘idir...

86-mashq. San’atshunoslikka oid bo‘lgan terminlar lug‘atini tuzing.

13-DARS

MATN: **BO‘LAJAK KASBIM**

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: “Hayotda Siz uchun sevimli bo‘lgan kasbni tanlab va Siz bir umr ishga bormaysiz”. Agar kishi sevgan kasbida ishlayotgan bo‘lsa u hech qachon har ertalab o‘zini is

deb hisoblamaydi. O‘z sevgan kasbi bilan shug‘ullanish kishiga zavq, shijoat, rag‘bat hamda ma’naviy ozuqa beradi. O‘zi yoqtirgan ishni kishi vaqt qanchalar tez o‘tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon ishidan charchamaydi.

Bugun dunyo bo‘ylab qanchadan-qancha kishi zavod-fabrikalarda, avtomobillarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini bilan kutib, tushlik vaqtining tezroq kelishi ilinjida soatga ma’yus o‘tirishadi. Bu toifadagi kishilar, o‘z xatti-harakatlaridan ma’lumki, yoqtirgan mashg‘ulotni o‘z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya’ni, ular ularga yoqmaydigan kasb bilan shug‘ullanuvchi kishilardir. Ba’zilar “Kishi ishidan katta daromad olsa bo‘ldi-da, kasb kishiga katta pul keltirsa uning qilayotgan ishi o‘ziga yoqishi ikkinchi darajali”, deb hisoblashadi. hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o‘z bajarayotgan faoliyati katta daromadga erisha olmaydi. Balki biror kishi shug‘ullanayotgan kasb foyda keltiradigan ishdir, balki kimlardir shu kasb ortidan katta daromadga erishgandir, ammo bu kasbning egasida o‘z ishiga nisbatan qiziqish va bo‘lmasa, u hech qachon o‘z kasbidan barakat topa olmaydi. Shundan chiqqan holda, bugun haqiqiy hayotda kasbidan zavqlana olganlarning samarali faoliyat yuritayotganini, o‘z kasbini yomon ko‘rganlarning esa ko‘p asrikarli bekorchilik bilan o‘tkazishayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ideal sharoitda o‘z kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy xodim ta’mirlovchisi bugungi kunda milliardlab foyda ko‘rish mumkin bo‘lgan ba’zi tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi, ammo o‘z kasbini yomon ko‘rgan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan kishidan ancha ko‘proq foyda ko‘rishi mumkin. Ishoning, kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli o‘tkazish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agar Siz hozirgi yoshingizda kelajakda shug‘ullanishingiz uchun kasb tanlayotgan bo‘lsangiz, faqatgina bu kasbdan Sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo‘lgan ma’naviy ozuqani ham hisobga oling. Agar yu Siz allaqachon biror kasbga ega bo‘lsangiz, ammo bu kasb Sizning sevimli kasbingiz bo‘lmasa, qilayotgan ishingizdan zavqlana olmasangiz, o‘z qilayotgan ishingizda xursandchilik, ma’no topishga intiling. Bajarayotgan ishingizdan zavqlanishni o‘rganing. Agar buning iloji bo‘lmasa, kasbingizni imkon qadar o‘zingiz zavqlanib ishlaydigan faoliyat turiga o‘zgartirishga harakat qiling.

Unutmang, Siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz Sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi!

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing va mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering.
2. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda bo‘lajak kasbingiz haqida mikro matn tuzing.
3. Matndagi u va o‘ tovushlari ishtirok etgan so‘zlarni ikki ustunda yozing va imlosini tahlil qiling.

4. Matndan qator kelgan undoshlarni ajrating. Talaffuzi va imlosiga e bering.

5. Matn bo'yicha lug'at tuzing.

LEKSIKOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Kasb-hunar so'zlarining adabiy til me'yorlari

Eslab qoling. Kasb – hunar so'zlari yillar davomida shakllanib qolaversa, rivojlanib boraveradi. Tilimizda bunday so'zlarning o'rni ham sal va ahamiyatlidir. Nutqda ishlatilish doirasi ma'lum kasb-hunarga chegaralangan so'zlar kasb-hunarga oid so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zla hududda yashashidan qat'iy nazar, bir kasb egalariga tushunarli bo'ladi. Ma doska (kulollar ham idishlar ichini dasmollashda suv qo'yib ishlatiladigan idish), jo'sha (tog'dan olinadigan qizil kesak) volash (loyni ochib yorib toz kabi so'zlar kulollargagina tushunarlidir. Yoki gilam to'qish va gilamlarning haqidagi quyidagi kasb-hunar so'zlarini ham misol tariqasida keltirish mu *gilam* turlarini bildiradigan *julxirs, zulbaraq, arabi, olacha, palos, xoli / sholcha, qoqma* yoki *bosma (1.chakmon. 2. ilma, chok turi), birishim, bo'z gulburi, dorpech, dug / duk, duxoba, do'kon (1. dastgoh, stanok. 2. mag do'ppi, yondori, jo'ypush, zardevol / zardevor, zardo'zi, zehdo'zlik, yo yo'rmado'zlik, kallapo'sh, kalobtun, kashtado'z, kibaz, (paxta), momiq, peshonaband / peshonabog', popop, popopchilik, resman, tubatoy, ur choyshab, shamshirak, o'rmak, qatim, qo'chqorshoxi / qo'chqorak* va *cha* ma'nosidagi *bosma, dorpech, dug / duk, duxoba, do'kon, do'ppi, yondori, jo zardevol / zardevor, zardo'zi, zehdo'zlik, yo'rma, yo'rmado'zlik, kallap kalobtun, momiq, palak, popop, popopchilik, peshonaband / peshonabog', ur choyshab, o'rmak, qatim,* ilma, chok tun ma'nosidagi *bosma va birishim (i bo'zastar (mato), gulburi (gul kesish) resman (sariq va oq g'altak ip) tu (gulsiz oddiy do'ppi), shamshirak (narvon pochasiga o'xshash yog qo'chqorshoxi / qo'chqorak (to'qimachilikda naqsh turi)* kabilarni misol mumkin.

87-mashq. Quyidagi atamalarni qaysi kasb-hunarga oid ekan aniqlang va daftaringizga husnixat bilan ko'chiring.

Qaychi, igna, ip, metr, material(mato)lar: kelin kiysin, qaynonasi ku marg'ilon nusxa, bargi karam, namozshomgul, adras, atlas, tohir-zuhra parisi, skarlet.

88-mashq. Quyidagi matnni o'qing va kasb-hunarga oid so' ajratib yozing.

Farmatsevt kasbi uzoq tarixga ega. Dastlabki ilk dori vositalarini, y Paydo bo'lmasdan oldin ixtiro qilingan. Shu boisdan ularning tarkibi h ma'lumot qolmagan. Biroq antik davr tabiblari haqida ma'lumotlar ma

tabiblar o'zlari davolayotgan bemorlar uchun faqat o'zlarigagina ma'lum foydalanib dori vositalarini tayyorlashgan. Ular o'z bilim va tajribalarini nihoyatda sir saqlashgan. Ilk farmatsevtikaga oid ilmiy izlanishlar qadim yunon olimlari shug'ullanishgan. Ularning ishlarini qadimgi Rim davom ettirishgan. XIII asrga kelib, Yevropada farmatsevtlar va kasblariga ajratilgan.

Shu davrdan boshlab farmatsevt kasbi vakillariga katta mas'uliyat yuklanib, bu yo'nalishda rivojlanib borgan. Dori vositalari - bu murakkab ximik tarkibga ega bo'lgan aralashmadir. Ba'zan ularning iste'moli kutilgan natijani bermaydi. Hatto nazoratsiz iste'mol qilingan dori vositalari bemorning holatini yana-da yomonlashtirishi mumkin. Shuning uchun farmatsevt kasbi shifokorlik kasbi bilan chambarchas bog'liq.

89-mashq. Berilgan matndan quruvchilikka oid so'zlarni topib daftaringizga ko'chiring.

ARXITEKTOR KIM?

Arxitektor (yunoncha architekton – "quruvchi") – me'mor, binolarni loyihalashtirish bo'yicha mutaxassis. U nima ish bilan shug'ullanadi? turli shahar qurilish joylari maketini ishlab chiqish; turli obyektlar (zavodlar, uylar, kasalxonalar, bog'chalar va boshqa muassasa binolari) ni loyihalashtirish; shahardagi teatr, klub kabi obyektlarning miqdori bilan bog'liq masalalarni hal qilish; tarixiy yodgorliklar va eski obyektlarni rekonstruksiya qilish; tabiat landshaftlarini ishlab chiqish; talab darajasidagi shart-sharoitlarni loyihalashtirish; muassasa va tashkilotlarga informatsion yordam ko'rsatish; qurilish planlarini ko'rib chiqish, me'yoriy talablarni hisobga olgan holda binolarni qayta rejalashtirish; ta'mirlash chizmalarini tayyorlash, hisob-kitob qilish va rejalashtirish. Faoliyat turidan kelib chiqqan holda arxitektorlarning uch darajasi mavjud:

1. Texnik-arxitektor
2. Yetakchi arxitektor
3. Bosh arxitektor

Arxitektor bo'lish uchun keng qamrovli fikrlash; ijodiy qobiliyat; matematik qobiliyat; rassomlik qobiliyati; ko'z bilan yaxshi chamalay olish; loyihalashtirish qobiliyati; yangilik yarata bilish; mayda-chuyda elementlarni ham ko'ra bilish; mas'uliyatlilik, nozik did kabi qobiliyat va xislatlarga ega bo'lish kerak.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

90-mashq. Quyida berilgan so'zlarning birinchi bo'g'inida kelayotgan undosh aytilishi va yozilishiga diqqat qiling. Ularning bir-biridan farqini ayting.

ikki, ibrat, iftixor, igna, ijozat, imorat, ilgak, ilm; egar, egat, egov, ehson, ekvator, epkin, esdalik.

91-mashq. Quyidagi nuqtalar o‘rniga u yoki o‘ tovushini ko‘chiring.

D…lana, d…mbira, d…tor, g…vala, g…mbaz, g…zal, h…dud, h…jjat, j…mla, j…xori, l…qma, l…chchak, l…ppi, p…stloq, p…pisa, s…lim, …kki, …lkan, …choq, …ram, …simlik.

92-mashq. Quyidagi tasviriy ifodalarni o‘qing va yod oling.

Aql gimnastikasi – shaxmat va matematika
Barcha hunarning toji – ilm
Barcha yomonliklar kaliti – aroq
Bilim bulog‘i – kitob
Ilm o‘chog‘i – maktab
Ma'rifat maskani – kutubxona
Mehr bulog‘i – ona suti
Oq chashma – sut
Aqlli mashina – kompyuter

93-mashq. Quyidagi maqollarni daftaringizga ko‘chiring. Mazmu o‘zbek tilida izohlab bering.

Guruchning kurmagi bor,
Yomonning to‘qmog‘i bor.

Go‘ringdan suv chiqmasin,
Uyingdan — quv.

Ko‘pni yomonlagan ko‘muvsiz qolar.

Asal aynimas, sariyog‘ sasimas.

14-DARS

MATN: **KITOB MUTOLAASI**

Ko‘pchilik kitob o‘qishni bilmaydi va ko‘p kishilar nima u o‘qiyotganini tuzukroq tushunmaydilar. Ba’zilar buni o‘qimishli bo‘lishning biroq yagona yo‘li deb biladi. Ular uchun har qanday kitob kishini “o‘qimi qiladi. Boshqa birovlar uchun esa o‘qish — bu dam olish, shunchaki v o‘tkazish va ularga nimani (maqola, roman, she’r, xabar va hokazo) o‘qish ba zerikarli bo‘lmasa, bas. Shunchaki dam olish, vaqt o‘tkazishni istagan “o‘qimishli” bo‘lish haqidagina qayg‘urgan kitobxon kitobdagi dilni poklo kishini ruhlantiruvchi qandaydir noma’lum bir kuchni sezadi. Biroq bu kuch aniq tasavvur etolmaydi va baholay ham olmaydi. Bunday kitobxon tibbiyo mutlaqo bexabar bemorga o‘xshaydi, ya’ni aynan qaysi dori kerakl

har bir qutichadagidan tatib ko‘ra boshlaydi. Aslida, mutolaa har bir kishi o‘zi uchun zarur bo‘lgan, yangi kuch hamda ruhiy ta’sir kitoblarni topa bilishi kerak emasmi?

kitob o‘quvchiga oz bo‘lsa-da, kuch-g‘ayrat, shijoat, ma’naviy poklik mutolaa uchun sarf etilgan har bir soat behuda, besamar bo‘lib Agar har bir o‘qilgan kitob quvonch va alam, shijoat hamda ruhiy kelmasa, jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma’no yo‘q. Fikr-mulohaza o‘qish — xushmanzara tabiat qo‘ynida ko‘zni bog‘lab yurmoq Biz o‘zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini ravishda anglash uchun o‘qishimiz kerak. Kitobga dimog‘dor qaragan qo‘rqoq o‘quvchi singari emas, balki eng baland cho‘qqini shaylangan shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi.

KITOB O‘QISHNING 21 FOYDASI

Mutolaa asabni tinchlantiradi. Asabingizni tinchlantirish uchun sayr qilish tinglashni afzal ko‘rasizmi? Sasseks universiteti olimlari esa buning o‘qishni tavsiya qilishadi. Kitob o‘qish asabni tinchlantirishda eng usul ekan. Atigi olti daqiqa kitob o‘qish asabiylashishga barham beradi.

Mutolaa uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi. Xotirjam bo‘lish va yordam beradigan eng yaxshi usul kitob o‘qishdir. Televizor yoki tarqalayotgan yorqin nur miyaga uyg‘onish kerakligi haqida signal Kitob o‘qish esa aksincha ta’sir ko‘rsatadi – miya uxlash vaqti tushunadi.

Mutolaa qalbni yumshatadi. Kitob o‘qish jarayonida o‘quvchi bilan birga bo‘ladi. Ularning quvonch va tashvishlariga sherik Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, badiiy asar o‘qigan odam hayotda his-tuyg‘ularini yaxshi tushunar ekan.

Mutolaa miya faoliyatini yaxshilaydi. Emori universiteti olimlari kitob insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda isbotlashdi. Tadqiqot mualliflari kitob o‘qish miyadagi asab tolalari ishini ta’kidlashmoqda.

Mutolaa tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi. olimlarning tadqiqotlariga qaraganda, kitob o‘qish tushkunlikni eng samarali vositasidir. Tushkunlikka chalingan bemorlar kitob boshlaganlaridan so‘ng ularning tushkunlikka tushish holatlari kamaygan.

Mutolaa insonni go‘zallashtiradi. Yuqori darajadagi aqliy salohiyat tashqi ko‘rinishini ham go‘zallashtiradi. Har qanday mavzuda qiziqarli qura olish va o‘z bilimini namoyish etish suhbatdoshining mehrini yordam beradi.

Mutolaa hayotdagi maqsadini anglashga va qiyinchiliklarni yeng yordam beradi. Ogayo shtati universiteti olimlari inson qancha ko'p kitob hayot yo'lini shunchalik aniq tanlashini ta'kidlashmoqda. Kitob o'qish hay to'siqlarni yengishga ham yordam beradi, deyishmoqda ular.

Kitob o'qiydigan insonlar hayotda faol bo'lishadi. San'at jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar kitob o'qiydigan insonlar va ijtimoiy hayotda ham faol bo'lishlarini isbotladi.

Mutolaa xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi. Har safar o'qilganida miya faol ishlaydi. U olinayotgan ma'lumotni saqlash uchun tolalarni yaratadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, doimiy ravishda kitob o'qiy insonlarda fikrlash qobiliyati boshqalarga nisbatan sekinroq pasayar ekan.

Mutolaa so'z boyligini oshiradi. Kitob o'qiyotgan paytda notanish ham uchrab qoladi. Ularning ma'nosini umumiy mazmuni orqali ham tush olsa bo'ladi. Kitob o'qish nafaqat so'z boyligini ko'paytiradi, balki un savodxonlikni ham oshiradi.

Mutolaa yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi. Kitob o'qish jaray muallifning yozish uslubi ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi. Musiqa ting jarayonida musiqachining uslubi tinglovchiga o'tgani singari yozuvchining ham o'quvchining yozish uslubiga ta'sir o'tkazadi.

Mutolaa chet tilini o'rganishni osonlashtiradi. Doimiy ravishda o'qish boshqa tillarni o'rganishda yangi so'zlarni oson tushunishga va saqlab qolishga yordam beradi.

Mutolaa tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Qanchalik g'alati tuyuln kitob o'qish tinglash qobiliyatini oshiradi, boshqalarni oson tushunishga yor beradi. Bu ayniqsa, kitobni ovoz chiqarib o'qiganda yana-da samarali bo'ladi.

Mutolaa ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Obafemi A universiteti pedagoglari boshlang'ich sinf o'quvchilarining mashg'ulotl mavzuli komikslarni kiritishganida, suratlar va so'zlar aralashmasi bolala ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishini aniqlashdi. Kitoblar kattalarga ham shunday ta'sir ko'rsatadi.

**Mutolaa Al`tsgeymer xastaligiga chalinishning oldini oladi.** tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ko'p kitob o'qigan insonlar Al`tsge kasalligiga kamroq chalinishar ekan. Miya ham xuddi boshqa a'zolar si qo'llab-quvvatlashga va mashqlar yordamida mustahkamlanishga muhtoj bo Kitob o'qish esa bu borada eng samarali usuldir.

Birgalikda kitob o'qish ota-onalar va bolalarning o' munosabatlarini yaxshilaydi. Psixologlar birgalikda kitob o'qish jarayonida onalar va bolalar o'rtasida o'ziga xos munosabat o'rnatiladi deb hisoblash

bunday munosabat birgalikda televizor ko'rganda aslo

moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. tumotlariga ko'ra, umuman kitob o'qimaydigan insonlarning 43 foizi yashaydi. Savodli insonlar orasida esa qashshoqlikda 4 foizni tashkil etadi.

kitob o'qiydigan bolalar darslarni yaxshi o'zlashtirishadi. aniqlanishicha, kitob o'qishni xush ko'radigan bolalar maktabda o'qishadi. Ular grammatikani ham, matematikani ham yaxshi

jinoyatchilikning oldini oladi. O'tkazilgan tadqiqotdan ma'lum panjara ortida savodxonligini oshirgan jinoyatchilar ozodlikka so'ng boshqa jinoyatchilarga nisbatan jinoyatga 30 foiz kamroq

yaxshi hikoyago'yga aylantiradi. Inson kitobni qancha ko'p hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi. Keraksiz gaplarni kamroq kerakliларini yaxshiroq yetkazadigan bo'ladi.

yaxshilik qilishga undaydi. Faol kitobxonlar xayriya ishlari bilan nisbatan uch marta ko'proq shug'ullanishadi. Mutolaa muhtoj yordam qo'lini cho'zishga undaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o'qing.
2. Matn bo'yicha lug'at tuzing.
3. Matnning mazmunini o'zbek tilida gapirib bering.
4. Matnning ikkinchi xatboshisidan yasama so'zlarni toping va daftaringizga
5. Matndan ijodiy foydalangan holda o'qigan asarlaringiz ro'yxatini tuzing.

topshiriq. Quyidagi so'zlarni o'quv tilingizga tarjima qiling.

bizukroq -	shijoat -	jarayon -
o'qimishli -	mutolaa -	notanish –
shunchaki -	o'xshaydi -	mustahkamlanish–
kitobxon -	tadqiqot -	fikrlash –
qayg'urgan -	shiddatkor -	savodxonlik -

SO‘Z YASALISHIGA OID MATERIALLAR

O‘zbek tilida so‘z tuzilishi va yasalishi

Eslab qoling. So‘zlar tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo
sodda so‘zlar, qo‘shma so‘zlar, juft so‘zlar va takroriy so‘zlar.

Faqat bir o‘zakdan tashkil topgan so‘zlar sodda so‘zlar hisob
Masalan, keldi, yondirishdi, yigitlarga, g‘allachilik, lalmikor, yettinchi,
kabi.

Ikki va undan ortiq o‘zaklardan tashkil topgan so‘zlar qo‘shma
sanaladi. Masalan, shirinzabon, muzqaymoq, ishlab chiqarish, kungaboqar k
Ikki so‘zni yonma-yon qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlar juft
sanaladi. Masalan, qishin-yozin, erta-kech, bugun-erta va boshqalar.
so‘zlar ko‘pincha yangi ma’noga ega bo‘ladi va sodda so‘zlar bilan sino
munosabatda bo‘ladi: qishin-yozin (doimo), erta-kech (hamisha), bug
(yaqinda). Yoki umumlashtirish ma’nosini ifodalaydi: idish-tovoq (ro
buyumlari), qalam-daftar (o‘quv quroli), ko‘ylak-lozim (sarupo) kabi.
Non-pon, choy-poy, katta-katta, tez-tez, dam-badam, so‘zma-so‘z,
muncha kabi so‘zlar takror so‘zlar sanaladi.

94-mashq. Abdulla Qahhor ijodidan keltirilgan matnni ifodali o
Matnda keltirilgan yasama so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.

Martning oxirgi kunlari. Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari o
bir zumda yuz ko’yga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanida,
kelganidan bexabar hanuz g‘aflatda yotgan o‘t-o‘lanni, qurt-qumu
uyg‘otgan, avvalgidan ham yorug‘roq, avvalgidan ham issiqroq
sochayotgandek tuyuladi.
Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakina kishi, o‘ziga juda
katta ko‘k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichq
derazadan ko‘chaga qarab o‘tirgan edi, birdan tutaqib ketdi: shunday havo b
yu, oyoq-qo‘li butun odam ko‘chaga chiqolmay, derazadan mo‘ralab o‘tirsa!..

31-topshiriq. Berilgan mantdan qo‘shma, juft va takror so‘zlarni ajrati

Qadim zamonlarda bir odil shoh bo‘lib, undan mamlakatdagi katta-yu k
mamnun ekan. Uzoq-yaqindan kelganlar uni ziyorat qilib, mehr-muhabb
ramzi sifatida turli sovg‘alar berishar, biroq odil shoh bu sovg‘alarni
a’yonlarga teng bo‘lib berarkan. Kunlarning birida bir dehqon unga
yetishtirgan ertangi bodringdan uch dona olib kelibdi. Shoh bodringlarni
dehqonga minnatdorchilik tariqasida ming dinor in’om qilibdi. Dehqon ket
a’yonlaridan biri so‘rabdi:
– Shohim, bu gal odatingizga xilof ish tutib, uchala bodringni ham o‘z
yeb qo‘ydingiz. Sababi?...

Forscha: Odina, Shanba, Yakshanba, Dushanba, Seshanba, Chaho… Panjshanba.

Ruscha: Пятница, Суббота, Воскресенье, Понедельник, … Среда, Четверг.

Latincha: Dies Solis, Dies Lunae, Dies Martis, Dies Mercurii, Dies … Dies Veneris, Dies Saturni.

Saksoncha: Sunnandaeg, Monandaeg, Tiwesdaeg, Wodn… Thunresdaeg, Frigedaeg, Sater–daeg.

Nemischa: Sonntag, Montag, Dienstag, Dienstag, Donnerstag, … Samstag.

Fransuzcha: Dimanche, Lundi, Mardi, Mercredi, Jeudi, Vendredi, Sam…

Italyancha: Domenica, Lunedì, Martedì, Mercoledì, Giovedì, Ve… Sabato.

Ispancha: Domingo, Lunes, Martes, Miércoles, Jueves, Viernes, Sábad…

✍ **95-mashq.** Matnni o‘qing va affiksatsiya usuli orqali ya… so‘zlarni toping va daftaringizga husnixat asosida ko‘chiring.

Savol ilmning kalitidir. Aytadilarki: “Savol so‘rash ilmi hayot… uchraydigan bir yo‘ldir. Savol kitobni, mavzuni yoki darsni yaxshi anglab ye… ta'minlaydi. Savol ilmimizni oshiradi. Chunki, so‘rab javobini izlaymiz. … so‘rash o‘zimiz sezmagan holda bizni bilim egasiga aylantiradi”.

Abu Yusufdan: “Bu bilimni qayerdan qo‘lga kiritding?”, … so‘rashganida, “Kichik-katta, deb ajratmasdan, bilmaganimni so‘rash bilan”, … javob bergan edilar. Savol beraman, deb aqlga kelgan bo‘lar-bo‘lmas na… so‘ralmasligini unutmaslik lozim. Savol insonning saviyasini ham ko‘rsatadi.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

33-topshiriq. Berilgan matnni o‘qing va kompozitsiya usuli yordamida … bo‘lgan so‘zlarning imlosini eslab qoling.

Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, … talab kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo… yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushx… hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug‘doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, dev… suvtalab* kabi.

-(a) r (inkori **-mas**) qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va qo‘… sifatlar qo‘shib yoziladi: *o‘rinbosar, otboqar, cho‘lquvar, ishyoq… qushqo‘nmas* kabi.

… (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o‘xshatish … qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *karnaygul, … soholia, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg‘iyko‘z* kabi.

… Berilgan matnni o‘qing va imlosini eslab qoling.

… so‘z va takror so‘z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-…*

… qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zlar ham chiziqcha bilan … sandalli, xayr-xo‘shlashmoq kabi;

… so‘z qismlari orasida **-u (-yu)** bog‘lovchisi kelsa, undan oldin … yoziladi va juft so‘z qismlari ajratib yoziladi: do‘st-u dushman (do‘st-… kecha-yu kunduz (kecha-kunduz) kabi;

… **-ma, ba-** qo‘shimchalari yordamida birlashgan qismlari … bilan yoziladi: ko‘chama-ko‘cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam … mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so‘zlar qo‘shib … darbadar kabi.

… Berilgan matndagi so‘zlarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

Qo‘shma	*Juft*	*Takroriy*	*Kompozitsiya usuli bilan hosil bo‘lgan yasama so‘zlar*

… Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimi joriy qilindi. Uning bosh maqsadi … qilindi, yuksak ma’naviyatli, hozirjavob yoshlarni tarbiyalashdan iborat. … bo‘lsa, mehnatsevar, bolajon xalqimizga xos bo‘lgan sofdil, mard va … emas, shuno yoshlar kelajak poydevoridir. Ochildimi boychechak, Endi har yon … Bu shaharning oti Ko‘kterak ekan. Bir kuni Oqiljonning dadasi uch-… ko‘chatini ko‘tarib keldi. Onasi: - To‘polon qilmay o‘tiringlar, agar … bo‘lib o‘tirsalaring, ikkolovingga xo‘rozqand olib kelib beraman, - deb … ketdi.

✍ **97-mashq**. Nuqtalar o‘rniga **o** yoki **a** harflaridan mosini qo‘yib, … ko‘chiring.

d…ngasa	jann...t	k...sa	...rang	b...hona
v...hima	d...raxt	j...rima	l...la	mot....m
...rcha	b...hor	v...’da	d...g‘al	m....hir
j...sur	nod...n	vaf....	nord...n	...maki
t...g‘ora	...lti	...dam	t...maki	darv...za
...bod	j...hl	...voz	od....t	osm...n

98-mashq. "Kitob mutolaasi" matnidagi yasama so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.

15-DARS

MATN: ZAMONAVIY DUNYODA TA’LIM TIZIMI

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, dunyoning eng yaxshi ta’lim tizimi Finlandiya ekan. Finlandiya Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Xo‘sh, dunyoda eng yaxshi hisoblanadigan Finlandiya ta’lim tizimi, boshqalardan nimasi bilan ajralib turadi?

- Finlandiyada nufuzli yoki oddiy maktab tushunchasi yo‘q. Hamma maktablar davlatga tegishli bo‘lib, ular bir xil moliyalanadi va bir xil asbob-uskunalar bilan imkoniyatlarga ega;
- Kichik sinflarda bolalarga uy vazifasi berilmaydi, imtihon topshirmaydilar va ularga baho qo‘yilmaydi;
- Fin maktablarida bolalar juda ko‘p insho yozadi: mustaqil ishlash bolalarga o‘z bir masala haqida o‘z fikriga ega bo‘lishni va fikrini badiiy tilda izohlashni o‘rgatadi;
- Bir fanni boshqa fanlar o‘rnida chuqurroq o‘rganish ma’qullanmaydi. Masalan, finlar matematikani san’atdan ko‘ra chuqurroq o‘rganish kerak deb hisoblamaydi;
- Bir o‘quvchini boshqa o‘quvchi bilan qiyoslash ta’qiqlangan. Noginalarda qobiliyatli bolalar bir sinfda o‘qishadi;
- Fin maktablari shiori shunday: Biz bolani yo hayotga tayyorlaymiz, yo imtihonga. Biz birinchisini tanladik”. Shuning uchun ham fin maktablarida faqat bir marta – o‘quvchi 16 yoshga to‘lganda imtihon topshiriladi;
- Fin maktablarida eng asosiysi — o‘quvchini mustaqil hayotga tayyorlash deb hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga mustaqil bilim olishni o‘rgatishadi. Bolalar yodlab olingan formulalar o‘rniga, spravochnik, kalkulyator va internetdan foydalanishni o‘rganadi;
- O‘qituvchilar bir kunda sinf xonasida 4 soat dars beradi va haftaga 2 kun o‘qituvchi malaka oshirishiga sarflanadi;
- Finlandiyada “o‘qituvchi” kasbi – obro‘li kasb hisoblanadi. Oliy ta’lim maskanlarida o‘qituvchi bo‘lib ishlashga juda katta konkurs mavjud;
- Finlandiyada umumiy o‘rta ta’lim – bepul. Buning ichiga bepul turli ekskursiya, maktab avtobuslari va kitoblar kiradi. Ota-onalardan pul yig‘ilmaydi, ta’qiqlangan;

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Matnning mazmunini o‘zbek tilida gapirib bering
3. Matndan harakat va holat bildiruvchi so‘zlarni toping va daftaringizga ko‘chiring.

1. Matndan o‘timli va o‘timsiz fe’llarni toping va izohlang.
2. Matndan ijodiy foydalangan holda tahsil olayotgan ta’lim muassasangiz haqida kichik matn tuzing.

3-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

moliyalanadi -	dunyo -	imtihon -
kichik -	boshqa -	nogiron –
uchlash -	nufuzli -	shiori –
topshiradi -	tushuncha -	insho –
bolalar -	tegishli -	chuqurroq -

MORFOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Fe’l so‘z turkumi

Eslab qoling. Harakat-holat ma’nosini ifodalab, nima qildi (nima qilyapti (bo‘lyapti)?, nima qiladi (bo‘ladi?) singari so‘roqlarga javob beruvchi so‘z turkumiga fe’l deyiladi. Masalan: Talaba o‘qidi (nima qildi?). Bolalar guvullaydi (nima qiladi?) kabi.

Fe’llar tushum kelishigi qo‘shimchasi(-ni) ni olgan so‘z bilan bog‘lana olish yoki bog‘lana olmaslik xususiyatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

o‘timli fe’llar	o‘timsiz fe’llar
chizmoq	yugurmoq
yozmoq	seskanmoq
o‘qimoq	sakramoq
ko‘tarmoq	kulmoq

Fe’l qanday harakat-holatni ifodalashiga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi.

1. Yumush fe’llari: ishladi, mehnat qildi, ter to‘kdi va boshqalar.
2. Tafakkur fe’llari: o‘ylaydi, o‘qidi, kashf qildi kabi.
3. Sezgi fe’llari: sezdi, his qildi.
4. Ruhiy holat fe’llari: kuldi, xursand bo‘ldi, qayg‘urdi, iztirob chekdi.
5. Nutq fe’llari: gapirdi, so‘zladi, bayon qildi, ifoda qildi, ming‘irladi, shivirladi.
6. Ishora fe’llari: imo qildi, labini burdi, ko‘zini qisdi va boshqalar.
7. Jismoniy holat fe’llari: og‘ridi, isitma chiqdi, xastalandi, sog‘aydi, tuzaldi, charchadi kabi.
8. Tabiiy holat fe’llari: eridi, muzladi, yetdi, uxladi va boshqalar.
9. Ko‘rish fe’llari: qaradi, ko‘rdi, boqdi, termuldi.

Yuqoridagi fe’l turlarining har qaysisi bir necha fe’llarni o‘z ichiga oladi. Bu fe’llar harakat-holat ma’nosini qanday ifodalashi bilan bir-biridan farq qiladi. Quyidagi farqlanishlarni kuzatish mumkin:

1. Harakat-holatning kuchli-kuchsizligiga ko‘ra farqlanishi: jilmaymoq — tirjaymoq — kulmoq.
2. Ijobiy va salbiy bahoga ega bo‘lishligiga ko‘ra: kulmoq — tirjaymoq; ming‘irlamoq — to‘ng‘illamoq, ming‘irlamoq.

3. Uslubiy xoslanishiga ko'ra: kulmoq (umumiste'moldagi [illegible] tabassum qilmoq (badiiy uslubga xos), so'zlamoq (umumiste'moldagi [illegible] nutq ijod etmoq (badiiy uslubiga xos) kabi.

Yuqoridagi fe'llarning har qaysisini o'z o'rnida ishlatish nutqning [illegible] aniqligi va ifodaliligini ta'minlaydi.

99-mashq. "Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi" matnidagi [illegible] turkumiga oid bo'lgan so'zlarni topib daftaringizga yozing. Fe'lning [illegible] holatni ifodalashiga ko'ra turlariga ajrating.

100-mashq. Berilgan matnni o'qing va fe'l so'z turkumiga oid [illegible] so'zlarga savol bering va aniqlang.

"Toshkentnoma"

Umrim bino bo'ldi Ozarboyjonda,
Kechdi bolaligim u gul makonda.
Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi
O'pkamga to'ldirdi she'r havosin...
Lekin shoirlikning nozik tolei
Kuldi Sirdaryoning havzalarida.
O'zbek quyoshining chin otaligi
Aks etdi mastoba kosalarida.
O'zbek vodiysida otimni surdim,
Aziz yo'ldoshlar-la o'toldim, yurdim.
Yo'q, men taqdirimdan emasman xafa,
Shoirlik unvoni baxtimdan tuhfa!..

MAQSUD SHAY[illegible]

101-mashq. Topishmoqlarni o'qing va yod oling. Fe'l so'z turkumi[illegible] bo'lgan so'zlarni aniqlang.

Bodomcha bodomcha bilan,
Yetti kalit tom bilan.
Ne ko'zi bor, ne og'zi bor,
So'ylashadi odam bilan.

(K[illegible]

Erta bilan to'rt oyoqlab yuradi,
Tushda uch oyoqlab yuradi.
Kechqurun uch oyoqlab yuradi.

(Odam – bolaligi, yigitligi, keksali[illegible]

Kunduzi tayoqlashar,
Kechasi quchoqlashar.

(Kipriklar)

[illegible] SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

[illegible] Quyidagi matnni o'qing va imlosini eslab qoling.

[illegible] fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib* [illegible] *miq etma* kabi.

[illegible] fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib ber,* [illegible] *ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan,* [illegible] kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush [illegible] bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi* [illegible] *bilarkan (bilar ekan)* kabi.

[illegible] qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va [illegible]

[illegible] so'zlardan fe'l yasovchi **-illa** (*chirilla, taqilla*) qo'shimchasi so'z [illegible] **u** tovushi bo'lganda *-ulla* aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla,* [illegible] kabi;

[illegible] shaklini yasovchi **-dir** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan [illegible] so'zlarga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan [illegible] yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir;* [illegible] kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha **-tir** aytiladi va [illegible] *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

[illegible]

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uv** qo'shiladi: ol – oluv, yoz – [illegible] kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: uz – [illegible] yut – yutuq kabi.

Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi [illegible] uchinchi bo'g'inida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

102-mashq. Quyidagi matnni o'qing va ma'nosi bo'yicha fikr [illegible] Birinchi xatboshida ishlatilgan harakat bildiruvchi so'zlarni aniqlab [illegible] ko'chiring.

[illegible] bir Ona lochin o'tgan ekan. Uning uyasi yaqinida zaharli ilonlar [illegible] Ular xavf solganda lochin ilonlarni dumidan changallab osmonga olib [illegible] qoyatoshlar ustiga tashlab yuborarkan.

[illegible] kuni qolgan ilonlar tog' kamarlariga bekinib, lochindan qasd olishning [illegible] o'ylashibdi. Ona lochin har yili pana bir joydagi uyasiga tuxum qo'yib jo'ja [illegible] Ilonlar ham tuxumdan bola ochadi-ku. Lochin uzoqqa ov qilgani [illegible] ilonlar sekin o'rmalab kelib, uning tuxumlarini yeyishibdi-yu, o'rniga [illegible] tuxumidan qo'yib ketishibdi.

[illegible] bexabar Ona lochin qo'ygan tuxumlariga vujudining haroratini [illegible] ularni bir necha kun bosib yotibdi. Vaqti soati yetib, tuxumlar teshilibdi,

ichidan nimadir chiqa boshlabdi. Ona lochin qarasa, tuxumlardan jo'jalar o'
ilonbachchalar o'rmalab chiqibdi. Bundan dahshatga tushgan Ona lochin chi
uyasidan ko'kka uchibdi. Ilonlarga yem bo'lgan avlodi bilan vidolashib
chekkanda tog'lar larzaga kelibdi.

"Ona lochin

103-mashq. Cho'lpon qalamiga mansub quyidagi she'rni yod olin
tovushi ishtirok etgan so'zlarning imlosini eslab qoling.

XALQ

Xalq dengizdir,
Xalq to'lqindir,
Xalq kuchdir,
Xalq isyondir,
Xalq olovdir, xalq o'chdir...
Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdirkim, to'xtatsin,
Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsin.
Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,
Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi...

Xalq istagi: ozod bo'lsin bu o'lka,
Ketsin uning boshidagi ko'lanka,
Bir qo'zg'alur, bir ko'pirar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar,
Yo'qliqni-da, ochlikni-da yo'q etar,
O'z yurtini har narsaga to'q etar...

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!

16-DARS

MATN: SALOMATLIK - TUMAN BOYLIK

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, eng birinchi navbatda boshla
islohotlar qatoriga sog'liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash tadbir
kirishildi. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sha
axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushuna

Odamlarda bebaho boylik bo'lgan o'z sog'ligini saqlashga to'g'r
mas'uliyatli munosabatda bo'lishi, o'z hayot faoliyatini oqilona tashkil q
salomatlik uchun zararli va xatarli odatlardan voz kechish, jismoniy va
jihatdan uyg'un kamol topishga yo'naltirishdir. Har bir sog'lom
giyohvandlikka, chekishga, yuqumli kasalliklar, jumladan, sil kasalligi va
tarqalishiga qarshi kurashishi lozim.

Hammaga yaxshi ma'lumki, bemor odam na hayot lazzati, balki oddiy taom
ham tatib ko'ra olmaydi. Bas, shunday ekan O'zbekiston xalqining va
istiqomat qiladigan har bir insonning sog'ligini mustahkamlash,
hayot tarzini har tomonlama joriy etish, har bir fuqaroda sog'lom turmush
tarbiyalash va uni singdirish asosiy vazifalardandir.
hisoblangan inson salomatligi, avvalo, insonning o'ziga bog'liq
jamiyat va davlat muassasalarining qanday ishlayotganligiga

Lug'at

islohot	-	реформа
odob	-	воспитанность
zararli	-	вредный
xatarli	-	опасный
yuqumli	-	заразный,инфекционный
muassasa	-	учреждение

MORFOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Tuslanish. Fe'llarning o'tgan zamonda tuslanishi

Eslab qoling. Fe'ldan anglashilgan harakatning nutq momentiga
bajarilishi yoki bajarilmaslik paytini bildiradigan shakllarga zamon
ana shunday shakllar tizimiga zamon kategoriyasi deyiladi. Zamon turini
so'zlanayotgan nutq vaqti asosiy tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi. Ana
uch zamonga bo'linadi: 1) O'tgan zamon, 2) Hozirgi zamon, 3)

Fe'ldan anglashilgan harakatning nutq so'zlanayotgan vaqtdan oldin bo'lib
bildirgan shakllar o'tgan zamon shakllari sanaladi. O'tgan zamon
quyidagi shakllar kiradi: -di, -gan, -ib, (-man, -san, -di) kabi. Masalan,
kelgan, kelibman, kelibsan va boshqalar. Bu shakllar garchi «o'tgan zamon»
ma'nosi asosida birlashsa ham, lekin ularning har qaysisi bir-biri bilan
ma'nosiga ko'ra farq qiladi:
gan shakli -di ga nisbatan harakatning nutq so'zlangan vaqtdan ancha oldin
bo'lganini bildiradi.
-ib, -ibman, -ibsan shakllari esa so'zlovchi nutq momentidan oldin ro'y
harakatni boshqa shaxsdan eshitganligini yoki oldindan kutilgan
amalga oshganligini bildiradi. Masalan, O'g'rini eshakka teskari
(Ertakdan)
shakli, umuman, harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini

Solishtiring:
Keldi
Kelgan
Kelgan edi
Kelibdi

104-mashq. Berilgan matnni o‘qing va fikr yuriting. O‘tgan zamon fe’llarini daftaringizga ko‘chiring va shaxs-sonda tuslang.

SOG‘LOM BO‘LAY DESANG

1. Unutmang: hatto retsepsiz sotiladigan dori-darmonlarni iste’mol qilishda ham shifokor maslahati zarur. Televizor yoki tanish-bilishlar maslahatlari bilan davolanmang.

2. Sizga terapevt bir dorini, okulist - ikkinchisini, stomatolog uchinchisini, kardiolog esa yana boshqasini yozib bergan bo‘lsa, qayta terapevt huzuriga boring. U dori-darmonlarni o‘zaro tahlil qilib, qay birini, qanday yo‘sinda ichishni tavsiya etadi. Bu albatta, ko‘pgina ko‘ngilsizliklarning oldini oladi.

3. Iloji boricha bir turdagi dorini qabul qilishga harakat qiling.

4. Har doim o‘zingizga yaxshi tanish bo‘lgan, obdon sinalgan preparatlardan foydalaning. Katta shov-shuvga sabab bo‘lgan, reklama qilingan maqtovi oshirilayotgan dori-darmonlardan, ayniqsa, ehtiyot bo‘ling. Mo‘jizaviy preparatlar haqidagi afsonalarga ishonavermang. Odatda, ular qimmat bo‘ladi va reklamada va’da qilingan xususiyatlarga ega bo‘lmaydi.

5. Faqat o‘z kasalingizga davo bo‘luvchi, shifokor tavsiya qilgan dorilarnigina iste’mol qiling.

6. Dori idishdagi yozuvlarni diqqat bilan o‘qib chiqing - ularning hammasini bo‘lmaganda ruscha tarjimasi bo‘lishi kerak. O‘qishda, ayniqsa, tavsiya qilinmaydigan holatlar va teskari natijalar haqida ogohlantiruvchi bo‘limga alohida e’tiborni qarating. Dori qabul qilish me’yori va vaqti borasidagi ko‘rsatmalarga qat’iy amal qiling. Dorini (agar bu haqida ko‘rsatmada aytilgan bo‘lmasa), albatta suyuqlik bilan iching.

7. O‘zingizning tibbiyot borasidagi bilimlaringizni to‘ldirib boring. Uyingizda, albatta, ommaviy tibbiyot ensiklopediyasi yoki axborotnomasi bo‘lsin.

8. Agar sizda surunkali kasalliklar bo‘lsa va ma’lum bir dorini sog‘ligingizga ta’siridan xavotirlansangiz, shifokor bilan, albatta, maslahatlashing faqat shifokorgina dorining siz uchun foyda-zararini aniq ko‘rsatib beradi.

9. Dorilarning saqlash sharoitiga alohida e’tibor bering - bu haqida ko‘p qutisi ichidagi yozuvda aytiladi. Shunday preparatlar borki, ularga nur salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zilarini esa sovuq joylarda saqlash kerak. Va albatta, barcha dori-darmonlarni yosh bolalar qo‘li yetmaydigan joylarda saqlash zarur.

105-mashq. Quyidagi fe’llarni o‘tgan zamon va shaxs-sonda tuslang.

Kelmoq, kuylamoq, yugurmoq, sanamoq, chopmoq, varaqlamoq, gaplashmoq, supurmoq, aytmoq.

Namuna:

	Birlikda	Ko‘plikda
I.	keldim	keldik
II.	kelding	keldingiz
III.	keldi	keldilar

106-mashq. Berilgan matnni ifodali o‘qing. Matn mazmuni bo‘yicha sarlavha qoying va birinchi xatboshini daftaringizga ko‘chiring. O‘tgan zamon fe’llarining tagiga chizing.

Hakimlar sultoni

Tibbiyot sohasidagi yuksak kashfiyotlari bilan dunyoga dong taratgan buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lgan buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino o‘zining 57 yillik umri mobaynida insoniyatga shunday ulug‘vor xizmat qildiki, natijada jahon ilm-u fani yuksalishlar davriga qadam qo‘ydi.

Buyuk bobokalonimizning hozirgacha bizga ma’lum bo‘lgan ilmiy asarlarining umumiy soni 276 tadan ortadi. Ushbu risolalarda ko‘rsatilgan ilmiy qoidalar ayni paytda ham tegishli mutaxassislar tomonidan qayta-qayta o‘qib chiqilmoqda. “Ash shifo” kitobi 18 jild, “Donishnoma” asari 20 jild, “Arab tili va qo‘llanma” 12 jild, “Tib qonunlari” kitobi hozirgi zamon nashriga binoan 6 jildni tashkil etgan. Bularning barini umumiy holda hisoblanganda jami hajmi 5 ming varaqdan oshadi.

“Tib qonunlari” kitobi XII asrda arab tilidan lotin tiliga o‘girilgandan so‘ng butun dunyoga qanot yozib parvoz qildi. 1493-yilda fransuz tiliga, 1593-yilda ispan tiliga, XV asrda rus tiliga o‘girildi. XII asrdan XVIII asrgacha u 40 marta qayta nashr etildi. Mazkur asar qayta nashr qilish soni bo‘yicha Injildan keyingi o‘rinda turadi. Abu Ali ibn Sinoning asarlarini o‘qib, ularni bugungi dunyo bilan solishtirar ekanmiz, “birinchi” degan so‘zni allomaga nisbatan juda ko‘p ishlatishimiz mumkin.

Alloma 1200 ta har xil minerallardan, 1400 dan ortiq turli o‘simliklardan tayyorlangan dorilarni ishlatishni juda yaxshi bilgan. Tibbiyotga birinchi bo‘lib 16 ta fanni olib kirgan va u bilan juda og‘ir ahvoldagi bemorlarni davolagan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, uning tabiatida insonparvarlik va odamlarga yaxshilik qilish kabi olijanob fazilatlar yuksak darajada rivojlangan edi. U o‘z bemorlariga mehr va mehribonlik ko‘zi bilan boqar, ularga diqqat-e’tiborbilan muolaja qilardi. Faqir va benavolarga esa xolis xizmat ko‘rsatar edi. Jurjonda yashagan paytida muolaja xonasiga kiraverishdagi yo‘lakchaning devoriga bir sandiqcha osib qo‘yishni buyurgan ekan. Unga har bir bemor o‘zining iqtisodiy ahvoli va imkoniga qarab xohlagan miqdorda pul tashlab kirgan ekan. Shuning uchun ham “Shayx ur-rais”, “Hujjat ul-haq”, “Sharq allomasi”, “Ustozlar ustozi”, “Hakimlar shohi” kabi faxriy unvonlar Ibn Sinoga bejizga berilgan emas. Uni biror bir allomasi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. U qoldirgan meros tilsimi ayni vaqtda ham shunchalik balanddaki, biz minnatdor avlodlar unga va uning ruhiy olamiga hamisha talpinib yashaymiz.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

107-mashq. Matnni o‘qing. Birinchi xatboshini daftaringizga ko‘chiring, asosida ko‘chiring. Fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarni toping va o‘tgan zamon shakllarini tagiga chizing.

Bu hodisalar xabari Kobulga javzo oyida yetib bordi. Kunlar isib, qor atrofidagi tog‘larning qori erigan sari faqat daryolardagina emas, buloqlarda ham suv ko‘payib ketdi. Shohi Kobul tog‘ining etaklaridan chiqadigan chashmalar, Gulkina mavzeidan nariga o‘tib, baland tepalik ustiga joylashgan ark yonveridagi maysazorlarga ham jildirab yetib keldi.

Qishda Qandahordan olib kelingan Akbar enagalari bilan shu arkda qish nazorat ostida saqlanar edi. Akbarning onasinikiga o‘xshash yirik-yirik ko‘zlari katta ammaning yuziga hayrat bilan tikiladi. Kattalar orasidagi murakkab munosabatlarga hali uning aqli yetmaydi. Lekin arkka kelib-ketib turadigan ko‘zlari sovuq bek-u a’yonlardan bolaning o‘zi ham begonasiraydi. Bu yerda yasama takalluflar qilib, uni gapga so‘lmoqchi bo‘lsa, bola qovog‘ini uyib indamay turaveradi.

“AVLODLAR DOSTONI”

108-mashq. Quyida berilgan matnni o‘qing, xalqaro tashkilotlar nomi tarkibidagi har bir so‘zning bosh harflar bilan yozilish sababini izohlang.

JAHON SOG‘LIQNI SAQLASH TASHKILOTI

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (**JSST**, ingl. *World Health Organization, WHO*) — Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus bo‘linmasi bo‘lib, 191 ta davlatlardan iborat, uning asosiy maqsadi sog‘liqni saqlashning xalqaro muammolarini hal etish va dunyo aholisi salomatligini muhofaza qilishdir. 1948-yilda Shveytsariyaning Jenevadagi shtab-kvartirasi bilan tashkil etilgan.

BMTning ixtisoslashtirilgan guruhiga JSSTdan tashqari UNESCO (Ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti), XMT (Xalqaro Mehnat Tashkiloti), UNICEF (Bolalarga yordam ko‘rsatish jamg‘armasi) ham kiradi. JSST tarkibiga BMT a’zo davlatlari qabul qilinadi, lekin nizomga muvofiq, BMTga a’zo bo‘lmagan davlatlarni qabul qilish ham mumkin.

37-topshiriq. Urg‘u bilan farqlanuvchi so‘zlarning talaffuzi va imlosi e’tibor bering. Ushbu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib daftaringizga ko‘chiring.

akade´mik (ot, ilmiy unvon)	- akademi´k (sifat, akademik litsey)
atla´s (ot, ipak mato)	- a´tlas (ot, kartalar to‘plami)
banda´ (ot, xudoning bandasi)	- ba´nda (ot, qurollangan o‘g‘rilar)
bog‘la´r (ot, bog‘ning ko‘pligi)	- bo´g‘lar (fe’l, ko‘zini bog‘lar)
olma´ (ot, meva)	- o´lma (fe’l, qo‘lingga olma)
yigitcha´ (ot, kichraytirish)	- yigi´tcha (ravish, yigitcha gaplashamiz)

138-mashq. Quyidagi she’rni o‘qing va yod oling. Matndagi fe’llarni topib, ular qaysi zamon fe’llarga ajrating. O‘tgan zamonda tuslang.

O‘ZBEKISTONIM, SENGA

Aylayin qalbimni tortiq nurli bo‘stonim, senga,
Sen vatandirsan, fidodir tanda bu jonim senga.

Behahosan, asragayman gavharim, deb men seni,
Sen qarog‘ bo‘lsang agarda, sadqa mujgonim senga.

Sendan ayru dam uzundir, lahzalar ham yilga teng,
Bir umrga lek barobardir kerak onim senga.

Har bir ahling bitta yulduz, kavkabistonim o‘zing,
To hayotdirman, charog‘im, shu’layi shonim senga.

Yor-u do‘stlar jam bo‘libdir, to‘y qilur o‘zbek elim,
Men degayman xush kelibsan, do‘st-u mehmonim, senga.

Xizmatingga shay eturman, mehnatingda ham o‘zim,
Baxtiyorman, sarf etolsam borki imkonim senga.

Dilda borim sen uchundir, qo‘lda torim sen uchun,
Qayda bo‘lsam talpinurman, O‘zbekistonim, senga.

Abdulla Oripov

17-DARS

MATN: **UYQU**

Dunyoda uxlashni yaxshi ko‘rmaydigan odam bo‘lmasa kerak. Lekin tush [illegible] ilm-fan paydo bo‘lganidan boshlab olimlarni qiziqtirib kelgan soha [illegible] qaramay, uning sir-asrori hali ham oxirigacha o‘rganilmagan. Siz uyqu [illegible] nimalarni bilasiz? Odam umrining uchdan bir qismi, ya’ni 25 yilga [illegible] o‘tadi. Ayollar erkaklarga qaraganda deyarli 2 marta ko‘proq to‘yib [illegible]likdan aziyat chekadi.

Ota-onalar oilada yangi inson dunyoga kelganining dastlabki ikki yilida 6 [illegible] tungi to‘liq uyqudan judo bo‘ladi. Uyqusiz o‘tkazilgan besh tundan [illegible] ichimliklarning organizmga ta’siri ikki baravar oshadi. Yurak [illegible], semirish, diabet uyqusizlik bilan bog‘liq. Muntazam ravishda tungi [illegible] va 03:00 orasida uyg‘onib ketuvchi odamlar tez vazn to‘plashi haqida [illegible] gipotezalar mavjud. Tushingiz notanish odamlar bilan to‘la [illegible] sezgan bo‘lsangiz kerak. Aslini olganda, tushingizda ko‘rgan hamma [illegible] haqiqiy hayotda hech bo‘lmasa bir marta ko‘rgan

bo‘lasiz. Tadqiqotlarga ko‘ra, rangli televideniye paydo bo‘lganidan boshlab tush ko‘ruvchilar soni ancha oshgan. Surunkali uyquga to‘ymaslikdan chekuvchi kishilar (bir sutkada 4 soatdan ko‘p bo‘lmagan) yoki haddan ko‘p uxlaydiganlar (9 soatdan oshiq) kutilmaganda o‘lishga moyil bo‘ladi. vaqt davomida chekkan va keyin bu zararli odatni tashlagan kishi ta’kidlashicha, ularning tushi ancha yorqinlashgan. Yo‘l-transport organlarining statistik ma’lumotlariga qaraganda, charchash va uyquga to‘y avtohalokatlarning eng keng tarqalgan sabablari hisoblanadi. Eng uzoq uyqusizlikning rekordi 18 kun, 21 soat va 40 daqiqa hisoblanadi. qo‘yuvchi odam gallyutsinatsiya, paranoyya, ko‘rishning yomonlashishi, muammolari, diqqatni to‘play olmaslik va xotiraning pasayishi to‘g‘risida bergan. Edison, Da Vinchi, Franklin, Tesla, Cherchill – ularning belgilangan me’yordan ancha kam uxlagan va o‘zlarini mutlaqo sog‘lom Olimlarning fikricha, uyquning bunday buzilishi – katta talantning iste’dodlilikning har doim ham yaxshilikka olib kelavermaydigan tomonidir. Olimlar tomonidan o‘tkazilgan tajribalar davomida aniqlanish tushini ko‘k yoki zangori tuslarda ko‘ruvchi odamning hayotida hammasi va o‘z o‘rnida bo‘lar ekan. Agar tush qizil rangda bo‘lsa – bu haroratning oshishi yoki qandaydir kasallik belgisi bo‘lishi mumkin ekan. Qora odamning yaqin vaqtlarda asabiylashganini bildirar ekan.

38-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

o‘rganilmagan -	xastalik -	ma’lumot -
qaraganda -	semirish -	uyqusizlik –
uxlolmaslik -	organizm -	yomonlashish
oxirigacha -	avtohalokat-	talant –
uxlash -	rangli -	tush -

MORFOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Fe’llarning hozirgi va kelasi zamonda tuslanishi

Eslab qoling. Fe’ldan anglashilgan harakat-holatning so‘zlanayotgan vaqtda ro‘y berishi yoki bermasligini bildirgan shakllarga zamon shakllari, shunday shakllar tizimiga esa hozirgi zamon kategor deyiladi. Hozirgi zamon ma’nosi -yapti, -yotir, -moqda singari qo‘shim qo‘shish orqali ifodalanadi. Masalan, yozyapti, yozmoqda, yozayotir. Bular yapti, -moqda, fe’l asoslariga, -yotir esa fe’lning ravishdosh shakliga qo‘sh Hozirgi zamon shakllari ma’lum uslubga xoslangani bilan o‘zaro farqlanadi, uslubiy betaraf (neytral) shakl bo‘lsa, -moqda, -yotir yozma nutq uslubiga xos

Fe’ldan anglashilgan harakat-holatning nutq so‘zlanayotgan vaqtdan ro‘y berishbermasligini bildirgan zamon shakllariga kelasi zamon shak shunday shakllar tizimiga esa kelasi zamon kategoriyasi deyiladi. Kelasi za ma’nosi fe’lning -a ravishdosh shakliga -di, -jak; fe’l asoslariga -ar, -ur,

qo‘shish orqali hosil bo‘ladi. Masalan, keladi, kelajak, kelar (ur),

-adi, -ar uslubiy betaraf shakllar bo‘lsa, -jak, -gay, -ur, -gusi va publitsistik uslubga xosdir. Uslubiy betaraflik belgisiga ko‘ra - shakllari bir guruhni tashkil qilsa ham, ular ifodalanayotgan harakatga ma’nosini bildirish-bildirmasligiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. bunday ma’noga betaraf bo‘lsa, ikkinchi shakl gumon-taxmin ma’nosiga keladi — kelar.

turli zamonga mansub bo‘lgan shakllar o‘zaro almashinishi mumkin. Tanklar, zambaraklar ag‘anab yotibdi. Bir jangchining peshonasi bir jangchining esa yelkasidan qon oqmoqda. (Shuhrat)

bo‘lib o‘tgan voqealarga tinglovchini olib kirish, ularni uning olib kelish maqsadida hozirgi zamon shakli ishlatilgan.

Fe’lning shaxs-son bo‘yicha zamonlarda tuslanishi

1 – Tuslanish. Hozirgi zamon shakli	
BIRLIK	KO‘PLIK
1 – shaxs kelyapman	kelyapmiz
2 – shaxs kelyapsan	kelyapsiz
3 – shaxs kelyapti	kelyaptilar

2 – Tuslanish. O‘tgan zamon shakli	
BIRLIK	KO‘PLIK
1 – shaxs ko‘rdim	ko‘rdik
2 – shaxs ko‘rding	ko‘rdingiz
3 – shaxs ko‘rdi	ko‘rdilar

3 – Tuslanish. Kelasi zamon shakli	
BIRLIK	KO‘PLIK
1 – shaxs boray	boraylik
2 – shaxs borgin	boring, boringlar
3 – shaxs borsin	borsinlar

110-mashq. Quyidagi fe’llarni hozirgi zamon va shaxs-sonda tuslang.

O‘qimoq, yozmoq, so‘ramoq, o‘ylamoq

Namuna:

	Birlikda	Ko‘plikda
I.	o‘qiyapman	o‘qiyapmiz
II.	o‘qiyapsan	o‘qiyapsiz
III.	o‘qiyapti	o‘qiyaptilar

111-mashq. Matnni o‘qing va hozirgi va kelasi zamon shakllarini toping.

"OSUDA UYQU UCHUN 4 QADAM"

Kunduzi qisqa muddat uxlab olish tetiklanib olish va bo[illegible] "kompyuterni" qayta yuklashning eng yaxshi usulidir. Biroq "qisqa" deyil[illegible] vaqt o'zi qancha bo'lmog'i lozim?

10-20 daqiqa

Tetik va bardam bo'lishning klassik usuli. Bu vaqt davomida chuqur [illegible] ketmaysiz, shunday ekan uyg'onish ham qiyin kechmaydi.

30 daqiqa

Bu juda yomon tanlov! 30 daqiqalik uyqudan so'ng o'zingizni hor[illegible] layoqatsiz sezishingiz mumkin.

60 daqiqa

Bir soatlik uyqu miyani charchoqlardan holi qilib barcha yangi ma'lu[illegible] va bilimlarni "omborga" joylashga yordam beradi. Agar tuni bilan imti[illegible] tayyorlangan bo'lsangiz, sinovlar oldidan 1 soat mizg'ib olishni tavsiya etam[illegible]

90 daqiqa

Kunduzgi uyquning to'liq davri – siz sekin va tezkor uyqu fazasini [illegible] o'tishga ulgurasiz. Uyg'ongach sezilarli darajada tetiklashasiz, miya faoliy[illegible] qancha yaxshilanadi, tiniq va tez firklaysiz.

9-11 soatlik uyqu **6-12 yoshli** bolaning darslarni yaxshi o'zlashtiri[illegible] sog'lom ulg'ayishi uchun kundalik zaruriy norma hisoblanadi. [illegible] **yoshli** farzandlaringizga kunlik 8-10 soat uyqu yetarli. Katta yoshdagilar[illegible] kunlik norma 7-9 soatni tashkil etadi. Aslo bundan kam emas! "Insonga ku[illegible] soat uyqu ham yetarli, yetishmayotgan qismini dam olish kunlari to'ldirib ol[illegible] bo'ladi" qabilidagi fikrlar hammasi bekor.

18+ daraja harorat yotoqxona uchun ideal harorat hisoblanadi. B[illegible] ortig'i ortiqcha. Inson uyquga ketgach 4 soat ichida tana harorati eng past da[illegible] tushadi va bu holat miriqib uxlab, yaxshi orom olish imkonini beradi. Agar [illegible] harorati issiq bo'ladigan bo'lsa bunday oromdan bebahra qolishingiz aniq.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

112-mashq. Matnni o'qing. Tagiga chizilgan so'zlar keyingi qatorga q[illegible] ko'chirilishini ayting.

SHIRIN UYQU

Bir odamning uchta o'g'li bor ekan. U vafoti oldidan o'g'illariga: "Uy[illegible] shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng", - deb vasiyat qilibdi. Bu gapni [illegible] o'g'illari bir xil tushunibdi. Kichik o'g'li esa boshqacha tushunibdi.

Katta o'g'illar yerlarga suv sepib, karavotga ko'rpani qalin to'shab, h[illegible] shirin taomlarni ustma-ust yeb yotaverishibdi. Oxiri yeyishga ovqatlari qolm[illegible] Kichkina o'g'il esa ko'p mehnat qilib, temirchilik hunarini o'rganibdi. Is[illegible] ishlab, horib charchab kelgach, yegan qattiq noni-yu, ichgan suvi [illegible] tatiyveribdi. Uxlasa uyqusi ham shirin bo'lib, kun sayin tetiklashib, borgan [illegible] davlati ziyoda bo'lib ketaveribdi.

O'zbek xalq ert[illegible]

113-mashq. Quyidagi so'zlarni daftaringizga ko'chiring va [illegible] izohlang. Ma'nolari bo'yicha imlosini eslab qoling.

[illegible] sava, she'r-sher, al'amon-alamon, a'lo-alo, a'yon-ayon, da'vo-davo, [illegible] san'at-sanat, ta'na-tana, ta'qib-taqib, shu'ba-shuba.

114-mashq. Berilgan hikoyat matnini o'qing. fe'llarni topib, tuzilishiga [illegible] ajrating.

Namuna:

[illegible]	Qo'shma	juft	takror

Hikoyat

[illegible] bir donishmanddan: "Eng ashaddiy dushmaning – ikki kifting orasida [illegible] nafsingdir. ", degan hadisning ma'nisi nima?" deb so'radim. [illegible] shunday javob berdi: "Ma'nosi shuki har bir dushmanga ehson [illegible] senga do'st bo'ladi, illo nafs degan narsaga qancha iltifot qilsang, [illegible] shuncha oshiraveradi".

Maromida ovqat yegan farishta bo'lur,
Hayvon kabi yesa tushar og'ir tosh misol.
Kim istagin bajo qilsang amringga tobe,
Nafs aytganin qildingmi, bo'ysundirmoq mahol. *Sa'diy "Guliston. [illegible] Toshkent.; "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" [illegible] 126-bet*

115-mashq. Quyidagi matnni o'qing va ona tilingizga tarjima qiling.

Как облегчить рабочий день в офисе?

С наступлением весны всё вокруг меняется, распускается, оживает, [illegible] зеленеет. Это весна начинает вступать в свои права. Вот только [illegible] через окно офисных зданий мы можем лишь голубое небо, [illegible] лучи или капли дождя, да и то не всегда. Весна, к сожалению, не [illegible] пере-ступить порог офиса и стремительно проходит мимо нас.

А поскольку наша жизнь в основном проходит на работе, мы не [illegible] насладиться ни весной, ни теплом, ни солнеч-ным светом. Есть [illegible] способов «облегчить» свою участь и добавить немного природной [illegible] и весеннего настроения в офисный быт. Можно, например, [illegible] в офисе пару горшков с комнатными цветами. Зелёный цвет [illegible] серые будни. Или предложить коллегам по чашке ароматного тра-[illegible] чая. Свежие запахи мяты или земляничных листьев улучшат [illegible] и создадут атмосферу тепла и уюта.

18-DARS

MATN: **TOSHKENT METROSI**

Toshkent metropoliteni - Toshkent shahar yo‘lovchilar transporti kor... uyushmasi tarkibida. Toshkent metropolitenining qurilishi 1972-yilda bosh... birinchi yo‘nalishi 9 bekatdan iborat. Uzunligi 11,4 km, birinchi navbati (... Rahimov”, “Chilonzor”, “Mirzo Ulug‘bek”, “Hamza”, “Yoshlik”, “... do‘stligi”, “Paxtakor”, “Mustaqillik maydoni”, “Markaziy xiyobon” bek... 1977-yil 6-noyabrda, ikkinchi navbati (“Hamid Olimjon”, “Pushkin”, “Buyuk ... yo‘li” bekatlari, uzunligi 4,1 km) 1980-yil 18-avgustda foydalanishga tops... Bekatlar soni 12 taga yetdi.

Toshkent metropolitenining umumiy uzunligi 4,8 km bo‘lgan ik... yo‘nalishining birinchi navbati (“Alisher Navoiy”, “O’zbek... “Kosmonavtlar”, “Oybek”, “Toshkent” bekatlari) 1984-yil noyabrda, ik... navbati (“Mashinasozlar”, “Chkalov” bekatlari, uzunligi 3,3 km) 19... noyabrda ishga tushdi. Shu yo‘nalishning uchinchi navbati 1989-yil noya... (“G‘afur G‘ulom”, “Chorsu” bekatlari, uzunligi 2,4 km), to‘rtinchi na... (“Tinchlik” va “Beruniy” bekatlari, uzunligi 3,8 km) 1991-yil 30-aprelda ... tushdi. Bu yo‘nalishning umumiy uzunligi qariyb 14,3 km ga yetdi.

Toshkent metropolitenining shahar markazini Yunusobod turar joy m... bilan bog‘laydigan (umumiy uzunligi 14 km) uchinchi yo‘nalishining bi... navbati (“Mingo‘rik”, “Yunus Rajabiy”, “Abdulla Qodiriy”, “M... “Bodomzor”, “Habib Abdullayev” bekatlari) 2001-yil 26-oktabrda ishga tushdi.

Toshkent metropolitenida qatnaydigan poyezdlarning o‘rtacha tezli... km/soat, maksimal tezligi 65 km/soat. Toshkent metropolitenida sutkasiga o‘r... 270—300 ming yo‘lovchi tashiladi. Yo‘lovchilarga qulaylik yaratish uchun ... bekatlarda eskalatorlar o‘rnatilgan. Metrodagi “Chilonzor”, “Hamza” bek... gumbazsimon, “Mustaqillik maydoni” yig‘mamonolit konstruksiyali ko... tipida, boshqa bekatlar esa kolonna tipida qurilgan. Har bir bekatning h... me’morlik hamda haykaltaroshlik nuqtayi nazaridan bezatilishi ramziy ravi... shu bekat nomini aks ettiradi. Ularda madaniy, monumental dekorativ va am... san’atning milliy an’analari o‘z aksini topgan. Bekatlarga bezak berishda, as... qora, qizil, kulrang granitlar, turli xil marmar, keramika, stomalit, yog‘och, ... turli xil metall va boshqalardan foydalanilgan.

Toshkent metropoliteni 9 balli zilzilaga bardosh beradi. Tosh... metropolitenining umumiy uzunligi 38,25 km, bekatlar soni 29 ta (2004). M... qurilishi va navbatdagi yo‘l hamda bekatlarni loyihalash ishlari davom etm... Toshkent Metropoliteni - Toshkent shahrida 1977-yilda ishga tushir... metropoliten yo’llari tizimi. 2008-yilgacha bo‘lgan ma’lumotga ko’ra, O... Osiyodagi yagona metropolitendir.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Matnning mazmunini o‘zbek tilida gapirib bering

1. ...dan atoqli otlarni toping.
2. ...dan mavhum otlarni toping va izohlang.
3. ...dan qo‘shma otlarni toping va daftaringizga husnixat bilan yozing.

...topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

...lovchilar -	yagona -	qurilish -
...kat -	o‘rnatilgan -	loyihalash –
...ndik -	haykaltaroshlik -	tashimoq –
...ayotgan -	san’at -	sutka –
...zilzilik -	zilzila -	gumbazsimon -

MORFOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Ot so‘z turkumi

Eslab qoling. Shaxs, predmet, hodisa, joy nomini bildirib, kim?, nima?, ...-so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘z turkumi ot deyiladi. Masalan, *o‘quvchi, ...shar.* Otlar har xil ma’no anglatadi, shunga ko‘ra ularning grammatik ...xossalari ham turlicha bo‘ladi. Jumladan, atoqli va turdosh otlar, aniq va ...ni otlar, yakka va jamlovchi otlar.

...-mashq. Quyidagi jadvalni davom ettiring.

...ni bildiruvchi turdosh otlar	Shaxs nomini bildiruvchi atoqli otlar
o‘qituvchi	Dilshoda
tikuvchi	Sarvinoz
o‘g‘il	Doniyorbek
amaki	Xasan

...nomini bildiruvchi turdosh otlar	Narsa nomini bildiruvchi atoqli otlar
kitob	“Padarkush”
gazeta	“Darakchi”
she’r	“Vatanim”
telefon	“Nokia”

...joy nomini bildiruvchi turdosh otlar	O‘rin-joy nomini bildiruvchi atoqli otlar
mahalla	“Ibn Sino”
shahar	Samarqand
davlat	O‘zbekiston
o‘yingoh	“Dinamo”

...topshiriq. Berilgan matnni o‘qing. Matndagi otlarni mavhum va aniq ...ga ajrating.

HADISI SHARIF

Islom shariatining asosiy manbalaridan ikkinchisi sunnatdir. Rasulullohdan naql qilingan hadisi shariflar orqali shakllanadi. Hadisi sharif Rasululloh alayhissalomning so‘zlari, qilgan ish faoliyatlari va sahobalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari to‘g‘risida hikoya qiladi. Shu uch xil uslubning har biri sunnat deyiladi.

Hadisi shariflarni yig‘ib kitob shakliga keltirish, asosan, Payg‘ambar alayhissalomning vafotlaridan keyin amalga oshirilgan. Bu sharafli ish hijriy uchinchi asriga kelib keng quloch yoygan. Islom olamining o‘sha davrdagi madaniy markazlaridan sanalgan shaharlarda Hadis ilmi bilan shug‘ullangan muhaddislar ko‘p bo‘lgan. Ular Hadis to‘plamlarini tuzishgan. Ular ichida ishonchli manba sanalganlari oltita bo‘lib, bularni Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom at-Termiziy, Imom an-Nasoiy va Imom Mojalar tuzishgan. Bu buyuk muhaddislarning to‘rt nafari turonzaminlik bo‘lgani bilan butun Islom dunyosi miqyosida faxrlansak arziydi. Muhaddislik shu qadar sharafli va sermashaqqat ishki, u kishidan zakovat, kuch-quvvat, fidoiylik, yetarli iqtidor va kuchli quvvayi hofizani talab qiladi.

(«Vatan tuyg‘usi»)

Eslab qoling. Otlar son-miqdor ma’nosiga ega va u birlik yoki ko‘plik shakllari orqali ifodalanadi. Birlik nol ko‘rsatkich (maxsus grammatik) ko‘rsatkichning yo‘qligi)ga ega. Ko‘plik -lar qo‘shimchasi orqali ifodalanadi. Bunga morfologik yo‘l deyiladi. Masalan, uylar, do‘stlar, binolar. Shuningdek, birlikdagi ot oldidan birdan yuqori bo‘lgan sanoq sonlarni yoki daraja-miqdor ravishlarini: ko‘p, ancha kabi so‘zlarni qo‘shish yordamida ham ko‘plikni ifodalash mumkin. Bunga esa sintaktik yo‘l deyiladi. Masalan, ko‘p odamlar, yigirmata maktab, ancha yillar kabi. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘plik shakli sanaluvchi -lar otlarga qo‘shilib doimo ko‘plikni bildiravermaydi. U ba’zan ma’nosini o‘zgartirmasligi ham mumkin. Bu vaqtda -lar hurmat, tasvirlilikni kuchaytirish, ta’sirchanlikni oshirish ma’nolarida qo‘llaniladi. Masalan, ko‘zlarimga ishonmayman. Bu jumladagi ko‘zlarimga so‘zini birlik shaklga ko‘zimga shakliga almashtirib ko‘ring. Ikkinchi holat bilan birinchi holat bir ma’noni — birlik ma’nosini (bir kishining ko‘zini) ifodalasa ham, lekin bu ikki holat ta’sirchanlik, ifodalilik belgisiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisida yuqoridagi belgilar bor, ikkinchi holatda esa yo‘q. Yana solishtiring: Bolalarning shovqinidan boshlarim og‘rib ketdi — Bolalarning shovqinidan boshim og‘rib ketdi. Har ikki holatda ham bir kishining boshi haqida fikr yuritiladi, lekin birinchi gapda boshlarim so‘zidagi -lar ko‘plikni bildirmasdan, bosh so‘zining ma’nosini kuchaytirish, ta’kidlash vazifasini bajaradi. Bunday ma’no esa ikkinchi holatda yo‘q.

Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi otlar birlik shaklda kelsa ham, aslida jamlikni bildiradi. Masalan, Ko‘chaga qum to‘kilgan yoki ariq to‘la suv, ichgani tashna, bolam. Bunday so‘zlar ko‘plik shaklini olgan bo‘lsa ham ko‘pincha narsa va hodisaning xilma-xil ekanligini bildiradi. Suvlar (gazli ichimliklar

bozordagi unlar. Ba’zan tasviriylik, ifodalilikni kuchaytiradi: ko‘z yoshlarini artdi.

...ishli otlarga qo‘shilganda o‘zi qo‘shilgan otning ko‘pligini emas, ...hqalar bilan birgalikda ekanligi yoki geografik nomlarga ...shu geografik joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birlikda ...diradi: Olimjonlar kelishdi (bir nechta Olimjon emas, Olimjon va ...) Mirzacho‘llar obod bo‘ldi (Mirzacho‘l va unga yaqin joylar). ...bildiruvchi so‘zlarga ko‘plik shakli qo‘shilib hurmat ma’nosini ...bir vaqtda egalik qo‘shimchasi bilan birgalikda qo‘llaniladi. Qaysi ...egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llanilishiga ko‘ra ko‘plik va egalik ...ning o‘rinlashishi farqlanadi:

...egalik qo‘shimchasi bilan kelganda ko‘pincha egalik qo‘shimchasi ...ko‘plik qo‘shimchasi esa undan keyin keladi: Masalan, Dadamlar keldilar. ...ham aytdilar. Agar bu tartib o‘zgarib, ko‘plik shakli oldin, egalik keyin ...ning ko‘pligini ifodalash mumkin: Qiyoslang: Opalarim kelishdi.

...ko‘plik shakli II shaxs egalik qo‘shimchasi bilan birgalikda ...da, ko‘plik shakli oldin, egalik shakli esa keyin keladi va ko‘plik shakli ...sonini ifodalaydi. Masalan, Xayriniso, dadamning opalari bo‘ladilar.

II topshiriq. Quyidagi so‘zlarni jadvalga joylashtiring va o‘zingiz mustaqil ...ni davom ettiring.

Tirik ot	Jamlovchi ot	Sanaladigan ot	Sanalmaydigan ot

...armiya, daryo, tosh, kitob, qo‘shin, qalam, terak, lashkar, havo, suv, ...qum, yaylov, ulus, poda, uyur, suruv, komanda, guruh

117-mashq. Matnni ko‘chiring. Shaxsni ifodalovchi turdosh otlarning ...shi va imlosiga diqqat qiling. Siz ham o‘zingizning yetti avlodingizni ...bilan yozib ko‘ring. O‘z shajarangiz haqida matn tuzing.

Yetti avlod
1. Farzand
2. Nevara
3. Chevara
4. Evara
5. Pannevara
6. Ovora
7. Begona

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

118-mashq. Quyida berilgan juft so‘zlarning talaffuzi va imlosiga ...bering. Ushbu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib daftaringizga ko‘chiring.

O‘git-nasihat, o‘y-mulohaza, o‘y-xayol, o‘t-giyoh, mehr-muhabbat, [illegible] muruvvat, mehr-oqibat, hadsiz-hisobsiz, hadya-in’om, hayot-mamot, hazil-[illegible] hazil-mutoyiba, hazil-huzul, halol-harom, harom-xarish, hormay-tolmay.

119-mashq. Quyidagi tez aytishni daftaringizga husnixat [illegible] ko‘chiring va bir nafasda sakkiztagacha aytib ko‘ring.

Qopin qo‘yib qorbobo
Qo‘lqopini qidirdi.
Qorqiz qalin qalpog‘in
Qulog‘iga qo‘ndirdi.

Savatdagi sariq sabzi
Sarg‘ayibdi, so‘libdi.
Saodat-chi sabzilarni
Suvga solib qo‘yibdi.

120-mashq. Quyidagi tasviriy ifodalarni o‘qing va yod oling.

Barcha hunarning toji – ilm
Barcha yomonlikning kaliti – aroq
Hayot ko‘zgusi – gazeta
Ilm zahmatkashlari – olimlar
Ko‘kning fonusi – oy
Po‘lat ot – traktor
Po‘lat qush – samolyot

121-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va ona tilingizga tarjima qiling.

Менеджер

Менеджер — профессия, у которой есть свои компоненты, логика правила игры. Проблема в том, что менеджерами часто становятся без какой-либо специальной подготовки. Хорошего специалиста по продаже «продвигают по службе», и он становится руководителем отдела. Сильному предпринимателю предла-гают возглавить регио нальное представительство. Сильный технолог (маркетолог, финансист) становится заместителем директора…

Суть в том, что каждый из них хорош в своей деятельности, но профессии менеджера его не учили. Поэтому море времени, сил и энергии уходит на пробы, ошибки и нервы. Они многое делают сами, вместо того чтобы организовать работу других. Они работают с утра до ночи. Но те, кого их «про-двигал», часто недовольны результатами. И тогда задумыва-ешься: чем же определяется успешный менеджер и что кон-кретно надо делать, чтобы стать успешным?

19-DARS

MATN: **HADISSHUNOS VATANDOSHLARIMIZ**

[illegible] dini ta’limoti asoslarini yorituvchi Qur’oni Karimdan keyingi asosiy [illegible] hisoblanadi. Hadislarni to‘plash va ularga muayyan tartib berish [illegible] asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni eng bilimdon, turli fan [illegible] mukammal o‘rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan kishi [illegible] tartib bergan. VIII-XI asrlarda to‘rt yuzdan ortiq muhaddis hadis [illegible] shug‘ullangan. Mazkur bilimlarni o‘rganishning o‘ziga xos yo‘nalishi **“hadis ilmi”** nomi bilan yuritilgan. Keyingi yillarda Muhammad [illegible]ning hayoti, faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko‘rsatmalarini o‘z [illegible] hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” (“Ishonarli [illegible] “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”), Imom Iso Muhammad ibn [illegible]iyning “Ash-Shamoil an-nabaviya” asarlari nashr etildi. “Hadis” yoki [illegible] so‘zlari bir ma’noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda [illegible] axloqiy ko‘rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat.

[illegible]Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, e’tiqod, poklik va insonga xos [illegible]-axloqiy xislatlarni ifodalovchi so‘zlari, pand-nasihatlari uning nomi [illegible]g‘liq hadislarda mujassamlangan.

Hadislar dastlab yozib borilmagan. Payg‘ambar Muhammad Alayhissalom [illegible]lmagan kishilarning hadislarni Qur’oni Karim oyatlari bilan adashtirib [illegible]laridan cho‘chib, hadislarning yozib borilishiga ruxsat etmaganlar. Biroq [illegible]ambar Muhammad Alayhissalom huzurida sahoblar bo‘lib, ular Rasuli [illegible] eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Jumladan, hazrati Abu Hurayra [illegible]day mo‘tabar kishilardan biri bo‘lib, hadislarni mukammal yodlab borgan. [illegible] Hurayra tomonidan qayd etilgan hadislar to‘g‘ri, ishonarli (sahih) hadislar [illegible]gan. Lekin hadislarni yod olgan kishilar sonining tobora kamayib borishi [illegible]ida ularning asta-sekin unutilib ketishi borasidagi xavf yuzaga keladi. Ana [illegible]ishning oldini olish maqsadida xalifalar ishonarli hadislarni to‘plashga [illegible] berganlar. Hadislarni to‘plash xususidagi farmon dastlabki xalifa Umar ibn [illegible] tomonidan berilgan. Hadislarni yozib borish bilan mashg‘ul bo‘lgan ilk [illegible]dislar sifatida Rabee bin Sabeh, Said ibn Abi Aruba, Molik bin Anas, [illegible]malik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, So‘fyon Savriy [illegible] va boshqalardir.

Muhaddislar tomonidan yaratilgan va ishonarli manbalar deya e’tirof etilgan [illegible]ib as-sitta” (“Olti kitob”) quyidagilardan iborat:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan [illegible]me’ as-sahih” asari.
2. Imom Muslim an-Nishopuriy (Imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan [illegible]gan “As-sahih” asari.
3. Imom ibn Mojja tomonidan yozilgan “Sunnan”.
4. Imom Abu Dovud Sulaymon–Sijistoniy tomonidan yozilgan “Sunnan”

5. Imom Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan "Aj… kabir" asari.

6. Ahmad an-Nasoiy tomonidan yozilgan "Sunnan".

Hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar muhaddislardir. Hadis … rivojlanishiga, ayniqsa, bizning yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar … hissa qo'shganlar. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu … Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-… ad-Dorimiy as-Samarqandiy o'z umrlarini hadis to'plash va ularni o'rga… muqaddas ishga bag'ishlaganlar. Mashhur muhaddislar orasida Abu Abd… Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy eng oldingi o'rinda turadi. Payg'amb… so'zlari – hadislar roviylardan yig'ilgan. "Roviy" ma'lumot beruvchi, aytuv… Roviylar asosan ikki xil bo'lgan: sahobalar va tobeinlar. Sahoba… payg'ambarimizni ko'rgan va u kishi bilan suhbatda bo'lgan kishilarga ay… Tobeinlar esa Payg'ambarimizni emas, sahobalarni ko'rib, ulardan eshitga… aytuvchilardir.

"Hadis ilmida amir al-mo'miniyn" degan sharafli nomga sazovor bo'… Imom Ismoil al-Buxoriy tabiatan aql-idrokli, ziyrak, o'tkir zehnli bo'lgan … Ismoil al-Buxoriy 810-yil 20-iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. U … yoshidan hadis ilmiga ishtiyoq sezib, eshitgan har bir hadisni yodlab borgan … yoshga yetganida o'sha davrning eng mashhur hadischi olimlarining … to'plamlarini yod olgan. Imom Buxoriy 18 yoshida "Qazoyi as-sahoba … tobi'in" ("Sahobatlar va tobi'in masalalari") va "Tarixi kabir" ("Katta … kitoblarini Madinada - Muhammad payg'ambarning maqbarasi yonida yashab … yozgan. Makka, Madina shaharlaridan tashqari, Shom, Qohira, Basra, … Bag'dod kabi rivojlangan madaniyat markazlariga boradi, olimlardan ta'lim … toliblarga dars beradi. Imom Buxoriy bir eshitgan darsini bir umr xotira… muhrlab olish qobiliyatiga ega edi. U chet el safarlaridan qaytgach, Bu… ulamolari undan tahsil ola boshlaydilar. Ammo Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad … Zuhayl bilan orasi buzilib, Samarqandning Xartang qishlog'i… qarindoshlarinikiga ko'chib keladi. Ulug' hadischi olim Imom Ismoil al-Bu… 870-yil 10-sentabrda 62 yoshda vafot etadi. Uning yashab vafot etgan jo… Samarqand viloyati Chelak tumanida Xo'ja Ismoil nomi bilan mashhur ziyorat… bor. Uni ziyorat etish uchun dunyoning barcha musulmon mamlakatlaridan har … minglab ziyoratchilar kelib turishadi. Imom Buxoriydan axloq-odob, din … madaniyatga oid o'nlab qimmatli asarlar meros qoldi. Uning "Al-Jomi' as-sa… ("Ishonarli to'plam") nomli 4 jilddan iborat hadislar to'plami islom olamida … boshqa mualliflar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va … mukammalidir. Unga mavjud 600 ming hadisdan 7275 ta eng ishonarli hadis … kiritilgan.

Imom at-Termiziy 824-yili Termiz shahrida tug'ilgan. Yoshlik chog'lari … ilmga katta qiziqish va ishtiyoq bilan qaraydi. Samarqand, Buxoro, Marv, Tero… va Movarounnahrning boshqa shaharlaridagi mashhur ulamo va hadis … olimlarining asarlarini qunt bilan o'rganadi. U hadis o'rganish maqsadida is… dunyosining turli shahar va mamlakatlariga safar qiladi. Hijoz, Iroq, Xuroson … boshqa joylarda mashhur hadischi, ulamolar bilan muloqotda bo'ladi, ular…

Imom Termiziy ham umri davomida ko'plab asarlar yozib, islom dini … ambar Muhammad alayhissalom to'g'risida ulkan ilmiy meros … asarlari ham Muhammad alayhissalom to'g'risida mukammal … eng muhim qo'llanmalardandir.

Savol va topshiriqlar:

… mazmunini o'zbek tilida gapirib bering.
… egalik qo'shimchalarini toping.
… qaratqich kelishigidagi otlarni toping va izohlang.
… juft otlarni toping va daftaringizga husnixat bilan yozing.
… oxirgi xatboshisini o'quv tilingizga tarjima qiling.

II topshiriq. Quyidagi so'zlarni o'quv tilingizga tarjima qiling.

…	ishonarli -	ziyoratchi -
…kaddis -	bag'ishlagan-	to'plam –
…g'ullangan -	payg'ambar -	safar –
…sh -	ishtiyoq -	mukammal –
…ppaklas -	qobiliyat -	musulmon -

MORFOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

O'zbek tilida so'zlarning turlanishi

Eslab qoling. Egalik qo'shimchalari otlarga qo'shilib, narsa … uch shaxsdan biriga qarashli, tegishli ekanligini bildiradi va u … qo'shimchalar orqali ifodalanadi.

Birlik	Ko'plik
I. Kitob**im**, ona**m**	kitob**imiz**, ona**miz**
II. Kitob**ing**, ona**ng**	kitob**ingiz**, ona**ngiz**
III. Kitob**i**, ona**si**	kitob**(lar)i**, ona**si**

…larning kelishik va egalik qo'shimchalarini olib … turlanish deyiladi. O'zbek tilida oltita kelishik bo'lib, ular ot yoki ot … ega bo'lgan so'zlarni bir-biriga bog'lash bilan birgalikda o'sha … gapdagi sintaktik vazifasini ham belgilashga xizmat qiladi. Buni quyidagi … orqali ham ko'rishimiz mumkin:

Kelishikning nomi	Qo'shimchasi	So'rog'i	Misollar	Gapdagi vazifasi
…bosh kelishik	-	Kim?, nima?, qayer?	Shoir, gul, shahar	Ega, kesim va undalma

2.	Qaratqich kelishik	-ning	Kimning? nimaning? qayerning ?	Shoirning, gulning, shaharning	Qaratqich aniqlovchi
3.	Tushum kelishik	-ni	Kimni?, nimani?, qayerni?	Shoirni, gulni, shaharni	Vositasiz to'ldiruvchi
4.	Jo'nalish kelishik	-ga(-ka,-qa)	Kimga?, nimaga?, qayerga?	Shoirga, gulga, shaharga	Vositali to'ldiruvchi, hol, kesim
5.	O'rin-payt kelishigi	-da	Kimda?, nimada?, qayerda?	Shoirda, gulda, shaharga	Vositali to'ldiruvchi, hol, kesim
6.	Chiqish kelishigi	-dan	Kimdan?, nimadan? qayerdan?	Shoirdan, guldan, shahardan	Vositali to'ldiruvchi, hol, kesim

122-mashq. "Hadisshunos vatandoshlarimiz" matnida qo'llangan I va shaxs birlik va ko'plikdagi egalik shakllari bilan ishlatilgan so'zlarni aj Shaxs va sonda turlang.

123-mashq. Quyidagi matnni o'qing va egalik qo'shimchalari kelgan so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

Hadislardan namunalar

Chaqirilgan joygagina boring.

Aroqdan saqlaninglar, chunki u barcha yomonliklarning kalitidir.

Dunyodan o'tib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Y sifatlaridan tilingizni tiyinglar.

O'lim kelmasidan burun tayyorgarligingizni ko'rib qo'ying.

Nonni e'zozlanglar.

Mo'minlarning bir-birlarida oltita haqlari bor: salom berish, chaqirsa maslahat so'rasa berish, aksa ursa javob aytish, kasal bo'lsa borib ko'rish, borib dafinida qatnashish.

124-mashq. Asalning sog'lik uchun foydali xususiyatlari va tabiiy ... haqidagi matnni o'qing. Matndagi egalik va kelishik ...larining o'rni va ahamiyatiga e'tibor bering. Oxirgi xatboshini ...ga ko'chiring va egalik hamda kelishik qo'shimchalarining tagiga ...

...foydali mahsulot ekanligi ko'pchilik uchun sir emas. Quyida uning ... jihatlari aynan nimalarda ekanligi va tabiiy asal tanlashda qaysi belgilarga ... qaratish lozimligiga to'xtalib o'tamiz.

Asal, birinchi navbatda, viruslarga va zamburug'larga qarshi kurashish ...lariga ega. Shuning uchun shamollash bilan bog'liq xastaliklarda uni ... qilish tavsiya etiladi. U nafaqat kasallik qo'zg'atuvchilari, balki burun ... va yo'talga qarshi kurashadi. Qolaversa, asal immunitetni tiklash va turli ...larning oldini olish vazifasini ham bajaradi.

Mineral va vitaminlarga boy tarkibi tufayli mazkur mahsulot ovqat hazm ... xastaliklarida ham foyda keltiradi. Shuningdek, uy sharoitida ter ...yaxshilash uchun ham ajoyib vosita hisoblanadi.

Haqiqiy asalni uning yasamasidan qanday farqlash mumkin?

Birinchi navbatda, uning turg'un hidga ega ekanligiga e'tibor qarating. ...shimchalar qo'shilmagan va qaynatilmagan asaldan mum, nektar, ... va shirinlik hidlari taraladi;

Tabiiy shirinlik uzoq vaqt saqlanadi va uning ta'mi o'zgarmaydi;

Haqiqiy asal har doim yetarlicha quyuq bo'ladi. Juda suyuq asal unga ...qo'shilganligi yoki juda erta yig'ib olinganligini anglatadi;

Toza asal quyuq holatda ham juda mazali bo'ladi. U kristallanganda ham ...o'zgartirmaydi.

Asalning haqiqiyligini uy sharoitida aniqlashning juda oson yo'li bor. ...qiyomdan hosil qilingan asalga yuqori namlik xos. Asalga bir bo'lak ... solib qo'ying va uni 8—10 daqiqadan so'ng oling. Sifatli asalda non ...bo'ladi. Agar non aksincha yumshab yoki erib ketgan bo'lsa, bu shakar ...boshqa narsa emas.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

Eslab qoling. Kelishik qo'shimchalari ba'zan tushib qolishi ham ...ya'ni yashirinib keladi. Lekin quyidagi hollarda tushib qolmaydi:

1. Qaratqich kelishigi atoqli otlar, olmoshlar va sifatdoshlarga qo'shilganda ...qolmaydi.

2. Tushum kelishigidagi so'z atoqli ot, olmosh yoki sifatdosh bo'lsa, tushum ...qo'shimchasi tushib qolmaydi.

125-mashq. Quyidagi hadislarni o‘qing va fikr yuriting. Kelishi ... bilan kelgan so‘zlarning imlosiga diqqat qiling.

Beshta narsadan oldin beshta narsani g‘animat biling: o‘limdan ... tiriklikni, betoblikdan oldin salomatlikni, bandlikdan oldin bo‘sh ... keksalikdan oldin yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni g‘animat biling.

So‘zda sehr bor, she’rda hikmat bor.

O‘lim dahshatli hodisadir. Qachonki tobutni ko‘rsalaringiz darhol (... yuzasidan) o‘rinlaringizdan turing.

Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda o‘rtalaringda ... muhabbat uyg‘onur.

Qur’onni o‘qib unga amal qilinglar. Undan uzoqlashib ham ketmanglar. ... ma’nosiga chuqur ma’no berarman deb xato va mubolag‘aga berilib ... ketmanglar. Uni tirikchilik vositasi qilib olib, mol-u dunyo orttirishga ... o‘tmanglar.

126-mashq. Quyidagi tasviriy ifodalarni daftaringizga yozing va ... oling.

Zangori olov – gaz
Kumush choyshab - qor
Qora oltin – neft va ko‘mir
Dunyo tomi – Pomir tog‘i
Kun chiqar mamlakat – Yaponiya
Zangori ekran – televizor
Aloqa vositasi – til

127-mashq. Quyidagi hadislarni yod oling.

Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat ... har bir mo‘minga farzdir

***

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do‘zaxga mahkumdir.

***

Qabristonni ziyorat qilib turinglar, zero, u sizlarga oxiratni eslatadi.

***

O‘lib ketganlarni haqorat qiluvchi odamlar o‘zi halokatga yaqindir.

***

Avvalo onangga, yana onangga, va yana onangga, so‘ng otangga yaxshilik ...

***

Ayollarga erkaklar o‘z tug‘ishgan opa-singillari kabi munosabatda bo‘lishi ... kerak.

***

... harakati - undan oldin va keyin qo‘l yuvishdir.

***

... ilidandir.

***

... odamlarni oliy jazoga tortmaslikka harakat qilinglar. Lekin oliy ... bunday bekor qolmasin.

***

... hayotda tejamkor bo‘lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.

***

... o‘rganib, so‘ng uni boshqalarga o‘rgatmaslik go‘yoki mol-u dunyoni ... qilmay, ko‘mib qo‘yish bilan barobardir.

***

... vafotidan keyin ham unga yaxshilik qilishni istasa, uning yor- ... bilan aloqani uzmasin.

***

... bilgani haqida guvohlik berishdan bosh tortgan odam yolg‘on ... bilan barobardir.

20-DARS

MATN: **KELAJAK BILIMLI YOSHLAR QO‘LIDA**

Bugun biz uzoq o‘tmish, boy tarix, umumbashariy qadriyatlar ... asoslashgan, ezgu va ulug‘ maqsadlari sari mardonavor odimlab borayotgan, ... va salohiyatiga tayanib demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish ... ulkan natijalarga erishayotgan va bu natijalar asosida jahon hamjamiyatida ... munosib o‘rnini egallab borayotgan mustahkam irodali xalq ... O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish ... borar ekan, bu yo‘lda har tomonlama barkamol, erkin shaxslarni kamol ... bu borada barcha shart-sharoitlarni yaratish va ta’minlashni o‘z oldiga ... qilib qo‘ydi. Ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida olib borilayotgan ... hamda erishilayotgan yutuqlar fikrimiz tasdig‘idir. Bizga ma’lumki, ... ta’lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Vaholanki, o‘sib ... yosh avlodni ham ma’nan, ham jismonan sog‘lom, barkamol, komil ... alohida tarbiyalash bugungi kun tartibiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. ... tariximiz guvohlik beradiki, hech bir millatning tafakkuri, dunyoqarashi, ... tarzi, ma’naviy qadriyatlari o‘z-o‘zidan shakllanib qolmagan. Shu kabi ... ezgu fazilatlar, qano‘at-u matonat asrlar davomida xalqimiz qon-qoniga ... ibratli ko‘rinish kasb etgan. Bugungidek bir davrda ya’ni, hayot suratlari ... ilg‘amas darajada shiddat bilan harakatlanayotgan zamonda chinakam ... ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi o‘z milliy qadriyatlarini, ... o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning ... hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik, jonkuyarlik

bilan kurasha olishi mumkin. Bu haqiqatni teran anglagan holda biz yosh
ertangi kun egalari yelkamizdagi mas'uliyatli burchimizni chuqur anglamoq
darkor. Darhaqiqat, ertangi kunimiz, vatan ravnaqi, yurt kelajagi biz yo
qo'lidadir. Bugun yurtimizning har jabhasida, xususan, yoshlar tarbiy
ularning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, yangi innavatsion texnologiyalar
yaqindan tanishtirish ularni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalash, yo
qalbida vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishga qaratilgan qator tadbirla
samarasini berib kelmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 15-sentabrda yangi tah
qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni ham
avlodning bo'sh vaqtini samarali o'tkazishini ta'minlash borasidagi
tadbirlardandir. Yoshlarning o'zi qiziqqan kasb egasi bo'lishi bilan bir q
sport mashg'ulotlariga jalb etish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar ham
ko'rsatkichlarga ko'tarilgan. Zero, "Sog' tanda sog'lom aql" deydi donish
halqimiz. Bugun biz ma'naviyatimizni asrashimiz, vatan kelajagi
mustahkam poyedevor bo'la oladigan munosib farzand bo'lishimiz, oldi
qo'ygan ezgu maqsadlarimiz tomon mardonavor qadam tashlashimiz,
ajdodlar izi ekanimizni anglamog'imiz, qadimiy tariximiz va boy madaniyatim
ulug' ajdodlarimiz merosini chuqur o'zlashtirishimiz bugungi tez o'zgarayo
hayot voqeligiga ongli qarab mustaqil fikrlashimiz va ona vatanimizdagi
bo'layotgan barcha jarayonlarga daxldorlik hissi bilan yashashimiz, eng m
otamizdan meros istiqlolni jon-u tan bilan asrashimiz lozim. Ishonchim ko
ana shunday noyob, insoniy fazilatlarga, yuksak ma'naviyatli, qorachig'i g'
va shijoatga to'la munosib farzandlari bor xalq hech qachon hech kimga q
bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga, albatta, yetadi.

Mamlakatning buyuk kelajagi ma'naviy barkamol insonlarga tayangan ho
yaratiladi. Boshqacha aytganda, ma'naviy barkamol insonlargina buyuk kelaj
yaratadilar. Shu bois, ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiya
yurtimiz uchun muhim va dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Dem
„Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, o
yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya soha
asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim'' degan azmushijoat ustuvor bo'
mamlakat yuksak marralarga erishadi. Chunki har bir mamlakatda barq
taraqqiyot va modernizatsiyani amalga oshiruvchilar ajdodlariga qaraganda ku
bilimli va dono yangi avlodlardir. Buning yorqin misoli komil inson g'o
yoshlarimizning intellektual salohiyatini vatan ravnaqi, xalq farovonl
yo'naltiruvchi g'oyaviy poydevor vazifasini bajarmoqda. Yoshlar O'zbek
uchun, uning buyuk kelajagi uchun sport, intellektual, texnologik,
maydonlariga kirib, g'olib bo'lmoqdalar. Buning yorqin misoli 2 milliondan
yoshlarimiz sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug'ullanib, j
arenalarida yuksak marralarga erishmoqdalar. Bugun hech kimga sir emas
yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Intellek
boylikka yuksak bilimli yoshlarimiz orqali erishishimiz mumkin. Bilimli
intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining
ustuvor yo'nalishlar qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta

Yoshlari yuksak ma'naviyatli, bilimli va intellektual yetuk bo'lsa, u
xalqi, fuqarolari baxtiyor bo'ladi. Ta'lim – imkoniyatlar tengligini
digan buyuk mezon bo'lib, u jamiyat aql-zakovatining yuksalishi,
shlikning kuchayishi va yutuqlar ko'payishining muhim omili vazifasini

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o'qing.
2. Matndan olmoshlarni toping.
3. Matndagi olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.
4. Matndan ot o'rnida qo'llangan olmoshlarni topib daftaringizga ko'chiring.
5. Matnda qo'llanilgan ko'rsatish olmoshlarini toping va imlosini izohlang.

6-topshiriq. Quyidagi so'zlarni o'quv tilingizga tarjima qiling.

kelajak -	tarbiyalash -	ustuvor -
yoshlar -	samarali -	tenglik–
mardonavor -	dolzarb -	maqsad–
mustahkam -	tuyg'u -	mujassamlashgan –
ta'minlash -	poydevor -	ongli -

MORFOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Olmosh va uning uslubiy xususiyatlari

Eslab qoling. Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba'zan so'z birikmasi va
o'rnida qo'llana oladigan, aniq lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'z turkumi
deb ataladi:

1) ot o'rnida: Karima juda quvondi, chunki u o'z orzusiga erishgan edi.

2) sifat o'rnida: Kechagi kitobingni berib tur, men shu kitobdan misollar
olaman.

3) son o'rnida: Menda ikkita qalam bor, senda shuncha bormi?

4) ravish o'rnida: Men bugun ketaman, sen qachon ketasan?

5) so'z birikmasi o'rnida: Yolg'on gapirish yaxshi emas, bu yomon
odatlarga olib keladi.

6) gap o'rnida: Sen mehnat qilishni yoqtirmaysan, bu esa insondagi eng
xislatdir.

128-mashq. Quyidagi matnni daftaringizga husnixat bilan ... va olmosh so‘z turkumini topib tagiga chizing.

Keyingi vaqtda – keksalik, xastalik sabab, juda kam uyqu bo‘lib ... Uyqu qochganda bosh-keti yo‘q, uziq-yuluq o‘y-xayol qalashib ketadi. Shunda tunchiroq ostida turgan daftarga ba’zi tasodifiy fikrlarni yozib qo‘yib bo‘ldim.

Daftarimni “Tundaliklar” deb atadim. Bu “janr”ning “kundalik ...” shuki, unda xronologik tartibdagi voqealar bo‘lmaydi. Bu gaplar, biri bug‘dan tog‘dan bo‘lsa ham, kimnidir fikri yo sa’y-harakatiga turtki bo‘lishi ... Qolaversa, ular muallifning ruhiy holatidan darak, zero biz hammamiz ... olamga hamisha qandaydir bir tarzda ulush qo‘shib yashaymiz.

Asqad M...

Olmoshning ma’no turlari

1. Kishilik (shaxs) olmoshlari uchta shaxsni bildiradigan ... olmoshlardir: *men, sen, u, biz, siz, ular*. *Biz* olmoshi kamtarlik, bir ishni ... o‘zini ta'kidlamaslik ma'nolarini ifodalab, birlik o‘rnida kelishi mumkin: *... bu maqolamizda... Siz, ular* hurmat manosida birlik o‘rnida qo‘llanishi ... Ustoz, siz ko‘zimni ochdingiz. Ular menga ota bo‘ladilar.

2. O‘zlik olmoshi narsa-buyumni aniqlab yoki ta’kidlab ko‘rsatish ... ishlatiladigan o‘z so‘zidir. Bu olmosh narsa-buyumning shaxsga ... tegishliligini yoki shaxsning tanholigini bildiradi: *o‘z uyi, o‘z ukasi.* O‘zlik ... egalik qo‘shimchasini olib, kishilik olmoshlariga sinonim bo‘ladi: o 'zim ... 'zing – sen, o‘zi - u.

3. Ko‘rsatish olmoshlari narsa-buyumni, kimsani ko‘rsatish ... ishlatiladigan va o‘zi ishtirok etgan gapdan oldingi gapga, so‘zga yoki ... birikmasiga ishora qiladigan olmoshlardir: *u bu, shu, o‘sha, ana, mana, ... mana bu, ushhu*

4. So‘roq olmoshlari biror narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so‘roq bildiradigan olmoshlardir. So‘roq olmoshlarining nimaga nisbatan so‘roq bildirishini quyidagi jadvaldan bilsa bo‘ladi:

№	So‘roq turi	Olmoshlar
1.	Shaxsga so‘roq	Kim ?
2.	Narsaga so‘roq	Nima?
3.	Belgi-xususiyatga so‘roq	Qanday? Qancha? Qaysi?
4.	Miqdorga so‘roq	Qancha? Necha? Nechta?
5.	Tartibga so‘roq	Nechanchi?
6.	Sabab-maqsadga so‘roq	Nega? Nimaga ?

...joyga so‘roq	Qayerda? Qayda? Qayoqqa?
...ga so‘roq	Qachon?
...lilikka so‘roq	Qani?

... olmoshlari to‘pdan ajratilgan yoki jamlab ko‘rsatilgan shaxs, ... holatlarni ifodalaydi. Bu olmoshlarni ikkiga bo‘lish mumkin:

... belgilash olmoshlari shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni ... *hamma, barcha, bari, jami, jamiyki, butun, yalpi.*

... ajratuvchi belgilash olmoshlari butundan ajratilgan shaxs, narsa, ... holatlarni ifodalaydi. Bularga har so‘zining o‘zi va har kim, har ... har qaysi kabi so‘zlar kiradi. Har so‘zi ajratib yoziladi.

... olmoshlari inkor ma’nosini bildiradigan olmoshlardir. Bular ... si va shu so‘zning ba’zi so‘roq olmoshlari yoki *bir, narsa* so‘zlari ... hosil qilinadi: *hech kim, hech nima, hech qanday, hech qaysi. ... hech bir, hech narsa.*

... olmoshlari narsa, belgi yoki voqea haqidagi noaniq tasavvurni ... olmoshlardir. Ular *alla-* yoki *–dir* qo‘shimchasini so‘roq ... yoki narsa so‘ziga qo‘shish yordamida hosil qilinadi: *allakim, ...narsa, allaqaysi, allaqayer, allaqayoq, allanechuk, allaqancha, ...ki, kimdir, nimadir, qachondir. Qandaydir, qayerdadir.*

...mashq. Berilgan gaplardan olmoshlarni toping va ularni ma’noviy ... ajrating.

YAXSHILIKKA YOMONLIK

... kishi tuya minib, safarga chiqibdi. Sahroda karvonlar olov yoqib ...ganini ko‘rib qolibdi. Bu kishi borib yetguncha ular jo‘nab ketishibdi. Shu ... shamol turib, o‘chgan olovning cho‘g‘i uchqunlabdi. ...gan xas-hashakka o‘t ketibdi. Haligi kishi noxush ovozni eshitibdi. ... ilon olov ichidan: “Qutqaringlar, qutqaringlar!” — deb jon talvasasida ...rilgan emish. Boyagi kishi darrov uzun tayoqqa to‘rva osib, ilon tomonga ... ilon darrov to‘rvaga tushibdi. U kishi to‘rvadan ilonni chiqarib, yo‘lida ...moqchi ekan, ilon unga:

— Hoy odam, endi seni, tuyangni chaqib sizlarni halok qilishim kerak, - ... — Nima uchun? Yaxshilikka yomonlik bilan javob berasanmi? — debdi ...qalanib. — Ha! — deb javob beribdi zaharli ilon. Shunda ularning oldidan ... o‘tib qolibdi. Tulki kishidan bu mojaroning sababini so‘rabdi. U kishi bor ...ni aytib beribdi. Shunda tulki: — Men bunga ishonmayman. Shunday katta ... shu kichkina to‘rvaga qanday sig‘sin? — debdi. Ilon bo‘lsa: — Ishonmasang ... to‘rvaga tushay, ko‘rasan! — debdi. —Qani tush-chi! — debdi tulki. Ilon ... to‘rvaga kiribdi. Tulki u kishiga qarab: — Ey odam! Ilon to‘rvaga tushdi,

vaqtni o‘tkazma! — debdi. Shundan keyin u kishi to‘rva og‘zini bog‘lab, [illegible] turgan olovga uloqtiribdi. Ilon halok bo‘libdi.

O‘ZBEK XALQ ERTAKI

130-mashq. Quyida Amina Shanliko‘g‘li qalamiga mansub [illegible] o‘qing. Olmoshlarni topib daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring.

BOLAM PORA-PORA BO‘LDI

Men Islomdan xabarsiz oilani qizi edim. Shu atrofdagi qishloqda o‘sdim. [illegible] kun ovqat pishirdim. Yo‘qligimda mushuk bolasi ovqatni yeb, qolganini [illegible] to‘kibdi. Qattiq asabiylashganimdan jahl ustida mushuk bolasini yerga [illegible] abjag‘ini chiqarib tashladim. Buni qanday qildim? Shu qadar rahmsiz jonim [illegible] Inson ovqatni deb, bir bechora jonni nobud qiladimi? Islomni bilmaguncha [illegible] inson emas, vahshiy bo‘lar ekan. Men Islomni bilmaganim, Allohni tanimag[illegible] uchun shunday shafqatsiz ish qilib qo‘ydim. Ko‘p o‘tmay turmushga chiq[illegible] O‘zimni bahtli sanardim. Bir o‘g‘il ko‘rib, uyimiz yana-da obod bo‘ldi. O‘g‘[illegible] juda sevar, yer-u ko‘kka ishonmas, asrab avaylardim. Sekin-sekin ulg[illegible] to‘qqizga qadam qo‘ydi. Lekin bungacha unga hech narsa o‘rgatolmag[illegible] O‘zim Islomni bilmasam, o‘g‘limga nima ham o‘rgatardim. Hech bo‘lmag[illegible] Payg‘ambarimiz s. a. v. ismlarini o‘rgatsam bo‘lmasmidi? Bolam eshakka mi[illegible] yaxshi ko‘rardi. Biz uyda yo‘q paytimizda eshak bilan o‘ynash uchun ipn[illegible] uchini eshakning beliga, bir uchini o‘zini beliga bog‘lagan. Qishloq kuch[illegible] kelib hurgach, eshak bor kuchi bilan yugurgan va o‘g‘limni sudrab ketga[illegible] o‘g‘lim! Pora - pora bo‘lgan bolam! Har bo‘lagini har yerdan terib to‘pl[illegible] O‘shanda lop etib mushuk bolasi ko‘z oldimga keldi. Shunda hayvoniy, [illegible] hayvondan ham past ish qilib qo‘yganimni angladim. Rabbimdan avf so[illegible] namoz o‘qiy boshladim. U mushuk bolasini qasosini mendan olgandi. Zolim A[illegible] huzurida azoblanadi. Buni Islomni o‘rgangach angladim. Sizdan o‘tinchim, [illegible] bir hayvon, hech bir insonga azob bermang, zulm etmang! Chunki Alloh ma[illegible] tomonda bo‘lar ekan. Men buni guvohi bo‘ldim. Men vijdon a[illegible] yashayapman. Bu azoblarning og‘iri va dardlisidir. Qachonki mushukcha ko‘[illegible] men o‘ldirgan mushuk bolasi va jondan suygan bolamni eslayman [illegible] yoshlarimni tutib turolmayman...

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

Eslab qoling. Olmoshlar gapda so‘zlarni o‘rinsiz takrorlash[illegible] qutqaradi, fikrni ixcham, qisqa qilib ifodalashga yordam beradi.

Men, sen olmoshlariga qaratqich, tushum kelishigi hamda *-niki* qo‘shim[illegible] qo‘shilganda, bir *n* tushib qoladi: *mening, seniki, seni*. U kishilik olmo[illegible] jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalari qo‘shilganda, bu [illegible] orttiriladi: *unga, unda, undan.* Kishilik olmoshlariga egalik qo‘shimchalari [illegible] qo‘shilmaydi.

O‘zbek tilida kamtarlik ifodasi sifatida *men* o‘rnida ko‘pincha *kamina, kamtarингiz, faqir, qulingiz, bandayi ojizingiz* singari so‘z va so‘z [illegible] qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek tilida ham xuddi shu ma’noda ba’zan *men* [illegible] so‘zi ishlatiladi.

U, bu, shu, o‘sha olmoshlari jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklarida [illegible] yoki ularga -day, -cha qo‘shimchalari qo‘shilganda, qo‘shimcha [illegible] tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunday, o‘shanday, uncha.*

131-mashq. Matnni ifodali o‘qing va daftaringizga husnixat asosida [illegible] Nima sababdan Yer va Quyosh so‘zlari bosh harflar bilan [illegible] ayting va bu so‘zlar tarkibidagi olmoshlarni aniqlab tagiga chizing.

Yer qayerda joylashgan?

Yerni o‘rab turgan cheksiz makon – bu koinot. Unda milliardlab yulduzlar [illegible] turli shakl va o‘lchamlarga ega millionlab galaktikalar sochilib yotibdi. [illegible] Yerimiz Somon Yo‘li deb atalmish galaktikada joylashgan. Biz osmonga [illegible] ko‘rinadigan har bir yorug‘ nuqta – bu bitta yulduz. Bizning Quyosh [illegible] shunday yulduzlardan biri. Uning atrofida esa katta-kichik sayyoralar [illegible] o‘xshash orbita bo‘ylab aylanib yuradi. Agar galaktikaga yuqoridan [illegible] bo‘lsa, u spiralga o‘xshab ko‘rinadi. Yer esa ana shu spiralning bitta [illegible] joylashgan. Yer Quyosh sistemasidagi uchinchi sayyora.

Qit’alar. Mamlakatlar / H. Alimuhamedova, A. Majidov. – T.: “O‘zbekiston [illegible] ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 4-b. (“Mening birinchi ensiklopediyam” [illegible])

132-mashq. Quyida berilgan Hamid Olimjon qalamiga mansub she’rni yod [illegible] ko‘chma ma’noda berilgan so‘zlarni aniqlab daftaringizga ko‘chiring.

Bunda bulbul kitob o‘qiydi,
Bunda qurtlar ipak to‘qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol.
Bunda qorning taglarida qish
Bahor uchun so‘ylaydi olqish.
Bir o‘lkaki husnga boydir,
Uning eng zo‘r ko‘zgusi oydir;
Bir parcha o‘t bo‘lib bunda kun
Paxtasiga ishlaydi har kun.
Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g‘azal yozadi,
Kuychilari o‘qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla,
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon. –
Bu shundayin ajib diyordir.

ildizlari turlicha bo‘lgan xalqlarning yaqinlashishiga o‘zining
qo‘shmoqda.

Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillaridagi deyarli
nusxaga yetgan. Kutubxona respublikamizdagi barcha
kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari
metodik rahbarlik qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Matndan atash ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlarni toping.
3. Matnda qo‘llanilgan bog‘lovchilarni aniqlang va daftaringizga
4. Matnda ishlatilgan ko‘makchi va yuklamalarni toping va
ko‘chiring.
5. Matnning oxirgi xatboshisini o‘quv tilingizga tarjima qiling.

44-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

kutubxona -	hujjatlar -	jarayon -
nashriyot -	jahon-	soha-
amaliy -	bibliografiyashunoslik -	unumli-
ma’lumot -	tashkilot-	kitobshunoslik
adabiyotlar -	yig‘ilgan -	elchixona -

MORFOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Yordamchi so‘z turkumlari va ularning xususiyatlari

133-mashq. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan
quyidagi parchadan yordamchi so‘z turkumlarini toping va uch
daftaringizga ko‘chiring.

Oyto‘ldining vafoti eligni chuqur qayg‘uga soladi. Axir ishbilar
vaziridangina emas, sodiq va mehribon, maslahatgo‘y va jonkuyar do‘stidan
ayrilgan edi-da!

Onida keladi o‘limning gali,
Hozir tur o‘limga bo‘yin bergali,
U oltin kamarli ne zotlar qani?!
O‘lim changalida quridi holi.

U uzoq o‘yga toladi. Nihoyat Oyto‘ldining yolg‘izgina bir o‘gli
xotirlaydi. Uni saroyga chorlab, o‘gitlar beradi:

— Dunyoning o‘z qonun-qoidalari mavjud: oldin g‘am kelsa, uning
sevinch yetishadi. Bu alam yolg‘iz sengagina tegishli emas. U menga ham
Biroq inson o‘zini ovutmog‘i, g‘am yo‘lini boq‘lamoq‘i ham kerak.

Eslab qoling. So‘z va gaplarga qo‘shilib, ularga qo‘shimcha
yuklovchi yordamchilarga yuklamalar deyiladi. Yuklamalarning ko‘p

ayrimlari esa so‘z shaklida qo‘llaniladi. Ana shu belgisiga
ikki guruhga bo‘linadi:
yuklamalar: faqat, hatto, nahotki kabi.
shcha yuklamalar: -mi, -chi, -a (-ya) kabi.

undan ortiq gap bo‘lagi yoki gaplarni o‘zaro bog‘lab keluvchi
larga bog‘lovchilar deyiladi. Gap bo‘lagi va gaplarni qanday
ko‘ra bog‘lovchilar ikki turli bo‘ladi:

ing bog‘lovchilar	ergashtiruvchi bog‘lovchilar.
a, hamda,	chunki, sababli,
mmo, lekin,	tufayli, shuning uchun,
ki, yo,	shu bois (sabab, sababli),
ki, yoxud,	ya’ni, -ki
yo,	
goh	

o‘zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun
ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni
larga tobelantirib bog‘laydigan yordamchi so‘zlarga ko‘makchilar
Masalan, Oyni etak bilan yopib bo‘lmas. (Maqol) Ko‘makchilar tarixan
lar bo‘lib, hozirgi kunda leksik ma’nosini yo‘qotgan va grammatik
lashga o‘tgan so‘zlardir. Mustaqil ma’nosini yo‘qotish darajasiga
kchilar ikki guruhga bo‘linadi: 1) sof (asl) ko‘makchilar (kabi, singari,
uchun, sayin, haqida, holda); 2) vazifadosh ko‘makchilar (ustida (ish
ida (ozodlik bayrog‘i ostida), oldida (vijdoni oldida), orasida, orasiga
i, boshida (yo‘l boshida), qarab (Toshkentga qarab yurmoq), bo‘ylab).
fadosh ko‘makchilar ko‘makchilashayotgan ot va fe’llardir. Shunga
so‘zlar mustaqil so‘z vazifasida ham kelishi mumkin bo‘ladi.
Endi televizor ustida turibdi - televizor ustida janjallashdi. Devordan
qoldi — Ariq bo‘ylab ketdi va h.k.

134-mashq. Atash ma’nosiga ega bo‘lmagan yordamchi so‘zlarni
daftaringizga ko‘chiring.

Buyuk Xitoy devori

Xitoychada “Vanli chongchang” deya nomlanib, “10 ming li uzunlikdagi
ma’nosini anglatadi. Uning dastlabki qismi qal’a devori sifatida miloddan
IV-III asrlarda imperator Sin Shixuandi davrida qurilgan. Devor tosh va
ishlanib, ichini tuproq bilan to‘ldirgan holda, shibbalab bunyod etilgan.
avvalgi 2-1-asrlarda g‘arb tomonga 500 kilometrga uzaytirilgan. 2001-
tadqiqotlar natijasida uning asli uzunligi 530 kilometr, deya e’tirof
Buyuk Xitoy devorining o‘rtacha balandligi 9 metr. Kengligi 5-6,5 metr.
soqchilar uchun to‘rtburchak burjlar qurilgan va ularning balandligi 10-12
yetgan. Har 10 kilometrda kuzatish, xabar berish minoralari, tog‘dagi
o‘tish joylarida qo‘rg‘onlar bo‘lgan. *(Тадоев К, Бердиева С. Сайёрамиз
сирлари. Тошкент: “O‘zbekiston”. 2012. 106-б.)*

ildizlari turlicha bo‘lgan xalqlarning yaqinlashishiga o‘zining ... qo‘shmoqda.

Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillaridagi deyarli ... nusxaga yetgan. Kutubxona respublikamizdagi barcha kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari ... metodik rahbarlik qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Matndan atash ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlarni toping.
3. Matnda qo‘llanilgan bog‘lovchilarni aniqlang va daftaringizga ko‘...
4. Matnda ishlatilgan ko‘makchi va yuklamalarni toping va daftaring... ko‘chiring.
5. Matnning oxirgi xatboshisini o‘quv tilingizga tarjima qiling.

44-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘quv tilingizga tarjima qiling.

kutubxona -	hujjatlar -	jarayon -
nashriyot -	jahon-	soha-
amaliy -	bibliografiyashunoslik -	unumli-
ma’lumot -	tashkilot-	kitobshunoslik
adabiyotlar -	yig‘ilgan -	elchixona -

MORFOLOGIYAGA OID MATERIALLAR

Yordamchi so‘z turkumlari va ularning xususiyatlari

133-mashq. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan ... quyidagi parchadan yordamchi so‘z turkumlarini toping va uch ... daftaringizga ko‘chiring.

Oyto‘ldining vafoti eligni chuqur qayg‘uga soladi. Axir ishbilar... vaziridangina emas, sodiq va mehribon, maslahatgo‘y va jonkuyar do‘stidan ... ayrilgan edi-da!

Onida keladi o‘limning gali,
Hozir tur o‘limga bo‘yin bergali,
U oltin kamarli ne zotlar qani?!
O‘lim changalida quridi holi.

U uzoq o‘yga toladi. Nihoyat Oyto‘ldining yolg‘izgina bir o‘gli borligi xotirlaydi. Uni saroyga chorlab, o‘gitlar beradi:

— Dunyoning o‘z qonun-qoidalari mavjud: oldin g‘am kelsa, uning ketid... sevinch yetishadi. Bu alam yolg‘iz sengagina tegishli emas. U menga ham daxl... Biroq inson o‘zini ovutmog‘i, g‘am yo‘lini boq‘lamoq‘i ham kerak.

Eslab qoling. So‘z va gaplarga qo‘shilib, ularga qo‘shimcha ma’... yuklovchi yordamchilarga yuklamalar deyiladi. Yuklamalarning ko‘pchi...

...shaklida, ayrimlari esa so‘z shaklida qo‘llaniladi. Ana shu belgisiga ... ikki guruhga bo‘linadi:

...yuklamalar: faqat, hatto, nahotki kabi.

...cha yuklamalar: -mi, -chi, -a (-ya) kabi.

...undan ortiq gap bo‘lagi yoki gaplarni o‘zaro bog‘lab keluvchi ...so‘zlarga bog‘lovchilar deyiladi. Gap bo‘lagi va gaplarni qanday ...ko‘ra bog‘lovchilar ikki turli bo‘ladi:

teng bog‘lovchilar	ergashtiruvchi bog‘lovchilar.
va, hamda,	chunki, sababli,
ammo, lekin,	tufayli, shuning uchun,
biroq, yo,	shu bois (sabab, sababli),
yoki, yoxud,	ya’ni, -ki
yo yo,	
goh goh	

...larning o‘zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ...gan, ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni ...so‘zlarga tobelantirib bog‘laydigan yordamchi so‘zlarga ko‘makchilar ... Masalan, Oyni etak bilan yopib bo‘lmas. (Maqol) Ko‘makchilar tarixan ...so‘zlar bo‘lib, hozirgi kunda leksik ma’nosini yo‘qotgan va grammatik ...ifodalashga o‘tgan so‘zlardir. Mustaqil ma’nosini yo‘qotish darajasiga ...ko‘makchilar ikki guruhga bo‘linadi: 1) sof (asl) ko‘makchilar (kabi, singari, ...ga, uchun, sayin, haqida, holda); 2) vazifadosh ko‘makchilar (ustida (ish ...ustida (ozodlik bayrog‘i ostida), oldida (vijdoni oldida), orasida, orasiga ...sida), boshida (yo‘l boshida), qarab (Toshkentga qarab yurmoq), bo‘ylab). ...Vazifadosh ko‘makchilar ko‘makchilashayotgan ot va fe’llardir. Shunga ...bunday so‘zlar mustaqil so‘z vazifasida ham kelishi mumkin bo‘ladi. ...kitob televizor ustida turibdi - televizor ustida janjallashdi. Devordan ...qaradi — Ariq bo‘ylab ketdi va h.k.

134-mashq. Atash ma’nosiga ega bo‘lmagan yordamchi so‘zlarni ... daftaringizga ko‘chiring.

Buyuk Xitoy devori

U xitoychada “Vanli chongchang” deya nomlanib, “10 ming li uzunlikdagi ...” ma’nosini anglatadi. Uning dastlabki qismi qal’a devori sifatida miloddan ...gi IV-III asrlarda imperator Sin Shixuandi davrida qurilgan. Devor tosh va ...dan ishlanib, ichini tuproq bilan to‘ldirgan holda, shibbalab bunyod etilgan. ...dan avvalgi 2-1-asrlarda g‘arb tomonga 500 kilometrga uzaytirilgan. 2001-...ilmiy tadqiqotlar natijasida uning asli uzunligi 530 kilometr, deya e’tirof ...Buyuk Xitoy devorining o‘rtacha balandligi 9 metr. Kengligi 5-6,5 metr. ...soqchilar uchun to‘rtburchak burjlar qurilgan va ularning balandligi 10-12 ...gacha yetgan. Har 10 kilometrda kuzatish, xabar berish minoralari, tog‘dagi ...o‘tish joylarida qo‘rg‘onlar bo‘lgan. *(Гадоев К, Бердиева С. Сайёрамиз ...ялари. Тошкент: “O‘zbekiston”. 2012. 106-б.)*

135-mashq. Quyidagi Jomiy qalamiga mansub hikoyani o'qing, daftaringizga husnixat asosida ko'chiring. Bog'lovchi, ko'makchi va yuklamalarni toping. Matndagi vazifasini tushuntiring.

Agar och bo'lsang, qanday osh, non ko'rsang senga qattiq ta'sir qo'zg'atadi. Sen bilan o'tirgan ulfatlaringda esa ishtahang senga nisbatan ortiq uyg'otadi.

Quyuq, suyuq har na topsang uyingda,
To'yib yeb olganing yaxshidir be shak.
O'zgalar taomin havas aylama,
Pastlar atosidan qoqib ket etak.

"BAHORISTON"

135-mashq. *Ham, -u, -yu, -da* yordamchi so'zlar ishtirok etgan bog'lovchi va yuklamali gaplarga misollar yozing.

136-mashq. Quyidagi gaplar orasidan *bilan* bog'lovchisi va ko'makchisini ajrating.

Bugun mehmonga mashina bilan keldim. Sen bilan men vatanimiz bo'lgan sayohatga otlandik. Sherali Sanjar bilan to'garak darslariga boryapti. Ko'p do'konidan kitob bilan daftar sotib oldim.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

137-mashq. Berilgan so'z-diktant matnidan u va o' harflari ishtirok etgan so'zlarning talaffuzi va imlosiga diqqat qiling. Diktantni yozib o'zingizni tekshirib ko'ring.

Uzun, ulus, ulug', unumdor, umr, suzmoq, uzmoq, uzuk, uyqu, usul, ehtiyoj, g'uncha, g'ubor, shunday, shug'ullanmoq, uzr-ma'zur, uzuk, uzuq, uxlamoq, uylanmoq, uzoq, uchuq, usta, ulg'aymoq, ulug', umumta'lim.

O'zbek, o'z, o'zlik, bo'lmoq, do'ppi, do'st, so'ngra, so'roq, so'yil, so'zboshi, so'z, sug'd, sug'orma, so'qir, so'zlamoq, so'qmoq, so'zana, g'o'za, sho'x, sho'rva, o'sma, o'smoq, o'qimoq, o'quvchi, o'rganmoq, o'tar, o'n, o'yinqaroq, o'ylamoq.

138-mashq. Quyidagi hikoyani o'qing va ma'nosi bo'yicha ifodali yuriting. Matnda qo'llanilgan bog'lovchi so'zlarni topib daftaringizga ko'chiring.

Oliy himmat bir darvesh, shavkatli bir podshoh bilan tez-tez ko'rishib turar, yoqimli suhbatlar qurar edi.

Kunlardan birida u podsho peshonasida malomat izlarini sezdi, uning sababini o'ylab, xayoli kezdi, ammo o'zining tez-tez kelishidan bo'lak sabab ko'rmadi. Darhol podsho huzuriga qatnamay qo'ydi va u bilan suhbatdan o'zini tiydi. Bir kuni podsho yo'l ustida darveshni uchratib qoldi va shunday so'roqqa oraga soldi: "Ey darvesh, ne sababdirkim, men bilan aloqangni buzding, bora-

...qalamingni uzding?" Darvesh javob berdi: "Sababi shuki, men ...chehrangda malol ko'rgandan ko'ra, "Nega kelmaysan?" degan savol ...roqroq ekanini tushundim".

Darveshdan hukmdor so'radi: "Nechun
Kelmading oldimga bunchalik uzoq?"
Ul dedi: "Nimaga kelding, degandan,
"Nimaga kelmading", degan yaxshiroq!"

"BAHORISTON"

139-mashq. O'zingiz ta'lim olayotgan ta'lim muassasangizning kutubxonasi ...nomini yozing va matn tarkibida qo'llangan yordamchi so'z turkumlarining ...ishtirokini aniqlang.

22-DARS

MATN: ADABIYOT – MA'NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI VOSITA

Adabiyot (arab. — adab so'zining ko'pligi) — 1. Fan va amaliyotning biror ...sohasi yutuqlarini umumlashtiruvchi asarlar majmui. 2. San'atning bir turi (...adabiyot deb ham ataladi); voqelikni so'z yordamida obrazlar orqali aks ...Adabiyot avval og'zaki bo'lgan, yozuv paydo bo'lgandan so'ng yozma ...bo'lgan. Adabiyot so'z orqali insonning his-tuyg'ularini keng va chuqur aks ...imkoniyatiga ega, shuning uchun ham u san'atning eng ommaviy turi ...hisobl...

Adabiyot so'z san'atidir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ...larini ilg'ashga, ularni so'z vositasida aks ettirishga intiladi. Eng oliy daraja, ...pog'onalarga chiqa oladigan badiiy adabiyot namunalari insoniyatni ...lantiradigan, hayajonga soladigan o'y-fikrlar, kechinmalar, orzu-umidlarni ...Dunyoda insonlar bir-birlariga o'xshamaganlaridek, ularning qalb ...lari ham takrorlanmasdir. O'zbek adabiyoti tarixi inson ruhiy holatlarini ...bilan aks ettirgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ...hayajon uyg'ota oladi, ularning ma'naviy boyishlariga tegishli hissa qo'sha ...Muhimi, ular faqat ma'rifiy bilimimizni oshirish bilan cheklanmay, badiiy ...takomiliga, ma'naviy kamolotga xizmat qiladi.

San'at turlari nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Tasviriy san'at, ...haroshlik, me'morchilik, teatr, kino, musiqa, raqs va badiiy adabiyot ...ning turlarini tashkil qiladi. Ularning barchasida yuksak badiiy ta'sirchan ...lar yaratish ko'zda tutilgan. Ammo ular ana shu yagona maqsadga turli-...yo'llar bilan erishadi. Masalan, raqs harakatlar, tana a'zolarining ifoda ...iyatlariga tayanadi. Musiqa tovushlar uyg'unligiga, tovushlarning hissiy ...siga bog'liq. Tasviriy san'at uchun ranglarning o'zaro mutanosibligi alohida ...iyat kasb etadi. Rassomga bo'yoq va mo'yqalam yordam beradi. ...haroshlik esa xom material (tosh, ganch, yog'och, metall)ga ishlov berish ...go'zallik yaratadi. Adabiyot esa bu san'atlardan so'z va ruhning beqiyos ...iyatlari bilan farqlanadi. So'zlar badiiy matnning yuzaga kelishiga omil ...bo'lsa-da, ammo har qanday matn va so'zlar badiiy adabiyotga daxldor

bo‘lavermaydi. Buning uchun so‘z muayyan badiiy estetik vazifani bajarishi
Shunga ko‘ra ham badiiy adabiyot voqea-hodisalarni yoki insoniy kechi
bayon qilmaydi, balki ularni tasvirlaydi. Tasvir so‘zga tayanadi. So‘z sehr
bilan o‘ziga mahliyo qiladi, rom etadi. Shuning uchun go‘dak allaga
yoshdagi bola ertakka, kattalar badiiy ijodning turli ko‘rinishlariga
qiziqib qaraydilar, ularning olamiga kirib qolgach, o‘zlarini ham shu
mansub hisoblaydilar.

Adabiyotning ta’sir kuchi nimada? U nimalarga bog‘liq? Buning uchun
so‘z san’atkorlari yaratgan ko‘plab durdona asarlarning xalq orasida
hurmat va e’tibor qozonganligini eslash joiz. Yusuf Xos Hojib 1069-70
“Qutadg‘u bilig” dostonini yozib tugatadi va uni qoraxoniy hukmdor
Tabg‘ach Bug‘ro Qoraxon Abu Ali Hasanbinni Arslonxonga taqdim
Hukmdor adibga mamlakatdagi eng yuqori mansablardan biri — Xos Hoji
beradi. Xos Hojib “eshik og‘asi” demakdir. Hozirgi tilimizda
boshqaruvchi”ga to‘g‘ri keladi.

Yana bir misol. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonini tugatgach, uni
Boyqaroga sovg‘a sifatida topshiradi. Husayn Boyqaro butun a’yonlari
Navoiyni o‘z “pir”i deb e’lon qiladi va shoirni otga mindirib, o‘zi xalq oldida
jilovdorlik qiladi. Bu mamlakat podshosining buyuk iste’dod egasiga,
san’atkoriga nisbatan hurmat va e’tirofi ramzi edi. O‘zbek xalqining jodko
nisbatan alohida hurmat va ehtiromi ham yaxshi ma’lumdir. Mah
Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “Ardam bashi — til” (
fazilatlarning boshi tildir») degan maqol uchraydi. Demak, til va badiiy so
qudratiga qadim zamonlardayoq ajdodlarimiz alohida e’tibor berishgan. X
sharoitida Yusuf Xos Hojib shoirlarni “so‘z teruvchilar” deb ta’riflaydi. XIV
esa Sayfi Saroyi shoirlarni “so‘z bulbuli” deydi. Navoiy shoirlarni
chamanining xushxon bulbullariga o‘xshatgan edi. So‘z adiblar nazarida
alohida, mo‘tabar mavqega ega. Yusuf Xos Hojib til va so‘zga katta baho bera
tilni bilim va aql-idrok tarjimoni deb ataydi. Bu borada adibning ayrim fikrl
eslatish mumkin:

Kishi so‘z bila qo‘pti, bo‘ldi malik,
O‘kush so‘z bashig‘ yerka qildi kulik.
(Kishi so‘z tufayli ko‘tariladi, podshoh bo‘ladi,
Ko‘p so‘z boshni yerga egadi.)
Kishidin kishiga qumaru so‘z ul,
Qumaru so‘zi tutsa asg‘i yuz ul.
(Kishidan kishiga qoladigan meros so‘zdir,
Meros so‘zni tutsang, nafi yuz-yuzdir.)

Bunday fikrlarni adib Ahmad Yugnakiy ijodida ham ko‘ramiz. U “ad
boshi til ko‘dazmak (saqlamoq) dir” deb Mahmud Koshg‘ariyning “De
lug‘otit turk” idagi maqolga hamohanglik bildiradi. Adib Ahmad so‘zni kas
va dillarga shifo derkan, bunda badiiy so‘zni e’tiborga olganiga shubha yo‘q
Saroyi badiiy so‘z qudratini shoirlar iste’dodiga bog‘laydi. Shuning uchun u:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog‘,

bulbuldurur so‘zda, kimi zog‘, - deya shoirlarni ikkiga ajratadi.
bulbul” bo‘lganlarning “mavzunu shirin” ash’orlariga ta’rif-u tahsinlar
Asrimiy (XIV asr) nazarida o‘z ona tilida bitilgan kitob ajdodlarning
qoldirgan armug‘onidir. Shoir “shakarteg til bila olamni” tutishi
Alisher Navoiy so‘zga nihoyatda katta baho beradi. U:

ukm insonni judo ayladi hayvondin,
Bu ne guhari sharifroq yo‘q andin, - deb ta’kidlaydi.
Uning fikricha: Jism bo‘stoniga shajar so‘zdur,
Ruh ashjoriga samar so‘zdur.

Adabiyot xalq, jamiyat hayotining o‘ziga xos ifodasi hamdir. U jamiyat
jadiy o‘zgarishlarni xilma-xil obrazlar vositasida turli badiiy shakllarda

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing va adabiyot so‘zining ma’nolarini tushuntirib bering.
2. Badiiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
3. Matnda qo‘llanilgan badiiy uslubga xos bo‘lgan gaplarni daftaringizga
4. Matndan foydalanib lug‘at tuzing.
5. Matnni o‘zbek tilida qisqacha gapirib bering.

USLUBSHUNOSLIKKA OID MATERIALLAR

Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari

Eslab qoling. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasi
asarlar orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi
olib hisoblanadi. Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda
tilning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olish bilan birga, o‘zbek
kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste’moldan
kelgan tarixiy so‘zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi. Badiiy
o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro‘yobga
nutq ma’lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani
dan tashqari, o‘quvchiga ta’sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi.
uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi
chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy
barcha tomonlarini qamrab oladi. Shuning uchun unda ilmiy uslubning
publitsistik uslubning ham, so‘zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning
elementlari namoyon bo‘laveradi.

140-mashq. Berilgan she’rni o‘qing va badiiy uslubni hosil qiluvchi
larning tagiga chizing.

Halol ishlab topsang gar arpa donin,
Yaxshidur yegandan birov oq nonin.

Ish vaqti bo'lmagin g'ofil, parishon,
Oxiri mevasi bo'lur pushaymon.

(Xusrav Dehlaviy hik...

141-mashq. Quyidagi Uvaysiy qalamiga mansub chistonning ... toping va daftaringizga husnixat asosida ko'chiring. Badiiy uslubni ... vositalarni izohlang.

Ul na gumbazdur eshigi tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindirib gumbazni qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlarig'a parda tortig'liq turarlar bag'ri qon.

142-mashq. She'rni ifodali o'qing. *Bet, yuz* so'zlarining nima asosida ... ko'chishini aniqlang.

Olma

Oqizoq o'ynar edim,
Bir olma oqib keldi.
Suvning betida qalqib,
To'lqinda balqib keldi.
Olgim keldi olmani,
Tutqich bermas likillab.
Qo'l uzatsam, yetmadi,
Qochib ketdi dikillab.
Quvlay-quvlay tutdim-ku,
Jonoqi olma ekan.
Bir yuzi nim pushti, oq,
Bir yuzi lola ekan.

QUDDUS MUHAM...

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

143-mashq. Quyidagi she'riy parchada muallif ***"kuz"***ni jonlantirish ... kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini qanday faollashtirg... bo'yicha fikr yuriting va matndagi x va h harflari bilan kelgan so'zlarning im... eslab qoling.

Nimani xohlayman? Istagim nima?

Changalzor shovqinin tinglab turaman.

Yaproqlar bandida kezgan jimgina

Ma'yus va bezovta kuzni ko'raman.

...ning qo'shig'ida, uning ohida

...aman odamzod qalbin gohida. (A.Oripov).

... Quyidagi matnni o'qing va badiiy uslubda yozilgan asarlarda ... qanday nomlar bilan ifodalanishiga diqqat qiling. Qo'sh va qator ... imlosini eslab qoling.

... xalqlar yetti muqaddas sayyora inson hayotiga, taqdiriga, o'zaro ... bog'liq deb tushunganlar va shundan hafta kunlarini chiqarganlar. ... ham shunga kiritishgan. Ular:

... - Oftob, Shams, Xurshid, Mehr, Yashiq; Kuch-g'ayrat ramzi.
... - Qamar, Moh, Anbar, Yalchiq; Dilbarlik ramzi.
... - Mirrix, Bahrom, Ko'rkud; Jangu jadal timsoli. Greklarda urush ...
... - Atorud, Hulkar, Surayyo, Orzu, Dabir; Aql-zakovat, donolik ...
... - Mushtariy, O'ngoy, Qoraqush, Burjis; Baxt ramzi.
... - Zuhro, Cho'lpon, Sirius, Yildiriq, Nohid, Saqid; Sevgi ramzi.
... - Zuhal, Sekantir, Kronos; Dehqonchilik va hosildorlik ramzi.

144-mashq. Berilgan so'zlarni daftaringizga ko'chiring. i va e ... talaffuzi va imlosiga diqqat qiling.

... ibodat, igrek, ikki, imorat, injener, intellektual, interval, istiora, iztirob, ... jinoiy, gidrostansiya, gitara, girdob, hiqildoq, psixologiya, piyova, ... qiyg'os, qichqirmoq.
... egallamoq, egik, ehson, ehtiyot, ekmoq, ekran, entikmoq, eplamoq, ... respublika, rejissor, sessiya, sevikli, sezmoq, kelmoq, eslamoq, tekin, ... telpak, tevarak, teskari.

145-mashq. Quyidagi Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub she'rni yod oling ... uslubga xos bo'lgan xususiyatlarni kuzating.

VATAN

Dil porasi, ko'z qorasi sen o'zingdirsan,
Mening ko'nglim sen aslida, sen ko'zimdirsan.
Tomirimda tomir yoygan ilk so'zimdirsan,
Ilk og'rig'im, ilk yomg'irim, naysonim, Vatan.

Qir ustida yonboshlagan bobom chaylasi
Bu dunyoda kimlarningdir orzu-havasi.
Dimog'imda — yulduz isi, shabnamlar isi,
Momom ekib ketgan kashnich, rayhonim, Vatan.

Quloq solsam shivirlagay hatto toshlaring,
Oy-u quyosh, kamalaklar ko‘z-u qoshlaring.
Beshigimni tebratgandir qaldirg‘ochlaring,
Oy-u quyosh ko‘rpa solgan ayvonim, Vatan.

Bo‘ronlari tulporlarga tunlar yol bo‘lgan,
Bir o‘g‘loni chinor, biri majnuntol bo‘lgan.
Temurlari ot minganda jahon lol bo‘lgan,
Jahonlarga timsol shoh-u sultonim, Vatan.

Valilardan ibrat so‘ylar qadim sahrolar,
So‘ndi qancha saltanatlar, qancha tug‘rolar.
Maqbaralar aytsin lekin, aytsin Zuhrolar:
Yer ostidan suhbat aylar hanuz Kubrolar,
Termiziylar bedor yotgan qo‘rg‘onim, Vatan.

Ne tong edi — izg‘irinlar zahrini totding,
Dasturxonda muztar qoldi qand-u naboting.
Shahidlaring nomlaridir har bir raboting,
Abadiy yod erur asli adabiyoting,
Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy ham Usmonim, Vatan.

Gard qo‘nmasin toki sening kipriklaringga,
Kipriklarim kiprik qilay ko‘priklaringga.
Malham bo‘lmoq uchun asriy og‘riqlaringga
Bulutlaring suzib yurar ko‘k, qirlaringga,
Uyg‘oq ruhlar osmonida posbonim, Vatan.

Naqshlaring qutuldilar kishan-bandlardan,
Xatlar oldim yuragimga Naqshbandlardan,
Afrosiyob bilan tengdosh kuy, ohanglardan.
She’rlarimga ranglar oldim Samarqandlardan,
Gohi moviy, gohi zangor dostonim, Vatan.

Ulug‘laring xokini men yuzlarga surtay,
Dilimdagi eng muqaddas so‘zlarga surtay,
Onamdayin aziz non-u tuzlarga surtay.
Ozod bo‘lgan oyatlarin ko‘zlarga surtay,
O‘z yurtiga qaytib kelgan Qur’onim, Vatan.

Men dunyoni ne deb aytay? Bu bir ko‘hna bog‘,
O‘z bilganin sayrar bunda har qumri, har zog‘.
Aslo sening bag‘irlaring ko‘rmayin men dog‘,
Yulduzlarga osmon bo‘lgan, ey nurli tuproq.
Osmonlari yer-u, yeri osmonim, Vatan.

[illegible] men bir epkin yo bir nasimman,
[illegible] bo‘lsam gar sening xasingman.
[illegible] ko‘zlarida qolar so‘zingman,
[illegible] sen bilandir, yo‘g‘im sen bilan,
[illegible] chiqqan ulug‘ karvonim, Vatan.

23-DARS

MATN: **MEN SEVGAN ASAR**

[illegible] asar ilm va ilmsizlikning kurashi hamda ilmsizlik tufayli kelib [illegible] oqibatlar haqida yozilgan Behbudiyning “Padarkush” asaridir. Asar [illegible] bir boy odam o‘zi savodsiz bo‘lgani holda, farzandini ham ilmli [illegible]. O‘g‘li o‘spirin yoshiga yetsa-da, maktab ko‘rmagan. Ota bundan [illegible] o‘g‘li ham shu taqdirni takrorlaydi, degan o‘yda. Asar muallifi [illegible] o‘zgartirish uchun o‘z davri ma’rifatining ikki vakili - eski maktab [illegible] va “usuli jadid” targ‘ibotchisi - ziyolini uning huzurida ko‘rsatadi. [illegible], so‘ng ziyoli kelib, boyning o‘g‘li Toshmurodni maktabga berib, ilmi [illegible] zamondan bahramand etishga da’vat qiladilar. Bu so‘zlarga beparvo, [illegible] har ikki mehmondan ham ranjib, ularni bir amallab haydash [illegible]. Otaning bema’ni hayot tarzini ko‘rib o‘sgan farzand uch-to‘rt [illegible] yigitlarga qo‘shilib ichkilik ichadi, maishiy buzuqlikka mayl [illegible] va oxir-oqibat ana shu ehtiyojlari uchun mablag‘ istagida otasining [illegible] aylanadi. Voqeaning fojiaviy yakunidan so‘ng sahnaga kirib kelgan [illegible] va Ziyoli o‘z so‘zlariga quloq osmagan boyning mash’um ibratida [illegible] jaholatning dahshatini, fojiasini ta’kidlab, xalqqa murojaat etadilar: “Ilm [illegible] bolalarning oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o‘qutsa edi, bu [illegible] va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas va bular ichkilikni bo‘yla ichmasdi, [illegible] ayri haqqin qilmas edi. Oh, haqiqatda boyni o‘ldurgan va yigitlarni azobi [illegible] giriftor qilgan beilmlikdur. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qumoq va [illegible] boshqa iloj yo‘qdur”.

[illegible] Padarkush” pyesasida ilgari surilgan g‘oya ana shu so‘zlarda aks etadi. [illegible] ko‘ra ko‘pgina mutaxassislarimiz uni sof ma’rifiy xarakterdagi asar [illegible] baholab keladilar. Darhaqiqat, ilmsizlik, jaholatga qarshi ma’rifat g‘oyasi [illegible] bir sahifada yaqqol ifodalangan. Ayni chog‘da jadidchilikning o‘zak masalasi [illegible] istibdodga qarshi g‘ayrikolonial g‘oya ham asarning bir necha o‘rinlarida [illegible] ochiqroq, gohi pardali va yoki matn tagzaminidan anglashilib turadi. [illegible] sari esa, avvalo shu g‘oya nazarda tutilgan emasmikan, degan fikr [illegible] boradi. Bir qadar oshkora ko‘ringan istibdod masalasi juz’iyroq [illegible] domlaning quyidagi so‘zlarida seziladi: “Ko‘rarmizki, yigirma-o‘ttiz [illegible] beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo‘lig‘a [illegible]. Agar domla shu so‘zlarni aytib, o‘qimoqqa, xususan, musulmonlik, din,

islomiyat ravnaqiga da'vat etsa, undan so'ng kirgan ziyolining tilida "
qayta-qayta takrorlanadi. U "millatga keraklik ilmlar to'g'risida"
mavjud asorat tuzumi bilan bog'liq quyidagi fikrni bayon etadi: "
boshqa bir zamondir. Bu zamong'a ilm va hunarsiz xalqni boyligi,
kundan-kun qo'lidan ketganidek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqa
ham zaif bo'lur". Ziyolining bunday hur fikrlari asar so'ngida rivoj
yana-da ochiqroq matnda beriladi: "Bizlarni xonavayron, bachagiryon
va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik,
zarurat xorliklar hamasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir
taraqqiy qilgan xalq, ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun
beilmlikdan".

"Padarkush"da asorat tufayli fojialar yuz berayotganiga yana
ishora bu asardagi "pivoxona manzarasi"dan anglashiladi. Uch-to'
to'lgan, navqiron yigitlar o'spirin Toshmurod boyvachchani yonlari
ichkilik ichib, mast holatda o'tirganlarini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Padarkush" dramasi
xarakterdagi asar bo'lib, ilmsizlik, jaholatga qarshi ma'rifat g'oyasi
yaqqol ifodalangan.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o'qing va matn mazmuni bo'yicha fikr yuriting.
2. Matn bo'yicha lug'at tuzing.
3. Matndan ijodiy foydalangan holda "Men sevgan asar"
o'zingizning o'qigan asaringiz bo'yicha esse yozing.
4. Badiiy asarda qo'llangan badiiy tasviriy vositalarni aniqlang
matnidagi o'rnini izohlang.

ADABIYOTSHUNOSLIKKA OID MATERIALLAR

Badiiy tasviriy vositalar

Eslab qoling. Har bir ijodkor qalam tebratar ekan badiiy
mazmunan quyuqlashtirish, uni his-hayajonlar bilan boyitish uchun
salohiyatiga tayanadi. Har bir so'z shakl-shamoyili, rang-bo'yog'i, o'z
va ohangiga ega. Har bir ijodkor oddiy so'zlovchidan so'z sohibiga, undan
san'atkoriga ko'tarilishi uchun "so'z sezgisi", "so'z jozibasi", "so'z
bosqichlarni egallashi lozim. Shoir qalam tebratar ekan uning ixtiyorida bir
vositalar mavjud. Bu vositalarning eng muhimlari badiiy tasvir vositalari,
san'atlardir.

She'riy san'atlar yillar mobaynida adabiyotshunosligimizda shakllanib,
bade'" nomini olgan badiiylik ilmining asoslaridir. Ular asar jozibasini ko'
va shoir mahorat qirralarini ochishga xizmat qiladi. Yozuvchilar tasviriy
yordamida o'zlari tasvirlayotgan narsa hodisalarning ba'zi bir tomonlarini,
belgisini aniq va qisqa xarakterlab berishga erishadilar. Yozuvchi har bir hodi
aks ettirganda, uning muayyan sharoitda muhim hisoblangan sifatini

tasviriy vositalarning tazod, tashbeh, tashxis, talmeh, tajnis,
mubolag'a, sifatlash, anafora, litota va boshqa shu kabi

so'z bo'lib, qarshilantirish usulining klassik adabiyotda
ko'rinishi. Tazodda qarama-qarshi qo'yilgan ikki tomon ayni
ravishda bir-biriga bog'lanib keladi. Qarshilantirilayotgan narsa,
holatni yorqin va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi:

menga bir yori *jafokor* topilmas,
senga bir zori *vafodor* topilmas. (Bobur)

adabiyotda keng qo'llaniladigan tasviriy-ifodaviy vositalardan biri
Yozuvchilar muayyan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilari
ongida aniq tasavvur hosil qilish maqsadida uni qandaydir boshqa,
narsa-hodisaga yohud uning belgilariga o'xshatadilar. Mumtoz
o'xshatish *tashbih* deb ham yuritilgan. O'xshatish tasvirlanayotgan
yoki uning asosiy belgilarini yorqinroq, aniqroq qilib
xizmat qiladi. O'quvchilarga Hamid Olimjonning "Zaynab va Omon"
jarayonida unda yozuvchi bir necha tasviriy vositalar, jumladan,
o'rinli fodalanganligini aytish lozim. Masalan:

Qushday yengil uchar edilar,
Oq bulutday ko'char edilar.

ishlardan ketma-ket foydalanilsa, *tashbihi musalsal* deb ataladi.
Omon"da tashbihi musalsal bir necha o'rinlarda uchraydi:

Daryo tinmay solardi shovqin,
Qiz ko'ziday qora edi tun.
Qiz qalbiday pok edi havo,
Qiz qalbiday sevgidan davo.

146-mashq. Matnni ifodali o'qing va mazmuni bo'yicha gapirib
matnda ajratib ko'rsatilgan gaplarni ko'chiring va badiiy tasviriy
ni aniqlang.

Hotami Toyi haqida hikoya

Bir pok tabiatli odam Hotami Toyidan so'radi: "Kaftlarning ishi saxovat
beri o'zingga o'xshagan biron kishini ko'rdingmi?". U javob berib
"Bir kuni katta bir bazm qurib, shu cho'lda yashayotgan barcha odamlarni
qildim. Ziyofat uchun yuzta tuya, son-sanoqsiz qo'y-u qo'zi so'yilgan
vaqt mehmonlar oldidan biroz dam olish uchun ochiqqa, sahroga chiqdim.
ko'z oldimda mashaqqat chekib, orqasiga tikanli shox-shabbalarni ortib,
jismi uyi egilib, unga xassadan sutun tirkab olgan, har qadam yurganida
har nafas olguncha damini rostlab borayotga bir keksa namoyon bo'ldi.
chekayotgan iztiroblari mening ko'nglimga o't solgandek bo'ldi-yu, unga
lutf-u rahmdillik bilan shunday xitob qildim: ***"Ey, qaddini mashaqqat yuki***

past aylagan, jismida g'am tikani azob berayotgan inson! Bugun Hotam chaqiriq bo'layotganidan xabar topmadingmi, uning dargohidagi bormadingmi? Hotam hammani mehmonga chorlab, barcha yaxshi ko'nglini olyapti-ku! Tikaningni tashlaginda, izzat gulshaniga mashaqqat chekmay, o'rningdan turib, chaqirilgan manzil tomon

dedim.

Mening u haqida tashvish chekayotganimni anglagan kishi boshini kuldi-yu, shunday javob qildi: ***"Ey oyog'ini hirs-ochko'zlik zanjirband bo'ynini esa ta'ma-yu tilanchilik arqoni mahkam bog'lagan, g'ayrat qadam urmagan va himmat panjarasini kezib chiqmagan inson! Sen tikan azobini totib ko'r, shunda Hotam Toyi minnatini eshitmaysan!"***.

Uning bu so'zlari asosli bo'lib, mendan uning himmati yuksak edi".

"Hayrat

147-mashq. Abdulhamid Cho'lpon qalamiga mansub quyidagi ifodali o'qing va yod oling. She'r matnida qo'llangan badiiy tasviriy vo aniqlang, daftaringizga yozing.

GO'ZAL

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: Men uni tushda ko'ramen.
Tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!

Ko'zimni olaman oy chiqqan yoqqa,
Boshlayman oydan-da seni so'rmoqqa.
Ul-da aytadir: Bir qizil yanoqqa
Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.
Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Erta tong shamoli sochlarin yozib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir: Bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog' va toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni – shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Ul ketgach, kun chiqar yorug'lik sochib,
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda.
Ul-da o'z o'tidan bekinib, qochib
Aytadir: Bir ko'rdim, tushdamas, o'ngda.

Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Men yo'qsil na bo'lib uni suyibmen,
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,
Men suyib... men suyib kimni suyibmen?
Men suygan suyukli shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

148-mashq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va imlo bo'yicha yozing.

tavus-..., tavush-..., tavon-..., tog'ara-..., tayg'oq-..., tamosha-..., tamorqa-..., tatmoq-..., tog'ara-...,qavoq-..., qarovul-..., qarong'i-..., qavun-..., qazon-..., qazoq-..., qog'az-..., qosqon-....

149-mashq. Matnni o'qing. So'zlarda xato qo'llangan unlilarni daftaringizga husnixat asosida ko'chiring.

Salomlashish qoidasida ulig'lar kichikka salom berishsa, yetuk ish bo'ladi. kamtarlik yo'lini tutib, ulug'lar so'zini olsa, o'zin ulig'lik sari eltadi.

Omon berdi elga salom qiluvchi,
Salomatlik topdi alik oluvchi.
Salom bo'ldi odam tinchiga garov,
Sog'liq olar salom bilan qoluvchi.

Yusuf Xos Hojib

150-mashq. Quyidagi tasviriy ifodalarni o'qing va yod oling.

Dengiz hokimi – kit
Insoning do'sti – it
Sahro kemasi – tuya
Cho'l balig'i – kaltakesak
Qanotli do'stlar – qushlar
Hayvonlar podshohi – sher
Baraka urug'i – chigit
Dala malikasi – makkajo'xori
Oq oltin – paxta
Oltin boshoq – bug'doy
O'rmon malikasi – archa

151-mashq. Matnni o‘qing. Ko‘rshapalakning qushlar va yirtqichlar munosabati haqida o‘ylang. Matndagi o‘ va u tovushlari ishtirok etgan so‘zlarni ikki ustunga bo‘lib ko‘chiring va imlosini eslab qoling.

KO‘RSHAPALAK, QUSHLAR VA YIRTQICHLAR

Qushlar bilan yirtqichlar o‘rtasida katta nizo chiqibdi. Ikkala tomon ham o‘ziga qo‘shin yig‘a boshlabdi. Ko‘rshapalak qaysi tarafga qo‘shilishni bilmay ikkilanib qolibdi. U turgan shox oldidan o‘tib ketayotgan qushlar: — Yur, bizga bilan, — deyishibdi. Ammo Ko‘rshapalak: — Men yirtqichman, — deyishibdi. Keyinroq ini tagidan o‘tib ketayotgan yirtqichlar tepaga qarab shunday deyishibdi:

— Yur, bizga qo‘shil. Lekin u: — Men qushman, — debdi. Xuddi oxirgi lahzalarda tinchlik o‘rnatilibdi, hech qanday urush bo‘lmabdi. Ko‘rshapalak qushlarning oldiga borib ulardan o‘zini xursandchiliklariga qo‘shishlarini so‘rabdi. Ammo hamma qushlar undan yuz o‘girib, uchib ketaverishibdi. Shundan keyin Ko‘rshapalak yirtqichlarning oldiga boribdi. Biroq tezda u yerdan ham chekinishga majbur bo‘libdi, zero, yirtqichlar uni burda-burda qilishga turardilar. Shunda Ko‘rshapalak o‘ziga shunday dedi:

— *Fazilati bo‘lmaganning do‘sti ham bo‘lmas ekan.*

Ezop masallari

24-DARS

MATN: OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

Ommaviy axborot vositalari jamiyat ko‘zgusi, millatning yuzi. Matbuotga qarab jamiyatning buguni va ertasi haqida tasavvur hosil qilish, to‘g‘ri xulosalarga kelish mumkin. Jamiyatda oila institutini yana-da mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish, fuqaro davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish, ayollarning ijodiy va intellektual huquqlarini ro‘yobga chiqarishda matbuot nashrlari o‘ziga xos minbardir.

2017-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra respublikada 1564 ta ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatiga olingan bo‘lib, ularning 694 tasini gazetalar, 329 tasini jurnallar, 14 tasini axborotnoma-byulletenlar, 68 tasini televidenielar, 37 tasini radiolar, 4 tasini axborot agentliklari, 418 tasini ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatiga olingan veb-saytlar tashkil etadi. Respublika bosma OAVlarining bir martalik adadi 3-5 mln. nusxani, telekanallarning bir sutkalik efir hajmi 2 soatni, radiokanallarning bir sutkalik efir hajmi 616 soatni (1 iyul holatiga) tashkil qilmoqda.

Axborot vositalari nafaqat soni, ixtisoslashuvi, hajmi, matbaa sifati jihatidan ham rivojlanib bormoqda. Davriy nashrlarning 50 dan ortig‘i xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashga ixtisoslashgan. Yurtimizda nashr etilayotgan adabiyotlarning har uchtadan bittasi bevosita jamiyatda ayollarning o‘rni

va bolaga bag‘ishlangan nashrlardir. Shuningdek, matbuot, radiokanallarning global internet tarmog‘iga kirishiga keng yo‘l bir tomondan mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar muhim omil bo‘layotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan aholining dan xolis axborot olish imkoniyatini kengaytirmoqda.

globallashuv asrida turli ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot adal kechayotgani jamiyatning faol qatlami bo‘lgan xotin-qizlarning kuchli aks-sado bermoqda. Bu borada xotin-qizlarga mo‘ljallangan vositalari faoliyatini yana-da takomillashtirish, qizlarimizni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda turli ma'naviy xurujlarining salbiy ta'siridan himoyalashga qaratilgan chora-izchil tatbiq etishni taqozo etmoqda.

axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi qonunlar

Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun (2007-yil 15-yanvar);
Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonun (1997-yil 24-

jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (1997-yil 24-

Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2002-

Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun (1996-yil 30-avgust);
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonun (2006-yil

Reklama to‘g‘risida”gi Qonun (1998-yil 25-dekabr);
Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun (1993-yil 7-may);
Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonun (1999-yil 20-avgust).

O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari huquqiy asosining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosiy manba sifatida Konstitutsiyamizning 67-moddasida “Ommaviy axborot vositalari va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi” deb belgilab ommaviy axborot vositalarining mutlaq qonuniy erkinligining kafolati Ushbu qoidaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi “Ommaviy axborot to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida axborot vositalarini senzura qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. E’lon xabar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning o‘zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga ligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo‘q” deb belgilab qo‘yilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Matndan atoqli otlarni toping va daftaringizga ko‘chiring.

3. Matnda qo‘llanilgan yuklamalarni aniqlang.
4. Matnda ishlatilgan olmoshlarni toping va daftaringizga ko‘chiring.
5. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing.

USLUBSHUNOSLIKKA OID MATERIALLAR

Publitsistik uslub va uning xususiyatlari

Eslab qoling. Publitsistika (lot. publika - xalq, omma) davrning muhim, dolzarb masalalarini o‘quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yig‘inlarida, turli anjumanlarda qo‘llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi. Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo‘ladi: 1) yozma shakl;

2) og‘zaki shakl.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan bosh maqolalar, felyeton, pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniyeda chiqayotgan ayrim sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning og‘zaki shakliga.

Publitsistik uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo‘lishlik, hozirjavoblik, ta’sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanliligi tufayli ham ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, isyon, irqchilik, qo‘poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim va boshqalar.

Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrning o‘zi, masalan, gazeta, radio, televideniyeda beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalar hamda o‘zida berilayotgan reportaj, pamflet, felyeton kabi nutqiy vositalar jihatidan farqlanadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan ularning hammasini umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli ko‘rinishlari sanaladi. Umuman bo‘lsa, nutqning jamiyatga qaratilganidir.

152-mashq. Quyidagi matnni qaysi uslubga oid ekanligini aniqlang. Bu uslubni yaratuvchi vositalar haqida fikr yuriting.

“01” XABAR QILADI

O‘tgan yil davomida Samarqand shahar 3-son HYOXQ hududida 111 ta yong‘in sodir bo‘lib, shundan 63 tasi aholi turar joylarida kuzatilgan.

Afsus bilan aytish mumkinki, olov bilan bog‘liq ofatlarning aksariyati ayrim fuqarolarning o‘z turar joylarida olovga ehtiyotsizlarcha munosabatda bo‘lishi natijasida kelib chiqmoqda. Masalan, bu kabi ofatlarning sodir bo‘lish sabablari tahlil qilinganda 38 ta yong‘in elektr, 26 tasi isitish uskunalari nosozligi yoki ularga qarovsiz qoldirish, 51 tasi yong‘in yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida sodir bo‘lgan.

...tilsiz yov, deyiladi. Biroq bundan oqilona foydalanilsa, u faqat ...xizmat qiladi. Buning uchun barcha yong‘in xavfsizligi qoidalariga ...qilishi, yon-atrofdagilaridan ham shuni talab etishi kerak bo‘ladi.

(“Zarafshon” gazetasi, 2012-yil 14-fevral, seshanba soni)

...topshiriq. Berilgan matndan foydalanib, siz ham publitsistik uslubning ...yozma turiga matn tuzib ko‘ring.

O‘zbekiston sharsharalari

...Mamlakatimizning tog‘li qismidagi ko‘p sonli daryo va soylar o‘z oqimi ...ko‘plab maftunkor tabiiy obidalarni hosil qilgan. Ana shunday ...obidalardan biri Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi ...sharsharasidir. Yurtimizning eng janubida joylashgan Termizdan ...daryosiga tomon tog‘li hududga ko‘tarilgan sari yer yuzidagi ...asta-sekin almashnib boradi. Sangardak darasida bir kunning o‘zida ...fasllini bevosita kuzatish mumkin. Iqlim va o‘simlik qoplamidagi ...tog‘ vodiylari, yon bag‘irlar va qorli cho‘qqilarning ajoyib manzarasi, ...qo‘qmoqlari, sharqiroq tog‘ daryolari va sharsharalar, suvi zilol tog‘ ...aholisi qadimiy urf-odat va an’analarini saqlab kelayotgan jozibali tog‘ ...larini ko‘rgan kishi o‘zini xuddi sirli olamga tushub qolgandek his qiladi. ...мўъжизалари”. 200-б.)

...mashq. Quyidagi matndan foydalanib publitsistik uslubda matn tuzing.

Hindiston Tojmahali

...Temuriylar avlodlari tomonidan Hindiston zaminida bunyod etilgan ushbu ...yodgorlik 1631-1652 yillarga mansubdir. U Agra shahri yaqinidagi ...daryosi bo‘yida Shoh Jahonning Arjumandbonuga bo‘lgan muhabbati ramzi ...qad ko‘targan. Shoh Jahonning o‘zi ham keyinchalik shu yerda dafn ...inshoot murabba tarxli bo‘lib, 3 qavat va 5 gumbazdan iborat. Bino ...supa ustiga qurilgan, to‘rt tomonida balandligi 45 metr bo‘lgan minoralar ...qilgan. Oq marmardan ishlangan devorlarga aqiq, marvarid, sadaf, qahrabo, ...yoqut, fil suyagi kabi qimmatbaho toshlardan qadama naqshlar ishlangan.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

154-mashq. Berilgan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini ...daftaringizga ko‘chiring.

Quloq, qovoq, taroq, buloq, o‘rtoq, so‘roq, chopiq, ariq, tariq; kurak, bilak, ...tilak, etak, kiprik, ko‘rik, etik, bitik, ko‘lmak, kapalak, falak, kamalak, ...kaklik, kauchuk; barg, bog, tig‘, dog‘, yog‘, chorbog‘, xirurg, genekolog, ...antropolog, etnolog.

155-mashq. Quyidagi matnni o‘qing. Tovush o‘zgarishlari [illegible] so‘zlarni topib daftaringizga ko‘chiring.

So‘zni ko‘p so‘zlamay, sizlab ayt, oz-oz,
Tuman so‘z tugunin shu bir so‘zda yoz.

Otadan o‘g‘liga qolgani bu — so‘z,
Otalar so‘zin tut, nafi ham yuz-yuz.

156-mashq. Quyidagi tez aytishni to‘g‘ri talaffuz qiling va bir [illegible] sakkiztagacha aytib ko‘ring.

Ko‘k koptokni kaftda tutib,
Ko‘kka otdim kerilib.

Qora qarg‘a qorga qo‘ndi,
Qorni cho‘qib, “qar” deb qo‘ydi.

Chuvalchang chuvalashib chirmoviqqa chirmashdi.

Qora qog‘ozning qattiq qirrasi qo‘limni qirqdi.

157-mashq. “14-yanvar – Vatan himoyachilar kuni” munosabati bilan “[illegible] himoyasi – oliy saodat” mavzusida publitsistik uslubda matn tuzing.

25-DARS

MATN: INTERNET HAYOTIMIZDA

Inernet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter [illegible] hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik, ya’ni ongimizga [illegible] bo‘lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma’lumot beruvchi [illegible] manbaidir. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero, [illegible] mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari [illegible] bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yangiliklarni yuzaga keltirayotgan [illegible] bo‘lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor vertual olamga jalb [illegible] bormoqda. Ayniqsa, bu ta’sir doirasidan o‘smir yoshlar ham yo‘q emas. Bu borada [illegible] mutaxassislarning so‘zlari quydagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog‘iga [illegible] ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog‘liq muhim aniq dalillarga [illegible] bo‘lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga [illegible] kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridan [illegible] ortiqcha ma’lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Izlanuvchanlik, [illegible] rivojlanish, mushohada, tahlil qilish qobiliyati va xotiraning o‘tkirlik darajasi [illegible] susaytirishga sabab bo‘lmoqda.

[illegible] internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo‘lmagan [illegible] o‘z tafakkuridan kelib chiqqan qonun-qoidalar asosida bo‘lishi [illegible] undagi me’yor talablari, ya’ni Internet tarmog‘idan axborotlarni [illegible] har jihatdan o‘rinlidir. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu tarmoq [illegible] o‘z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko‘p [illegible] o‘zimizga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni ajratib olishimizda ham tug‘dirmoqda.

[illegible] ma’lumki, internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining [illegible] O‘zingizga kerakli barcha ma’lumotlarni shu kabi biron bir saytning [illegible] qaxchasiga yozib, chiqarilgan ko‘pgina ma’lumotlar ichidan o‘zingizga [illegible] tanlab olaverasiz yoki ma’lum bir saytning manzili yodingizdan [illegible] yana o‘sha qidiruv sistemalari yordamga keladigan saytga aloqador [illegible] terasiz va qarabsizki o‘sha sayt qarshingizda namoyon bo‘ladi.

[illegible] tarmog‘ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan qidiruv tizimlari mavjud.

[illegible] qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiy ta’rif berishda ularni biror [illegible] orqali masalan, Google tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. [illegible] Internetdagi yetakchi qidiruv tizimi hisoblanadi, dunyo bo‘ylab [illegible] foydalanuvchilarning o‘ntadan yettitasi u yoki bu ma’lumotlarni topish [illegible] aynan mana shu saytga murojaat qilishadi. U 101 tildagi axborotni izlab [illegible] mumkin. Keyingi yillarda butun dunyo internet foydalanuvchilari orasida [illegible] raqobatlashib borayotgan Google tizimi 1998-yil sentabrda ishga tushgan. [illegible] bu kompaniyaning qidiruv tizimlaridan tashqari yana bir qator foydali va [illegible] xizmatlari mavjud va ular soni ortib bormoqda. Darhaqiqat, hozirda nafaqat [illegible] tarmog‘i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib [illegible] turli-tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobiy ta’sir kuchini [illegible] qolganligini bir tomondan quvonarli bo‘lsa-da, ikkinchi tomondan ularni [illegible] salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o‘qib, mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering.
2. Matndan foydalangan holda “Siz internetdan qanday foydalanasiz?” [illegible] polilog tuzing.
3. Matndan ijodiy foydalangan holda publitsistik uslubda matn tuzing.
4. Matndan qo‘sh undoshli so‘zlarni ajrating.
5. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing.

USLUBSHUNOSLIKKA OID MATERIALLAR

Og‘zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari

Eslab qoling. Kundalik hayotda uyda, ko‘cha-ko‘yda, ish joylarida va [illegible] joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi so‘zlashuv [illegible] orqali yuzaga chiqadi. Oddiy so‘zlashuv uslubida so‘zlovchi nutq

vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli so‘zlarnigina [illegible]. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar to‘ldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so‘rayotgan

- Beshinchidan ikkita (Menga beshinchi qatordan ikkita chipta [illegible] o‘tirmaysiz).

So‘zlashuv uslubining o‘zi ikki turga bo‘linadi:

1) adabiy so‘zlashuv uslubi; 2) oddiy so‘zlashuv uslubi.

Ma’lum adabiy til me’yorlariga bo‘ysungan, tartibga solingan so‘zlashuv uslubiga adabiy so‘zlashuv uslubi deyiladi. Adabiy tilning og‘zaki shakli ham so‘zlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radioeshittirishlari, televideniye ko‘rsatuvlari shunday uslubda olib boriladi. Adabiy til me’yorlariga doimo [illegible] qilavermaydigan erkin muloqot shakli oddiy so‘zlashuv uslubi sanaladi.

Oddiy so‘zlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan bunga teskari bo‘lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo‘l qo‘yiladi. Oddiy so‘zlashuv uslubida gap bo‘laklarining tartibi ham ancha erkin bo‘ladi. Ba’zan shevaga oid so‘zlar, qo‘pol, dag‘al so‘zlar ham kuzatiladi, lekin bularni qo‘llash so‘zlovchining madaniy nutq sohibi emasligini ko‘rsatadi. Shuning uchun siz oddiy so‘zlashuv nutqingizda ham o‘zingizning yuksak madaniyatingizni namoyish eting.

158-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va qaysi uslubga mansub ekanligini aniqlang. Uslubni hosil qiluvchi vositalarni izohlang.

Baribir Abdulla aka bu jurnallarni o‘qiy olmasdi. Bunga sabab [illegible] orqalagan, chamadon ko‘targan, bola opichlagan erkagu-xotinlar kelib, uni [illegible] qo‘yishmasdi.

- Hoy shopir vokzalga necha pulga oborasan?
- Shopir bolam, Chuqursoyga obormaysanmi?
- Abay bozorigacha qancha olasan?

Abdulla aka shunaqalardan bezor bo’lib, mashinani qulflab yo‘lkaga chiqdi, betoqatlik bilan Kibriyo opani kutardi. *(Саид Аҳмад. “Йўқотганларим топганларим”. Тошкент: “Сано-стандарт”, 2014. 120-б.)*

159-mashq. O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub quyidagi matnni ko‘chiring. Matnga munosabat bildiring. So‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan so‘zlarni tagiga chizing.

Qaynona

Sovchi bo‘lib bordi.

- Qulchilikka keldik, - dedi ehtirom bilan.

Yana bordi.

- Qulchilikka keldik, aylanay!

Tag‘in bordi.

- Qulchilikka keldik, o‘rgilay. Noumid qilmang!

Noumid qilmadilar. Chiroyli to‘y bo‘ldi…

…Keyin… kelinini quldek xo‘rlay boshladi…

“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”

[illegible]SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

160-mashq. Quyida berilgan matnni o‘qing va ma’nosi bo‘yicha fikr [illegible]. Adabiy so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan gaplarni daftaringizga [illegible] U va o‘ harflari qatnashgan so‘zlarning talaffuzi va imlosini eslab [illegible].

NAVOIYNING DO‘STI

[illegible] shoir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad degan shogirdi ham [illegible]. Shoir uni juda yaxshi ko‘rar, o‘ziga qadrdon, sirdosh do‘st deb [illegible]. Kunlardan bir kuni Pahlavon Muhammad kichik bir gunohi tufayli [illegible]ning qattiq g‘azabiga uchrabdi. Voqea bunday bo‘libdi: Sulton [illegible] g‘azab otiga minib turgan bir paytda, Pahlavonning gunoh ish qilib [illegible] yetkazishibdi. Husayn Boyqaro:

Pahlavonning soqol-mo‘ylabini qirib tashlanglar, so‘ng kaltadum libos [illegible] ko‘cha-ko‘yda sazoyi qilinglar, - deb buyruq beribdi. Pahlavonning [illegible] ga giriftor bo‘lganini Navoiyga aytishibdi. Navoiy agar bu jazo amalga [illegible] Muhammad Pahlavonning izzat-nafsi kamsitilib, u bunga chidolmay [illegible]ini anglab, uni bunday sharmandalikdan qutqazish harakatiga tushibdi. [illegible] Husayn Boyqaro huzuriga yetib boribdi:

Sulton Boyqaro, ma’lumingizkim, men va Pahlavon Muhammad [illegible]dan bir xil kiyinamiz, birga soqol-mo‘ylov qo‘yib, do‘st-birodar bo‘lib [illegible] U boshqa kiyinib, men boshqa kiyinib yursam, o‘rtadagi ahillik buzilib, [illegible]siz, o‘zimiz subutsiz bo‘lib qolamiz. Buyursangiz, mening ham soqol-[illegible]larimni qirsinlar, menga ham xuddi Pahlavon Muhammadga berilgandek, [illegible] kiygizib, do‘stim bilan birga ko‘cha aylantirsinlar, - debdi.

[illegible]navoiyning shogirdi ham do‘stiga bo‘lgan sadoqatini, mehr-oqibatini [illegible] Husayn Boyqaro g‘azab otidan tushib, karam daryosi mavj olganini o‘zi [illegible] qolibdi-da:

Pahlavonning gunohidan o‘tdim, jazo qoldirilsin, - deb buyuribdi.

161-mashq. Quyida berilgan ravish so‘z turkumiga oid so‘zlarning talaffuzi [illegible]ga diqqat qiling. Ushbu so‘zlar ishtirokida mavzuga oid dialog tuzing.

Andijonchasiga, qavatma-qavat, qat’iyan, abadul-abad, o‘rtalab, atayin, [illegible]zin, bexosdan, ichkari, tashqari, ko‘p, oz, noiloj, jo‘rttaga, arang, yakkama-yakka, hanuz, hamisha, doimo, dastlab, erta-indin, kecha-kunduz, [illegible]nda, asta-sekin, jim, bittalab, eson-omon, olg‘a, sal, picha, xiyol, ancha, [illegible] biroz…

162-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va o‘zbek tilida so‘zlab bering.

...ТАК СКАЗАЛ КОНФУЦИЙ

- Учёный человек мягок в обращении; он вежливо [illegible] уважительно садится. Его слова всегда искренни и внушают доверие, поступки всегда правильны. В дороге он не ищет для себя более [illegible] пути. Он не торопится умирать, ожидая для себя достойной [illegible] совершенствует себя, чтобы действовать.

Учёный человек не считает ценными золото и яшму, но [illegible] преданность и правдивость. Он не стремится завладеть землями, но [illegible] своими владениями человечность и долг. Он думает прежде о работе, а [illegible] о награде. Если государь поступает несправедливо, он не приближается [illegible] нему. Расширяя свои знания, он не останавливается ни на мгновение, не [illegible] усталости.

Я слышал, что только человек, который много учился, может [illegible] быть в обществе людей, не надоедая им.

- Благородный муж в своей жизни должен беспокоиться о трёх [illegible] если он не будет учиться в юности, он окажется ни к чему не способен в зрелом возрасте; если он никого не учит в зрелости, никто не будет вспоминать о нём после смерти; если он не будет помогать другим, никто не придёт к нему на помощь, когда он будет нуждаться сам.

- Не враждуй с низким человеком, ведь он имеет врагов только [illegible] ему подобных.

- В часы безделья ум тупеет. В часы поглощения делами ум теряется.

- Когда поднимаешься в гору, имей мужество пройти по узкой [illegible] Когда идёшь по снегу, имей мужество пройти по скользкому мосту. В [illegible] "мужество" - глубочайший смысл. Если на опасных поворотах жизни не хватает мужества, ты обязательно застрянешь в какой-нибудь яме.

- Народ нуждается в человечности больше, чем в огне и воде; я видел людей, умирающих от огня и воды, но не видел умиравших от того, что были человечны.

- Далеко ли от нас человечность? Когда мы хотим её, то она у нас в руках.

- От слов требуется только, чтобы они были понятны.

- Не поговорить с человеком, с которым можно говорить - [illegible] потерять человека; поговорить с человеком, с которым нельзя говорить - значит потерять слова. Умный человек не теряет ни человека, ни слов.

- Почитай за главное преданность и искренность, не дружи с неподобными себе; ошибся - не бойся исправиться.

- Искренно веруй и люби учиться, храни до смерти твои убеждения, сделай совершенным свой путь.

26-DARS

MATN: NUTQ ODOBI

[illegible] правило - надо верить в силу воли... Безусловно, никто из нас не [illegible]. Не в моей власти помешать войне, но мои призывы, помноженные [illegible] миллионов других людей, ослабят угрозу войны. Я не в силах [illegible] битву, но я в силах быть храбрым солдатом, исполнить свой долг. [illegible]ности наши зависят от того, на что мы дерзнём," поэтому надо быть [illegible] в форме. Усилием воли человек заставляет себя трудиться на совесть и [illegible] геройские поступки. Быть может, воля и есть царица [illegible]телей.

[illegible] и четвертое правило - надо хранить верность. Верность слову, [illegible]ствам, другим, самому себе.

190-mashq. Matbuot xabarlari orqali yurtimiz va jahonda bo'layotgan [illegible] haqida mikro matn tuzing.

31-DARS

MATN: TABIAT VA INSON

Tabiat yer yuzidagi barcha tirik mavjudot uchun muqaddas go'shadir. Tabiat [illegible] o'ydiradi, kiydiradi, issiq va sovuqdan asraydi. O'z navbatida tirik [illegible] ham tabiatga mehr qo'yadi. Bu mehr tabiatni asrash, uning boyliklarini [illegible]yirish tuyg'usi bilan uyg'unlasha olsagina haqiqiy sanaladi. Yaqin [illegible]himizda biz "Tabiatni sevamiz" deb bong urdig-u, biroq uni asrab-avaylash [illegible] mas'ul ekanligimizni unutib qo'ydik. Ana shu mas'uliyatsizligimiz [illegible]logiya" deb nomlanuvchi yangi fanga zamin yaratdi. "Ekologiya" so'zi "eko" [illegible], turar-joy, "logos" - fan so'zlaridan olingan bo'lib, u atrof-muhitning [illegible]shi va bunga sabab bo'lgan omillar, muhit halokatining oldini olish chora-[illegible]larini ishlab chiqish borasidagi bilimlarni targ'ib etish asoslarini o'rganadi.

Yangi asrning barkamol kishisi o'zida ekologik madaniyat unsurlarini namoyon eta olishi zamon talabidir. Ekologik madaniyat — bu avvalo to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simlik hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatishga, tabiat zahiralaridan foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir.

Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, havzalarini ifloslantirmaslik, chiqindini duch kelgan joyga tashlamaslik, joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatning eng oddiy ko'rinishlari sanaladi.

Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-texnika taraqqiyoti va atrof-muhit, jamiyat va ekologiya o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelmoqda. Bularning barchasi ekologik madaniyatni yana-da yuksaltirish masalasini ko'ndalang qo'ymoqda.

Ma'lumki, tabiatda hamma narsa bir-biriga uyg'undir. Faqat insonning yutuqlaridan unumli foydalanayotgan inson esa ana shu uyg'unlikni buzishga unga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lmoqda. Tabiiy boyliklardan yerdan o'rinsiz foydalanish ekologiyani o'zgartirib yubordi. Qishloq xo'jalik ekinlarini noto'g'ri rejalashtirish, kimyoviy o'g'itlarni haddan ziyod ko'p qo'llash yer unumdorligi va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Korxonalardan oqib chiqayotgan zaharli oqavalar suv havzalarini ifloslantirishi birinchi navbatda hayvonot olami va o'simliklar dunyosiga ofat keltirmoqda. Transport vositalaridan chiqayotgan tutun-gaz havoning tozaligini buzyapti. Bularning barchasi insondan ekologik madaniyatni talab etmoqda.

1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Sog'lom avlod davlat dasturi, "Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi" ishlab chiqildi, "Ekosan" jamg'armasi tuzildi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tabiatni muhofaza etish, ekologiyaga oid zarur hujjatlar qabul qilib, ekologiya ishlarining huquqiy asosini yaratdi.

Har bir inson tabiatdan bahra oladi. Ammo bu hali tabiatga muhabbat degani emas. Tabiatga muhabbat uni tushunishdan, uning go'zalliklarini anglashdan, tabiat bilan munosabatga kirishishdan boshlanadi.

Madaniyatli kishi tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlaydi, bu borada boshqalarni ham to'g'ri faoliyat ko'rsatishga da'vat etadi, faqat bo'lmaganda ko'chalarga chiqindi tashlanmasligiga, suv va havo ifloslanmasligiga hissa qo'shadi.

Ekologik madaniyat tarkibiga tabiatni muhofaza qilish madaniyati, tabiat boyliklaridan foydalanish madaniyati, ekologik tizimni qaytadan o'zgartirish madaniyati ham kiradi. Bular bir kishining yoki hududning vazifasi bo'la olmaydi. Umuminsoniyat bunday vazifalarni yechishga birgalikda kirishsagina ekologik muammolar hal bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'qilgan matnni ifodali o'qing.
2. Matn bo'yicha tushunilishi qiyin so'zlar lug'atini tuzing.
3. Matn mazmunini o'zbek tilida so'zlab bering.
4. Matn mazmuni bo'yicha dialog tuzing.
5. Ekologik madaniyat so'ziga ta'rif bering.

JURNALISTIKAGA OID MATERIALLAR

Intervyu olish va intervyu berish qoidalari

Eslab qoling. Intervyu (ing. Interview - uchrashuv) – publitsistika janri. Unda bir yoki bir necha shaxs bilan dolzarb masalalar yuzasidan suhbati. U ikki turga bo'linadi:

1. Xabar, asosan, axborot yetkazish maqsadida o'tkaziladi;
2. Tahlilda – muhim voqea, hodisa va hujjatlar sharhlab beriladi.

191-mashq. Berilgan matndan foydalangan holda intervyu tayyorlang.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan allomalar tabiat va undagi muvozanat, hayvonot olami va o'simliklar dunyosi, atrof-muhitni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Muhammad Muso al-Xorazmiy risolalaridan birida odamlarni daryoga ko'milishga da'vat qiladi, agar daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga kulfati tushgan bo'ladi, deydi. Ehtimol, buyuk bobomiz daryo suvini ortiqcha ifloslikni ham nazarda tutgandir?

Abu Rayhon Beruniy esa tabiatning davomiyligi haqida shunday fikr aytadi: "Ekish va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi".

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida ko'rgan-kechirganlari, o'tgan joylarining tabiati, boyligi, hayvonoti, o'simliklari va odamlari, xalqlarning urf-odatlarini tasvirlagan. Unda yer, suv, havo, turli tabiat hodisalariga tegishli qiziq fikrlar bor. Bobur o'lkani bilgan kishilarni hurmat qilgan, qadrlagan va ular bilan hamisha maslahatlashgan. Ayniqsa, u gullar, manzarali hamda mevali daraxtlarni ko'paytirishga e'tibor bergan.

192-mashq. Quyidagi matndan ijodiy foydalangan holda siz ham intervyu tayyorlang.

Davron:
Sen bo'sh vaqtingni qanday o'tkazasan?
Diyor:
Mening bo'sh vaqtim juda kam. Biroq undan unumli foydalanishga harakat qilaman. Men kitob o'qishni yaxshi ko'raman.
Davron:
Qanday kitoblarni sevib o'qiysan?

Diyor:

- Men tarixiy kitoblarni yaxshi ko‘raman.

Davron:

- Hozir qaysi kitobni o‘qiyapsan?

Diyor:

- Hozir Oybekning “Navoiy” romanini o‘qiyapman. U mashhur [illegible] Mir Alisher Navoiy haqida.

Davron:

- Qiziqarli bo‘lsa kerak, o‘qib bo‘lgach menga ham berib turasanmi?

Diyor:

- Jonim bilan.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

193-mashq. Quyidagi yetti iqlim so‘zlaridan foydalanib gaplar tuzing. O‘zbekistonning iqlimi qaysi iqlimga kirishi bo‘yicha fikr yuriting.

Ekvatorial, subekvatorial, tropik, subtropik, mo‘tadil, subarktik, arktik

194-mashq. Matnni ifodali o‘qing va Toshkentdagi “Ko‘kaldosh” madrasasi haqida so‘zlab bering. Matn bo‘yicha intervyu tayyorlang.

“Ko‘kaldosh” madrasasi

“Ko‘kaldosh” madrasasi Toshkent shahridagi tarixiy obidalardan biri sanaladi. Muhammad Solih Qoraxo‘ja Toshkandiyning “Tarixi jadidayi Toshkand” kitobida “Ko‘kaldosh” madrasasini Darveshxon qurdirganini yozadi va bu kitobining ba’zi joylarida madrasani Darveshxon madrasasi deb ham atagan. Madrasa 1551-1575-yillar orasida qurib ishga tushirilgan. Bunga dalil sifatida tarixchilar 1569-1570-yillarda yozilgan vaqfnomani keltiradilar. Unga ko‘ra Toshkent hokimi Sulton Darveshxon bir karvonsaroyni madrasaga vaqf qilib bergani aytilgan.

“Ko‘kaldosh” madrasasi Chorsu maydonidagi Shahriston tepaligida, Ko‘kaldosh Ahror Valiy jome’ masjidining yonida, an’anaviy sharq uslubiga rioya qilib bunyod etilgan. Uning keng hovlisi hujralar va ochiq ayvonlar bilan o‘ralgan. Hujralar soni 38 ta bo‘lib, dastlab qurilganda madrasa uch qavatdan iborat bo‘lgan. Bosh fasad janubga qaragan, darvozadan kiraverishda chapda masjid, o‘ngda darsxona joylashgan. Masjid va darsxonaning usti o‘zaro kesishgan ravoqlar ustiga o‘rnatilgan qo‘sh ichki va tashqi gumbazlardan iborat bo‘lgan. Peshtoq sirti parchin va jilva naqshlar bilan bezatilgan. XVIII asrga kelib qarovsiz qolgan madrasa karvonsaroy sifatida foydalanilgan. 1830-1831-yillarda Toshkent hokimi darsxona va masjid o‘ngidagi nurab to‘kila boshlagan zangori gumbazlari va ikkinchi qavatning g‘ishtlari ko‘chirib olib, hozirgi kunda buzilib ketgan Beklarbegi madrasasi (bozorning yuqori qismida)ning qurilishida ishlatilgan.

195-mashq. Alisher Navoiy qalamiga mansub quyidagi qit’ani o‘qing [illegible] ko‘chiring. Mazmuni bo‘yicha bahs yuriting. Birinchi misrada [illegible] va nechta bo‘g‘in borligini aniqlang.

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

196-mashq. “Orol fojiasi – global muammo” mavzusida intervyu [illegible]

32-DARS

MATN: DAVRIMIZNING GLOBAL MUAMMOLARI

Sanoat va fan-texnika inqilobi davrida insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy [illegible] tubdan o‘zgarib ketdi. Bu o‘zgarishlar natijasida bir qator dolzarb [illegible], ta’sir doirasi jahon hamjamiyatini qamrab olgan, bashariyatning [illegible] ijtimoiy taraqqiyotini belgilab berayotgan muammolar vujudga keldi. [illegible]mmolar insoniyatning global muammolari deb ataladi hamda ularning [illegible] topish yo‘lida barcha davlatlarning kuch-qudrati, imkoniyat-harakatlari [illegible] maqsadga muvofiq.

Global muammolarning vujudga kelishi va keskinlashuvi sabablari jahon [illegible]ining qisqa vaqt ichida bir necha barobar o‘sganligi, sanoat va boshqa [illegible] chiqarish tarmoqlarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, tabiiy muhitdagi [illegible]anatning inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida buzilishi, jahon xo‘jaligida xalqaro [illegible]iy aloqalarning mustahkamlanishi tufayli yagona global tizim sifatida [illegible]anishi, fan-texnika inqilobi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya [illegible]logiyalarining salbiy oqibatlari, davlatlar va siyosiy kuchlar o‘rtasida [illegible]atlar kuchayishi kabilardan iborat.

Asosiy global muammolar qatoriga, odatda, quyidagilar kiritiladi: tinchlikni [illegible] va jahon xavfsizligini ta’minlash muammosi; ekologik muammo; [illegible]anayotgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi va qashshoqlik [illegible]mmosi; demografik muammo (rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining yuqori [illegible]alar bilan o‘sishi va rivojlangan mamlakatlardagi demografik inqiroz); oziq-[illegible] muammosi, energetika muammosi, xomashyo resurslari muammosi, dunyo [illegible]sidan oqilona foydalanish muammosi; millatlararo va dinlararo munosabatlar [illegible]mmosi; qon-yurak, onkologik kasalliklar va OITSga qarshi kurashish [illegible]mmosi. Bundan tashqari, boshqa bir guruh muammolar ham ayrim [illegible]adabiyotlarda global muammolar toifasiga kiritiladi, masalan, favqulodda [illegible]atlarga qarshi kurashish va oldini olish muammosi, koinotni o‘zlashtirish va [illegible]naviy ekologiya muammosi yoki ma’naviy qadriyatlar inqirozi muammosi.

Insoniyatning global muammolari chambarchas ravishda o'zaro bog'liq muammo boshqalarining keskinlashuviga olib kelmoqda. Shunday ekan, muammoni boshqa muammolarga e'tibor qaratmasdan yechish imkoniyati emas. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlardagi demografik va oziq muammolari orasida ma'lum aloqadorlik mavjud, chunki aholining yuqori bilan ko'payishi oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmovchiligi va ochlikni keskinlashtiradi. Energetika va ekologik muammolar ham bevosita bir aloqador hisoblanadi. Chunonchi, yangi energiya manbalarini izlash va chiqarishga joriy etish atrof-muhit sifatiga ham ma'lum darajada ta'sir etadi.

Dunyoning turli mintaqalarida urush va harbiy to'qnashuvlar bo'lmoqda. Harbiy harakatlar va fuqarolik urushlari tufayli ayrim davlatlar gumanitar falokat vaziyatiga kelib qoldi. Bunga Suriya, Iroq, Liviya, Afg'oniston, Janubiy Sudan va boshqa davlatlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, sust rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy sohasi qoloqligi va qashshoqligi ham muhim muammolardan hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoda 1,2 milliardgacha kishi ocharchilikka duch kelmoqda, 1,7 milliard ortiq aholining o'rtacha umr ko'rishi 60 yoshga yetmaydi, 1,5 milliard odamlarning tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, umuman, yo'q. 1 milliarddan ortiq odamlar o'ta kambag'al turmush kechirmoqda, 200 millionga ortiq bola maktab ta'limini ololmayapti, jahonda 800 milliondan ziyod kishi butunlay savodsiz, ya'ni yozish va o'qishni bilmaydi. Eng og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat BMT tomonidan eng sust rivojlangan (eng qoloq) mamlakatlar guruhiga kiritilgan davlatlarda kuzatiladi. Bu ro'yxat dastlab 1971-yilda tuzilib, unga davlat kiritilgan edi. 2014-yil holatiga ko'ra unda 48 ta davlat qayd qilingan. Bulardan 34 tasi Afrikada, 9 tasi Osiyoda, 4 tasi Okeaniyada va 1 tasi (Gaiti) Amerikasida joylashgan. Bu toifadagi mamlakatlarda jahon aholisining 11 foizi ortig'i yashaydi. Hozirgi kunda oziq-ovqat muammosi ham ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Bu muammoning mohiyati dunyoda jami 1,2 milliardga yaqin odamlar yetarli darajada oziq-moddalarni iste'mol qila olmayotganligi, u yoki bu darajada ocharchilikka duch kelganidan iborat. Aholisi eng yuqori sur'atlar bilan ko'payotgan, Afrika mamlakatlarida bu muammo eng keskin darajada ro'y bermoqda. Jumladan, Somali, Janubiy Sudan, Chad va boshqa mamlakatlarda ocharchilik umuminsoniy gumanitar falokat darajasiga yetdi. Shuningdek, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo hamda Lotin Amerikasining ayrim mamlakatlarida ham bir necha million kishi ocharchilik sharoitida yashamoqda. Oziq-ovqat muammosining yechimiga, asosan, qishloq xo'jaligidagi texnika va texnologiyalarni tubdan takomillashtirish va sohada mehnat unumdorligini oshirish yo'llari bilan erishish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Berilgan matnni ifodali o'qing va muammo so'ziga ta'rif bering.
2. Matn bo'yicha tushunilishi qiyin so'zlar lug'atini tuzing.
3. Matn mazmunini o'zbek tilida so'zlab bering.

4. Matn mazmuni bo'yicha kichik hajmli maqola yozing.
5. Matndan sodda gaplarni ajrating va daftaringizga ko'chiring.

MAQOLA YOZISHGA OID MATERIALLAR

Maqola va uning turlari

Eslab qoling. Maqola mazmunli va ommabop bo'lishi uchun aniq reja asosida yozilishi lozim va maqola yozishdan aniq bir maqsadni ko'zlash kerak. Maqola kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi. Kirish qismida mavzu dolzarbligi, nazariy jihatdan uning foydali jihatlari yoritilishi, bugungi kun nuqtayi nazaridan ko'ra ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Asosiy qismda esa mavzu misollar yordamida ifodalanishi, amaliyotga tadbiqi, foydalanish o'rinlari ko'rsatilishi lozim. Bunda aniqlikdan umumiylashtirishga, umumiylikdan batafsil tahlilga chiqishga o'tish lozim. Asosiy qismda mavzuga oid bir necha savollar yoritilib, muammoli vaziyatlarning mantiqiy yechimini tahlil qilish o'rinlidir. Xulosada bayon qilingan asosiy fikrlarni ixchamlash, saqlab qo'yilgan oxirgi fikrni ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Adabiyotshunoslikda maqola publitsistik janr hisoblanadi. Janrda ijtimoiy hodisalari tahlil etiladi, nazariya va amaliyot umumlashtiriladi, texnika haqida yuz berayotgan o'zgarishlar, fan va madaniyat yo'nalishlarida erishilayotgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalari ommalashtiriladi, turli sohalardagi kamchilik va kamchiliklar tanqid ostiga olinadi.

Maqola uslubi deganda uning bayon tili tushuniladi. Ommaviy maqolada ishlatilgan jumlalar mumkin qadar sodda bo'lishi lozim. Bir ega va bir kesimli gaplar samarali ta'sir ko'rsatadi. Chunki, murakkab qo'shma gaplar oddiy o'quvchi uchun zerikarli bo'lib, aniq fikrni anglash uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Iloji boricha bir so'zni ikki marta takrorlamaslik kerak. Ya'ni, so'zning takrorlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Birinchi jumladagi fikr keyingi jumlada to'ldirilishi, davom etishi lozim. Bir fikrni qayta takrorlash sun'iylikka olib keladi. Chunki, bu fikrni ham buzadi, fikrning ta'sirchanligiga ham putur yetkazadi.

Maqolani uchinchi shaxs tomonidan yozish tavsiya etiladi. Maqola yozayotganda mantiqiy ketma-ketlikka urg'u berish, yangicha nuqtayi nazar bilan yondoshish, o'quvchilar undan ma'naviy ozuqa olishini ta'minlash, zamon talabiga mos keladigan yaxlit asar bo'lishi kerakligini unutmang.

197-mashq. Berilgan matnni o'qing va matn mazmunidan kelib chiqqan holda siz ham maqola yozing.

Misr ehromlari

Nil daryosi g'arbidagi Giza shahrida 4-Sulola paytida (mil.avv. 2575-2467) qurilgan. Eng eski 7 mo'jizadan faqatgina Misr ehromlari shu paytgacha deyarli o'zgartirilmasdan saqlanib qolgan. Ehromlardan eng kattasi fir'avn Xufu yoki katta Xufu nomida deb ataladi. Uning egallagan maydoni 4,8 gektar (12 akr)ni tashkil etadi. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, ehromlar uchun 10 yil joy

hozirlashgan, fir'avn qabri joylashgan ehromni tiklash uchun 20 yil
100000 dan ortiq qul ishlatilgan.

Ehromlarning eng yuksagi fir'avn Xufu (Xeops) piramidasi
balandligi 147 metr, bundan qariyb 5 ming yil ilgari, ya'ni miloddan
XXVIII asrda qurilgan. Xufu ehromining har bir tomoni 233 metrga teng
bir marta aylanib chiqish uchun bir kilometrga yaqin yo'l bosish kerak
silliqlab tarashlangan va jilo berilgan 2 million 300 mingta ohaktosh
tiklangan. Har bir plitaning og'irligi ikki tonnaga yaqin. Kattaligi jihatidan
ehromidan keyin fir'avn Xafra (Xefren) piramidasi turadi. U Xufu
metr past. Bu fir'avnga tog'dek sag'ana ham kamlik qildi va u ehrom
qoya tiklatib, unga bosh qismi odam boshiga o'xshatib ishlangan
o'yishni buyurdi. Bu haykal Sfinks deb ataladi. Sfinks obrazi inson kabi
sher kabi kuchlilik ramzini ifodalaydi. Mahalliy aholi uni "Abul Havl
otasi" deb yuritadi. Misrdagi bu topilmalar XX asrda butun dunyoga
bo'lib ketdi. Ayniqsa Tutanxamon sag'anasining topilishi juda katta
sabab bo'ldi. Bundan XXXII asr muqaddam yashagan bu fir'avnning
bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan ekan. Tutanxamon ehromi
avval qanday qurilgan bo'lsa, olimlar ko'z o'ngida shundayligicha
bo'ldi. Maqbara ichidan Qadimgi Misr saroylariga oid anchagina boyliklar
va kumushdan yasalgan haykalchalar, turli idishlar, muhrlar topildi. Maqbara
juda ko'p jihozlar, oltin buyumlar va niqoblar bilan bezatilgan fir'avn
mo'miyolangan jasadiga ham qo'l tekkizilmagan edi. Tutanxamon
jahondagi ko'p mamlakatlarda namoyish qilindi.

198-mashq. Quyida berilgan matnni ifodali o'qing va matn bo'yicha
yuriting. Matndan ijodiy foydalanib "Bola aziz – odobi undan aziz"
maqola yozing.

Erkak va ayol munosabatlari, inson psixologiyasi, farzand tarbiyasiga
kitoblari bilan dunyoga mashhur bo'lgan yozuvchi Jon Greyning fikricha,
tarbiya qilishda asosiy 5 tamoyilga tayanish kerak ekan. Shunda bola odobli
va eng muhimi baxtli bo'lib o'sar ekan. Ushbu 5 tamoyil bir-biri bilan
bog'liqdir. Ularni barchasini amalga oshirgan holda bolani tarbiyalash juda
ijobiy o'zgarishlarga olib kelar ekan.

1-tamoyil

Boshqalardan farqli bo'lish - normal holat! Bola hech qachon boshqa
o'xshashi kerak emas. Har bir bola o'zicha ajoyib va takrorlanmas
xususiyatlarga ega. Agar ota-ona bolasini boshqa bilan solishtirishni
uning yutuq va kamchiliklarini boshqalarniki bilan taqqoslamasa, bolaning
bo'lgan ishonchi kuchli bo'lib, u yutuqlari yoki biron mehnati uchun emas,
o'zi sevimli ekanligini anglab katta bo'ladi. Ota-ona esa solishtirishdan bosh
farzandining asl boyligini ko'ra oladi.

2-tamoyil

Xato qilish - normal holat! Inson xato qilsagina rivojlana oladi. Bola
ulg'aygan sari xato qilishi yomon emas. Muhimi bu xatolarning
takrorlanmasligidir. Agar bolaning qilgan xatosi ota-onani jahli chiqishiga

liderlik xususiyatlarini rivojlantira olmaydi. Biron ish qilishdan qo'rqib,
ishonchini yo'qotib boradi.

3-tamoyil

hissiyotlarni ko'rsatish - normal holat! Yig'lash, jahl qilish,
xafa bo'lish kabi salbiy hissiyotlar bola uchun o'z his-tuyg'ularini
o'rganishi uchun kerak. Bu tuyg'ularni bosish kerak emas. Aksincha,
chiqqanda bolaga dalda bo'lib, uning muammolarini ota-ona
ganini ko'rsata bilishi kerak.

4-tamoyil

da ko'proq istash - normal holat! Bola istagi ko'pligi bilan kattalardan
Unga doim yana-da ko'proq kerakdek tuyuladi. Bu istak bolada
intilish hissini kuchaytiradi. Bola ruhan kuchli bo'lishni o'rganadi. Bu
istagini bajarish shart emas, lekin bu istakni izhor etishini qo'llash
ona xohlagan payti bolaning istaklariga rad javob berishi mumkin, bu
emas. Muammo boladagi istak tuyg'usini yo'qqa chiqarish, uni bu istagi
tirish yoki koyish.

5-tamoyil

maga qarshi "yo'q" deyish normal holat, lekin doim esingda tursin: ota-
liq! Bu tamoyilning asosida bolaning o'z noroziligini bildira olish
yotadi. Bolaga ota-ona biron buyruq bersa, u shu zahoti qilishi qiyin.
esa qarshilik ham ko'rsatadi. Shunda ota-ona bolaga jahl qilmay, uning
tushunayotganini, lekin baribir aytganini qilishi shart ekanligini
olishi kerak. Uning qarshiligini ota-ona tushunishi, unga yengillik beradi
shilik kuchi pasayadi. Agar noroziligini ko'rsata olmay ulg'aysa, katta
sari bola ota-onadan uzoqlashib, sirlashmaydigan bo'lib qoladi.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

199-mashq. Quyidagi so'zlarni to'g'rilab daftaringizga husnixat bilan
ring.

Kitop, Dilshot, betop, spord, maktap, donishmant, millad, rosd, mamlakad,
rahmad, Shahzot, rabod, qutp, qurud, qulp, qomad, ibodad.

200-mashq. Quyidagi xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan she'rni o'qing.
a u, e va i unlilarini talaffuz qiling va lablarning harakatiga diqqat qiling.

- Qurbaqajon, qurbaqa,
Afting nega bunaqa?
- Suv ichida ko'p yurdim,
Aftim bo'ldi shunaqa.

- Qurbaqajon, qurbaqa,
Oyog'ing nega bunaqa?

- Kovush-maxsi kiymadim,
Shunga bo‘ldi shunaqa.

- Qurbaqajon, qurbaqa,
Ko‘zing nega bunaqa?
- Men ko‘zoynak taqmadim,
Shuning uchun shunaqa.

201-mashq. Berilgan ravish so‘z turkumiga oid so‘zlarning [illegible] imlosiga diqqat qiling. Ushbu so‘zlar ishtirokida mavzuga oid dialog tuzing.

Tubdan, to‘satdan, qo‘qqisdan, rostdan, birdan, kechalari, avvallari, [illegible] o‘z-o‘zidan, astoydil, birin-ketin, bafurja, qalban, ertalab, saharlab, kech[illegible] tez, zo‘rg‘a, hali, piyoda, yayov, hozir, tasodifan, qasddan, bu yer, [illegible] qahramonona, aslo, mutlaqo, taxminan, bajonudil, majburan.

202-mashq. Quyidagi tez aytishlarni daftaringizga ko‘chiring [illegible] ham sakkiz martagacha aytib ko‘ring.

Tursun tog‘am tovug‘ining tuxumini tarozida tortmoqda.

Oq ot oq o‘t yeydi, ko‘k ot ko‘k o‘t yeydi.

Tohir tog‘a tog‘da tulki tutdi.

Boqining baqlajoni baq-baqaloq.

Halimani sanama, Salimani sana.

52-topshiriq. “Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish [illegible] mavzusida maqola yozing.

33-DARS

MATN: ILM MASKANIMIZ HAYOTIDAN

Samarqand shahri Osiyoning eng qadimgi ilm-fan o‘choqlaridan [illegible] hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxti bo‘lgan Samarqand shahri o‘rta asrlarda yuksak taraqqiy etgan madaniy markaz darajasiga ko‘tarildi. Bu qadimiy shahardan yetishib chiqqan o‘nlab olimlar dunyo ilm-fani o‘zlarining munosib hissasini qo‘shishgan.

Har yili minglab mutaxassislar yetishtirayotgan Samarqand davlat universiteti 1927-yil 22-yanvarda tashkil etilgan. Dastlab bu yerda ijtimoiy-siyosat, fizika, texnika, tabiatshunoslik, tilshunoslik, bo‘limlari ochilib, atigi o‘ntagina professor-o‘qituvchi 65 talabaga dars o‘tish bilan ish boshlagan. Yildan yilga fakultetlar, mutaxassisliklar ko‘payib bordi. Xuddi shuningdek, ta’lim beruvchi professor- o‘qituvchilar, tahsil oluvchi talabalar soni ham ortib bordi. Bugungi

[illegible] Samarqand davlat universitetining to‘qqiz fakultetida mexanika-[illegible], o‘zbek filologiyasi, tarix, iqtisodiyot, informatika, rus filologiyasi, [illegible] biologiya, musiqa, fizika, kimyo, ijtimoiy fanlar, huquqshunoslik, [illegible] madaniyat, tojik filologiyasi, boshlang‘ich ta’lim, psixologiya, [illegible]giya, kasbiy ta’lim kabi yo‘nalishlarda 35 mutaxassislik bo‘yicha ilmiy [illegible] pedagogik kadrlar tayyorlanmoqda. Mustaqillik davriga kelib “Kadrlar milliy dasturi” talablaridan kelib chiqib har tomonlama yetuk [illegible] tayyorlashga e’tibor kuchaytirilmoqda. Hozir universitet [illegible] dunyoning ellikdan ortiq tillaridagi uch millionga yaqin [illegible] kitoblar, darslik va qo‘llanmalar jamlangan. Ayniqsa, kutubxonaning [illegible] qo‘lyozmalari bo‘limida dunyo ahamiyatiga molik asarlar saqlanadi. [illegible] kutubxonaning ikkita filliali va yigirmaga yaqin qiroatxonalari [illegible] xizmat qilmoqda.

[illegible] talabalari uchun bir nechta yotoqxonalar qurilgan. Fakultetlar va [illegible] atrofida o‘ndan ortiq oshxona, tamaddixona, choyxonalar professor-[illegible] hamda talabalarga xizmat qiladi.

Samarqand davlat universitetini bitirganlar orasida o‘nlab akademiklar, fan [illegible] davlat arboblari yetishib chiqqan. Bu yerda Hamid Olimjon, Oydin, [illegible] Amin Umariy, Usmon Nosir, O‘tkir Rashidov, Sharof Rashidov, Adham [illegible], Asqad Muxtor, Shukur Sa’dulla, Dushan Fayziy, Omon Matchon, [illegible] Narzullayev, Barot Boyqobilov kabi mashhur shoir va yozuvchilar [illegible] etishgan.

Bugungi kunda turli yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar mustaqil [illegible] ilm-fani, madaniyati, shon-u shuhratini dunyoga tanitish maqsadida [illegible] izlanmoqdalar, ijod qilmoqdalar, bobokalonlari ilmiy merosini chuqur [illegible] o‘rganmoqdalar.

Savol va topshiriqlar:

1. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling va mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering.
3. Matndagi x va h tovushlari ishtirok etgan so‘zlarni ikki ustunda yozing va [illegible] tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda o‘zingiz o‘qiyotgan fakultetingiz [illegible] gapirib bering.

JURNALISTIKAGA OID MATERIALLAR

Reportaj tayyorlash

Eslab qoling. Reportaj “reportaje” degan so‘zdan olingan bo‘lib, [illegible]kazmoq, ma’lumot bermoq) degan ma’nolarni bildiradi. Bu janr XIX asrning [illegible] choragida paydo bo‘lgan. Davr o‘tishi bilan reportaj mukammallashdi va [illegible]naviy janr turiga aylandi. Reportaj turlari ko‘p. Telereportaj, radioreportaj, [illegible] reportaji.

Reportajning boshqa janrlardan farqi shundaki, unda biror bir voqea [illegible] sani yoritish uchun o‘sha voqea-hodisada boshidan oxirigacha ishtirok etishi

kerak. Reportyor haqida tadqiqotchi Erik Fixtelius o‘zining “Jurnalistik ... qoidasi” kitobida “Reportyorning qiziq voqeani topishi jurnalistning boshlanishidir. Yaxshi jurnalist o‘z atrofida yuz berayotgan voqealarni barchasiga qiziqishi kerak. U topgan voqea muhim, qiziqarli, jamiyat uchun va foydali bo‘lsin reportyor ko‘pincha yuz berayotgan voqealarning qatnashchisi bo‘lgani holda yangiliklarni birinchi kashf etuvchi bo‘lib yozadi.

203-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va qiziq voqeaning reportaj ... voqea joyidan axborot berilayotganligiga e’tibor bering.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yong‘in xavfsizligi boshqarmasi ... har yilgi an’anasiga ... ... milliy taomi – sumalak tayyorladi. Sumalak to‘ ... bo‘lgach, unda Orol dengizining to‘lin paytidagi xaritasiga o‘xshash ... paydo bo‘ldi. - Har yilgi... ... xodimlari Janabergen Pirjanov va Ruslan ... – Sumalak to‘liq pishgandan so‘ng ertasiga qozon qopqog‘ini ochsak ... dengizining to‘lin paytidagi xaritasiga o‘xshash...

204-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va reportajga xos xususiyatlarni aniqlang.

“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJga ijodiy guruhimiz bilan tonggi soat 6 da ... yetib bordik. Bu vaqt ko‘pchilik uchun shirin uyqu, “Afrosiyob” elektr poyezdi xodimlari uchun esa ish ayni qizg‘in payt hisoblanadi. Yo‘lovchilar ... kuzatilayotgan jarayon. Poyezd xodimlari har bir yo‘lovchiga alohida e’tibor, xushmuomalalik bilan o‘z vagoni va o‘rni haqida tushuntirishlar berm... “Afrosiyob” elektr poyezdi va unda ko‘rsatilayotgan xizmatlar haqidagi ... bilish uchun yo‘lovchilardan bir nechtasini suhbatga tortdik.

- “Afrosiyob” xizmatidan tez-tez foydalanaman. Samarqand va Toshkent oralig‘i bor yo‘g‘i 2 soat-u 8 daqiqa ekanligi har qanday davlat xizmatchisi, sayyohlar va oddiy aholi uchun ham nihoyatda qulay.

Agar solishtiradigan bo‘lsak, VIP-klass, Biznes-klass, Ekonom-klass vagonlar ham chet davlatlardagi tezyurar poyezdlarning narxiga nisbatan ancha arzon. Xizmat sifatini ham alohida ta’kidlash lozim. “Afrosiyob” elektr poyezdining har bir vagonida yo‘lovchilarga ikkitadan vagon kuzatuvchi xizmat ko‘rsatadi. Birinchi xodim bevosita yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatsa, ikkinchisi vagon kuzatuvchisi hujjatlarni rasmiylashtirish, o‘rinlar haqida ma’lumot berish vazifasini bajaradi.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda mazkur poyezdning ahamiyati yuqori, deydi poyezd yo‘lovchisi Rustam Qobilov.

Bugungi kunda bunday poyezdlardan dunyodagi 14 ta davlat foydalanadi. Poyezdning uzunligi 157, balandligi 4 metrni tashkil qiladi. Har bir poyezd 1 ta lokomotiv, 8 ta yo‘lovchi vagoni va vagon restoranidan iborat. Poyezdning harakatlanish davomida yo‘lovchilarga jahon standartlari asosida xizmat

... Nonushta, shirinlik, issiq va salqin ichimliklar yo‘lovchilarga bepul ... etadi...

205-mashq. Ta’lim muassasangizda o‘tkazilgan yoki o‘tkazilayotgan ... reportaj tarzida matn tuzing.

SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

206-mashq. Nuqtalar o‘rniga **o** yoki **a** harflaridan mosini qo‘yib, ... ko‘chiring.

ayv... .l	b...shoq	b...dan	b...g‘cha	v...raq
gavh...r	b...la	bog‘b...n	b....tqoq	j...mg‘arma
bolg‘...	alb...tta	d...no	b...rvaqt	varr...k
...shqozon	d...vlat	janj...l	d...ira	jodug...r
...mal	j...nivor	b...xt	v...tan	j...nli

207-mashq. Quyida berilgan M.Yusuf qalamiga mansub she’rni o‘qing. ... bo‘yicha fikr yuriting. She’r matnida qo‘llanilgan u va o‘, h va x harfli ... imlosini eslab qoling.

TAVALLO

Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni,
Ham oq yuvib, oq taragansan o‘zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib,
Kunimizga yaragansan o‘zing bizni.
Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!..

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o‘g‘lonингga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o‘pib,
Yovlar yaqin yo‘lolmagay qo‘rg‘onингga.
Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston.

Tuzing totib, unutganlar xor bo‘ladi,
Ko‘zlariga ikki dunyo tor bo‘ladi.
Shodon daming ko‘rolmagan yurtfurushlar
Bir kun bir kaft qumlog‘ingga zor bo‘ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!..

Gul ko‘ringan dashtingdagi giyoh-xasdir,
Soddadilu ulug‘vorlik senga xosdir.
Sevamizki, cho‘llaring ham bizga jannat,
Tuprog‘ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko‘rgaymiz seni, O‘zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!

208-mashq. Berilgan Mehmon va mehmondo‘stlik haqidagi maqollarni o‘qing, ma’nosini sharhlang. I va e harfli so‘zlarning talaffuzi va imlosiga diqqat qiling.

Birinchi kun mehmon — oltin mehmon,
Ikkinchi kun — kumush,
Uchinchi kun — mis,
Uchdan o‘tsa — pes.

Kelguncha mehmon uyalar,
Kelgandan so‘ng mezbon uyalar.

Kelmoq ixtiyor bilan,
Ketmoq ijozat bilan.

Mezbon borini qo‘ysa,
Mehmon ozga sanamas.

Mehmon kelsa, pastga tush,
Palov bermoq ahdga tush.

209-mashq. Siz ham ta’lim muassasangiz hayotiga oid qiziqarli voqealardan reportaj tayyorlang.

34-DARS

MATN: **HAYOT MENING TASAVVURIMDA**

Hayotning milliy g‘oyasi zamon talablariga uyg‘un holda mutassil ravishda takomillashib boradigan tizimdir. Bu tizimda hayotning ravnaqi g‘oyalarning birinchi o‘rinda turishi bejiz emas. Ularning ma‘no-mohiyati va falsafasiga ko‘ra avvalo hayotimizning va o‘z oldiga qo‘ygan ulug‘vor maqsad-muddaolarni yaqqol aks ettiradi. Hayot ravnaqi deganda, hayotning hamma sohalari bo‘yicha rivojlanish va yuksalishni, hayotimizning jahondagi ortishlari, milliy taraqqiyotni tushunamiz. Hayot farovonligi esa odamlarning jamiyatdagi munosib turmush sharoiti, iqtisodiy jihatdan to‘kis yashashi, araqqiyotidir. Hayotning moddiy ehtiyojlarini qondirishi va moddiy hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan narsalar ularning nazariyasidir.

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so‘raydi qadrin.

Hayot g‘animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq onidir umr daftarin.

Bundan qarab aytamizki, bizning hayotimiz biz uchun aziz va bu eng katta boylik. Demak, inson hayoti uning faoliyatiga, dunyoqarashiga ko‘rsatadigan ta’sirda kuchli. Biz bir narsani unutmasligimiz darkor, hayot har kimning qo‘lidagi iftixori, uni asrash esa bizning asosiy burchimizdir.

Bu hayotda hamma narsa mehr bilan,
Ertaklar-u afsonalar sehr bilan.
Baxtli bo‘lay desang,qilgin sabr-toqat
Va ko‘ngildan hasad-u g‘arazni yo‘qot.

Biz bilamizki bugungi hayotda ko‘p narsalar sodir bo‘ladi. Mana masalan iqtisod sohalari, tabiiy-ekologik muvozanatlar yoki qarama-qarshiliklar kabi masalalarning yo‘lini to‘sadi. Ularni ko‘paytirish oson, yaxshilash esa mushkul.

Tong otmoqda,quyosh nur sochar,
Shoshilardi har yon odamlar
Hayot belanchagi tebratmoq uchun,
Tashlanadi shaxdam odamlar
Kimdir bugun barchadan mamnun
Birov yurar kun bo‘yi tushkun,
Kimdir shoshar intilar har dam
Maqsadiga erishmoq uchun
Hayot misli daryodek toshqin,
Yashash kerak ko‘pirib-toshib
Dunyo go‘zal bo‘lishi uchun
Odamlarga shodlik ulashib.

Hayot belanchagida nimalar borligini bilmaysiz, ular sizni har dam kutadilar. Hayot misli xuddi daryodek, uning harakat qilishidek o‘tadi. U qanday tez harakat qilsa, hayot ham xuddi shunday tez o‘tadi. Uning har bir vaqtini bejiz o‘tkazmang. Hayotimizda ro‘zg‘or, uy-joy tutishda tejamkorlik, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, rejalilik katta ahamiyatga egadir.

Inson barkamollikka erishish uchun o‘z ustida ishlashi darkor. Eng avvalo bilish va o‘qish, keyingina boshqa masalalar hal etiladi. Unga berilgan barcha imkoniyatlarni o‘tashi va ularga chiroyli sabr qilishi darkor. So‘nggina u erta emas indin ham barkamollikka erishadi. Bugunda hayot juda ham rivojlanib boryapti. Turli xil zavodlar, fabrikalar, mashina ishlab chiqarish texnikumlari, savdo-sotiq mahsulotlari, turli xil binolar, maskanlar, yotoqxonalar, bizda ham shunday o‘zgarishlar kiritilmoqda. *(Qurbonova G. O‘zbek tili. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Buxoro. 2013.)*

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing va matn mazmunidan kelib chiqib sizning tasavvuringizda hayot…
2. Matndan faol so‘z va iboralarni aniqlang.

3. Matnda qo‘llanilgan qo‘sh undosh va qo‘sh unlili so‘zlarni ikki guruhga ajrating. Talaffuzi va imlosini eslab qoling.
4. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing.
5. Birinchi xatboshini rus tiliga tarjima qiling.

USLUBSHUNOSLIKKA OID MATERIALLAR

Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Eslab qoling. Annotatsiya nashr qilinadigan biror ilmiy, badiiy, [illegible] va boshqa asarlarning asosiy mazmuni va foydalanish sohasini ifodalovchi ma’lumotnoma. Bunda nashr qilinayotgan asarning qisqacha va to‘liq [illegible] bayon qilinadi. Annotatsiyada asarning qaysi sohaga tegishli ma’lumotlar, yangiliklar keltirilgani yoziladi. U turli fan sohasidagi asarlarga shuningdek, [illegible] asarlarga ham yoziladi. Asar mazmuniga qarab annotatsiya ham turlicha bo‘ladi. Masalan badiiy asarlardagi annotatsiya ilmiy asarlarnikidan farq qiladi. Badiiy asarlardagi annotatsiyada asarning bosh g‘oyasi, asar qahramoni va qaysi voqealari hikoya qilinayotganligi aniq aytiladi. Asar qaysi yoshdagi [illegible] uchun mo‘ljallanganligi ham ko‘rsatiladi.

Annotatsiya so‘zi, lotincha “annotacio” so‘zidan olingan bo‘lib, “eslatma”, “ma’lumot” degan ma’nolarni anglatadi. Annotatsiya kitob, monografiya, qo‘lyozma asarlarning qisqacha xarakteristikasini o‘z ichiga oladi, ularning mazmuni, ahamiyati juda siqiq tarzda bayon qilinadi; asarning qaysi kitobxonga mo‘ljallanganligi ham qayd etiladi. Annotatsiya asosan, muayyan asar [illegible] varag‘ining ikkinchi betida chop etiladi. Ba’zi asarlarda muxtasar “Kirish” [illegible] yoki debocha bo‘lsa, unday asarlarda annotatsiya bo‘lmasligi ham mumkin. Annotatsiyaning referativ jurnallar, nashriyot rejalari, kutubxona kataloglarida yoziladigan turlari ham mavjud bo‘lib, bu ma’lumotlar soha mutaxassislariga [illegible] adabiyotlarni tez tanlashga, uni sotib olish uchun oldindan buyurtma berishga imkoniyat beradi.

Annotatsiya yaratish uchun:

a) Annotatsiya qilinayotgan kitob, monografiya, maqola, qo‘lyozma asarning mazmuni bilan to‘liq tanishing, uning maqsad va vazifalarini aniqlang, bugungi ahamiyatini, amaliy qo‘llash darajasini tasavvur qiling.

b) Tadqiq qilish, aniqlash va tasavvur qilish natijasida tug‘ilgan xulosalaringizni lo‘nda va siqiq qilib bayon qiling.

c) Yozilgan xulosalaringizni umumlashtiring va eng qisqa shaklda bayon qiling. Bayoningizdagi so‘zlar faqat o‘sha asarning mazmunini ifodalasin.

d) Annotatsiya qilinayotgan asar kimlarga mo‘ljallanayotganini aniqlang.

210-mashq. “Panchatantra yoxud besh muqaddas kitob” (tarjima I.G‘afurov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 336 b.) asarida keltirilgan quyidagi annotatsiyani o‘qing va yuqoridagi qoidalar bilan taqqoslang.

“Panchatantra” – ko‘hna Hindistonning eng qadimiy va durdona asarlaridan bo‘lib, bu nodir qo‘llanma insoniy tuyg‘ular tarannumiga bag‘ishlanadi. Kitob

[illegible] inshashga o‘rgatadi, shuningdek, olijanoblik, yaxshi xulqlarni targ‘ib [illegible]

“Panchatantra”ning badiiy o‘ziga xosliklari tamomila o‘zgacha bir [illegible]. Bunda uslub va usullar ham tamomila o‘zgacha. Unda hikoyatlardan [illegible] kelib chiqadi. Har bir hikoyat go‘zal va teran hikmatga ega bo‘lgan bayt [illegible] anadi va shu bayt bilan tugallanadi.

[illegible] o‘qigan kitobxon borki, hayotga boshqacha nazar tashlaydi, insoniy [illegible] sari intiladi.

211-mashq. Jaloliddin Rumiyning “Ichingdagi ichingdadur” (So‘z [illegible] muallifi hamda mas’ul muharrir N. Komilov. – T.; Yangi asr avlodi, [illegible] 240 b.) asari annotatsiyasini o‘qing va daftaringizga husnixat bilan [illegible]

“Ichingdagi ichingdadur” Mavlono Jaloliddin Rumiyning turli majlislarda [illegible] o‘tlug‘ fikrlaridan tarkib topgan. Siz ushbu risolani o‘qib, inson va olam, [illegible] borliq, inkor va isbot, xayol va amal singari falsafiy tushunchalarning asl [illegible] anglaysiz. Va hamma narsa O‘zingizda, hamma narsa O‘zingizdan [illegible] ga yana bir bor iymon keltirasiz.

212-mashq. Yuqoridagilardan foydalangan holda siz ham annotatsiya yozib [illegible]

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

213-mashq. Quyida berilgan ba- va bo- qo‘shimchalari bilan farq [illegible] variantdosh so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring hamda talaffuzi va imlosini [illegible] qoling.

baadab va boadab
bama’ni va bama’no
baobro‘ va boobro‘
baxabar va boxabar
bamaslahat va bomaslahat
batartib va botartib

214-mashq. Quyida Erkin Vohidov qalamiga mansub she’rni ifodali o‘qing. [illegible] va o‘ unlilaridan iborat so‘zlarning imlosini eslab qoling.

O‘ZBEK NAVOIYNI O‘QIMAY QO‘YSA...

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir.
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,
Qora sochning malla bo‘lgani shudir.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Dod demoqqa palla bo‘lgani shudir.
Ma’rifatdan ayru o‘ynasa, kulsa,
Aza chog‘i yalla bo‘lgani shudir.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Aldangani, alla bo‘lgani shudir.
Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilgich xor bo‘lsa,
Paytavaning salla bo‘lgani shudir.

El komil bo‘lmasa, yurt emas ulug‘,
Beqadr mahalla bo‘lgani shudir.
Qalb to‘la nur xalqning rizqi ham to‘lig‘,
Ombor to‘la g‘alla bo‘lgani shudir.

O‘zbek o‘zligini anglasa bekam,
Uning “barakalla” bo‘lgani shudir.
Olamga Navoiy nasliman degan,
Ovozi baralla bo‘lgani shudir.

215-mashq. Matn mazmunidan ijodiy foydalangan holda “Men kelajakda qanday tasavvur qilaman?” mavzusida esse yozing.

HUJJATCHILIK

35-DARS

MATN: **ISH YURITISH TILI VA USLUBI**

O‘zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman faoliyati ish qog‘ozlarini tuzish bilan bog‘liq kishi o‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo‘lishi kerak. Kerakli ko‘nikmaga ega bo‘lmay turib bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo‘nda va teran matnga ega hujjatchilikni yaratib bo‘lmaydi.

Demak, hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlik kabi talablarga javob berishi lozim. Bu xususiyatlar hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi, so‘z qo‘llash yo‘llari, morfologik va sintaktik belgilari orqali ta'minlanadi.

Rasmiy-idoraviy hujjatlarni tayyorlashda uning zaruriy qismlarini joylashishiga, matn mazmuni tarkibiy qismlarining ketma-ketligiga, tinish belgilarining to‘g‘ri qo‘yilishiga alohida e'tibor berish lozim. Shu maqsadda quyidagilarga doimo amal qilishni unutmang:

- bosma harflarda yoziladigan hujjat nomida barcha harflar katta harflar bilan yozilishi kerak. Masalan Tavsiyanoma emas, TAVSIYANOMA kabi;

- hujjat yuboriladigan muassasaning nomi qisqartirilmasdan to‘liq, bosh kelishikda yozilish qoidalariga amal qilgan holda yoziladi;
- hujjat matnining asosiy qismlari xatboshi bilan yozilishi lozim.
- xatboshcha qismlar asosiy fikrga bog‘langan tarzda undan so‘ng beriladi.

Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma ko‘rinish sifatida axborotni xolis aks ettirmog‘i lozim.

Shuning uchun hujjatlar tilida so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan cheklanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish-erkalash ma’nolarini olgan so‘zlar, ko‘tarinki tantanavor yoki bachkana so‘zlar, dag‘al so‘zlar, bir doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a, istiora, tashxis kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi so‘zlar ishlatilmaydi. Ularning ishlatilishi hujjatlar matnidagi ifodaning soddaligiga olib keladi.

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Hatto fe’l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin so‘z shakllari (masdlar, ya’ni “harakat nomi” deb ataluvchi so‘z faol ishlatiladi: “Xizmatchilarga ko‘rsatkichlarning borishi haqida”, “...qarorning bajarilishi to‘g‘risida”, “...ma’lum berish maqsadida”, “...qabul qilishingizni so‘rayman” kabi.

Fe’l shakllarining qo‘llanishida ham birmuncha o‘ziga xosliklar mavjud. Masalan, majhul nisbatdagi 3-shaxs buyruq-istak maylidagi yoki o‘tgan (yoki o‘tgan kelasi) zamondagi fe’l shakllarining qo‘llanish darajasi anchayin yuqori: ko‘rsatilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, bo‘shatilsin, tayinlansin; eshitildi, qaror qilindi, ko‘rib chiqildi, ko‘rsatib o‘tildi kabi.

Hujjatlardagi gap qurilishi, odatda tasniflash, mayda qismlarga ajratishga, ajratuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga, umuman, sabab-oqibat va shart-oqibat munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham hujjatlarda nisbatan ko‘p qismli jumlalar, murakkablashgan, uyushiq bo‘lakli gaplar ko‘p qo‘llaniladi. Lekin ularning tarkibida odatdagi so‘z tartibiga qat’iy rioya qilinadi, badiiy va boshqa uslublarda mumkin bo‘lgan g‘ayriodatiy so‘z tartibi (inversiya) ga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xizmat yozishmalarida aniqlik va mazmuniy tugallik fikrni aniq dalillar bilan asoslashga bog‘liq. Hujjatchilikda bunday dalil, asoslar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- rasmiy qonunlar, bitim va shartnomalarning tegishli moddalari, bandlarini ko‘rsatish. Masalan: “O‘zR fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga muvofiq”, “Tuzilgan shartnomaning 3-bandiga asosan” kabi;
- qonunchilik yoki kelishilgan shartlar, manzilning o‘zgarganligini bildirish. Masalan: “boshqa shaharga ko‘chishi munosabati bilan”;
- raqamli ko‘rsatkich, hisob-kitoblar asosida. Masalan: “davlat raqami 1056260 bo‘lgan VAZ 2107 rusumli yengil avtomobil bilan”;
- mantiqiy asoslarni ifodalovchi “shunga ko‘ra”, “munosabati bilan”, “... mavjudligi sababli”, “... ishi uchun”, “oqibatida”, “masligi tufayli”, “shu maqsadda”, “guvohlik berishicha”, “tekshiruv natijasiga binoan” kabi qoliplashgan so‘z birikmalari va hokazo.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing va mazmunini gapirib bering.
2. Hujjatlar tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Hujjatlardagi gap qurilishi haqida ma’lumot bering.
4. Hujjatlar matniga qo‘yiladigan eng muhim talablarni sanang.
5. Hujjatlar tilida ot va fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarning [illegible] haqida gapirib bering.

ISH YURITISHGA OID MATERIALLAR

53-topshiriq. Quyida berilgan hujjatchilik tarixiga oid bo‘lgan [illegible] o‘qing va hozirgi nikoh guvohnomasi bilan solishtiring.

Sug‘dcha nikoh guvohnomasi

Tarxun podsholigining o‘ninchi yilidir. Masvug‘ich oyining [illegible] kuni. Laqabi Nidon bo‘lgan Uttakin Navekat hukmdori Cher Vaxzanak o‘g‘li homiyligidagi bir ayolni o‘ziga xotinlikka oldi. Xotinning nomi Dug‘da laqabi esa Chata – Viyusning qizi. Cherning o‘zi himoyatidagi bu ayolni sevikli muvofiq shunday shartga binoan baxsh etdi. Uttakin bu Chatani sevikli sifatida hurmat va ehtirom bilan oziq-ovqati, kiyim-kechagi, bezak-taqinchoqlari bilan ta’minlagan holda, e’zozlab, muhabbat bilan o‘z uyida podshohayim sifatida saqlasin – toki zodagon (nasabli) erkak zodagon (nasabli) ayolni tutgani kabi. Shuningdek, Chata ham Uttakinni sevikli er sifatida hurmat ehtirom bilan asrasin, u kishining baxt-saodati haqida qayg‘ursin, uning buyrug‘i xotini o‘ziga qonun deb hisoblab, amal qilsin, toki zodagon ayol zodagon erkak er turgani kabi.

Kelajakda agar Uttakin Chataning ruxsatisiz boshqa xotin olsa, yoki [illegible] va yo boshqa shunga o‘xshash ayolni olsa, bordi-yu bu hol Chataga [illegible] bo‘lsa, u holda er bo‘lmish Uttakin Chataga 30 dirham dinoriy, yaxshi saqlangan toza kumush pul beradi. Shundan keyin bunday xotinni (Chatani) na xotin sifatida na cho‘ri sifatida saqlamasin, uni qo‘yib yuborsin.

Agar kelajakda Uttakin Chatani xotin qilmayman degan qarorga kelsa, u holda uni qo‘yib yuborsin. Lekin unga oziq-ovqat bersin, birga hayotlari vaqtida olgan narsalari bilan hamda tovon puli bilan boshqa shartlarsiz uni jo‘natib yuborsin. Shunda u Chataga boshqa hech narsa tovondor bo‘lib qolmaydi va to‘lamaydi. Va shundan keyin u o‘ziga yoqqan ayolga uylana oladi. Agar Chata Uttakinga bundan buyon xotin bo‘lmaslik qaroriga kelsa, unda xotinlikdan chiqsin ketsin. Bu holda u Uttakinga kiyishga yaroqli kiyimlar qoldirsin. Uttakindan olgan bezak taqinchoqlarni va boshqa narsalarni tashlab ketsin. Chata o‘ziga tegishli va birgalikdagi hayoti davomida orttirilgan mulkini olib ketsin. Va u boshqa hech narsaga tovondor bo‘lmasin, to‘lamasin. Shundan keyin Chata o‘zi xohlagan erkakni er qilishi mumkin. Agar Uttakin ajrimdan so‘ng jinoyat qilsa, buning uchun o‘zi javobgar bo‘lsin va o‘zi tovondor bo‘lsin.

Agar Uttakin kimningdir qulligiga tushib qolsa, qarz badaliga qul bo‘lsa, [illegible] tushsa, biror kimsaning homiyligi ostidagi mulkka aylansa, bu holda [illegible] bunyod bo‘lgan avlodi bilan birga hech qanday majburiyatsiz ozod [illegible] lozim.

Agar Chata jinoyat sodir qilsa, bunga uning o‘zi javobgar bo‘lsin, o‘zi [illegible] bo‘lsin. Agar u kimningdir quliga aylansa, qarz badaliga qul bo‘lsa, [illegible] tushsa, kimningdir himoyatiga topshirilgan mulk holatiga tushsa, bu [illegible] Uttakin o‘zidan bunyod bo‘lgan avlodi bilan birga hech qanday majburiyatsiz ozod qilinmog‘i lozim. Shunday qilib, biri boshqasining jinoyati [illegible] bermaydi va tovon to‘lamaydi.

Bu nikoh bitimi – qonunlar uyida, uning boshlig‘i Vaxgo‘kon Varxuman [illegible] tuzildi. Bu yerda guvoh sifatida Skatch Shishich o‘g‘li, Chaxren [illegible] o‘g‘li, Shav Mahak o‘g‘li bor edi. Romtish Vgashfarn o‘g‘li tomonidan [illegible] Uttakin va Chatalarning nikoh bitimi. (Nikoh bitimi milodiy 710-yilning [illegible] to‘g‘ri keladi).

Is’haqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – Toshkent: Fan, 1992, 37-39-betlar.

216-mashq. Quyida berilgan “Temur tuzuklari” asaridan olingan [illegible] o‘qing hamda tili va uslubiga e’tibor bering. Eskirgan so‘zlarni topib, [illegible] ga ko‘chiring.

SALTANAT SAROYIDA O‘TIRISH VA O‘RIN OLISH TUZUGI

Amr etdimki, o‘g‘illarim, nabiralarim va qavm-qarindoshlarim o‘z daraja va [illegible] lariga yarasha xuddi oy qo‘rg‘onlagandek, saltanat taxtini o‘rab o‘ltirsinlar. [illegible] qozilar, ulamo, fuzalo, shayxlar, ulug‘lar va ashrof (sharaf va e’tibor [illegible]) o‘ng tomondan o‘rin olsinlar. Amir ul-umaro, beklarbegi, amirlar, [illegible] ulus, tumanlar va qo‘shinlarning sardorlari va amirlari, mingboshilar, [illegible] hilar, o‘z martabalariga yarasha, chap qo‘l tomonda o‘ltirsinlar.

Devonbegi va vazirlarning o‘rnini taxt qarshisidan ko‘rsatdim. Turli [illegible] lakatlar, el-uluslarning kalontarlari va kadxudolari esa, vazirlar orqasida saf [illegible] o‘tirishlarini buyurdim. Bahodir degan faxrli nomga ega mard yigitlar, qilich [illegible] tanilgan o‘g‘lonlar, saltanat taxtining orqasidan, o‘ng qo‘l tomonda [illegible] sinlar. Qorovulbegilar esa saltanat taxtining orqasidan, chap qo‘l tomonda [illegible] rishlarini buyurdim. Hirovul amiri mening ro‘paramdan o‘rin olsin. Ichki [illegible] hik lavozimdagi saroy xizmatchisi), xususiy yasovulim esa katta chodir eshigi [illegible] da, taxtim poyasining to‘g‘risida tik tursin. Dodxohlar (arz-dod bilan [illegible] ganlarning arizasini qabul qilib olib, podshoga yetkazuvchi mansabdor) o‘ng va [illegible] tomonda tik tursinlar.

Qolgan sipohiylar (soyiri sipoh – harbiy yurish paytida aholidan safarbar [illegible] lingan lashkar boshliqlari), xizmatchi va hashamlar (podsho, xon, amirlarga [illegible] qin kishi; xizmatkor) har qaysilari o‘z martabalariga yarasha saf tortib, o‘z [illegible] larini bilib tik tursinlar.

O‘rin olish qoidalarining bajarilishini nazorat qiluvchi to‘rt [illegible] hozir bo‘lganlarni o‘z tartibi bilan taxtimning o‘ng va so‘l, oldi [illegible] joylashtirishlarini buyurdim.

Yana hukm qildimki, qachon majlis qoidaga muvofiq tartibga [illegible] ming tovoq osh, ming dona non keltirib, umum yig‘ilganlarga [illegible] berilsin. Ming tovoq oshni mumtoz va xos kishilar bazmiga olib kelib, [illegible] besh yuz tovog‘ini ulus amirlariga, sarkardalarga, oqsoqollarga, har [illegible] nomiga atab, tarqatsinlar.

Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-[illegible] birlashmasi, 1991, 90-91-betlar.

54-topshiriq. Quyida berilgan hujjat matnini o‘qing va tili va [illegible] diqqat qiling. Fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarning hujjat matnidagi [illegible] aniqlang.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

DAVLAT MAXSUS MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARINING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Davlat maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyati samaradorligini oshirish, ularda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan [illegible] ishlarini yaxshilash, ularning rahbar va pedagog xodimlarini rag‘batlantirish [illegible] takomillashtirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida” 2009-yil 22-dekabrdagi PQ-1245-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi mutaxassislaridan shakllantirilgan idoralararo ishchi guruh tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari vakillari ishtirokida jismoniy yoki aqliy rivojlanishida turli nuqsonlar bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari kompleks inventarizatsiyadan o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining: maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarining sonini, ularning ixtisoslashuvi va joylashuvini qayta ko‘rib chiqqan holda, shuningdek jismoniy yoki aqliy rivojlanishida turli nuqsonlar bo‘lgan bolalar kontingentidan kelib chiqib maqbullashtirish;

umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida maxsus guruhlarni tugatish, nutqi, eshitishi va ko‘rishida yengil nuqsonlar bo‘lgan bolalar bo‘lgan taqdirda ularda defektolog lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

3. Davlat maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan [illegible] idoralararo ishchi guruhning takliflarini hisobga olib va ushbu qaror [illegible] muvofiq ikki oy muddatda:

[illegible] maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarini maqbullashtirish, jismoniy [illegible] rivojlanishida turli nuqsonlar bo‘lgan bolalar kontingenti mavjudligidan kelib [illegible] tegishli hudud sog‘liqni saqlash organlarining asoslangan statistik [illegible] qat’iy amal qilib mintaqalarda bunday muassasalarni tashkil etish [illegible] tashkil etish;

[illegible] yoki aqliy rivojlanishida turli nuqsonlar bo‘lgan bolalar kontingenti [illegible] bo‘lmagan taqdirda davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim [illegible] umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim muassasalari etib qayta [illegible] chora-tadbirlarini ko‘rsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki:

bolalarni davlat maxsus maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilish xalq [illegible] hududiy boshqaruv organlari huzuridagi tibbiy-psixologik-pedagogik [illegible] xulosalari bo‘yicha amalga oshiriladi;

davlat maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarining rahbar, pedagog va [illegible] xodimlariga alohida mehnat sharoitlari uchun lavozim maoshlari va tarif [illegible] 100% miqdorida qo‘shimcha to‘lov saqlanib qoladi.

6. Xalq ta’limi vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda bir oy [illegible] Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalar to‘g‘risidagi Nizomni ishlab [illegible] va tasdiqlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish [illegible] bilan birgalikda Moliya vazirligi bilan kelishgan holda ikki hafta muddatda [illegible] maktabgacha ta’lim muassasalarining ta’lim-tarbiyaviy va davolash-[illegible] bo‘lashtirish faoliyatiga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib ularning barcha [illegible] uchun namunaviy shtatlarni ishlab chiqsin va yangi tahrirda tasdiqlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi davlat maxsus [illegible] maktabgacha ta’lim muassasalariga ularni tibbiy xodimlar bilan butlash, maslahat [illegible] ni ko‘rsatish uchun malakali mutaxassislarni jalb etish va davolash-[illegible] bo‘lashtirish ishlarining zamonaviy usullarini joriy etishda, shuningdek ushbu [illegible] muassasalarning tibbiy xodimlari malakasini oshirishda amaliy yordam ko‘rsatilishini [illegible] ta’minlasin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi [illegible] moliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar bilan birgalikda bir oy muddatda [illegible] hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar [illegible] yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi [illegible] Bosh vazirining o‘rinbosari A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2010-yil 18-iyun, 117-son.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

217-mashq. Quyidagi yorliq va patta hujjatlari haqida berilgan [illegible] o‘qing. Hujjat turlarining ta’rifini daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring.

YORLIQ

Yorliqlar mazmunan xilma-xil bo‘lgan: xabar, tavsif farmoyish [illegible] tasdiqlash va h.k. Bu o‘rinda To‘xtamishxonning 1390-yilda [illegible] Yagayloga yo‘llagan yorlig‘i, Temur Qutlug‘ning 1397-yildagi yorlig‘i, [illegible] otasi Umarshayx Mirzoning marg‘ilonlik Mir Said Ahmad ismli [illegible] yilda bergan yorlig‘i Toshkent hokimi Yunusxo‘janing 1797-yil [illegible] Peterburgga – Rossiya podshosiga o‘z elchilari orqali yuborgan yo‘lig‘ [illegible] boshqalarni eslab o‘tish mumkin. Mazkur davr yo‘rliqlarida o‘ziga xos [illegible] qolip shakllangan, yorliqlar matn jihatdan an’anaviy tarkibiy qismlarga [illegible] bo‘lgan. Masalan, eslab o‘tilgan yo‘rliqlarning birinchisi – “To‘xtamish [illegible] Yag‘aylag‘a” deb, ikkinchisi – “Temur Qutlug‘ so‘zum” deb, uchinchisi [illegible] “Sulton Umarshayx Bahodur so‘zim” deb boshlagan. Bayonda ham muayyan [illegible] bor, shuningdek, albatta, yo‘rliq raqam qilingan sana va joy ko‘rsatilgan.

PATTA

XIX asrda Qo‘qon xonligida keng tarqalgan hujjatlardan biri “patta” [illegible] Pattada ma’lum kishiga muayyan miqdordagi pul, mahsulot, urug‘ (don) [illegible] boshqa narsalar berish lozimligi haqidagi ma’lumot aks ettirilgan. Patta matni [illegible] ham o‘ziga xos doimiy tarkib va muayyan nutqiy qolip turg‘unlashgan. Ular [illegible] o‘tmish hujjatlaridagi muayyan turg‘un tarkib va nutqiy qolip o‘zbek [illegible] hujjatchiligi uzoq tarixiy tajriba va tadrijiy takomil mahsuli ekanligining dalilidir.

218-mashq. Quyida berilgan matnni daftaringizga ko‘chiring. [illegible] vasiqa terminining turli ma’nolarini eslab qoling.

VASIQA

Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida (jumladan, Turkistonda) yer [illegible] oldi-sotdisi to‘g‘risida tuzilgan rasmiy hujjat. O‘z uyimga o‘zim [illegible] olmayman...O‘z uyim. Vasiqam bor. *A.Qahhor, “Sarob”.*

Sotuvchi va oluvchi o‘zaro kelishganlaridan keyin qozixonaga borib, [illegible] qilib, qozikalonga tegishli muhronani berib, muhr bostirganlar. *S.Ahmad, “Esdaliklar”.*

Shaxsiy guvohnoma, hujjat. Majididdin.. muhrlar bosilgan bir taxta [illegible] chiqarib: “Mana bu sizning vasiqangiz”, — dedi. *Oybek, “Navoiy”.*

Ko‘chma hujjat, dalil o‘rnidagi narsa. Saylov byulleteni — bu oddiy [illegible] emas. Bu — mehnat, ijod, baxt-iqbol vasiqasi.*Gazetadan.*

[illegible] mashq. Yuqoridagi ma’lumotlardan foydalanib “Hujjatlar tarixi” [illegible] matn tuzing.

36-DARS

MATN: HUJJAT TURLARI VA XUSUSIYATLARI

[illegible]ijtimoiy munosabatlar doirasida odamlar, idoralar va tashkilotlar, korxonalar [illegible]assalar o‘rtasida o‘zaro ish yuritishning ma’lum huquqiy asoslari mavjud [illegible] ular tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish tarzida amalga oshiriladi.

Hujjatlarning mukammallik darajasi ular bilan ish ko‘radigan kishilarning [illegible]lik darajasi, davlatchilik tarixi va davlat ishlarini yuritishdagi mavjud [illegible], ma’lum darajada kishilar o‘rtasida shakllangan nutqiy madaniyat, ayni [illegible] bu hujjatlarga bo‘ladigan zaruriyat bilan bog‘liq bo‘ladi.

Hujjatlarni yuritish asosan davlat ishlarini huquqiy asoslarga qo‘yish tarzida [illegible] oshiriladi. Demak, u davlat yoki davlatlararo bo‘ladigan ma’lum talablar [illegible] amalga oshiriladi va dunyoviy an’analarni ham o‘zlashtiradi. [illegible]ning mukammalligi davlat ishlarini yuritish takomilidan dalolat beradi.

Davlat tizimining barcha bo‘g‘inlarini hujjatlarsiz mutlaqo tasavvur qilib [illegible]aydi. Chunki uning faoliyati aynan ana shu hujjatlar yordamida tartibga solib [illegible] va harakatga keltiriladi. Shuning uchun ham vaqti-vaqti bilan ish yuritishni [illegible]lashtirishga qaratilgan hukumat qarorlari qabul qilinib boriladi. Masalan, [illegible] qaror O‘zbekiston jumhuriyatining inqilobiy qo‘mitasi tomonidan 1924-[illegible] 31-dekabrida qabul qilingan bo‘lib (№ 48) “Ishlarni o‘zbek tilida yurgizish [illegible] O‘zbekiston jumhuriyatining inqilobiy komiteti huzurida markaziy [illegible]tirish hay’ati va mahallalarda muzofot yerlashtirish hay’atlari tuzilish(i) [illegible]risida” deb nomlangan.

Yurtimizning mustaqilligi arafasida (1989-yil 21-oktabr) “Davlat tili haqida” [illegible]ning qabul qilinishi bu masalani ham huquqiy asosga qo‘ydi. Yangi [illegible]dagi Qonunning 9-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida [illegible] davlat tilida yuritilishi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi [illegible]da ta’kidlab o‘tildi. Mustaqillikdan keyin esa ish yuritishni takomillashtirish, [illegible] milliy asosga qo‘yish masalasiga yana ham jiddiy e’tibor berildi. O‘zbekiston [illegible]publikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 18-avgustdagi 424-son qarori bilan [illegible]qilangan “O‘zbekiston Respublikasi viloyat, shahar va tumanlar hokimlari [illegible]paratlarida ish yuritish bo‘yicha yo‘riqnoma”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar [illegible]kamasining 1999-yil 29-martdagi 140-son qaroriga ilova qilingan [illegible]zbekiston Respublikasi vazirliklari davlat qo‘mitalari, idoralari, [illegible]porasiyalari, konsernlari, uyushmalari, kompaniyalarida va boshqa markaziy [illegible]assasalarida, apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha [illegible]umaviy yo‘riqnoma”lar fikrimizning dalilidir. N.Mahmudov, A.Madvaliyev, [illegible]Mahkamov, N. Aminovlarning “O‘zbek tilida ish yuritish (munshaot)”, yana shu [illegible]alliflarning “Ish yuritish” amaliy qo‘llanmalari esa o‘zbek tilida ish yuritishning [illegible]yoriy asoslarini belgilab berishda g‘oyatda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat [illegible]qilmoqda. Chunki mualliflarning ish yuritish borasida bergan yo‘l-yo‘riqlari

xodimlarning faoliyatida metodik yordam beradi, hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalarini o‘rgatadi, ish qog‘ozlarining hamma joyda bir xil bo‘lishini ta’minlaydi.

Ma’lumki, hujjatlar xilma-xil va miqdoran juda ko‘p. Hujjatlarning [illegible] yo‘nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatlari ham turlicha. Hujjatshunoslikdagi ish yuritishdagi hujjatlar eng avvalo yaratilish o‘rniga ko‘ra tasnif qilinadi, bu jihatdan ichki va tashqi hujjatlar farqlanadi. Ichki hujjatlar muassasaning o‘zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan, muayyan muassasada boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladigan hujjatlar esa tashqi hujjatdir.

Hujjatlar mazmuniga ko‘ra ikki turli bo‘ladi:

1) Sodda hujjatlar – muayyan bir masalani o‘z ichiga oladi;

2) Murakkab hujjatlar – ikki yoki undan ortiq masalani o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, hujjatlar mazmun bayonining shakli jihatidan [illegible] namunaviy va qolipli hujjatlarga bo‘linadi. Matnning o‘ziga xosligi, [illegible] hamisha ham bir andazada bo‘lmasligi xususiy hujjatlarning asosiy belgisi (masalan, xizmat yozishmalari va shu kabilar). Bunday hujjatlarda ham [illegible] doimiy tarkib mavjud bo‘lsa-da bevosita mazmun bayoni bir qadar erkin bo‘ladi. Namunaviy hujjatlar boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog‘liq biriga o‘xshash va ko‘p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matndan ichiga oladi. Qolipli hujjatlar, odatda, oldindan tayyorlangan bosma qog‘ozlariga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi: o‘zgarmas (oldindan tayyor bosma matnda ifodalangan) va o‘zgaruvchi tuzish paytida yoki qo‘lda yo‘ziladigan axborotlar; shuning uchun ko‘p hujjatlarga nisbatan ko‘pincha “yozmoq” emas, balki “to‘ldirmoq” so‘zi ishlatiladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, hujjatlarning qolipli turlari doirasini kengaytirish yuritishni takomillashtirishdagi maqbul yo‘llardan biridir. Chunki bunday hujjat matnlarini bir xillikka olib kelish va hujjat tayyorlash uchun ketadigan hamda mehnatni anchagina tejash imkoniyatini beradi. Qolipli hujjatlar sirasiga masalan, ish haqi yoki yashash joyi haqidagi ma’lumotnomalar, ayrim dalolatnomalar, xizmat safarlari guvohnomalari va boshqa ko‘plab hujjatlarni kiritish mumkin.

Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko‘ra xizmat yoki rasmiy hujjatlar va shaxsiy hujjatlarga ajratiladi. Xizmat hujjatlari tayyorlanishiga ko‘ra muassasa yoki mansabdor shaxslarga tegishli bo‘lsa, shaxsiy hujjatlar yakka shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog‘liq masalalarga tegishli bo‘ladi.

Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasi benihoya muhim. Shu jihatiga ko‘ra hujjatlar quyidagicha tavsiflanadi: qoralama; asl nusxa; nusxa; ko‘chirma. Aksar hujjatlar dastlab qoralama nusxada tayyorlanadi, bu nusxa tuzatilib qayta ko‘chirilishi mumkin. Aytish johizki, qoralama hujjat huquqiy kuchga ega emas. Asl nusxa har qanday hujjatning asli, birinchi rasmiy nusxadir. Asl nusxaning aynan qayta ko‘chirilgan shakli nusxa deb yuritiladi, odatda nusxaning o‘ng tomonida yuqoridagi burchagiga “nusxa” degan belgi qo‘yiladi. Hujjatchilikda, shuningdek, aynan (faksimal) va erkin nusxalar ham farqlanadi.

[illegible] asl nusxaning barcha xususiyatlarini – hujjat zaruriy qismlarining [illegible] mavjud shakliy belgilar (gerb, yumaloq muhr, to‘rtburchak muhr, [illegible] matndagi bosma, yozma harf shakllari va shu kabilarni aniq va to‘liq [illegible] masalan, foto nusxani shu tur hujjatlar qatoriga kiritish mumkin. Erkin [illegible] hujjatdagi axborot to‘laligicha ifodalansa-da, bu nusxa tashqi [illegible] jihatdan bevosita muvofiq kelmaydi, ya’ni erkin nusxada asl [illegible] muhr o‘rniga “muhr” deb, imzo o‘rniga “imzo” deb, gerb o‘rniga “gerb” [illegible] qo‘yiladi va h.k. Ba’zan muayyan hujjatga to‘lasicha emas, balki uning [illegible] ehtiyoj tug‘iladi. Bunday hollarda hujjatdan nusxa emas, balki [illegible] olinadi (masalan, majlis bayonidan ko‘chirma, buyruqdan ko‘chirma va [illegible]

[illegible] va ko‘chirmalar, notarius, kadrlar bo‘limi va shu kabilar tomonidan [illegible] tartibda tasdiqlangan taqdirdagina huquqiy kuchga ega bo‘ladi. Asil nusxa [illegible] hollarda hujjatning ikkinchi nusxasi (dublikati) beriladi, ikkinchi nusxa [illegible] bilan bir xil huquqiy kuchga egadir.

Ma’muriy - boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeyiga ko‘ra hujjatlar hozirgi [illegible] asosan, quydagicha tasniflanadi: tashkiliy hujjatlar; farmoyish hujjatlari; [illegible] axborot hujjatlari; xizmat yozishmalari.

Savol va topshiriqlar:

1. Ish yuritish hujjatlarining qanday ahamiyati bor?
2. Hujjatlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Hujjatshunoslikdagi ish yuritish hujjatlari yaratilish o‘rniga ko‘ra qanday [illegible] qilinadi?
4. Sodda va murakkab hujjatlar qanday farqlanadi?
5. Xususiy hujjatlar haqida nima bilasiz?

ISH YURITISHGA OID MATERIALLAR

220-mashq. Quyida berilgan ariza namunasi hujjatlarning qaysi turiga [illegible]shini aniqlang va siz ham mustaqil ravishda namunadagi kabi misol yozing.

Samarqand davlat universiteti
filologiya fakulteti dekani
prof. J. Eltazarovga shu fakultetning
1-bosqich 105-guruh talabasi
Abdurahmonova Feruzadan

ARIZA

Uyimizda opamning to‘yi bo‘lishi munosabati bilan meni 11-12-sentabrdagi [illegible] mashg‘ulotlaridan ozod etishingizni so‘rayman. Qoldirilgan dars mavzularini [illegible]zlashtirib olaman.

2018.10.09. imzo ABDURAHMONOVA F.

221-mashq. Quyida berilgan ma'lumot-axborot hujjatlari kiradigan e'lon namunasini o'qing va siz ham ta'lim muassasasida o'tkaziladigan tadbirlarga e'lon yozing.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi sonli va 2001-yil 6-iyuldagi qarorlarining bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi vazirliklari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi tomonidan eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi" respublika tanlovini

E'LON QILADI

Tanlov quyidagi o'quv fanlari bloklari bo'yicha o'tkaziladi:
– gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
– matematik va tabiiy-ilmiy;
– umumkasbiy;
– ixtisoslik.

TANLOV TALABLARI:

– tanlovga taqdim etilayotgan darslik, o'quv qo'llanma, jumladan, elektron darslik va elektron o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingandan so'ng nashr qilingan bo'lishi, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb–hunar va oily ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga javob kelishi, o'rnatilgan taribda tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq yaratilgan bo'lishi, milliy istiqlol g'oyasi va qadriyatlarimizni o'zida aks ettirishi, ta'lim jarayonida kamida bir o'quv yili davomoda qo'llanilgan va ijobiy taqrizlar bilan e'tirof etilgan bo'lishi;

– ko'zda tutilgan ta'lim turi uchun belgilangan o'quv-uslubiy va dasturiy talablarga to'liq javob berishi hamda aniq va ravshan tilda yozilgan bo'lishi;

– Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari grifi bilan nashr etilgan bo'lish;

– darslik va o'quv qo'llanmasi mazmunan yangi, tegishli fanning so'nggi uch yilda nash etilgan yutuqlarini qamrab olishi, tavsiya etilgan adabiyotlar, xorijiy manbalar, **web saytlar** bo'lishi;

– matbaa standartlariga javob berish zarur.

Taqdim etiladigan darslik va o'quv qo'llanma ilmiy, g'oyaviy va tarbiyaviy mazmuni jahatidan O'zbekistonning ma'naviy va etnipsixologik merosi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini chuqur anglashga ko'maklashishi lozim.

tanlovda tasarruflikdan qat'i nazar, ta'lim va ilmiy-tadqiqot tizimiga [illegible] ta'lim va ilmiy muassasalar, vazirliklar, qo'mitalar, idoralar hamda [illegible] va pedagoglar, amaliyotchilar ishtirok etishlari mumkin.

[illegible]gi yillari tanlovda qatnashib, "Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv [illegible] mualliflari" respublika tanlovi g'oliblari bo'lgan o'quv adabiyotlari [illegible] tavsiya etilmaydi.

Tanlovga darslik va o'quv qo'llanmalarning 2 ta asl nusxasi yo'llanma xat [illegible] va taqrizlar bilan qabul qilinadi.

Tanlov g'oliblariga quyidagi mukofotlar belgilangan:

[illegible]-mukofot (I darajali diplom va eng kam oylik ish haqining 50 barobari [illegible] pul.

[illegible]-mukofot (II darajali diplom va eng kam oylik ish haqining 25 barobari [illegible] pul.

[illegible]-mukofot (III darajali diplom va eng kam oylik ish haqining 15 barobari [illegible] pul.

Tanlov g'oliblarining darslik yoki o'quv qo'llanmalari ikkinchi va undan [illegible] nashrdan chiqqan taqdirda, ularga ilmiy unvon va ilmiy darajalar berishga [illegible] qilinadi.

Tanlovga qabul qilingan adabiyotlar ro'yxati 2004-yil 15-avgustgacha, [illegible] natijalari esa 2004-yil 1-oktabrgacha, "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" [illegible]viy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi.

Darslik va o'quv qo'llanmalar tegishli hujjatlar bilan joriy yilning 1-[illegible]tigacha tanlov komissiyasiga taqdim etilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta [illegible] maktab muammolari instituti. Telefonlar: 144-89-64, 144-52-89, 41-13-01.

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

55-topshiriq. Quyida berilgan namunadagi kabi ish yuritish terminlari [illegible]'atini tuzing.

ariza	заявление
asl nusxa	оригинал, подлинник
badal	взнос
bayonnoma	протокол

222-mashq. Ish yuritish hujjatlarining ro‘yxatini tuzing. Ularni [illegible] shaklida tasniflang.

223-mashq. Berilgan tasdiq xat namunasini daftaringizga k[illegible]. Hujjatlarning turlari buyicha tahlil qiling.

Bugun, 5-iyunda Sizdan buyurtmamiz bo‘yicha mahsulot [illegible] chiqarayotganligingiz haqida xabar berilgan telegrammani oldik.

O‘z vaqtida qaytarilgan javob uchun Sizga minnatdorchilik bildiramiz.

56-topshiri. Quyidagi telegramma matnini o‘qing va hujjatlarning [illegible] bo‘yicha tahlil qiling.

TELEGRAMMA
FARG‘ONA 12 KATTABOG‘ 18
SALIMOVGA 26-DEKABRDA 123-REYS BILAN UCHAMAN [illegible]
OLING SAYYORA
100187 Toshkent 187 Sadaf ko‘chasi 4-uy

224-mashq. “Hujjatlarning hayotimizdagi o‘rni” mavzusida [illegible] yozing.

37-DARS

MATN: **TASHKILIY HUJJATLAR: SHARTNOMA, MEHNAT SHARTNOMASI, NIZOM, YO‘RIQNOMA**

Eslab qoling. Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa [illegible] korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi. Shartnoma, nizom, yo‘riqnoma, qoida, ustav, guvohnomalar ana shunday hujjatlar turlariga kiradi.

SHARTNOMA

Shartnoma tomonlarning biron bir munosabatlar o‘rnatish haqidagi kelishuvini qayd etuvchi va bu munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir. Shartnoma fuqarolik huquqiy bitimlarning turlaridan biri hisoblanadi. Uning [illegible] qiluvchi xususiyati shundaki, u ikki yoki ko‘p tomonlama bitimdan iborat bo‘ladi. Shartnoma davlat, kooperativ va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar shuningdek, fuqarolar o‘rtasida tuzilishi mumkin. Shartnoma munosabatlari muassasa bilan ayrim shaxs yoki shaxslar o‘rtasida o‘rnatilayotgan bo‘lsa, bunda tuzilajak hujjat mehnat bitimi deb ataladi. Shartnomalar o‘z mazmuniga ko‘ra juda xilma-xil ko‘rinishga ega: Shartnomalar yozma, og‘zaki ko‘rinishda bo‘lib notarial idoralar tomonidan tasdiqlanishi lozim. Shartnomalar korxonalarga tegishli bo‘lganida tomonlar imzolagunga qadar korxona hisobchisi yoki adliya

[illegible]larining rozilik belgisi bo‘lishi lozim. Shundan so‘ng tomonlar [illegible]ga imzo qo‘yadi. Shartnomalar ikki nusxadan kam tuzilmasligi lozim. [illegible]g‘lari va moddiy-tovar boyliklarini saqlash uchun mas’ul bo‘lgan [illegible] bilan to‘liq shaxsiy moddiy javobgarlik haqida yozma shartnoma tuziladi. [illegible]lik shartnomalarining zaruriy qismlari quyidagilar:

[illegible]ma nomi.

[illegible]ma tuzilgan sana.

[illegible]maning tuzilgan joyi.

[illegible]ma tuzayotgan tomonlarning aniq va to‘liq nomi.

[illegible]maning matni.

[illegible]larning huquqiy manzillari.

[illegible]larning imzo va muhrlari.

Shartnomalar ularni tuzishga vakil qilingan shaxslar tomonidan imzolanadi: [illegible] “imzo” degan zaruriy qismda imzo qo‘yuvchilarning lavozimlari emas, [illegible] shartnomaviy munosabatlar o‘rnatayotgan huquqiy shaxslarning nomi [illegible]iladi. Shartnomalar ikki nusxadan kam tuzilmasligi lozim, chunki har bir [illegible] shaxs hujjatlar yig‘majildida kamida bir nusxasi bo‘lishi lozim. [illegible]maning barcha turlari bir xil huquqiy kuchga ega bo‘ladi. Shartnoma matni [illegible]ning xar ikkala tomoniga kompyuterda bir oraliq bilan yoziladi, boblarning [illegible]si esa o‘zaro bir yarim oraliq bilan yoziladi. “Shartnoma” so‘zini katta [illegible] bilan orasini ochiq qilib yozish tavsiya etiladi. Shartnoma va kontraktlar o‘z [illegible] va mazmuniga ko‘ra xilma-xildir.

Mehnat shartnomasi. Mehnat shartnomasi - mehnatkashlar bilan korxona [illegible]assa, tashkilot, firma hamda xususiy tadbirkorlar o‘rtasida tuziladigan bitim. [illegible]ga ko‘ra, mehnatkashlar muayyan ixtisos, malaka yoki lavozimga oid ichki [illegible]at tartibiga buysungan holda bajarishni o‘z zimmasiga oladilar. Korxona, [illegible]a esa mehnat qonunlarida, jamoa shartnomasida va tariflarning o‘zaro bitimida [illegible]da tutilgan ish haqini mehnatkashlarga to‘lab turadi va mehnat sharoitini [illegible]inlab berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Xususiy tadbirkorlik bilan [illegible]g‘ullanayotgan fuqarolar bilan ham mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin. [illegible]ehnat shartnomasi fuqarolik huquqiy shartnomalaridan (ijara, jamoa pudrati, [illegible]aviy pudrat, shaxsiy pudrat, mualliflik shartnomasi mehnatning natijasiga qarab [illegible]aq to‘lashdan) farq qiladi. Davlatimiz har bir fuqaro mehnatiga uning miqdori va [illegible]sifiga belgilangan minimumdan past bo‘lmagan mehnatga qarab haq to‘lashni [illegible]minlab beradi. Mehnat shartnomasining qo‘shimcha shartlari korxona muassasa, [illegible]shkilot, firmaning imkoniyatiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Jumladan [illegible]o‘shimcha shartlar xodimga yotoqxonadan joy berilishi, ishga transport bilan [illegible]qatnash to‘g‘risida, bolalarni maktabgacha bolalar muassasasiga joylashtirish, [illegible]ishga qabul qilish vaqtida dastlabki sinov belgilash, yangi kasbga o‘rgatish [illegible]zimga boshqa biror ishda ishlashga ruxsat berish va hokazolar bo‘lishi mumkin. Mehnat shartnomasining qo‘shimcha shartlari qonunlarga xilof bo‘lmasligi lozim. Mehnat shartnomasi og‘zaki yoki yozma shaklda tuzilishi mumkin. U odatda fuqarolar va ma’muriyat o‘rtasida og‘zaki kelishuv tarzida tuziladi. Mehnat bitimi shartnoma turlaridan biri bo‘lib, u orqali muassasalar bilan ularning hisobida [illegible]rmaydigan xodim(lar) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar rasmiylashtiriladi. Xodim (ishchi) aniq bir ishni bajarishni zimmasiga oladi, muassasa esa ish haqini to‘lash

va shu ishni bajarish uchun sharoit yaratib berish majburiyatini olad
hollarda korxona hisobida turuvchi xodimlar bilan ham mehnat bitim
Bunda xodimlar bevosita o'z asosiy vazifalarini doirasiga kirmaydig
bajarish majburiyatini oladilar (ma'ruza o'qish, farroshlik). Mehnat bitim
haq to'lash korxonaning hisobdan tashqari (shtatsiz) xodimlar uchun
ish haqi fondi hisobiga amalga oshiriladi.

Mehnat bitimi ikki nusxada tuziladi. Bir nusxasi bajaruvchi (ishga
ikkinchisi esa hisob bo'limi yoki boshqa tarkibiy bo'linma hujjatlar
saqlanadi.

NIZOM

Nizom-ustav tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari, kichik yoki
korxona va shu kabilar tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni
qilishlari tartibini belgilaydigan huquqiy hujjatdir. Nizom turli tadbirlarga
ham tuzilishi mumkin. Nizom muassasalar tashkil topishi paytida
yuqori tashkilotlar farmoyishi bilan (yoki tegishli hokimiyat
tasdiqlanadi. Muvaqqat komissiyalar, guruhlar va shu kabilarning
maqomlari ham nizom bilan belgilanadi. Ustav muayyan munosabat
faoliyat yoki biror davlat organi, tashkilot, muassasaning tuzilishi,
yo'naltirib turadigan asosiy nizom va qoidalar majmuidir. Ustav biror
muassasa vazifalari va huquqiy holatini tavsiflaydigan me'yoriy ahamiyatga
Binobarin, ustav nizomga nisbatan keng tushunchadir. U ko'proq ma
tarmoq, sohalar, yirik muassasalar bo'yicha tuziladi. Chunonchi,
nashriyotlari bo'yicha namunaviy ustav qabul qilingan, shu asosda
nashriyot o'z nizomini qabul qiladi. Ustavning zaruriy qismlari o'xshash
Lekin ustavning mazmun qismida moliyaviy va moddiy bazalari, hisobot
taftish organlari hisoboti va shu kabilar ko'rsatiladi. Tarmoq (soha)ning
xususiyatlaridan kelib chiqib, uning ustavida qo'shimcha qismlar ham
mumkin.

YO'RIQNOMA

Yo'riqnoma qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tushuntirish
chiqariladigan huquqiy hujjatdir. Korxona, tashkilot, muassasaning
ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqa faoliyat tomonlari xususida
o'rnatish maqsadida davlat yoki jamoa boshqaruv organlari tomonidan
ularning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.
Yo'riqnomaning asosiy zaruriy qismlari:

2. Eng yuqorida tasdiqlash ustxati.
3. Hujjatning sarlavhasi, nomi.
4. Matn (kirish qismi, bo'limlari, kichik bo'limlari va h.k.).
5. Yo'riqnoma tuzuvchining lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasi
   uning imzosi.
6. Yo'riqnoma tuzilgan vaqt (sanasi) va tartib raqami, shartli raqami
   (indeksi).

Savollar va topshiriqlar:

1. Tashkiliy hujjatlarning turlarini sanab bering.
2. Shartnoma nima?
3. Mehnat shartnomasi qanday rasmiylashtiriladi?
4. Ustav va nizomning bir-biridan farqli jihatlarini sanab bering.
5. Yo'riqnima qanday hujjat va nima maqsadda tuziladi?

ISH YURITISHGA OID MATERIALLAR

17-topshiriq. To'liq shaxsiy moddiy javobgarlik haqidagi quyida berilgan matnini o'qing va shartnoma hujjatining zaruriy qismlari bo'yicha tahlil

SHARTNOMA

Toshkent zargarlik buyumlari zavodiga qarashli moddiy boyliklarning
ni ta'minlash maqsadida korxona nomidan ish ko'ruvchi zavod direktori
Azimovich Safarov (keyingi o'rinlarda "Ma'muriyat" deb ataladi) bir
va 6-ustaxona xodimi Obid Ikromovich Tohirov (keyingi o'rinlarda
" deb ataladi) ikkinchi tomon bo'lib, ushbu shartnomani quyidagilar haqida

1. Pul, xom ashyo, tayyor mahsulot va boshqa moddiy boyliklarni saqlash
bevosita aloqador bo'lgan lavozimni egalab turgan xodim o'ziga korxona
dan ishonib topshirilgan moddiy boyliklarning saqlanishi uchun to'liq
javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va shu munosabat bilan:

- unga saqlash yoki boshqa maqsadlarda topshirib qo'yilgan korxona moddiy
lariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va zararning oldini olish
larini ko'rish;
- unga ishonib topshirilgan moddiy boyliklar saqlanishi va butunligiga xavf
chi barcha holatlar haqida ma'muriyatga o'z vaqtida xabar berish;
- moddiy boyliklarning harakati va qolgan qismlarini hisobga olib borish va
langan tartibda pul-tovar hisobotlarini tuzish va taqdim etish;
- o'ziga topshirilgan moddiy boyliklarni yo'qlamadan o'tkazish
tarlash) da ishtirok majburiyatlarini oladi.

2. Ma'muriyat esa:

- xodimga mo''tadil ish olib borish uchun zarur sharoitlarni yaratib berish va
ishonib topshirilgan moddiy boyliklarning to'liq saqlanishini ta'minlash;
- xodimni korxonaga yetkazilgan zarar uchun ishchi va xizmatchilarning
javobgarligi haqidagi joriy qonunlar bilan, shuningdek, unga ishonib
shirilgan moddiy boyliklarni saqlash, qabul qilish, ishlov berish, tarqatish
ish), tashish yoki ishlab chiqarish jarayonida qo'llash bilan bog'liq amaldagi
riqnomalar, me'yornomalar va qoidalar bilan tanishtirish;
- moddiy boyliklarni belgilangan tartibda yo'qlamadan o'tkazish ishini
lga oshirish majburiyatlarini oladi.

3. Xodimning aybi bilan unga ishonib topshirilgan moddiy boyliklar saqlanishi ta'minlanmagan hollarda, korxonaga yetkazilgan zarar hajmini va uni undirib olish amaldagi qonunlarga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Agar ko'rilgan zararda xodimning aybi bo'lmasa, u moddiy javobgar hisoblanmaydi.

5. Ushbu shartnoma xodimga ishonib topshirilgan korxona moddiy boyliklari bilan ishlashdagi butun vaqt davomida o'z kuchini yo'qotmaydi.

6. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzildi, birinchi nusxasi – ma'muriyatda, ikkinchisi esa xodimda saqlanadi.

Shartnoma tuzuvchi tomonlarning manzillari:

Ma'muriyat :	Xodim:
700000, Toshkent shahri,	700071, Toshkent shahar,
Qatortol ko'chasi, 108-uy	Yangiobod ko'chasi, 48-uy
(imzo) F.A.Safarov	(imzo) O.I.Tohirov
2007-yil 23-mart	(muhr)

225-mashq. Quyida berilgan "Eng namunali talabalar turar joyi" uchun tanlovi nizomini o'qing va nizom hujjati qoidalari bilan solishtiring.

"Yosh kitobxon" Respublika tanlovi to'g'risida
"Yosh kitobxon" Respublika tanlovi
NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1.1. "Yosh kitobxon" tanlovi (keyingi o'rinlarda Tanlov deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3138-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilib, yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan respublikadagi eng yirik tadbir hisoblanadi.

1.2. Respublikada istiqomat qilayotgan millati va tilidan qat'iy nazar 14 yoshdan 31 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar va yoshlar tanlovda ishtirok etish huquqiga ega. Ishtirokchilar talabidan kelib chiqib, ularning tanlov jarayonida rus va qoraqalpoq tillaridan foydalanishiga ruxsat beriladi.

1.3. Tanlov ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va badiiy kitoblar hamda gazeta va jurnallar asosida tashkil etiladi.

1.4. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Matbuot va axborot agentligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi hamda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi vakillaridan tuzilgan Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Respublika tashkiliy qo'mitasi tanlov nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vakolatiga ega.

1.5.Tanlovning Respublika bosqichi "Yoshlar" telekanali orqali efirga uzatiladi.

II. Tanlovdan ko'zlangan maqsad va vazifalar

2.1. Tanlovni tashkil etishdan asosiy maqsad – bolalar va yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularning intellektual salohiyati va ijodiy saviyasini yuksaltirishdan iborat.

2.2. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko'zda tutiladi:
- kitobxonlikning barcha qatlamlarini kitob o'qishga da'vat etish hamda kitob o'qishga bo'lgan qiziqish va intilishlarini qo'llab-quvvatlash, joylarda adabiy muhit shakllanishi, kitobxonlik to'garaklari va klublar vujudga kelishiga erishish;
- kitobxonlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish orqali ularning Vatanimiz tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-malakalarini shakllantirish;
- kitobxonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqali ularning turli xil illatlarga, jinoyatchilik va zararli oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish;
- milliy va jahon adabiyoti durdonalari, adiblar ijodini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish, kelajakda yoshlar tomonidan badiiy yetuk, yuqori saviyali asarlar yaratishga turtki bo'lish;
- iqtidor, iste'dodli va iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish, ularning o'z aql-zakovatlarini namoyon etishlariga ko'maklashish.

2.3. Tanlov quyidagi ikkita yosh toifasi bo'yicha alohida-alohida tartibda o'tkaziladi:
- 14 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar;
- 20-31 yoshgacha bo'lgan yoshlar.

2.4. Tanlov to'rt bosqichda tashkil etiladi.

2.5. Birinchi bosqich tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlardan arizalarni qabul qilish va ularni ro'yxatga olish bosqichi hisoblanib, har yili 20 oktyabrdan 1 noyabrga qadar davom etadi.

2.6. Tanlov O'zbekiston yoshlar ittifoqining tuman (shahar) kengashlari tomonidan o'tkazilinadi.

2.7. Ikkinchi bosqich tanlovning mahalliy bosqichi bo'lib, har yili noyabr oyining ikkinchi o'n kunligida barcha tuman (shahar)lar miqyosida o'tkaziladi.

Har bir yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kirigan ishtirokchilar (jami 2 nafar) hududiy bosqichga yo'llanma oladi.

2.8. Uchinchi bosqich tanlovning hududiy bosqichi bo'lib, har yili noyabr oyining uchinchi o'n kunligida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkaziladi.

Har bir yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar Respublika bosqichiga yo'llanma oladi.

2.9. To'rtinchi bosqich tanlovning Respublika bosqichi bo'lib, har yili dekabr oyi davomida "Yoshlar" telekanali orqali teletanlov shaklida o'tkaziladi.

2.7. Tanlov shartlari

1-SHART. "Ijtimoiy-siyosiy soha bilimdoni" sharti.

Ushbu shartda Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan gazeta va jurnallarning so'nggi 3 oylikda chiqqan sonlaridagi materiallar asosida

ishtirokchilarga mamlakatimizda kechayotgan o‘zgarishlar, islohotlar bilan
bittadan mavzu beriladi va sharhlab berish so‘raladi. Ishtirokchilar
nomini bilet tortish orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun 3
berish uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 10 ball
beriladi.

2-SHART. “Ma’naviy-ma’rifiy kitoblar bilimdoni” sharti

Ushbu shartda Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilgan
ma’rifiy, tarixiy sohaga oid kitoblarning mazmun-mohiyati, g‘oyasi va
to‘g‘risida ishtirokchilar sharhlab berishi so‘raladi. Sharhlash
ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan
savollar berilishi mumkin. Ishtirokchilar kitob nomini bilet tortish
(biletda yozilgan kitob ishtirokchiga taqdim etiladi), tayyorgarlik ko‘rish
daqiqa, javob berish uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart
ballgacha baho beriladi.

3-SHART. “Badiiy kitoblar bilimdoni” sharti.

Ushbu shartda Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilgan
adabiyotlarning mazmun-mohiyati, g‘oyasi va ahamiyati to‘g‘risida
sharhlab berishi so‘raladi. Sharhlash jarayonida ishtirokchi bilimini
maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha savollar berilishi
Ishtirokchilar kitob nomini bilet tortish orqali tanlaydi (biletda yozilgan
ishtirokchiga taqdim etiladi), tayyorgarlik ko‘rish uchun 3 daqiqa,
uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 10 ballgacha baho

4-SHART. “Men sevgan adib” sharti.

Ushbu shartda ishtirokchilar o‘zlari tanlagan bir nafar adibning hayoti,
ijodi haqida taqdimot qiladi. Taqdimot davomida ishtirokchi bilimini
maqsadida hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha savollar berilishi
Taqdimot uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 10 ballgacha
beriladi.

5-SHART. “She’riyat” sharti.

Ushbu shartda ishtirokchilar berilgan she’rni ifodali o‘qishi, uning
mohiyati, g‘oyasi va ahamiyati to‘g‘risida sharhlab berishi so‘raladi.
jarayonida ishtirokchi bilimini tekshirish maqsadida hakamlar hay’ati
qo‘shimcha savollar berilishi mumkin. Ishtirokchilar she’r nomini bilet
orqali tanlaydi, tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 daqiqa vaqt, javob berish
daqiqa vaqt belgilanadi. Mazkur shart uchun 10 ballgacha baho beriladi.

3.8. Tanlovning Respublika bosqichida yuqoridagi shartlar mavzusi
holda, shartlar mazmuni, tartibi va baholash mezonlari teletanlovga
shaklda joriy etiladi. Respublika bosqichida tanlov shartlaridagi
bo‘yicha ishtirokchilar bellashuvdan kamida 15 kun oldin xabardor qilinadi.

3.9. Tanlovning har bir bosqichida shoir va yozuvchilar, o‘qituvchilar,
va boshqa mutaxassislardan iborat hakamlar hay’atlari tuziladi. Hakamlar
ishtirokchilarni baholashda ularning belgilangan kitoblar, gazeta va
o‘qiganligini tekshiradi hamda mohiyatini to‘g‘ri tushungani, chuqur
ifoda etib bera olish qobiliyatiga qarab baholaydi.

o‘tadigan kundan kamida bir hafta oldin belgilangan kitoblar, gazeta
ro‘yxati e’lon qilinadi hamda kitoblar ro‘yxatini tuzishda
larning yosh toifasi inobatga olinadi. Tanlovning har bir bosqichi uchun
ro‘yxati alohida-alohida e’lon qilinadi. Bunda har bosqich uchun:
turi 5 ta;
turi 10 ta;
ma’rifiy kitoblar turi 10 ta;
kitoblar turi 20 tadan oshmasligi belgilanadi. Respublika bosqichida tanlov
dagi o‘zgarishlardan kelib chiqib, yuqoridagi miqdorlarga o‘zgartirishlar
mumkin.

IV. G’oliblarni taqdirlash

“Yoshlar poezdi” targ’ibotchilarini shakllantirish:

Tanlovning quyi bosqichlarida g‘oliblar mahalliy va hududiy hokimliklar
dan esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Tanlovning Respublika bosqichi g‘oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadi:
yosh toifasida 1-o‘rinni egallagan ishtirokchilar “Prezident sovg‘asi”
ARK” avtomashinasi bilan;
yosh toifasida 2-o‘rinni egallagan ishtirokchilar kompyuter jamlanmasi
dok) va printer (1x3) bilan;
yosh toifasida 3-o‘rinni egallagan ishtirokchilar kitoblar to‘plami (200
bilan taqdirlanadi.

226-mashq. Quyidagi matnni o‘qing va yo‘riqnomaning o‘ziga xos
yatlariga e’tibor bering. Majhul nisbatdagi fe’llarni daftaringizga ko‘chiring.

kiston Respublikasi
kent viloyati
tumani

Xo‘jalik boshqaruvining
2007 yil 15.03.dagi 2-raqamli
bayonnomasi bilan tasdiqlangan

AVTOMOBILLARI ISHLARINI
OB-KITOB QILISH TARTIBOTI
QIDA

Guliston qishlog‘i
xo‘jaligi
2007.11.03. № 7

LAVOZIM YO‘RIQNOMASI

Xo‘jalik yuk tashuvchi mashinalaridan to‘liq va unumli foydalanish uchun
vjud qoidaga muvofiq yuk avtomobillari ishlarini hisob-kitob qilishning
yidagi tartiboti o‘rnatilsin:

Dispetcher yuk mashinalarining yo‘l qog‘ozini ish kunining boshlanishi oldidan
bir avtomashinaga alohida yozib beradi (uzoq xizmat safaridagilar uchun

istisno qilinadi) va uni har bir haydovchiga tilxat bilan (imzo chektirib) topshiriladi. Yo'l qog'ozini bir yuk avtomobilidan ikkinchisiga berishga ruxsat etilmaydi.

2. Yo'l qog'ozining barcha zaruriy qismlari to'g'ri va aniq to'ldirilishi kerak. Tuzatilgan yoki yozuvlari o'chirilgan yo'l qog'ozlari tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilinmaydi.

3. Yonilg'i va moylar xo'jalik hisobchilari oy boshida haydovchiga avtomobilga normalangan miqdor ko'rsatkichiga muvofiq tilxat bilan beriladi.

4. Ish kuni tugagandan so'ng, yo'l qog'ozi dispetcherga qaytarilishi kerak. Shu vaqtda idishda qolgan yonilg'i miqdori o'lchanadi va bu o'lchov yo'l qog'ozining tegishli joyiga yozib qo'yiladi.

5. Har bir avtomobil bo'yicha yuk avtomashinalari ishlari ko'rsatkichi kunning tartibda yuk avtomobillari ishlarining hisob-kitobi qaydnomasida yozib boradi, shu asosda dispetcher har bir oy uchun avtomobillar ishlari hisob-kitobining qo'shma qaydnomasini tuzadi.

6. Ayrim haydovchilarning xo'jalik hisobidagi ba'zi yumushlarni bajarishini muntazam nazorat qilib borish uchun avtokorxonada "Mashinalardan foydalanish daftari" joriy qilinadi.

7. Oy tugagandan so'ng, keyingi oyning boshidan 5 kun ichida avtokorxona bo'yicha qo'shma qaydnoma yo'l qog'ozlari va har bir mashina uchun yozilgan qaydnomalar bilan xo'jalik buxgalteriyasiga topshiriladi.

Xo'jalik raisi (imzo) B.R.Hakimov

Bosh hisobchi (imzo) L.S.Qodirov

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

227-mashq. Ish yuritish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi lug'atni daftaringizga ko'chiring va davom ettiring.

mehnat daftarchasi	трудовая книжка
mehnat intizomi	трудовая дисциплина
mehnat muhofazasi	охрана труда
mehnat ta'tili	трудовой отпуск
mehnat faoliyati	трудовая деятельность
mehnat shartnomasi	трудовой договор
mehnat qonunchiligi	законодательство о труде
mehnat haqi	оплата труда
nizom	положение

shartnoma	договор, соглашение
sotish-sotdi shartnomasi	договор купли–продажи
shartnoma tuzmoq	заключить договор
shartnomani bekor qilmoq	расторгнуть договор
yo'riqnoma	инструкция
yo'riq xati	инструктивное письмо

228-mashq. Quyida berilgan nizomning zaruriy qismlarini daftaringizga ko'chiring va ko'rik-tanlovlar nizomi bilan solishtiring.

1. Vazifalari nizom bilan belgilanayotgan muassasa (tarkibiy qism) nomi.
2. Hujjat turning nomi (Nizom).
3. Mazmuni (matni): muassasa tuzilishining maqsad va asoslari; asosiy vazifalari; muassasa tuzilishi, huquqi, ishni tashkil qilish tartibi.
4. Muassasa rahbari imzosi.
5. Sana va joy.
6. Tasdiqlash ustxati (yuqori qismida o'ng burchakda joylashadi).

229-mashq. Yuqoridagilardan foydalangan holda mehnat shartnomasi namunasini tuzing. Mehnat shartnomasidagi tayanch so'zlarni ajratib yozing.

230-mashq. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalangan holda oliy ta'lim muassasasi Nizomining tuzilishini yozing.

38-DARS

MATN: FARMOYISH HUJJATLARI: BUYRUQ, FARMOYISH

Farmoyish hujjatlari asosan tashkilot rahbarining buyruq, ko'rsatma, farmoyishlari asosida yuzaga keladi.

Buyruq - davlat boshqaruv organi rahbarlarining yakka hokimligiga asoslangan huquqiy hujjat, muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llanadi. Mohiyat-e'tibor bilan buyruqlar ikkiga bo'linadi: asosiy faoliyatga oid va kadrlar shaxsiy tarkibiga oid. Ular ketma-ket tartibda alohida raqamlanadi va ayrim saqlanadi.

Asosiy faoliyatga oid buyruqlar doimiy, kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar esa 40 yilgacha muddatda saqlanadi. (shuning uchun ularga alohida-alohida tartib raqamlari qo'yiladi).

Asosiy faoliyatga oid buyruqlar ishini tashkil qilish, muassasa yoki uning bo'limlari faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladi. Ularda, odatda, yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rsatmaviy hujjatlar xodimlarga yetkaziladi, bularning asosi yuzasidan aniq tadbir-choralar belgilanadi, ma'sul shaxslar va bajarish muddati tayinlanadi.

Ichki mehnat tartibi qoidalari, mukofotlash nizomi va shu kabilarni tasdiqlash bilan bog'liq me'yoriy buyruqlar ham asosiy faoliyatga oid buyruqlarga

kiradi. Bunday buyruqlar umumiy tarzda bo‘lib, muayyan bir shaxsga emas, balki butun jamoaga qaratiladi.

Buyruqning asosiy zaruriy qismlari:

1. Gerb, muassasa alomati, mukofoti (bosma ish qog‘ozi qismlari)
2. Vazirlik, boshqarma nomi.
3. Muassasa xos raqami (KTUT bo‘yicha)
4. Hujjat shaklining xos raqami (BHUT bo‘yicha)
5. Muassasa nomi
6. Hujjatning nomi (Buyruq)
7. Sanasi
8. Raqami (JN")
9. Buyruq chiqqan joy nomi
lO. Sarlavhasi (mazmunidan kelib chiqib nomlanadi)
11. Buyruq matni (basharti ilovalari bo‘lsa qayd qilinadi)
12. Rahbar yoki o‘rinbosar imzosi

Lozim ko‘rilganda buyruq loyihasini tayyorlagan yoki u bilan tanishgan kelingan (imzo chekkan) bo‘lim yoki boshqa mansabdor shaxs familiyasi buyruq so‘ngida ko‘rsatiladi.

Buyruqda adliya maslahatchisi imzosi ham bo‘lishi kerak. Adliya maslahatchisi buyruqni ko‘rishda quyidagilarga e’tibor beradi: masalani bilan rasmiylashtirish maqsadga qanchalik to‘g‘ri keladi; buyruq loyihasi qonunlarga, hukumat qarorlariga qanchalik muvofiq keladi; mazkur ilgari berilgan buyruqlari bilan ziddiyat yo‘qmi yoki ularning qisman takrori bo qolmayaptimi. Buyruqning asosiy matni asoslovchi (kirish) va farmoish qismlaridan tarkib topadi. Asoslovchi (kirish) qismida buyruqdan maqsad, sharoitlar, sabablar ko‘rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruqqa havola qilinadi (nomi, raqami, sanasi yoziladi).

Ayrim hollarda buyruqqa asos bo‘lgan hujjat uning farmoish qismi tegishli bandida ham ko‘rsatiladi. Ba’zi buyruqlarni asoslashga hojat bo‘lmasligi mumkin. bunday hollarda ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri farmoish qismi bilan ham berilaveradi.

Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan, bosh harflar bilan yoziladigan “BUYURAMAN” so‘zi bilan boshlanadi. Shu so‘zdan so‘ng ikki nuqta qo‘yilib, yangi satrdan farmoishlar beriladi. Zaruriyatga qarab farmoishlar bandlarga bo‘linib, arabcha tartib raqamlar bilan belgilanadi. Raqmdan so‘ng nuqta qo‘yilib, so‘z bosh harfdan boshlanadi.

Farmoyishlarda, odatda, kim qanday vazifani, qaysi muddatda bajarishi ko‘rsatiladi. Harakat majhul fe’l shaklida ifodalanadi (“Amalga oshirilsin”, “Ta’minlansin”, “Yuklatilsin”, “Hisoblansin” va h.k). Bajaruvchilar-muassasa yoki uning tarkibiy qismlari (bo‘limlari), mansabdor shaxslar (lavozimlari ko‘rsatilgan holda) ko‘pincha jo‘nalish kelishigida qayd qilinadi.

Buyruqda ishning bajarilish muddati mazmunidan kelib chiqib umumiy tarzda yoki har bir farmoyishda aniq ko‘rsatilishi mumkin. Buyruq imzo chekilgandan so‘ng kuchga kiradi. Lekin ayrim bandlarning farmoyishida unga tegishli kuchga kirish muddati aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin.

Buyruq farmoyishi qismining oxirida, odatda, umuman mazkur buyruqni bajarilish kimga yuklatilganligi ham qayd qilib qo‘yiladi: “Buyruq ijrosini nazorat qilish .. .ga yuklatiladi” (lavozimi va familiyasi to‘liq yoziladi).

Ba’zi buyruqlarda shu buyruq munosabati bilan ilgari joriy buyruq yoki uning bir qismi hujjat bekor qilinganligi ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Ko‘p korxonalarda kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar maxsus ish qog‘ozlarida yoziladi.

Kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar maxsus ish qog‘ozlari nazarda tutilgan taqdirda oddiy buyruq qog‘oziga ham yoziladi. U holda buyruq boshiga “Kadrlar shaxsiy tarkibiga oid” deb yozib qo‘yish kerak. Buyruq sarlavhalari: “Ishga qabul qilish haqida buyruq”, “Boshqa ishga o‘tkazish haqida buyruq”, “Ishdan bo‘shatish haqida buyruq”, “Rag‘batlantirish haqida buyruq” va hokazo.

Bunday buyruqlarda kirish qismi bo‘lmasligi mumkin. Farmoyish qismida, odatda, bandlar, paragraflar bo‘ladi. Buyruq qismidagi “QABUL QILINSIN”, “TAYINLANSIN”, “O‘TKAZILSIN”, “TASHAKKUR BILDIRILSIN”, “BO‘SHATILSIN” kabi fe’llar bosh harflar bilan yoziladi. Familiya ham bosh harflar bilan, ismi va ota ismi esa matndagi oddiy harflar bilan yoziladi (Sobit Karimovich Karimov).

FARMOYISH

Muassasa ma’muriyati (direktor, uning o‘rinbosarlari, bosh muhandis, uning o‘rinbosarlari), shuningdek, bo‘limlar rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjat. Odatda, farmoyishlarda harakat muddati belgilangan bo‘lib, uning kuchi bo‘limlarning tor doirasida, ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo‘ladi. Farmoyishning matni xuddi buyruqdagi kabi zaruriy qismlardan tarkib topadi, faqat uning asos (kirish) qismida “BUYURAMAN” so‘zi o‘rnida “TAVSIYA QILAMAN”, “RUXSAT BERAMAN” kabi iboralar ishlatiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Asosiy faoliyatga oid va kadrlar shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar haqida ma’lumot bering.
2. Buyruqning asosiy zaruriy qismlari qismlari nimalardan iborat?
3. Buyruqning farmoyish qismi haqida gapiring.
4. Ko‘rsatma haqida ma’lumot bering.

ISH YURITISHGA OID MATERIALLAR

231-mashq. Quyidagi jadvaldan foydalanib buyruq namunasini yozing.

Gerb, muassasaning ramziy belgisi

Muassasa sos [illegible]
Hujjat shakl[illegible] raqami

Vazirlik nomi
Muassasa nomi

BUYRUQ

Sana № _____
joyi
sarlavhasi (nima haqidaligi)

_____
_____
_____
_____
_____

BUYURAMAN:

1._____
2._____
3._____
4.Buyruq ijrosini nazorat qilish..... yuklatilsin.

(lavozimi va familiyasi to'liq yoziladi)

Rahbar *(imzo)* *i.o.familiyasi*

232-mashq. Quyida berilgan buyruqdan ko'chirma namunasini o'qing va siz ham biror masalada ko'chirma tayyorlang.

Yangiyo'l "Lazzat" birlashmasi

2006-YIL YAKUNI BO'YICHA BIRLASHMA ISHCHILARINI MUKOFOTLASH HAQIDA
2007.05.02. № 22
Yangiyo'l sh.

BUYRUQDAN KO'CHIRMA

2006-yilda birlashma ishchilari yillik rejalarini hamma ko'rsatkichlar bo'yicha bajardilar. 80 million so'mdan ziyod foyda olindi. Qiyom sexidan

[illegible] (boshlig'i D.A.Rahimova) hamma sexlar o'z rejalarini bajardilar. Yil [illegible] bo'yicha, ayniqsa, R.Hamroev, S.Volkova, M.Rizaev, K.Siddiqov kabi [illegible] mehnatda alohida o'rnak ko'rsatdilar.

[illegible] "[illegible]oziqovqatsanoat" davlat aksiyadorlik konsernining 2006.08.02.dagi [illegible] buyrug'i bilan "Lazzat" birlashmasining ishchilarini yil yakuni [illegible] mukofotlashga ruxsat berildi. Birlashma mehnat jamoasi kengashi va [illegible] uyushmasi qo'mitasining qo'shma yig'ilishi (2006.10.02, 3-bayonnoma) [illegible] asosan

BUYURAMAN:

1. O'z vazifasiga sovuqqonlik bilan qaraganligi uchun "Lazzat" birlashmasi [illegible] yil yakunlari bo'yicha mukofotlash nizomi"ning 32-bandiga muvofiq [illegible] boshlig'i D.A.Rahimova yil yakuni bo'yicha mukofotdan 100 % mahrum [illegible]

Direktor (imzo) B.R.Hakimov
Asliga to'g'ri : (imzo) K.L.Hotamova

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

233-mashq. Quyidagi lug'atni daftaringizga ko'chiring va davom [illegible]

namunaviy hujjat	типовой документ
notarial idora	нотариальная контора
notarial tasdiq	нотариальное удостовер.
nusxa	копия, экземпляр
nusxa olish	копировать
qaror chiqarmoq	вынести решение
qisqarish	сокращение
qonunga asosan	на законном основание
qonuniy	законний
qonunsiz	незаконный
qog'ozbozlik	бумажная волокита
rasmiylashtirish	оформление
so'zga chiqish	выступление

234-mashq. Quyida berilgan buyruqni o'qing va buyruq yozish uchun asos bo'lgan hujjatlarni aniqlang.

Mehnat ta'tili berish haqida buyruq namunasi

Namangan shoyi ishlab
chiqarish birlashmasi

KADRLAR SHAXSIY TARKIBIGA OID

23.03.2007 № 108
Namangan sh.

BUYRUQ

Mehnat ta'tili berish haqida

Katta muhandis Bahriniso Karimovna G'ULOMOVAga 2007 [illegible] ish kunidan iborat navbatdagi mehnat ta'tili BERILSIN.

Asos : Tasdiqlangan mehnat ta'tili jadvali va B.K.G'ulomova arizasi

Bosh direktor (imzo) L.K.To'xtasinov
Imzolar :
Kadrlar bo'limi
Sex boshlig'i
Buxgalteriya

235-mashq. Quyidagi birikmalarni daftaringizga ko'chiring va birikmalardan foydalanib buyruq tayyorlash uchun asos bo'ladigan hujjatni shakllantiring.

Boshqa shaharga ko'chishimiz munosabati bilan, mehnat ta'tili berishingizni so'rayman, ilova qilindi, ilova qilingan hujjatlar asosida, kasalligi tufayli, medik qiyinchiliklar sababli, ozod yetishingizni so'rayman, o'zim haqimda quyidagilarni ma'lum qilaman.

39-DARS

MATN: **MA'LUMOT-AXBOROT HUJJATLARI: TARJIMAYI HOL, BILDIRGI, TAVSIFNOMA**

Ma'lumot-axborot hujjatlari hujjatlarning katta guruhini tashkil etadi, ular ish yuritish jarayonida ayniqsa ko'p ishlatiladi. Bu guruh ariza, bayonnoma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimayi hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot kabi hujjatlarni o'z ichiga oladi.

TARJIMAYI HOL

Tarjimayi hol ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuvdir. Tarjimayi hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsa-da, biroq tarjimayi holda ayrim qismlarning bo'lishi shart. Tarjimayi holning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tarjimayi hol).
2. Matn:

familiyasi, ismi va otasining ismi;
yil, kun, oy va tug'ilgan joyi;
ijtimoiy kelib chiqishi;
haqida qisqacha ma'lumot (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish
lumoti (qayerda, qanday o'quv yurtini tugatganligi va ma'lumotiga ko'ra
sialigi);
faoliyatining turlari;
gi ish joyi va lavozimi;
ot va rag'batlantirishlar;
ishlarida ishtiroki;
y ahvoli va oila a'zolari;
ort ma'lumotlari;
joyi (uy manzili), telefoni.

Tarjimayi hol oddiy qog'ozga, ayrim hollarda, ya'ni ishga, o'qishga kirishda bosma ish qog'ozlariga qo'lda yoziladi. Matnni bayon qilish shakli hikoya bo'lib, birinchi shaxs tilidan yoziladi. Barcha ma'lumotlar davriylik ologiya) asosida, aniq sanalar bilan (iloji boricha yili, oyi, kuni ko'rsatilgan beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi. Tarjimai hol day tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo'li, faoliyati da muayyan tasavvurga ega bo'lsin.

BILDIRISHNOMA

Bildirishnoma xodimning ma'muriyatga, korxona, tashkilot, muassasa bariga biror-bir voqea-hodisa (ijobiy yoki salbiy), ishda yuz bergan uzilishlar, qo'yilgan biror bir kamchilik, nuqson, shuningdek mehnat ta'tilidan, adorlik ta'tilidan, betoblikdan so'ng vazifasini bajarish uchun ishga ganligini ma'lum qilish to'g'risida taqdim etadigan yozma axboroti. ingdek, bildirishnomalar quyi bo'g'in mutasaddilari tomonidan o'qish, ish, ijodiy va jamoat ishlaridagi faolligi uchun talaba, ishchi, xizmatchi imlarni moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirish haqida korxona rahbari nomiga ilishi ham mumkin.

Bildirishnomalar yuqori idora, rahbarlik qiluvchi tashkilotlar, mansabdor shaxslarga ham yo'llanishi mumkin.

Shunga ko'ra bildirishnomalar tashqi va ichki bildirishnomalar kabi turlarga bo'linadi. Korxonadan tashqariga yo'llanadigan bildirishnomalar tashqi bildirishnomalar sanalsa, korxona doirasida qo'llanadigan bildirishnomalar uning ichki turiga mansub bo'ladi. Ish qog'ozlari yuritish jarayonida ko'proq ichki bildirishnomalardan foydalaniladi. Ichki bildirishnomalar odatda qo'lda yoziladi. Ehtiyoj va imkoniyat bo'lganda yoki fakultet, bo'lim rahbariyati nomidan boshqaruv rahbariyatiga yuborilayotganda kompyuterda yozilishi ham mumkin. Bunday bildirishnomalarda yaxshi xizmatlari uchun xodimlarning nomzodi

moddiy, ma'naviy rag'batlantirishga tavsiya etilsa, yol qo'yilgan nuqsonlar va uni yozishga sabab bo'lgan voqea, holat, xatti-harakat bayon etilib, shu munosabat hamda takliflar aks ettiriladi.

Ichki bildirishnomalarining zaruriy qismlari:

– hujjat taqdim etilayotgan tashkilot, korxona, muassasa nomi, rahbarining lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;

– hujjat yozayotgan kishining ish joyi, lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;

– hujjat nomi – bildirishnoma;

– matn (unda ma'lum qilinayotgan voqea-hodisa, yo'l qo'yilgan kamchilik, nuqson, erishilgan yutuqlar, unga munosabat hamda takliflar aks etadi);

– ilovalar ro'yxati (kasallik varaqasi, ma'lumotnoma, tushuntirish xati va boshqalar);

– bildirishnoma yozayotgan shaxsning, familiyasi, ismi, imzosi va yozilgan sana.

TAVSIFNOMA

Tavsifnoma ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjatdir. Tavsifnoma muassasa ma'muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo'lsa) tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar uchun (o'quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda yoki shahodatlantirish va boshqa hollarda) beriladi. Tavsifnomada xodimning jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va axloqiy sifatlari ham ko'rsatib o'tiladi.

Tavsifnomaning asosiy zaruriy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tavsiflanayotgan shaxs haqida asosiy ma'lumotlar:
a) ismi, otasining ismi va familiyasi;
b) tug'ilgan yili;
v) millati;
g) partiyaviyligi;
d) ma'lumoti;
e) lavozimi;
yo) ilmiy darajasi va unvoni.
2. Hujjat nomi (Tavsifnoma).
3. Matn.
4. Imzolar.
5. Sana.
6. Muhr.

Tavsifnoma matnini o'zaro mantiqan bog'langan uch tarkibiy qismga ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi qismda shaxsning mehnat faoliyati, ya'ni mutaxassisligi, aynan shu korxona, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatlarda buyon ishlayotganligi, xizmat vazifasidagi o'zgarishlar va boshqalar haqida ma'lumot beriladi. Ikkinchi qismda xodimning shaxsiy tavsifi, ya'ni ishga munosabati, mutaxassislik bo'yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik

qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, hatto ba'zida uning jamoa a'zolariga munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo'lganligi va shu kabi asosiy rag'batlantirishlari qayd etiladi. Xolis bo'lish uchun kamchiligi ham ko'rsatilib, istak bildiriladi. Uchinchi qismda esa yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun yozilayotganligi ko'rsatiladi. Tavsifnoma matni uchinchi shaxs tilidan bayon etiladi. Xodimni tavsiflashda "halol", "topshiriqlarni vaqtida bajaradigan", "xushmuomalasevar", "talabchan", "tashabbuskor", "tezkor", "prinsipial", "intizomli" kabi sifatlardan foydalaniladi. Agar tavsifnoma jamoat tashkilotlari yig'ilishida tasdiqlangan bo'lsa shu yig'ilish bayonnomasi raqami va sanasi havola bo'ladi. Unga ko'ra tavsifnomaga ikki shaxs: muassasa (yoki bo'linma) boshlig'i va kasaba uyushmasi tashkilotining raisi imzo chekadi va ular imzosi yumaloq muhr bilan tasdiqlanadi. Tavsifnoma xodimning qo'liga topshiriladi yoki uni shaxsan guvohlar qilgan holda, tavsifnomani talab qilgan muassasaga jo'natiladi. Tavsifnomalarning "ishlab chiqarish tavsifnomasi", "tavsifiy tavsiyanoma", "jamoat tavsifnomasi" kabi turlari mavjud bo'lib, ular ayrim xususiyatlari jihatidan bir-biridan farqlanadi.

TAVSIYANOMA

Tavsiyanoma biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsif etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjatdir. U ma'muriyat yoki alohida shaxs tomonidan berilishi mumkin. Tavsiyanoma matnida tavsiya etilayotgan shaxsning xususiyatlari – mutaxassis sifatida malakasi, oilaviy, ijtimoiy jihatlari va faoliyatiga baho beriladi, u tavsiya etilayotgan lavozim yoki tashkilotga a'zo bo'lishga munosib ekanligi yuzasidan ishonch bildiriladi. Tavsiyanoma ba'zi xususiyatlariga ko'ra tavsifnomaga o'xshaydi, shu sababli farqining ko'pchiligi tavsifiy tavsiyanoma shaklida bo'ladi. Ular orasidagi asosiy farq shundaki, tavsifnomalarda shaxsning barcha ijobiy, salbiy xususiyatlari qayd etiladi. Tavsiyanomalarda esa uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajara olishiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi. Turli mukofotlarga taqdim etish – taqdimnoma ham tavsiyanoma shaklida bo'ladi.

Tavsiyanomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tavsiyanoma).
2. Matn.
3. Tavsiyanoma beruvchi shaxsning lavozimi, ismi, otasining ismi, familiyasi.
4. Imzo.
5. Sana.

Savol va topshiriqlar:

1. Ma'lumot-axborot hujjatlarini sanab bering.
2. Tarjimayi hol qanday hujjat? Ta'rifini ayting.
3. Tarjimayi holning zaruriy qismlarini sanab bering.
4. Bildirishnoma va uning turlari haqida gapirib bering.

5. Tavsifnomaga kimlar imzo chekadi?
6. Tavsifnoma qanday yoziladi?
7. Tavsifnomaning tuzilishi haqida ma'lumot bering.

ISH YURITISHGA OID MATERIALLAR

236-mashq. Quyidagi shakldan foydalanib o'z tarjimayi hol[ingizni] yozing.

TARJIMAYI HOL

Men, *(familiyasi, ismi, otasining ismi), (tug'ilgan sanasi, [joyi])* _____ *oilasida tug'ildim.*

(Oila a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, ish (o'qish) [joyi] va lavozimi).

(O'zining o'qish, mehnat va jamoatchilik faoliyati uchun [olgan] mukofotlari).

Bo'ydoqman (turmushga chiqmaganman, ta farzandim bor)
Mening turar joyim:

Sana (imzo) ismi, familiyasi

237-mashq. Tavsifnomaga oid quyidagi so'z va so'z birikmalarini daftaringizga ko'chirib oling. Ular ishtirokida do'stingizning faoliyatiga [tavsif] bering. Namunadagidek yozing.

I. Ishga munosabatini ifodalovchi sifatlar: *vijdonli, mehnatsevar, ishni o'z vaqtida bajaradigan, tashkilotchi, tashabbuskor, ongli, siyosiy yetuk, o'zga [fikr]ni o'rtoqlariga talabchan.*

II. Insoniy fazilatlarini ifodalovchi sifatlar: *halol, sofdil, xushmuomala, e'tiborli, kamtar, samimiy, mehribon, andishali, olijanob, g'amxo'r, to'g'ri so'z* va h.k.

III. Salbiy baholar: *qo'pol, dangasa, yolg'onchi, jamoat ishlarida [qatnashmaydigan], kishilarga aralashmaydi.*

Namuna: *U mehnatsevar, o'z kasbini sevadi.*

58-topshiriq. Tavsifnoma va tavsiyanoma hujjatlarining zaruriy qismlarini ayting va farqlang.

Tavsiyanoma

Men 1-son akademik litseyning 2-bosqich guruhi rahbari Feruza Bo'riyeva, guruhning talabasi Karim Salimovni 1-bosqich talabaligidan bilaman. Karim Salimov o'zining namunali intizomi va a'lo baholari bilan litsey jamoat ishida qatnashishi bilan o'z guruhida va litseyda katta obro'

[...]i shu sababli men Karim Salimovni litsey Yoshlar ittifoqi tashkilotiga [...]ga tavsiya etaman.

(imzo) Feruza Bo'riyeva

[...] yil 5-yanvar

IMLO SAVODXONLIGI VA SO'Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

238-mashq. Quyida berilgan lug'atni daftaringizga ko'chiring va siz [...]davom ettiring.

tavsifnoma	характеристика
tavsiyanoma	рекомендация
tavsiya qilmoq	рекомендовать
tayinlash	назначение
taklif	приглашение
taklifnoma	пригласительный билет
talabnoma	требование
tarjimayi hol	автобиография
tasdiqlamoq	заверить, утвердить
tasdiqlangan	заверенная

239-mashq. Berilgan tarjimayi hol namunasini o'qing va raqamlar bilan [...]gan so'zlarning imlosini eslab qoling.

TARJIMAYI HOL

Men, Salimov Karim Olimovich, 1955-yil 15-sentabrda Toshkent shahrida [...]atchi oilasida tug'ildim. Otam, Salimov Olim Oripovich, Toshkent [...]agogika kollejida o'qituvchi, onam, Rahimova Gulnora Azimovna, 122 -bolalar [...]g'chasida bosh tarbiyachi bo'lib ishlaydilar.

1962-yildan 1972-yilgacha Toshkent shahridagi 1-o'rta maktabda o'qidim. [...]2-yilda Toshkent Politexnika institutining qurilish fakultetiga o'qishga kirdim. [...]3-1975-yillarda armiya safida harbiy xizmatni o'tab qaytgach, o'qishni davom [...]ndim va 1979-yilda shu institutni imtiyozli diplom bilan tugatib, quruvchi [...]handis mutaxassisligiga ega bo'ldim. Yo'llanma bilan Toshkentdagi 166-[...]rilish trestining 94-mexanizatsiyalashgan ko'chma korxonasiga ishga [...]borildim. Dastlab muhandis lavozimida, 1984 yildan buyon bosh muhandis [...]vozimida ishlayapman.

1986-yilda rejadagi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarganimiz va erishilgan [...]natijalar uchun respublika Qurilish vazirligining faxriy yorlig'i bilan taqdirlandim.

Bir necha jamoat ishlarida ham qatnashaman, jumladan, 166-qurilish tresti [...]saba qo'mitasi byurosining a'zosiman.

1995-yildan XDP a'zosiman.

Uylanganman. Xotinim, Rasulova Muhabbat, 1959-yilda tug'ilgan, [illegible] kasalxonasida hamshira bo'lib ishlaydi. O'g'lim, Salimov Nodir, [illegible] tug'ilgan, O'zMU talabasi. Qizim, Salimov Lola, 1985-yilda tug'ilgan, [illegible] maktabda o'qiydi.

Mening turar joyim: 7000210, Toshkent, Usmon Nosir ko'chasi, [illegible] xonadon, tel 72-28-61

K.Salimov

2007.14.01 (imzo)

240-mashq. Do'stingizga tavsifnoma va tavsiyanoma namunasini yozing.

40-DARS

MATN: **ISHONCH XATI. TILXAT. TUSHUNTIRISH XATI**

ISHONCH XATI

Bu hujjat ish qog'ozlari yuritish jarayonida ishonch xati, ishonchnoma, vakolatnoma kabi atamalar bilan yuritilib kelinmoqda. Ishonch xati biror korxona, muassasa, tashkilot yoki shaxs nomidan ish ko'rish huquqini beradigan rasmiy hujjatdir. Ishonch xati xizmat vazifasi yuzasidan yoki shaxs tomonidan berilganligiga ko'ra xizmat ishonch xati va shaxsiy ishonch xati turlariga bo'linadi. Xizmat ishonch xati bilan vakolatga ega bo'lgan shaxs uni bergan korxona, muassasa, tashkilot nomidan mol-mulkni boshqarishi, pul, qimmatbaho buyumlar, jihozlar, asbob–uskunalarni olishi, sud idoralarida ish olib borishi va berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni bajarishi mumkin. Shaxsiy ishonch xati bilan maosh, stipendiya, pensiya, nafaqalarni olish, hovli-joy, xonadon, transport vositalaridan foydalanish va ularning oldi–sotdisi bilan shug'ullanish hamda shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa ishlarni amalga oshirish huquqi beriladi. Har ikkala turdagi ishonch xatlari ham ma'lum muddatga berilib (masalan, bir necha kundan uch yilgacha), ishonch xati beruvchi kishining imzosi u ishlayotgan korxona yoki notarial idoralar tomonidan muhr bilan tasdiqlanadi. Ishchi, xizmatchi xodimlar, talabalar, keksa kishilar tomonidan kundalik turmushda shaxsiy mazmundagi ishonch xatlarini yozish ko'proq kuzatiladi. Shunga ko'ra har bir savodxon kishi shaxsiy mazmundagi ishonch xati matnini to'g'ri yoza bilishi lozim.

Shaxsiy ishonch xatining zaruriy qismlari:

– hujjat nomi – ishonch xati;

– ishonch xati beruvchi shaxsning ish, o'qish yoki yashash joyi, lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi;

– ishonch xati oluvchi shaxsning ish, o'qish yoki yashash joyi, lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi;

– ishonch xati berilishidan ko'zda tutilgan maqsad, bajariladigan vazifalar, ishonch bildirilgan muddat;

– ishonch xati beruvchining imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi, hujjat yozilgan sana;

– ishonch xati bergan shaxsning imzosini tasdiqlovchi tashkilot, notarial idora, mansabdor shaxsning imzosi, familiyasi, ismi.

– hujjat tasdiqlangan sana va muhr.

TILXAT

Tilxat ham turmushda ko'p qo'llanadigan hujjat turlaridan biridir. Talabalar o'quv yurti qabul komissiyasiga hujjatlarini topshirganlarida ularga qabul komissiyasi mas'ul xodimi tomonidan tilxat beriladi. Ko'rinadiki, tilxat muayyan shaxs tomonidan hujjat, qimmatbaho buyum, pul va boshqa shu kabi narsalar qabul qilinganda yoziladigan rasmiy hujjatdir. Tilxat odatda qimmatbaho buyum, hujjat yoki pul qabul qilgan shaxs tomonidan qo'lda yoziladi. Ommaviy tarzda qabul qilingan o'rinlarda avvaldan tayyorlangan tilxat andozalaridan ham foydalaniladi. Tilxat guvohlar ishtirokida yozilgan hollarda unga guvohlar ham imzo qo'yishlari, familiyasi va ismlarini yozishlari shart. Ba'zan tilxat nodir narsalar, ko'proq miqdordagi pul olinganda yoki olinayotgan narsa–buyumning qimmatbaholigi e'tiborga olinib, notarial idoralarda tasdiqlanishi ham mumkin. Odatda, tilxat ikki nusxada tayyorlanib, unda ko'rsatilgan miqdor, son raqamlar bilan so'zlar bilan ham yozilishi talab etiladi. Tilxat matnidagi so'zlarni o'chirish, ularga tuzatish kiritish, o'zgartirish mumkin emas. Tilxat qanday hollarda yozilishidan qat'i nazar, ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan quyidagi zaruriy qismlar mavjud:

– hujjat nomi – tilxat;

– tilxat yozuvchi shaxsning o'qish, ish yoki yashash joyi, lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi;

– qimmatbaho buyum, pul, hujjat yoki boshqa shu kabi narsani beruvchi shaxsning ham ish, o'qish yoki yashash joyi, lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi;

– olinayotgan narsaning to'liq nomi, aniq miqdori va holati, tilxat yozuvchi shaxsning familiyasi, ismi va hujjat yozilgan sana.

TUSHUNTIRISH XATI

Ish qog'ozlarining bu turi, odatda, xizmat sohasida, ish joyida yuz bergan kamchiliklar yoki o'qish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ayrim vazifa va topshiriqlarning bajarilmay qolish sabablarini bayon etish, izohlash maqsadida yoziladigan rasmiy hujjatdir. Tushuntirish xati korxona, muassasa, tashkilot rahbari yoki boshqa mutasaddi kishilar nomiga yo'llanadi. Bu hujjat korxonalararo yozishma tarzida bo'lishi ham mumkin. Bunday holatlarda tushuntirish xati buyurtmachi va ijrochi tashkilotlar, quyi va yuqori idoralar faoliyatiga doir masala, hisobot, reja, loyiha, jadval va boshqa shu kabi asosiy hujjatlarga ilova qilinadi.

Tushuntirish xati ham ko'proq shaxsiy mazmunga ega bo'lib, odatda rahbar yoki mutasaddi shaxs nomiga yoziladi va unda sodir etilgan xatti–harakatlar, yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik holatlari, bajarilmay qolgan ish, topshiriq yoki vazifalar, ularni keltirib chiqargan sabablar izohlanadi. Shaxsiy mazmundagi tushuntirish xatining zaruriy qismlari:

– hujjat yo‘llanayotgan tashkilot nomi, rahbarning lavozimi, familiyasi, [illegible]
– tushuntirish xatini yozayotgan kishining ish joyi, lavozimi, familiyasi, [illegible]
– hujjat nomi – tushuntirish xati;
– matn (unda yuz bergan voqea–hodisa, yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarlik, kamchilik, nuqson, uni keltirib chiqargan sabablar hamda unga munosabat bildirilgan etiladi);
– tushuntirish xatini yozgan shaxsning imzosi, familiyasi, ismi va yozilgan [illegible]

Savol va topshiriqlar:

1. Ishonch xati, tilxat va tushuntirish xati kabi hujjatlar va uning [illegible] qismlarini o‘qib chiqing.
2. Ishonch xatining ahamiyatini tushuntiring.
3. Tilxat qanday holatda yoziladi?
4. Tilxatdagi yozuvlarni nega o‘chirish yoki tuzatish mumkin emas?
5. Tushuntirish xati va arizaning o‘xshash hamda farqli jihatlarini [illegible] bering.

ISH YURITISHGA OID MATERIALLAR

241-mashq. Quyida berilgan ishonch xati namunasi asosida siz [illegible] ishonchnoma yozib ko‘ring.

ISHONCH XATI

Men, Samarqand shahridagi 45-sonli o‘rta umumta’lm maktabining biologiya fani o‘qituvchisi Erdonova Gulbahor Farmonovna, Toshkent shahridagi Abdulla Avloniy nomli o‘qituvchilar malakasini oshirish institutiga ikki oylik malaka oshirish kursiga yuborilganligim tufayli 2007-yil fevral-mart oylari uchun oylik maoshimni turmush o‘rtog‘im Bo‘riyev Fayzulla Xudayberdiyevichning olishiga ishonch bildiraman.

2007.12.01. imzo **ERDONOVA G.F.**

Biologiya fani o‘qituvchisi G.F.Erdonovaning imzosini tasdiqlayman. Samarqand shahar 45-o‘rta umumta’lim maktabi direktori **POLVONOVA H.S.**

imzo 2007.15.01.

242-mashq. Berilgan tilxat hujjatida qo‘llangan fe’llarning zamon va shaxs-sonini aniqlang va daftaringizga husnixat bilan ko‘chiring.

TILXAT

Men, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti fizika matematika fakulteti amaliy matematika bo‘limi III kurs “A” guruhi talabasi Abdullayev Abdumalik Erkinivich, ma’naviy–ma’rifiy ishlar bo‘yicha fakultet dekani o‘ribosari Rozmurodov Do‘stmurod Azizovichdan talabalar spartakiadasida voleybol bo‘yicha ishtirok etayotgan fakultet terma jamoasi a’zolari uchun 12 dona yangi sport kiyimi, bir dona voleybol to‘pi oldim. Kiyimlar va to‘pni sport musobaqalari tugagach dekanatga keltirib topshirishni o‘z zimmamga olaman.

2007.18.01. imzo *ABDULLAYEV A.E.*

topshiriq. Quyida berilgan tushuntirish xati namunasini o‘qing va ariza [illegible] taqqoslang: o‘xshash va farqli jihatlarini ayting.

Samarqand davlat universiteti
filologiya fakulteti dekani
prof.J.Eltazarovga shu fakultet
4-kurs talabasi Eshonqulova
Charosning

TUSHUNTIRISH XATI

2007-yil 23-mart kuni ertalab soat sakkiz yarimlarda fakultet qiroatxonasida [illegible] Turdiyeva Sitora bilan malakaviy–bitiruv ishimizning xulosa qismini [illegible] yakunlash to‘g‘risida suhbatlashib o‘tirgan edik. Shu payt qattiq shamol [illegible] qiroatxonaning ikkita derazasi birdaniga ochilib ketdi va deraza raxiga [illegible] ekib terib qo‘yilgan gultuvaklardan uchtasi polga qulab tushib sindi. Biz [illegible] va gultuvaklarning siniqlarini yig‘ishtirib oldik. Gultuvaklarning sinishida [illegible] kim aybdor emas.

2007.27.03. imzo **Eshonqulova Ch.**

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

243-mashq. Berilgan so‘z birikmalari va gaplarni tartib bilan jaylashtiring, [illegible] ishonchnomasi namunasini tuzing va zaruriy qismlari o‘rnini chizmada ko‘rsating.

Yunusobod tumanidagi 42-son madaniy mollar do‘konidan shartnoma bo‘yicha, Chilonzor tumanidagi M.Ulug‘bek nomidagi litseyning xo‘jalik ishlari [illegible] Hasan Boboyevga, litseyimizga ajratilgan 78550 (yetmish sakkiz ming besh [illegible] ellik) so‘milk o‘quv qurollarini olishga ishonch bildiradi. Litseyning [illegible] burchak muhri. Litsey direktori B.Qodirov.

Ishonchnoma 2011-yil 10-iyungacha amal qiladi. 2011.10.05. tartib raqami: [illegible] 104. dumaloq muhr. Imzo.

244-mashq. Quyidagi birikmalar asosida ishonchnomaga oid jumlalar [illegible] zing va daftaringizga yozing.

... ishonch bildiraman, olishga, (pulni) maoshni olishga, mening nomimga [illegible] kelgan, pul jo‘natmasini, S.Alimovga, pochta jo‘natmasini, imzo, imzosini [illegible] tasdiqlayman.

245-mashq. Quyidagi mavzularda tushuntirish xati namunalarini [illegible] yozing: darsga kech qolganligingizning sababi, darsga kela olmaganligingizning [illegible] sababi, berilgan topshiriqning o‘z vaqtida bajarilmaganligining sababi, shanbalikda

belgilangan vazifalarning tugallanmay qolganligining sababi, [illegible] tayyorlashdagi uzilishlarning sabablari va hokazo.

-mashq. Matnni o‘qing, ajratilgan so‘zlarning ma’nosini izohlab, [illegible] mazmuni nimaga qaratilganligini ayting.

Men, ona tili adabiyot fani o‘qituvchisi Mahmuda Valiyeva [illegible] kutubxonasidan **ijtimoiy** yo‘nalish bo‘limining 2-bosqich talabalari [illegible] **mushoira o‘tkazish uchun** 10 (o‘n) ta “She’r san’atlari” kitobini oldim.

Mashg‘ulot tugagach, olgan kitoblarni **topshiraman**.

246-mashq. Quyidagi barqarorlashgan iboralarni ko‘chirib oling, [illegible] ishtirokida gaplar tuzing.

Nosozligi tufayli, joriy etilganligi munosabati bilan, yaxshi [illegible] etilmaganligi sababli, zaruriyat tufayli, yo‘qligi tufayli, vafot etganligi sabab[illegible] e’tiborsizlik sababli, ob-havo noqulayligi tufayli, betobligi tufayli, kasallig[illegible] sababli, o‘zgarganligi munosabati bilan.

247-mashq. Quyidagi tushuntirish xatini o‘qing. Hujjatda keltirilgan [illegible] ishonarlimi?

Men, Erkin Alimov, rahbariyat meni tug‘ilgan kunim [illegible] tabriklamaganligi tufayli xafa bo‘ldim va 15-mart kuni ishga chiqmadim.

248-mashq. Quyidagi berilgan matnni zaruriy qismlar asosida [illegible] bilan yozing. Natijada tilxat namunasi hosil boisin.

Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning 600 yilligi munosabati bilan [illegible] o‘tkaziladigan anjuman oldidan... Tilxat, Men, Samarqand davlat universiteti [illegible] fakultetining talabasi Botirov Behzod, ... 1994. 15. 04. Kitoblarni anjuman tugagandan so‘ng keltirib topshirish majburiyatini zimmamga olaman. (imzo) universitet kutubxonasidan ... B.Botirov Ulug‘bekning hayoti va faoliyatiga yorituvchi burchak tashkil etish maqsadida... Ulug‘bekning hayoti va faoliyatiga bog‘liq 30 (o‘ttiz) dona kitob oldim. (Ro‘yxat ilova qilinadi).

249-mashq. Tilxat yozishda qo‘llaniladigan quyidagi qoliplashgan birikmalarni esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

... kitoblarni oldim, ... keltirib topshiraman, zimmamga olaman, o‘z vaqtida,... dars tugagach.

250-mashq. Quyidagi mavzularda tilxat va ishonch xati namunalari yozing.

guruh yetakchisi sifatida talabalar stipendiyasini tarqatish uchun kerak miqdorda pul olganligingiz haqida, o‘tkazilgan sport musobaqalarida talabalar kiyadigan sport kiyimlari, anjomlari olganlingiz haqida, o‘rtog‘ingizdan ma’lum miqdorda pul qarz olganlingiz haqida, qo‘shningizning videokamerasini vaqtincha ishlatib turish uchun olganligingiz haqida va hokazo.

[illegible] nomingizga kelgan pochta jo‘natmasini olish uchun o‘rtog‘ingizning [illegible] ishonch xati yozing, xizmat safariga ketayotganligingiz munosabati bilan [illegible] mushingizni olishi uchun turmush o‘rtog‘ingiz nomiga ishonch xati yozing, [illegible] oshirish uchun o‘qishga ketayotganligingiz munosabati bilan oylik [illegible]ingizni olishi uchun akangiz nomiga ishonch xati yozing va hokazo.

41-DARS

MATN: **DALOLATNOMA. MA’LUMOTNOMA**

Dalolatnoma ham kundalik hayotimizda ko‘p qo‘llanadigan hujjatlar sirasiga [illegible] Dalolatnoma, odatda, ma’lum muassasa, korxona, tashkilot yoki ayrim [illegible] faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan biror-bir voqea-hodisa, xatti-harakat yoki [illegible] holatni tasdiqlash maqsadida kamida uch kishi tomonidan tuzilib [illegible]anadigan hujjatdir.

Dalolatnoma ikki yoki uch nusxada tuzilishi mumkin. Dalolatnomada [illegible]irilgan voqea, hodisa, xatti-harakat tafsiloti, jihozlar, asbob-uskuna, ashyolar, [illegible], binolarning yaroqli-yaroqsiz holati o‘z aksini topishi lozim. Chunki [illegible]atnomada qayd etilgan holat, dalillar ma’lum korxona, bo‘lim yoki shaxs, [illegible] yashash sharoiti, iqtisodiy imkoniyati, faoliyati haqida tegishli xulosa [illegible]arish uchun imkoniyat beradi. Bu hujjat tegishli joylarda taftish o‘tkazilganda, [illegible]arlar yoki moddiy javobgar shaxslar almashayotganda, moddiy boyliklar bir [illegible]gar shaxsdan ikkinchisiga yoki bir joydan boshqa biriga o‘tkazilayotganda, [illegible] qurilgan binolarni qabul qilib olishda, korxonaga tegishli asbob-uskuna, [illegible] va buyumlarni hisobdan o‘tkazish, hisobdan chiqarish, ish jarayonida yoki [illegible]dan tashqari vaqtda yuz bergan baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlarning oqibatlari [illegible]shirilganda, tibbiyot sohasida, sud-tergov ishlarida, ishchi va xizmatchilarning [illegible]isodiy hamda yashash sharoitlari o‘rganib chiqilgandan so‘ng tuziladi.

Dalolatnoma tuzilgach, o‘sha vaqtning o‘zidayoq komissiya a’zolari, [illegible]irokchilar yoki guvohlar nazorati ostida rasmiylashtirilib, ularning ham [illegible]olari bilan tasdiqlanadi. O‘rganilib, dalolatnoma tuzilgan sohaga doir [illegible]shimcha hujjatlar bo‘lsa, unga ilova qilinadi va dalolatnomada ilova hujjatlar [illegible]mi, hajmi qayd etiladi.

Dalolatnomalar tasdiqlanayotgan voqea-hodisalar mazmuni yoritilishiga [illegible]ra turli hajmda rasmiylashtirilishi mumkin. Biroq ularning barchasida qamrab [illegible]linishi lozim bo‘lgan zaruriy qismlar mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

- muassasa, korxona yoki tashkilot nomi;
- hujjat nomi – dalolatnoma;
- tuzilgan sana va joy;
- dalolatnomani tuzish uchun asos bo‘lgan hujjat (buyruq, qaror, ko‘rsatma, ariza, farmoyish va hokazo);
- komissiya tarkibi (rais va a’zolarning lavozimi, familiyalari, ismlari);
- matn (tasdiqlanayotgan voqea-hodisa yoki mavjud holatning batafsil bayoni);
- ilovalar ro‘yxati, ularning hajmi;
- dalolatnoma tuzuvchilar, ishtirok etuvchilar yoki guvohlarning imzolari, familiyalari, ismlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Dalolatnoma mavzusi va mavzu bo'yicha zaruriy qismlarini aniqlab o'qing.
2. Mavzu bo'yicha tushunganlaringizni og'zaki hikoya qiling.
3. Mavzuga doir berilgan namunadan foydalanib bir necha dalolatnoma nusxalarini tuzing.

MA'LUMOTNOMA

Biror tashkilot, korxona yoki muassasada bo'lgan voqea, mavjud holat aniq dalillar asosida tasdiqlash yoki ular haqida talab etilgan joyga ma'lum berish maqsadida tuziladigan, shuningdek fuqarolarning ish joyi, lavozimi, maoshi miqdori, o'qish joyi, mutaxassisligi, kursi, yashash joyi, turmush oilaviy ahvoli kabilar to'g'risida ma'lumot beruvchi rasmiy hujjat. Ma'lumotnomalar ham mazmuni va vazifasiga ko'ra ikki turga bo'linadi.

1. Xizmat ma'lumotnomalari. 2. Shaxsiy ma'lumotnomalar.

Xizmat ma'lumotnomalari korxona yoki muassasa faoliyatiga oid voqea, hodisalar, mavjud holat, ishlab chiqarish va boshqa sohalar bo'yicha turli ma'lumotlarni qamrab oladi. Korxona, tashkilot yoki muassasa faoliyati bo'yicha boqg'iq xizmat ma'lumotnomalarini qamrab oladi. Korxona, tashkilot yoki muassasa faoliyati bilan bog'liq xizmat ma'lumotnomalari talab etilayotgan doirasidagi dalillar, raqamlar, ma'lumotlar asosida tuziladi.

Shaxsiy mazmundagi ma'lumotnomalarning ayrim turlari korxona, muassasa, tashkilot, qishloq va mahalla kengashlari tomonidan avvaldan tayyorlab qo'yilgan andozalarga to'ldirib beriladi. Ularga tegishli ma'lumotlar qayd etilib imzolanadi va muhr bosiladi. Bunday andozalarning qulayligi shundaki, unda o'zida qaysi tashkilot tomonidan berilayotganligi yozib qo'yilgan bo'ladi. Shaxsiy ma'lumotnomalarda fuqaro o'qiyotgan o'quv yurti, ishlayotgan korxona, tashkilot, muassasa ma'muriyati, yashayotgan joyi bo'yicha mutasaddilar tomonidan uning qayerda, qaysi fakultet, bo'lim, kursda o'qishi, qayerda va kim bo'lib ishlashi, oylik maoshi, yashash joyi, uy-joy sharoiti, moddiy-maishiy ahvoli, oila a'zolari va boshqa shu kabilar to'g'risida ma'lumot berilib, mavjud holat tasdiqlanadi. Shuningdek, tibbiy muassasalar ham shaxsning salomatligi yoki betobligi haqida shaxsiy mazmundagi ma'lumotnomalarni berishlari mumkin.

Shaxsiy ma'lumotnomalarning zaruriy qismlari:

- ma'lumotnoma beruvchi tashkilot nomi, uning manzili;
- ma'lumotnoma berilgan sana va uning tartib raqami;
- hujjat nomi – ma'lumotnoma;
- ma'lumotnoma berilayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- matn (unda tasdiqlanayotgan voqea, dalillar, ma'lumotlar, holat qisqa ravishda bayon etiladi);
- hujjatning qayerga taqdim etilishi haqidagi qayd, ma'lumotnomani tasdiqlovchi mutasaddilarning lavozimi, familiyasi, ismi, imzosi va muhr.

Savol va topshiriqlar:

1. Mavzu va uning zaruriy qismlarini o'qib chiqing.
2. Mavzu bo'yicha tushunganlaringizni og'zaki hikoya qiling.
3. Mavzu bo'yicha bir necha ma'lumotnoma namunalarini tuzing.

ISH YURITISHGA OID MATERIALLAR

251-mashq. Quyidagi jadvaldan foydalangan holda dalolatnomaning zaruriy qismlarini eslab qoling.

Vazirlik, yuqori idora, muassasa nomi	TASDIQLAYMAN (TASDIQLANGAN) (imzo) familiya
DALOLATNOMA	
sana	*Matn sarlavhasi («...haqida») tuzilgan joyi*

Asos: *(muassasa rahbarining (sanadagi) – raqamli buyrug'i yoki yuqori tashkilotning.... – raqamli qarori).*

Raisi *(shaxs lavozimi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasi).*

A'zolari: *1. (lavozimi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasi).*

2. (lavozimi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasi).

3. (lavozimi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasidan iborat komissiya tomonidan (shaxs yoki shaxslar lavozimi, ismi, familiyasi) ishtirokida tuzildi.

Komissiya raisi	(imzo)	*Ismi va otasining ismining bosh harflari, familiyasi.*
Komissiya a'zolari	(imzolar)	*Ismi va otasining ismining bosh harflari, familiyalar.*
Ishtirok etganlar	(imzolar)	*Ismi va otasining ismining bosh harflari, familiyalar.*

252-mashq. Quyidagi dalolatnoma matnini o'qing va siz ham matndan ijodiy foydalangan holda namuna yozing.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lm vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti
Universitet arxivi holati va faoliyatini o'rganish haqida
DALOLATNOMA

2004-yil 28-may **Samarqand shahri.**

Asos: universitet bo'yicha 2004-yil 20-mayda "Universitet arxivining holati va faoliyatini o'rganish haqida" chiqarilgan 07-F raqamli farmoyish.

Farmoyishga binoan universitet monitoring va ichki inspeksiyasi boshlig‘i A.M.Uzoqov raisligida hamda huquqshunos-maslahatchi F.B.Valixo‘jayeva ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi bishlig‘i X.To‘xtayev, maxsus bo‘lim boshlig‘i A.A.Toshpo‘latov, devonxona mudiri vazifasini bajaruvchi M.Boltayev a’zoligida komissiya tuzildi. Komissiya shu yil 21-maydan 28-maygacha bo‘lgan muddat davomida universitet arxivi holati hamda ish faoliyatini o‘rganib chiqib quyidagilarni aniqladi:

1. Universitet arxivi uchun yangi qurilgan to‘qqiz qavatli binoning to‘qqizinchi qavatidan bir qancha xonalardan iborat joy ajratilgan, hujjatlar saqlanishi uchun metalli tokchalar o‘rnatilgan, hujjatlarning xavfsizligi ta’minlangan.

2. Devonxonaning arxiv bo‘limi uchun 1 mudira, 3 arxivarius, 1 kitob operatori shtat birliklari belgilangan. Avval mudir, keyinchalik arxivarius lavozimlarida ishlab kelgan Z.Rahmonova o‘z vazifasiga sovuqqonlik bilan qaragan va oqibatda bir qancha hujjatlar yaroqsiz holga kelib qolgan deb yo‘qolgan.

3. Universitet arxivining avvalgi – harbiy kafedra bilan birga joylashgan binoning ikkinchi qavatida isitish tizimida yuz bergan nosozlik tufayli bir qancha bog‘lam hujjatlar zangli iflos suvda qolib ketgan va natijada 1969-, 1970-, 1971-, 1977-, 1978-, 1979-, 1980-, 1982-, 1987-yillarga tegishli hujjatlar suvda bo‘kib yaroqsiz holga kelib qolgan.(Bu hujjatlarning to‘liq ro‘yxati dalolatnomaga ilova qilinadi)

4. Universitetning turli yillardagi faoliyati bilan bog‘liq 204 nusxadagi hujjat, shaxsiy tarkibga oid 1796 hujjat turli sabablarga ko‘ra yaroqsiz holga kelib qolganligi yoki yo‘qolganligi tufayli hisobdan chiqarilishi lozim. (Bu hujjatlar ro‘yxati va arxiv xodimlarining yaroqsiz hujjatlarni hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi bildirishnomasi dalolatnomaga ilova qilinadi)

5. Sobiq pedagogika institutining turli yillarga oid faoliyati bilan bog‘liq 31 nusxadagi hujjat, shaxsiy tarkibga doir 305 hujjatning yaroqsiz holga kelib qolganligi yoki yo‘qolganligi tufayli ularni hisobdan chiqarish lozim. (Bu hujjatlar ro‘yxati va arxiv xodimlarining yaroqsiz hujjatlarni hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi bildirishnomasi dalolatnomaga ilova qilinadi)

6. Komissiya universitet arxivi yangi va uning xizmatidan foydalanuvchilar uchun qulay joyga ko‘chirilib, hujjatlar saqlash uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilganligini tasdiqlaydi.

7. Dalolatnoma ikki nusxada tuzildi, unga 8 betlik hujjatlar ro‘yxati va ikki betdan iborat bildirishnoma ilova qilindi.

Komissiya raisi:	imzo	UZOQOV A.M.
Komissiya a’zolari:	imzo	VALIXO‘JAYEVA F.B.
	imzo	TO‘XTAYEV X.
	imzo	TOSHPO‘LATOV A.A.
	imzo	BOLTAYEV M.

253-mashq. Berilgan matnni o‘qing va ma’lumotnomaning zaruriy qismlarini aniqlang.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti
2007-yil *12-yanvar* N *131*
Universitet xiyoboni, 15.

MA’LUMOTNOMA
To‘xtasinov Abduhakim Shomurodovich Samarqand davlat universitetining iqtisodiyot fakulteti sirtqi bo‘lim ikkinchi mutaxassislik yo‘nalishi to‘rtinchi kurs talabasi hisoblanadi. U 2007-yil 2-yanvardan 12-martgacha qishki imtihonlar sessiyasi mashg‘ulotlarida ishtirok etdi. Ma’lumotnoma Samarqand viloyati Narpay tumanidagi ikkinchi g‘isht zavodi ma’muriyatiga taqdim etish uchun berildi.

DU talabalar bo‘limi boshlig‘i: imzo Hasanov O.U.
Muhr

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

254-mashq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling.

tuzildi, ishtirok etganlar, asos, so‘ralgan joyga taqdim etildi

255-mashq. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridan olingan quyidagi matnni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring. G va ng tovushlarini farqlang. Ng tovushining tagiga chizing

TANBEH

Kishi molidin nekim bahra oldi aningdekdur, har nekim asradi o‘zganing. Zahmat bila topqoningni o‘zungdin ayama va mehnat bila yiqqoningni do‘stlar bila dushmanlar uchun asrama.

Bayt:

Mol uldurkim, el andin topsa bahr,
Dushman andin topsa tengdur no‘shu zahr.

256-mashq. Nuqtalar o‘rniga g yoki k tovushlarini qo‘yib ko‘chiring.

Bila., kura., erta., idro., tera., ta., bambu., bara., dara., beza., besha., uzu., kamala., kopto., bizbiza., tila., dana., kapala., halo., ista., ilga., ipa., iya.,be., jufta., jo‘ya., kalta.,kata., ko‘yla..

42-DARS

MATN: **MAJLIS BAYONI. HISOBOT**

Majlis bayoni yoki bayonnoma anjuman, majlis, yig‘ilish, kengash va boshqa shu kabi tadbirlarning borishini, unda ishtirok etuvchilar, qatnashganlarning nutq va chiqishlari hamda shu yig‘inda qabul qilingan qarorlarni qayd qiluvchi rasmiy hujjat hisoblanadi. Bu hujjat yaqingacha protokol, bayonnoma, qaror, majlis bayoni kabi atamalar bilan ham yuritilib kelindi. Umuman olganda majlis bayoni deb atash ko‘proq maqsadga muvofiq keladi. Majlis bayonini shu yig‘in uchun saylangan yoki yig‘ilish hujjatlarini rasmiylashtirib borish uchun doimiy tayinlangan kotibning vazifasiga kiradi.

O‘tkazilgan har qanday yig‘ilish uchun ham majlis bayoni yozilavermaydi. Muntazam o‘tkaziladigan, oldindan rejalashtirilgan, tegishli kun tartibi belgilangan yig‘ilishning majlis bayoni kotib tomonidan imkoni boricha to‘liq qilib boriladi.To‘g‘ri, oldindan rejalashtirilmagan, zudlik bilan o‘tkaziladigan yig‘ilishlar ham bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda yig‘ilish ishtirokchilari yig‘ilish hay’ati a’zolari bilan bir qatorda yig‘ilish kotibini ham saylab oladilar.

Yig‘ilishlar o‘tkazilishining ham bir qancha tartiblari bor, albatta. Majlis bo‘yicha ma’ruzachi tayinlanadi, uning nutqi va muhokamada chiqishlar uchun vaqt belgilanadi. Muhokamadan so‘ng yig‘ilish ishtirokchilarining ko‘pchilik tomonidan ma’qullangan xulosalar asosida mavzu bo‘yicha qaror qabul qilinadi. Shu tariqa yig‘ilish kun tartibidagi boshqa masalalar bo‘yicha ham chiqishlar, muhokama va munozaralar o‘tkazilib, ular yuzasidan ham qarorlar qabul qilinadi hamda bu jarayon majlis bayonida o‘zining to‘liq ifodasini topadi.

Majlis bayonlari korxonada olib borilayotgan ishlar, erishilgan yutuqlar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, rejalashtirilayotgan yangi tadbirlar, ular bo‘yicha bildirilgan fikr–mulohazalar, qabul qilingan qarorlar va ularning ijrosini ta’minlash bo‘yicha ko‘zda tutilgan ishlar majmuidan iborat bo‘lib qolmasdan, korxona ishlab chiqarishning rivojlanishi va o‘sishi, xodimlar faolligi, ularning rag‘batlantirishning ahvoli, korxonada amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy-tarbiyaviy tadbirlarni aks ettiruvchi muhim hujjat hamdir. Texnika rivojlangan bugungi sharoitda majlis bayonlari stenografik yoki kompyuterda yozishdan tashqari, fonografik va videotasvirlar orqali ham qayd etib borilmoqda.

Hujjatchilikda majlis bayonidan ko‘chirma ham muhim o‘rin tutadi. Ba’zan muhokama etilgan barcha masalalar bo‘yicha emas, balki ayrim bir masala yuzasidan ko‘chirma talab etiladi. Majlis bayonidan ko‘chirma olinganda uning talab qilingan masalaga oid qismi – asosiy nutq, muhokamadagi chiqishlar hamda mavzu yuzasidan qabul qilingan qarorlar qismi yig‘ilish raisi va kotibi imzosi bilan tasdiqlangan holda beriladi.

Majlis bayonining zaruriy qismlari:

- yig‘ilish o‘tkazilayotgan korxona, tashkilot, muassasa nomi;
- hujjat nomi – majlis bayoni (yoki majlis bayonidan ko‘chirma);
- yig‘ilish o‘tkazilgan sana, tartib raqami, joyi;
- yig‘ilish raisi va kotibning familiyasi, ismi;

1) yig‘ilish ishtirokchilari ro‘yxati yoki ularning soni;
2) yig‘ilish kun tartibi;
3) eshitildi (masala bo‘yicha ma’ruzachining familiyasi, ismi va nutqi);
4) so‘zga chiqdi (muhokamada qatnashganlarning familiyasi, ismi, fikr-mulohazalari);
5) qaror qilindi (har bir masala bo‘yicha chiqarilgan xulosalar asosida qabul qilingan qarorlar);
– ilovalar (ma’ruza bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar, ma’lumotnomalar, taqdimot, ma’ruza matni, jadval va boshqalar);
yig‘ilish raisi va kotibning imzolari, familiyasi, ismi.

HISOBOT

Bir yillik, yarim yillik, bir chorak yoki bir oylik muddat uchun rejalashtirilgan ishlar, vazifalar, topshiriqlar, tadbirlar va boshqa shu kabilarning bajarilishi, turli ilmiy va xizmat safarlarining natijalari bayon etiladigan rasmiy hujjat. Hisobot hajman va mazmunan keng yoki qisqa bo‘lishi ham mumkin. Xizmat safari bo‘yicha buxgalteriya hisob-kitobi uchun mo‘ljallangan raqamlarga asoslanuvchi hisobot maxsus ish qog‘oziga rasmiylashtiriladi. Bajarilgan ishlar haqidan iborat hisobot keng qamrovli bo‘lishi bilan birgalikda hisobot qamrab olayotgan muddat hamda unda aks ettirilayotgan sohaga doir ma’lumotlar aniq bo‘lishi lozim. Hisobot korxona, tashkilot, muassasaning yil, chorak yoki oy davomida amalga oshirgan ishlarinigina qamrab olmasdan qo‘lga kiritilgan yutuqlar, ularning omillari, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va ularning sabablari, rejalashtirilgan ishlarning bajarilishida ularning samaradorligini ta’minlash bo‘yicha taklif-mulohazalar ham o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham hisobot mavzu bo‘yicha tegishli taklif, mulohaza va tavsiyalar keltirish bilan xulosalanadi.

Hisobotning zaruriy qismlari:

– hisobot beruvchi shaxsning o‘qish yoki ish joyi, lavozimi, familiyasi, ismi, hisobotning nima haqdaligi va hisobot davri;

– hujjat nomi – hisobot;

– matn (unda rejalashtirilgan ishlar, topshirilgan vazifa, ular yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar, ularning bajarilishi, erishilgan yutuqlar, ularning omillari, yo‘l qo‘yilgan nuqson va kamchiliklar, ularning sabablari, taklif, mulohazalar, tavsiyalar, ilova materiallar aks etadi);

– hisobot yozuvchi shaxsning lavozimi, imzosi, familiyasi, ismi va yozilgan sana (hisobot yuqori idoralarga yuboriladigan bo‘lsa, korxona rahbari imzosi bilan tasdiqlanb, muhri bosiladi).

Savol va topshiriqlar:

1. Majlis bayoni hamda uning zaruriy qismlarini sanang.
2. Qisqa bayonnoma qanday yoziladi?
3. Bayonnoma shakllari haqida gapiring.
4. Hisobot va uning turlarini haqida tushuncha bering.

5. Hisobotning zaruriy qismlarini sanab bering.
6. Oylik va yillik hisobotlarning bir-biridan farqi.

ISH YURITISHGA OID MATERIALLAR

257-mashq. Majlis bayoni matnidan foydalangan holda quyidagi bayonnomani davom ettiring.

Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti 1-kurs 101-guruhning 2018-2019 o‘quv yilida guruh faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida o‘tkazilgan yig‘ilish

BAYONI

06. 09. 2018-yil Samarqand shahar
Yig‘ilish raisi: M. Narziyeva
Yig‘ilish kotibi: U. Muhammadiyev
Qatnashdilar: Guruh rahbari va guruhning barcha talabalari.

KUN TARTIBI:

1. 2018-2019 o‘quv yili uchun guruhning istiqbol rejasini tuzish, guruh faollarini saylash va guruh murabbiyining ish rejalari bilan tanishtirish.
2. O‘zbekiston respublikasi mustaqilligining 27 yilligi munosabati bilan “Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekistonim!” nomli shior ostida suhbat.
3. Har xil masalalar.

258-mashq. Quyida berilgan majlis bayonidan ko‘chirmani o‘qing va ko‘chirma uchun kerak bo‘ladigan zaruriy qismlarning qo‘llanilishiga e’tibor bering. Bayonnoma bilan solishtiring.

Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasi a’zolarining 2017-yil 24-martdagi 8-majlis bayonidan

KO‘CHIRMA

Yig‘ilish raisi: prof. Mirzayev I.K.
Yig‘ilish kotibi: o‘qit. Sobirov A.
QATNASHDILAR: kafedra a’zolarining barchasi.

KUN TARTIBI:

1. Kafedra dotsenti M.Boltayevning biologiya va kimyo fakulteti biologiya yo‘nalishi 1-kurs rus guruhida o‘tkazgan ochiq darsi va o‘quv-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy hamda jamoatchilik faoliyati yuzasidan besh yillik hisoboti muhokamasi.
2. Kafedra dotsenti vakant lavozimiga nomzod tavsiya etish haqida.

ESHITILDI:

Kafedra mudiri, prof. I.K.Mirzayevning axboroti tinglandi. U o‘z so‘zida 2017-yil 21-yanvarda viloyat “Zarafshon” gazetasida universititet bo‘yicha vakant lavozimlarga tanlovlar e’lon qilinganligi, shu jumladan, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasining dotsenti lavozimiga ham tanlov e’lon qilinganligi, shu munosabat bilan kafedra dotsenti M.Boltayevning 2017-yil 13-mart kuni biologiya va kimyo fakulteti biologiya yo‘nalishi 1-kurs rus guruhida ochiq dars o‘tkazilganligi, bugungi yig‘ilish kun tartibiga shu ochiq dars hamda ilmiy besh yillik hisoboti muhokamasi qo‘yilganligi haqida to‘xtaldi.

Shundan so‘ng dots.M.Boltayevning 2017-yil 13-mart kuni biologiya va kimyo fakulteti biologiya yo‘nalishi 1-kurs rus guruhida o‘tkazgan ochiq darsi muhokamasi bo‘lib o‘tdi.

Masala muhokamasida kafedra a’zolari chiqish qilishib, M.Boltayevning darsi haqida o‘zlarining ijobiy fikr-mulohazalarini bayon etishdi hamda darsning bugungi talablar darajasida o‘tilganligini alohida ta’kidlashdi.

Yig‘ilish raisi prof.I.K.Mirzayev kafedraning vakant dotsent lavozimiga tanlov e’lon qilinganligi va bu lavozimda M.Boltayev ishlab kelayotganligi munosabati bilan uning besh yillik hisoboti tinglanib, muhokama etilishi va shu vakant lavozimga nomzod tavsiya etish lozimligi haqida gapirdi va hisobot uchun M.Boltayevga so‘z berildi. U o‘zining 2012-yildan 2017-yilgacha besh yillik o‘quv-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy hamda jamoatchilik faoliyati to‘g‘risida hisobot berdi.

Masala muhokamasida kafedra a’zolari so‘zga chiqib, kafedra a’zosi M.Boltayevning o‘tgan besh yil davomida bajargan o‘quv, ilmiy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy, jamoatchilik faoliyatiga yuqori baho berishdi va M.Boltayev besh yil davomida kafedraning dotsenti lavozimida ishlab, o‘ziga topshirilgan o‘quv yuklamasini, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni shu kungi talablar darajasida ilmiy, yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tib kelyotganligi, uning namunali ochiq darsi universitet o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan yuqori baholanib, sertifikat va pul mukofoti bilan taqdirlanganligi, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi, shu besh yil ichida qirqdan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy, uslubiy ishlar, o‘ttizdan ortiq ilmiy-ommabop maqolalar e’lon qilganligi, u nafaqat kafedra, fakultet va universitet miqyosidagi jamoat ishlarida, shuningdek Samarqand shahri va viloyati miqyosidagi jamoat ishlarida ham faolligi ta’kidlandi. Ular M. Boltayevning besh yillik hisobotini yuqori baholadilar.

Yig‘ilish kun tartibidagi keyingi masala bo‘yicha ham kafedra mudiri, prof.I.K.Mirzayev axborot berib, kafedra dotsenti vakant lavozimiga M.Boltayev nomzodini tavsiya etish yuzasidan taklif kiritdi. Yig‘ilish qatnashcilari ochiq ovoz berish yo‘li bilan M.Bolatyev nomzodini kafedraning dotsenti lavozimiga bir ovozdan (yig‘ilishda qatnashgan 8 professor-o‘qituvchidan 7 tasi yoqlab ovoz berishdi, nomzodning o‘zi ovoz berishda qatnashmadi, qarshi va betaraflar yo‘q) tavsiya etishdi.

Kafedra yig‘ilishida kun tartibidagi masalalar atroflicha muhokama etilib

QAROR QILINDI:

1. Kafedra dotsenti M.Boltayevning biologiya va kimyo fakultet[illegible] yo‘nalishi 1-kurs rus guruhida “O‘zbek tili” fanidan “O‘zbekistonning [illegible] olami” matnini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazgan ochiq darsi shu kunga [illegible] darajasida o‘tilganligi ta’kidlansin.

2. Kafedra a’zosi M.Boltayevning 2012-yildan 2017-yilgacha [illegible] o‘quv-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy hamda jamoatchilik [illegible] yuzasidan hisoboti ma’qullansin.

3. Kafedrada vakant bo‘lgan dotsent lavozimiga M.Boltayevning [illegible] tavsiya etilsin.

4. Kafedraning mazkur qarorini qo‘llab-quvvatlash fakultet kengashi [illegible] so‘ralsin.

Yig‘ilish raisi: **prof. Mirzayev I.K.**

Yig‘ilish kotibi: **o‘qit. Sobirov A.**

259-mashq. Hisobot namunasini o‘qing va hujjatning zaruriy qismlarining yoritilishiga diqqat qiling. O‘zingiz ham namuna yozing.

10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha SamDU 1-bosqich doktoranti Isakova Nodira Azzamovnaning ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha yillik

HISOBOTI

Men, Isakova Nodira Azzamovna, 2018-yil 3-yanvardan 10.00.06 qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha SamDU doktorantiman. Yil boshidan to shu kunga qadar Ilmiy kengash tomonidan tasdiqlangan shaxsiy ish rejadagi quyidagi vazifalarni bajardim:

1. Doktorlik dissertatsiyasi mavzusi (“Mustaqillik yillarida o‘zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so‘zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili (“Xalq so‘zi” gazetasi materiallari asosida) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi veb-sayti hamda Oliy attestasiya komissiyasi “Byulleten”ida (2018 yil, № 7-8) e’lon qilindi.

2. Doktorlik dissertatsiyasini bajarish yuzasidan ilmiy maslahatchi (prof. I.K.Mirzayev) bilan hamkorlikda tuzilgan va fakultet ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan nazariy-metodologik kurs soatlari to‘liq bajarildi.

3. Ilmiy maslahatchi bilan mavzuga tegishli materiallar yuzasidan maslahatlashilib, dissertatsiya rejasi tayyorlandi va tadqiqotning birinchi bobi ustida ishladim.

5. Axborot-resurs markazlari (Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Rossiya Davlat kutubxonasi, Internet, Scopus va Science Direct

[illegible] da keyingi yillarda himoya qilingan dissertatsiyalar fondi bilan [illegible]

[illegible] ishlashtirilgan “Xalq so‘zi” gazetasining 7000 nashrining 2400 tasi bilan, [illegible] 1991-2001 yillar nashrlari bilan tanishib chiqildi va tahlil qilindi.

[illegible] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 26-17 aprel kunlari Ukrainada bo‘lib o‘tgan [illegible] issues of modern science” xalqaro konferensiyasida “Translation and [illegible] of borrowings in the Uzbek language” mavzusida tezis nashr etildi.

[illegible] SamDU ilmiy axborotnomasi №4 sonida “About borrowings in the Uzbek [illegible]” (on the examples of newspaper “Khalk suzi”) mavzusida ilmiy maqola [illegible] etildi.

[illegible] “Examples of interference vs. borrowings in the Uzbek language” [illegible]sida ilmiy maqola “Language learning and technology” xalqaro jurnaliga [illegible] etildi.

Doktorant **N.A. Isakova**

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

60-topshiriq. Quyidagi arabcha so‘zlarning nutqimizdagi o‘rni haqida fikr [illegible] va o‘zlashgan qatlam sifatida eslab qoling.

Kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma’no, ilhom, tanqid, kashf, hayot, haqiq [illegible] hisob, hurmat, musobaqa, qonun, san’at, sanoat.

260-mashq. Quyidagilarni daftaringizga hunnixat asosida ko‘chiring. [illegible] talaffuzi va imlosiga e’tibor bering. Imlosini eslab qoling.

Xabar, axborot, xazina, xalqaro xos raqam, xarajat, xatboshi, xat, xatlov, [illegible]xmat yozishmasi, xodimlar qo‘nimsizligi, xonadon, xorijiy, xos ish qog‘ozi, [illegible]xsa, xususiy hujjat, xo‘jalik sudi.

Hay’at, hakamlik sudi, haqiqiy hujjat, hisob-kitob arizasi, hisobga olish, [illegible]sobot, hokimlik, homiladorlik ta’tili, hujjatlar yig‘ma jildi, hudud, hujjat [illegible]shuvi, huquqshunos, hukumat.

261-mashq. Majlis bayoni shaklidan foydalanib guruhingizda o‘tkazilgan [illegible]g‘ilish bayoni matnini tuzing. Bayonnomadagi h va x, u va o‘ tovushlari ishtirok [illegible]gan so‘zlarning imlosini imlo lug‘ati asosida tekshiring.

262-mashq. Quyidagi mavzular yuzasidan qisqaroq hajmli hisobot namunalari yozing: maktabda mutaxassisligingiz bo‘yicha o‘tkazilgan o‘quvchilar olimpiadasi haqida hisobot, amaliyotchi talaba sifatida maktabda o‘tilgan pedagogik amaliyot haqida hisobot, guruh rahbari sifatida talabalar bilan olib borgan yarim yillik ma’naviy-ma’rifiy ishlar yuzasidan hisobot, sinf rahbari sifatida o‘quvchilar bilan Urganch shahriga uyushtirilgan sayohat haqida hisobot, o‘tkazilgan shanbalik natijalari bo‘yicha hisobot va hokazo.

43-DARS

MATN: XIZMAT YOZISHMALARI. XATLAR

Xizmat yozishmalari mazmunan xilma-xil bo‘ladi. Ularda [illegible] faoliyatining turli masalalari bilan bog‘liq talab, iltimos, taklif, kafolat kabilar [illegible] ettiriladi. Bu ma’noda xizmat yozishmalari hujjatlarning yuqorida ko‘rsatilgan guruhlari bilan uzviy aloqadordir. Shularni hisobga olib, xizmat yozishmalari hozirgi zamon hujjatshunosligida mazkur guruhlardan keyin alohida guruh sifatida tasniflangan va bu mantiqan o‘rinli.

ILTIMOS XAT

Muassasalar ma’lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali iltimos qilishi mumkin. Muassasalar o‘rtasidagi bunday o‘zaro yozishmalar iltimos xat vositasida bajariladi. Iltimos xat xizmat xatlari orasida eng ko‘p tarqalgan turlardan hisoblanadi. Iltimos xatlar ham boshqa xatlar kabi muassasalarning xos ish qog‘oziga yoziladi va albatta jo‘natma sanasi va jo‘natma tartib raqami ko‘rsatiladi. Iltimos xatlarning asosiy [illegible] qismlari:

1. Xat oluvchi tashkilot va mansabdor shaxsning nomi.
2. Matn.
3. Ilova (zarur bo‘lgan hollarda).
4. Mas’ul shaxsning imzosi.

Iltimos xatlarning eng sodda ko‘rinishi shaxsiy va jamoat arizalariga o‘xshash bo‘ladi.

KAFOLAT XAT

Muayyan bir shart yoki va’dani tasdiqlash maqsadida tuziladi. Xatlarning bu turi qoidaga ko‘ra bajarilgan ish uchun haq to‘lashda, ishning bajarilish muddati haqida, turar joy bilan ta’minlashda, ishga qabul qilishda, bajariladigan ishning sifati haqida kafolat berish uchun tayyorlanadi va tashkilot yoki alohida shaxslarga jo‘natiladi.

Kafolat xatlari ham boshqa xat turlaridek, odatda, idoraning xos ish qog‘oziga yoziladi. Kafolat xati korxona rahbari tomonidan imzolanadi. Moliyaviy ishlar bilan bog‘liq bo‘lgan kafolat xatlariga, albatta, bosh hisobchi ham imzo chekishi zarur.

Kafolat xati boshqa xatlardan farqli o‘laroq xat yo‘llanayotgan shaxsga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish bilan boshlanishi ham mumkin.

Ba’zan xat matnida “kafolat” so‘zi umuman ishlatilmasa-da, matn mazmunidan uning kafolat xat ekanligi sezilib turadi.

“Obuna nashrlari” magazini Toshkent—121, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7-uy. Bizning manzilimizga ko‘rsatilgan umumiy qiymatini to‘lab olish sharti bilan “Fan” nashriyotida chop etilgan Abu Ali Ibn Sinoning “Tibbiy risolalar” kitobidan o‘n besh nusxa jo‘natishingizni so‘raymiz.

Tibbiyot bilim yurti direktori: (imzo) M.Safarov
Bosh hisobchi: (imzo) T.R.Olimov

Ba’zan kafolat xati matnida kafolat berish bilan birga xabar berish, so‘rash, [illegible] kabi ma’nolar ham ifodalanishi mumkin. Quyida ana shunday xat matnlaridan [illegible] namunalar keltiramiz.

Yozuvchilar uyushmasi tarjima kengashiga Alisher Navoiy nomidagi [illegible] davlat universiteti shu yilning sentabr oyida “Badiiy tarjima va o‘zbek [illegible] ining xalqaro aloqalari” mavzuida ilmiy-metodik konferensiya o‘tkazishni [illegible] lamoqda. Konferensiyani o‘tkazishda Yozuvchilar uyushmasining tarjima [illegible] hamkorlik qilishini so‘raymiz.

Konferensiya tezislarini nashr etish, taklifnomalar chiqarish, mehmonlarni [illegible] kabi yumush va xarajatlarni universitet o‘z zimmasiga oladi.

Tashkilotlar tomonidan kutubxonalarga beriladigan tayyor andozaviy kafolat [illegible] riyatlari ham ana shunday xatlar jumlasiga kiradi. Bunday majburiyat varaqalari [illegible] xususiy zaruriy qismlargina to‘ldiriladi xolos. Quyida asosiy kutubxonasiga [illegible] ljallangan kafolat majburiyatini keltiramiz.

Kafolat majburiyati fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasiga [illegible] 705, Toshkent, Mo‘minov ko‘chasi, 13-uy, tel. 62-7-56.) (muassasa nomi, [illegible] ili, hisob bo‘limining telefoni) (xodimning lavozimi va to‘liq nomi) nomiga [illegible] siy a’zolik varaqasi ochishingizni so‘raydi.

O‘rtoq_____ishdan bo‘shagan taqdirda hisob bo‘limiga [illegible] ubxona ma’lumotnomasini topshirmaguncha u bilan hisob-kitob qilmaslikka [illegible] olat beramiz.

Ushbu majburiyat bajarilmagan holatda o‘rtoq_____tomonidan [illegible] ubxonaga qaytarilmagan adabiyotlar uchun butun moddiy javobgarlikni o‘z [illegible] mamizga olamiz.

Muassasa rahbari: (imzo)
Muhr bosh hisobchi: (imzo)

Sana

SO‘ROV XATI

Javob talab qiladigan bunday yozishmalarda ma’lumotlar, hujjatlar yoki boshqa [illegible] arur narsalar so‘raladi. Birgina xatda turli masalalarga doir bir necha so‘rovlar aks [illegible] masligi kerak. Bayon qilinayotgan masalalar aniq va ravshan bo‘lishi lozim. Faqat [illegible] shu holdagina yo‘llangan so‘rovga tez va mukammal javob olish mumkin. So‘rov [illegible] xati, odatda, ikki asosiy qismdan — kirish va xulosadan iborat bo‘ladi. Kirishda [illegible] so‘rov yuborilish sababi ko‘rsatiladi, xulosa qismda esa xat yo‘llangan tashkilotdan [illegible] javob talab qilinayotgan masalalar kiritiladi. Quyida so‘rov xatlardan namunalar [illegible] keltiramiz. Ular xatlar uchun mo‘ljallangan maxsus xos ish qog‘ozlarida [illegible] rasmiylashtiriladi.

“O‘zbekkimyomash” zavodining direktori o‘rtoq, T.A.Salimovga
“O‘zbekkimyomash” zavodida 1999-yilning, ikkinchi yarmidan boshlab davolash [illegible] barokamerasi ishlab chiqarilayotganligi matbuot orqali ma’lum qilindi. Bu zamonaviy [illegible] uskuna bizni juda qiziqtirdi. Shu sababli Sizdan ushbu barokameraning mufassal [illegible] tavsifi, yo‘riqnomasi va tegishli fotosuratlarini zudlik bilan yuborishingizni so‘raymiz.

Hurmat bilan Samarqand shahri
1-kasalxonasi bosh vrachi: (imzo) A.Madumarov

TASDIQ XAT

Ma'lum bir muassasa tomonidan yuborilgan iltimos va so'rovlarga ... tarzida yoziladigan xatlarning bir turidir. Tasdiq xatning qaysi xatga ... bitilganligi iloji boricha aniq ko'rsatilishi kerak. Bunday xat matnida qo'llan... asosiy so'zlardan biri «tasdiqlamoq» fe'lidir. Masalan:

Sizning xom-ashyo so'rab 12-yanvarda jo'natgan A—22—18 ... xatingizni olganligimizni tasdiqlaymiz. Bu to'g'ridagi bizning javobimiz ... yanvargacha xabar beriladi. Bugun 5-iyunda Sizdan bizning buyurtmamiz bo'yi... mahsulot ishlab chiqarayotganligingiz haqida xabar berilgan telegrammani ol... O'z vaqtida qaytarilgan javob uchun Sizlarga minnatdorchilik bildiramiz.

15-iyundagi Sizning 200 000 (ikki yuz ming) g'isht so'rab yozgan 10125 ... xatingizni olganligimizni tasdiqlaymiz. Biroq ayni paytda zavod o'zida ... buyurtmalarni bajarishga ulgurmayotganligi sababli Sizning iltimosingizni ... olmasligimizni ma'lum qilamiz.

Tasdiq xatlar o'z vaqtida jo'natilsa, eslatma xatlar uchun hech ... ehtiyoj sezilmaydi, natijada xizmat yozishmalarining hajmi qisqaradi.

FARMOYISH XAT

Bir tarmoqqa tegishli quyi muassasalarning barchasiga yo'llangan ... hujjatdir. Farmoyish xatlar xizmat aloqalarining ko'pgina sohalarida qo'llaniladi. Ularning asosiy vazifasi aynan bir xil mazmundagi xabarni bir necha ... yetkazishdir. Masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi o'z qaramog'idagi ... ilmiy muassasalar va tashkilotlarga bir xil ko'rsatma bermoqchi. Bu ko'rsatma ... shaklida rasmiylashtiriladi va ro'yxat bo'yicha barcha institutlarga tarqatiladi.

Farmoyish xatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ... qaramog'idagi korxonalarni u yoki bu masala haqida xabardor qiladi yoki tegishli ... farmoyishlar beradi. Ba'zi farmoyish xatlarda matnga nisbatan manzillar ... ko'proq joyni egallaydi. Shu sababli ham ularda xat yo'llanayotgan ... tashkilotlarning umumiy nomi yozilishi maqsadga muvofiqdir, masalan: Barcha ... qurilish boshqarmalariga: Barcha maktab direktorlariga kabi.

Farmoyish xatlar bosh muassasa rahbari tomonidan imzolanadi. Agar ... matnida hisob bo'limiga oid masalalar ham bo'lsa, bosh hisobchi ham ... chekadi. Bosh rahbar imzolagan 1-nusxa muassasada asliyat sifatida saqlanadi. Boshqalari esa umumiy bo'lim yoki muassasa kotibi tomonidan tasdiqlanib, nusxa sifatida tarqatiladi.

Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari va tashkilotlari rahbarlariga O'zbekiston Vazirlar Kengashining 1999-yil 28-sentabrdagi 347-raqamli O'zbekiston Respublikasi qarorlari asosida o'rta va oliy maktabni qayta qurishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi tadbirlarining rejasi haqida» qarorini bajarish uchun fan bo'limlariga joriy yilning 25 noyabrigacha muassasa qaramog'idagi bo'linmalarning takliflari asosida chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni O'zbekiston Fanlar akademiyasi hay'ati umumlashtirish va .tasdiqlash uchun O'zFanlar akademiyasining jumhuriyat oliy maktablari bilan aloqalar kengashiga taqdim etish topshirilsin.

... Vazirlar Mahkamasi tadbirlarining mujassam rejasidan ko'chirma ...adi.

ESLATMA XAT

...natilgan iltimos va so'rov xatlarga javob olinmasa, shuningdek, tuzilgan ...alar muddati buzilganda yoki unga amal qilinmagan hollarda eslatma xat ...adi. Mazkur xatlar mazmun jihatdan uncha katta bo'lmaydi. Ular mazmun ... jihatdan telegrammalarga yaqin turadi. Odatda, eslatma xat bir yoki ikki ...dan iborat bo'lib, kotib tomonidan imzolanadi. Ushbu xatlar matni ...icha bo'lishi mumkin:

1989-yilning 15-oktabrida korxonamiz uchun 100 000 (yuz ming) dona ... ajratishni so'rab Sizga xat yo'llagan edik, biroq xat javobsiz qoldi. ...imizni qondirishingizni va 23-dekabrgacha bizga bu haqda xabar ...ingizni takroran so'raymiz.

... sabzavotlarni yig'ishtirib olish boshlanganligi sababli, sabzavot saqlash ...xonasini sovutish uskunalari bilan qayta jihozlashni qisqa vaqtda tugatishni ... bir bor Sizdan iltimos qilamiz.

Bir necha marta eslatilganligiga qaramay, shu paytgacha Sizning ...shmangiz kelasi yil ishlab chiqarish rejasini tasdiqlash uchun davom etmadi. ...satilgan materialni 22-aprelgacha tasdiqlash uchun taqdim qilishingizni ...rayman. Inkor usuli bilan ham eslatish mumkin:

...tnoma tuzilgandan keyingi 10 kun ichida yetkazib berishingiz kerak bo'lgan ...sulotni haligacha qabul qilmadik. Shuni eslatib o'tmoqchimizki, Sizning ...titutingiz 1990-yilning 12-fevralida tuzilgan 126-raqamli shartnomaning 2-...diga binoan yilning birinchi yarmida ishchilar shaharchasining bog'i loyihasini ...yorlashi kerak. Shunga ko'ra loyihani tayyorlash ishlari qanday borayotganligi ...qida bizni xabardor qilishingizni so'raymiz

AXBOROT XATI

Ko'zlangan maqsad, ma'lum tashkilot yoki muassasa yoxud shaxsni amalga ...hirish kutilayotgan tadbirdan xabardor etishga qaratilgan hujjat.

Savol va topshiriqlar:

1. Xat deb nimaga aytiladi?
2. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da xat so'zining nechta ma'nosi berilgan?
3. Xatlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Shaxsiy xat haqida ma'lumot bering.

ISH YURITISHGA OID MATERIALLAR

263-mashq. Quyida berilgan iltimos xat va kafolat xat namunasini o'qing va solishtiring. Ularning o'xshash va farqli jihatlarini og'zaki so'zlab bering.

Informatika kafedrasining
o‘rtoq K.Raximovga

Birlashmamiz muhandis-mexanigi O.Salimovni hisoblash texnikasi bo‘yicha malaka oshirish maqsadida 2 oy muddatga (1990. 15. 01. dan 1990. 15. 03. gacha) tajriba o‘tashga qabul qilishingizni so‘raymiz.

Toshkent elektr-ro‘zg‘or buyumlari ishlab chiqarish birlashmasining bosh direktor o‘rinbosari (imzo) U.Shokirov

Hurmatli Baxrom Raimovich!

Bizning birlashmamiz Sizni qurilish bo‘yicha bosh muhandis lavozimiga ishga qabul qilishga tayyor. Sizga va oilangiz a’zolariga shu yilning ikkinchi yarmida foydalanishga topshiriladigan, birlashmaga qarashli binodan ikki xonali uy ajratiladi. Birlashma direktori (imzo) N. R. Nosirov

264-mashq. Quyida berilgan axborot xati namunasini o‘qing va farmoyish xat, eslatma xatlari bilan qiyoslang. Farqli xususiyatlari haqida fikr yuriting.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

AXBOROTXATI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti buyuk mutafakkir tavalludining 578 yilligi munosabati bilan 2019 yil 9- fevral kuni **“ALISHER NAVOIY VA XXI ASR”** mavzuida xalqaro ilmiy-nazariy anjumani o‘tkazilishini ma’lum qiladi. Ilmiy-nazariy anjumanga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqola va tezislar qabul qilinadi:

1. Navoiy she’riyatini o‘rganish masalalari.
2. Navoiyshunoslik muammolari.
3. Alisher Navoiy adabiy merosi matnshunoslik nigohida.
4. Alisher Navoiy “Xamsa”sida poetik shakl va mazmun uyg‘unligi.
5. Alisher Navoiy nasri: janr, uslub va obraz.
6. Alisher Navoiy adabiy merosining jahon tamaddunida tutgan o‘rni.
7. Alisher Navoiy asarlarining xorijiy tillarga tarjimasi va chet ellarda o‘rganilish masalalari.
8. Ta’lim tizimida Navoiy asarlarini o‘qitish muammolari.
9. Alisher Navoiy ijodining tilshunoslikdagi ilmiy talqinlari.
10. Alisher Navoiy adabiy merosining tarixiy poetika aspektida tadqiq etilishi.

Maqola va tezislar o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.
Maqolalarga quyidagi texnik talablar qo‘yiladi:
1) ilmiy maqola yoki tezis sarlavhasi o‘rtada, 14 shriftda, qoraytirilgan harflarda beriladi;

dan so‘ng **muallifning** avval ismi, keyin familiyasi birinchi qatorda, ilmiy faoliyat yuritayotgan tashkiloti nomi keyingi qatorda o‘ng tomonda kursiv 14 shrift o‘lchamda, oralig‘i 1 intervalda keltiriladi, uning tagidan pochta manzili yoziladi;

yoki tezis matni boshlanadi. Matnda harflar o‘lchami 14 shriftda, 3 sm, chapdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm miqdorda joy qoldiriladi, lar 1 sm ni tashkil qiladi, satrlar oralig‘i 1,5 intervalda bo‘lishi lozim;
matni 7 betdan kam bo‘lmasligi, tezis matni 3 betdan oshmasligi kerak.
yotlar ro‘yxati alifbo tartibida matn oxirida beriladi. Adabiyot manbaiga kvadrat qavslarda adabiyotlar ro‘yxatidagi tartib nomeri asosida adiladi.Internet manbasining foydalanilgan sanasi ko‘rsatilishi lozim.

Maqola va tezislar to‘plam shaklida chop etiladi, ilmiy talablarga javob bermagan hamda belgilangan muddatdan kech yuborilgan maqola va tezislar e’lon qilinmaydi. Maqola va tezislar uchun to‘lov badali (har bir sahifa uchun 12 ming so‘mdan) mavjud.

Ilmiy maqolalar quyidagi elektron manzilga 2019-yilning 15-yanvariga qadar qabul qilinadi:

Elektron pochta: alishernavoiy21asr@mail.ru

Bog‘lanish telefonlari: +998974021594, +99897 7056725, +998946979704

Tashkiliy qo‘mita

IMLO SAVODXONLIGI VA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLAR

265-mashq. Quyida berilgan so‘z va so‘z birikuvlarining talaffuzi va imlosiga e’tibor bering. Daftaringizga ko‘chiring va imlosini eslab qoling.

O‘z lavozimiga ko‘ra, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zaro yordam, o‘zgartirmoq, o‘lchov birligi, o‘n kunlik, o‘rganmoq, o‘rinbosar, o‘rindoshlik, o‘quv reja.

Uzluksiz staj, uzoq muddatli, uy-joy xo‘jaligi, ulushbay, umumiy ish yuritish, unvon, ustama pul, ustxat, uchburchak muhr, ushlab qolish, uyushtirmoq.

266-mashq. Berilgan tasdiq xat namunasini daftaringizga ko‘chiring va o‘zingiz ham namuna keltiring.

Bugun, 5-iyunda Sizdan buyurtmamiz bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarayotganligingiz haqida xabar berilgan telegrammani oldik.

O‘z vaqtida qaytarilgan javob uchun Sizga minnatdorchilik bildiramiz.

267-mashq. Iltimos, kafolat, so‘rov, tasdiq xatlariga bittadan namuna yozing.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATNLAR
Nutq tovushlari haqida

Kamola Mu[illegible]

A tovushi

Keng unlilar safida,
A tovushin o'rni bor.
Lablanmagan hamda keng,
Ohangdorligi bisyor.
Qachon qaysi so'zida,
Talaffuzi o'zgacha.
Fonetik juftliklari
Chiqar, hatto, o'ntacha.

B tovushi

Portlovchidir ohangdor,
Labni birga jamlaydi.
Talaffuzda ohang-la
o'zgacha jaranglaydi.
Jarangsiz jufti *p* bor,
Yordamchi va ko'makdosh.
Kitob, savob so'zlarda,
B o'rniga o'rindosh.

D tovushi

Barcha tovush qatori,
D tovush ham salmoqdor.
Jaranglaydi, portlaydi,
Shunday tovush ohangdor.
Madad, hamdard singari
so'z oxirda kelsa gar.
Talaffuzda *d* emas,
Jarangsiz jufti kelar.

E tovushi

E tovushi o'rta keng,
Kamtar biroz kamnamo.
So'zlarga boqsak zimdan,
Vazifasi ko'p ammo.
Lablanmagan til oldi,
Talaffuzda qisqaroq.
Sof o'zbekcha so'zlarda,
Ko'p qo'llanmaydi biroq.

F tovushi

F tovushi lab tovush
Lab-tish, hamda jarangsiz.

Bitta jihatin bilib,
Oddiy tovush demangiz.
V tovushin o'rnida,
Jarangsiz jufti kelar.
Talaffuzda avtomat,
Aftomatga aylanar.

G tovushi

G tovushi jarangdor,
Portlovchi undosh tovush.
To'g'ri talaffuz sari
Boshlovchi undash tovush.
Qo'shimchalarda ba'zan,
Fonetik jufti tayyor.
Ko'kka, yoqqa so'zlarda,
k-q tovushi dastyor

H tovushi,

H tovushi bir o'zi,
Bo'g'iz tovush sanalar.
Nimagadir doimo
yumshoq tovush atalar.
Humo, husn so'zlarda,
X bilan alishtirmang.
X tovushni qattiq deb
O'zaro solishtirmang

I tovushi.

Lablanmagan *i* tovush,
Talaffuzda yuqori tor.
Qiziq, bilan so'zlarda,
O'zaro nisbati bor.
Ko'ngli, o'g'li singari,
So'zlarda egalik bor.
Shu sababdan bir tovush
Tushib qolgan ixtiyor.

J tovushi.

J til oldi jarangli
Portlovchi tovushga xos.
Jurnal ajdar so'zlarda,
Sirg'aluvchiligi rost.
Jarangsizi ch tovush,
Talaffuzda o'rindosh.
J tovush *dj* ikkisi,
Deyarli do'st-qarindosh.

_K_ tovushi

Jarangsiz *k* tovushi,
O‘rni til orqa sayoz.
Ko‘kka, tokka so‘zlarda,
G ni emas *k* ni yoz.
So‘z k bilan tugasa,
Egalik olsa magar.
K tovush jaranglisi
G tovushga o‘zgarar

_L_ tovushi

Jarangli til tovushi,
Sonor tovush, hamda yon.
Qo‘sh undosh aytib ko‘rsang
Masalan: ellik million.
Talaffuzda ikki yondan,
Hosil bo‘lar sirg‘alar,
Shu sababdan bu tovush
Sirg‘aluvchi atalar.

_M_ tovushi

Lab-lab tovush *m* tovush,
Jarangli ham ovozdor.
Portlovchi burun tovush
Hamda atalar sonor.
Jarangsizi yo‘q ammo,
O‘z o‘rniga egadir.
Ko‘p ma’noli so‘zlarda,
Kelishi ham shundadir.

_N_ tovushi

Nega? Nechun? Nimaga?
Berib ko‘ring-chi savol.
Barchasida *n* harfin
O‘rni va yordami bor.
Jarangli sonor tovush,
Ovozdor tovushga xos.
Burun tovushi degan,
Nom ham *n* tovushga xos.

_O_ tovushi

Operada o tovush,
Yo‘lboshlovchi va dastyor.
Quyi keng bo‘lganidan,
Cho‘ziqligidir bisyor.

Oraliqdagi tovush,
Lablangan deyolmaysan.
Lablanmagan ham dema,
Bundayin atolmaysan.

_P_ tovushi

P harfi ham ajoyib,
B ga ko‘makdosh, qo‘ldosh.
Lab tovushi-lab-labdir,
Hamda jarangsiz undosh.
Kitob yozsang yozuvda,
Talaffuzda *p* erur.
Aytib ko‘rsang bilasan,
Sof portlovchi tovushdir.

_Q_ tovushi

Qardosh, qarindosh, qara
Q ga navbat yetibdi.
So‘z oxirda *i* qo‘shsak,
G‘ ga do‘nib ketiibdi.
Chuqur til orqa uning
Hosil bo‘lish o‘rnidir.
Portlovchi-yu jarangsiz
Q tovushin o‘zidir.

_R_ tovush

Til oldidir, ovozdor.
Sirg‘alanar titraydi
Yosh bolalar Rustamni
Negadir Yustam deydi.
R tovushi shunaqa,
Ajoyibligi bisyor,
Sirg‘aluvchi, jarangli.
Titroq tovush ovozdor.

_S_ tovushi

Sensiramang kattani,
Mudom gapiring sizlab.
S tovush kelar mudom,
Manfaatingiz ko‘zlab.
Sirg‘aluvchi til tovush.
Z ga oshna qadrdon.
Talaffuzda tuzsizda
S tovush kelar mudom.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
DAVLAT TILI HAQIDA
(yangi tahrirda)

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika [illegible] yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat [illegible] sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar [illegible] belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda [illegible] ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa — ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta’minlanadi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tillida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon

[illegible] Bu hujjatlarning tarjimalari
[illegible] boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. [illegible] millat boshqa tillarda ham e’lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda [illegible] millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida [illegible] va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi.

O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek [illegible] chilarning o‘zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, [illegible] chilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkm.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagi ko‘pchilik [illegible] tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so‘zlash huquqi ta’minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo‘llaniladi. Xo‘jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko‘ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo‘lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O‘zbeklston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta’minlanadi.

15-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’i nazar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra - boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarning, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr

«Ko'kaldosh» madrasasi

«Ko'kaldosh» madrasasi Toshkent shahridagi tarixiy obidalardan biri sanaladi. Muhammad Solih Qoraxo'ja Toshkandiyning «Tarixi jadidayi Toshkand» kitobida «Ko'kaldosh» madrasasini Darveshxon qurdirganini yozadi va shu kitobining ba'zi joylarida madrasani Darveshxon madrasasi deb ham ataydi. Madrasa 1551-1575-yillar orasida qurib ishga tushirilgan. Bunga dalil sifatida tarixchilar 1569-1570-yillarda yozilgan vaqfnomani keltiradilar. Unga ko'ra, Toshkent hokimi Sulton Darveshxon bir karvonsaroyni madrasaga vaqf qilib bergani aytilgan.

«Ko'kaldosh» madrasasi Chorsu maydonidagi Shahriston tepaligida Xo'ja Ahror Valiy jome' masjidining yonida an'anaviy sharq uslubiga rioya qilib bunyod etilgan. Uning keng hovlisi hujralar va ochiq ayvonlar bilan o'ralgan. Hujralar soni 38 ta bo'lib, dastlab qurilganda madrasa uch qavatdan iborat bo'lgan. Bosh

[illegible] janubga qaragan, darvozadan kiraverishda chapda masjid, o'ngda darsxona joylashgan. Masjid va darsxonaning usti o'zaro kesishgan ravoqlar ustiga o'rnatilgan qo'sh ichki va tashqi gumbazlardan iborat bo'lgan. Peshtoq sirkor naqshin va jilva naqshlar bilan bezatilgan. XVIII asrga kelib qarovsiz qolgan madrasa karvonsaroy sifatida foydalanilgan. 1830-1831-yillarda Toshkent hokimi Lashkar Beglarbegining davrida darsxona va masjid o'ngidagi nurab to'kila boshlagan zangori gumbazlari va ikkinchi qavatning g'ishtlari ko'chirib olinib, hozirgi kunda buzilib ketgan Beklarbegi madrasasi (bozorning yuqori qismida)ning qurilishida ishlatilgan. 1866-1886-yillarda ro'y bergan zilzila natijasida peshtoqining yuqori qismi qulab tushadi va madrasa vayronaga aylanadi. 1902-1903-yillarda Toshkent shahri aholisining xayriya mablag'lari hisobidan ta'mirlash ishlari olib boriladi. Mablag' yetishmasligi sababli ta'mirlash ishlari to'xtab qolib, vaqtgorlik o'zining avvalgi holatiga qaytarilmadi. Ko'kaldosh madrasasi va uning yonidagi Xo'ja Ahror Valiy jome' masjidi 1865-yilda General Chernyaev boshchiligidagi Toshkentni zabt etishda qattiq shikastlandi. 1886-yili rus muhandislari tomonidan xonaqolar va jome' masjid qayta ta'mirlanish natijasida o'zining dastlabki me'moriy ko'rinishini tamoman yo'qotdi. Vaqt o'tishi bilan o'zaro urushlar, kuchli zilzilalar, binolarning turli maqsadlarda foydalanishi, bir necha bor qayta ta'mir qilinishi va qayta tiklanishi madrasaning dastlabki haqiqiy go'zalligini, muhtashamligini asta-sekin yo'qotib borgan. Ayniqsa, XVIII asrning boshlarida madrasa tashlandiq holatga kelib qolgan. Shu asrning oxirida esa, karvonsaroy maqsadida foydalanilgan. Kommunistik mafkuraning hukmronligi davrida madrasa binosi umuman qarovsiz qolib ketgan: xonalar omborxona, yotoqxona, har xil ustaxonalar sifatida foydalanilgan. Tabiiy emirilish darajasida ham ta'mirlash ishlari olib borilmadi. Davlat tomonidan olib borilgan ta'mirlash ishlaridagi suiste'molchilik va mas'uliyatsizlik madrasaning yana-da ayanchli holatga tushishiga olib keldi. 1974-yilda qabul qilingan madrasani qayta tiklash to'g'risidagi loyihalar loqaydlik sababli surunkasiga bajarilmay keldi. Madaniyat vazirligining ma'lumotiga ko'ra 1985- yildan 1991-yilgacha ta'mirlashga sarf qilingan mablag' 347.2 ming so'mni tashkil etgan. Mustaqillik davrida madrasaning sharqiy tomonidagi jome' masjid yonidan o'tgan ichimlik suvi quvurining yorilishi natijasida madrasani ikki marta suv bosib, janubiy qismi zaxlab, sho'rlanib ketdi. Ushbu devorlar ostida poydevor bo'lmaganligi sababli 2002-yilda qaytadan g'ishtlari almashtirilib, yangi poydevor qo'yildi.

«Ko'kaldosh» madrasasi sobiq SSSR Ministrlar Sovetining 1990-yil 29-dekabrdagi №4372 sonli qaroriga asosan, 1991-yil 3-iyunda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasi (hozirgi O'zbekiston musulmonlari idorasi) tasarrufiga topshirildi. Shu vaqtdan boshlab madrasaning umumiy ta'mirlanishi uchun tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi. Ilk bor mustaqillik davrida marhum Erkin Saidaxmedov madrasa uchun o'z mablag'lari bilan faol ishtirok etib, keng ko'lamda ta'mirlash ishlarini boshlab berdi. So'ngra bu xayrli ishni marhum Naim ota Jo'raev davom ettirib, ko'zga ko'rinarli darajaga etkazdi. Naim ota davrida madrasaning shimoliy va janubiy peshtog'i, ichki va tashqi tomonlari dastlabki holatiga keltirildi. Abdurasul Xudoyberganov davrida madrasaning g'arbiy qismidagi xonaqolarning barchasi hamda bino tashqarisining

shimoliy-g‘arbidagi tahoratxona buzilib, loyihada ko‘rsatilganidek [illegible] birinchi qavati poydevor asosida qaytadan bunyod etildi. So‘ngra 1954-yildan [illegible] ta’mirlanmagan eshik derazalar qayta ta’mirdan chiqarildi. Madrasaning [illegible] qismidagi binolarning ikkinchi qavati tiklanib, usti yopildi.

1996-yilgacha bajarilgan tiklash va ta’mirlash ishlari asosan, xalqning [illegible] ehsonlari hisobiga bajarilgan. 1996-yildan boshlab ta’mirlash ishlari [illegible] hokimining Toshkent shahari ta’miri uchun ajratgan qurilish ashyolari hisobidan bergan yordami hamda O‘zbekiston musulmonlari idorasi va madrasaga [illegible] xayr-ehsonlar orqali amalga oshirilgan. Mustaqillik davridagi ta’mirlash ishlarida Buxorolik Ahror Asqarov va Madaniyat vazirligi yodgorliklarni saqlash [illegible] muhandisi, «Ko‘kaldosh» madrasasi qurilish loyihasi muallifi va ta’mirlar [illegible] Mirobid Mirzoahmedov kabilar katta xizmat qildilar. Mazkur ko‘hna bilim dargohida ko‘plab olimu fuzalolar dars berganlar, tahsil olganlar. XVI asrda Toshkentda ishlab turgan Xoja Ahror jome’i, Baroqxon va «Ko‘kaldosh» madrasalarida o‘z zamonasining mashhur olimlaridan Shamsiddin Muhammad Kurtiy, Xoja Yusuf Qoshg‘ariylar dars berganlar. O‘zbek mumtoz she’riyatining vakillaridan shoir Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy har gal Toshkentga kelgan vaqtlarida (1880-1890) «Ko‘kaldosh» madrasasida istiqomat qilgan. 1889-1891 yillar mobaynida shahrimizda yashagan mashhur shoir Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ham ushbu madrasada istiqomat qilib, ta’lim olgan va ijod bilan shug‘ullangan. Shuningdek Hamza Hakimzoda Niyoziy ham 1910-1911-yillarda madrasa hujralaridan birida istiqfomat qilgan. O‘zbek orifona she’riyatning oltin namoyondasi – shoir Xaziniy ham Toshkentga kelgan paytlarida albatta «Ko‘kaldosh» madrasasida to‘xtab, mudarris va talabalar bilan ko‘plab ajoyib suhbatlar qurgan. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek she’riyatining taniqli vakillari: Mullo Qo‘shoq Misniy, Sayid Xaybatullo Xo‘ja Xislat, Sirojiddin Sidqiy Xondaliqiylar ham Ko‘kaldosh madrasasida tahsil olganlar. Mashhur ulamolarimizdan Sayid Mahmud Taroziy, Oltinxon To‘ra, Yunus Maqsudiy va Ziyovuddin ibn Eshon Boboxon hazratlari ham XX asr boshlarida tahsil olib, ilm pillapoyalarida yuksalib borishgan. Madrasada Islom dini qonun-qoidalari, arab va fors tili grammatikasi, adabiyot, odob-axloq, matematika, geometriya, astronomiya kabi fanlar o‘qitilgan.darslar arab va fors tillaridagi kitoblar bo‘yicha o‘qitilgan. Madrasani bitirib chiqqan ilm ahllari arab, fors va turkiy tillarni mukammal o‘rganganlar, yuzlab g‘azallar, minglab baytlarni yoddan bilganlar, madrasa hujralarida yotib qur’oni karimni yod olganlar. Ba’zi ma’lumotlarda keltirilishicha hadis ilmining yurtimizda yana qayta jonlanishiga turtki bo‘lgan ulamolarimiz orasida Shomiy domla deb shuhrat topgan – Suriyalik atoqli ilohiyot olimi Shays Muhammad ibni Said ibni Abdulvohid al-Asaliy ash-Shomiy at-Tarablusiy hazratlari ham bir muncha muddat madarasa hujralaridan birida istiqomat qilib, talabalarga dars bergan. Ushbu madrasa faoliyat boshlanganidan buyon 1999-yilga qadar «Ko‘kaldosh madrasa masjidi» deb nomlangan. 1999-yilda O‘zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan yangi Nizom tasdiqlanib, 1999-yil 18-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida rasmiy ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng «Ko‘kaldosh Toshkent islom o‘rta maxsus bilim yurti» deb nomlandi. Bilim yurti 1999-yil 10-oktyabrda maxsus ruxsatnoma olib, 1-noyabrdan rasmiy faoliyat

[illegible]rsata boshladi. Mustabid tuzum asorati tanazzulga yuz tutgan bu an’ana buyuk [illegible]ilol bergan erkinlik tufayli va xalqimizning milliy diniy qadriyatlarga cheksiz [illegible]hqati natijasida asta-sekinlik bilan qayta jonlana boshladi. Bu jonlanish [illegible]o‘kaldosh madrasasida qayta ochilgan o‘rta maxsus islom bilim yurti timsolida [illegible]ppol ko‘rinadi. Bilim yurtida Qur’on, hadis, sarf, nahv, mutolaa kabi diniy [illegible]alar bilan bir qatorda o‘zbek tili va adabiyoti, tabiat, jug‘rofiya, ingiliz tili, fizika, [illegible]atematika, astronomiya, informatika va boshqa dunyoviy fanlar ham o‘qitiladi, [illegible]a ishga malakali mutaxasislar jalb etilgan. Elimizning yuzdan ortiq diniy ilmga [illegible]shtoq farzandlarini o‘z quchog‘iga olgan «Ko‘kaldosh» Toshkent islom o‘rta [illegible]axsus bilim yurtining oldidagi vazifalari aniq va ravshan. Ya’ni, Vatanimizdagi [illegible]archa o‘quv muassasalari qatori iymon-e’tiqodi butun, irodasi baquvvat, [illegible]ajdodlarimizning nodir ma’naviy meroslarini chuqur o‘rgangan va zamonaviy [illegible]afakkurga ega komil insonlar tarbiyalash, xalqimizning ixlosidan hamda ma’naviy [illegible]ahbada bo‘shlik paydo bo‘lganidan foydalanib, islom niqobi ostida o‘zlarining [illegible]g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishga urinayotgan kimsalarga qarshi o‘laroq [illegible]amyurtlarimizning diniy savodxonligini oshirish va shu yo‘lda xizmat qiluvchi [illegible]amonaviy etuk ulamolar tayyorlashdir.muhim vazifalarimizdan yana biri — bu [illegible]o‘hna binoda zamon talablariga javob beradigan eng yaxshi o‘quv jihozlari bilan [illegible]jihozlangan, yangi tipdagi islom bilim yurtini barpo qilishni poyoniga etkazish. Bu [illegible]vazifani amalga oshirishda bilim yurtining fidoyi murabbiylari, mudarrislari va [illegible]barcha jamoa bor imkoniyatlarini ishga solib tinmay harakat qilmoqdalar va doimo [illegible]ijodiy izlanishdadirlar.

O‘zbekistonda oliy ta’lim

Oliy ta’limning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- davlat ta`lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o‘qitishning sifatini ta`minlash;
- oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
- ilm-fan, madaniyat, iqtisodning zamonaviy tuqlari, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy istiqbolini tuqlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- oliy ta`limning insonparvarligini ta`minlash maqsadida yoshlar tarbi siga milliy istiqlol g‘oyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbatni singdirish;
- o‘qitishning interfaol usullarini, pedagogik innovasion hamda axborot kompyuter texnologiyalarini, mustaqil ta`lim olish, masofaviy ta`lim tizimini amaliyotga joriy qilish;
- oliy ta`limda fan va ishlab chiqarish mexanizmlarining uyg‘unligi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash;
- ilmiy-pedagogik kadrlar va talim oluvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyati, ilmiy tadqiqotlari yordamida fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirish, ta`lim jarayoni orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga hissa qo‘shish;
- davlat va nodavlat oliy o‘quv muassasalarini rivojlantirish asosida ta`lim xizmatlari bozorida raqobatni zaga keltirish;

- oliy o‘quv muassasalarini boshqarish va kengaytirishni takomillashtirish
jamoat boshqaruvining vasiylik va kuzatuvchi kengashlarni kiritish;
- ta`lim va kadrlar tayyorlash sifatini tekshirish uchun marketing tadqiqotlari
olib borish, yo‘nalishi bo‘yicha belgilangan mehnat bilan ta
monitoringini tuzish;
- oliy ta`lim sohasida ikki tomonlama foydali xalqaro aloqalarni rivojlantirish.

Oliy ta`lim tuzilishi

Oliy ta`lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

- davlat va nodavlat oliy ta`lim muassasalarida ta`lim dasturining bajarilishi
davlat ta`lim standartiga muvofiq yo‘nalishlar va mutaxassisliklar asosida olib
boriladi;
- ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy tadqiqot ishlarini oliy ta`limni boshqarish
normativ va ilmiy-metodik jihatdan ta`minlash uchun eritishadi;
- oliy ta`limni boshqarish davlat organlarining vakillari, shuningdek, ularga
tegishli korxona, muassasa, tashkilotlar orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta`lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (ular bilan teng mavqegayaga bo‘lgan o‘quv muassasalari).

Universitet:

- oliy va undan keyingi ta`lim uchun ta`limni bir necha yo‘nalishda beradi;
- turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;
- fanning turli yo‘nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi;
- ilm sohasi bilan chambarchas bog‘liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Akademiya:

- ta`lim sohasida ma`lum belgilangan oliy va oliy ta`limdan so‘nggi ta`lim
berishga mo‘ljallangan o‘quv dasturini bajaradi;
- mutaxassislarning bilimlarini belgilangan tartibda malakasini oshiradi va qayta
tayyorlaydi;
- fan, madaniyat, san`at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini
olib boradi;
- o‘z faoliyati doirasida etakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi.

Institut:

- oliy va oliy ta`limdan keyingi o‘quv dasturlarini bajarishni ta`lim va fanning
ma`lum bir me`yorida amalga oshiradi;
- mutaxassislarni ma`lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan
shug‘ullanadi;
- fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Oliy ta`lim muassasasining davlat ta`lim standartini mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha bajarilishini, kadrlar tayyorlash sifati davlat tomonidan tayinlangan organ oliy ta`lim boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Pedagogik kadrlar va o‘quv muassasalarini attestatsiya dan o‘tkazish, kadrlar tayyorgarligi sifatini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat test markazi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Oliy ta`lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat

"Ta`lim to‘g‘risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta`lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi "Oliy ta`lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to‘g‘risida Nizom" bilan, oliy ta`lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi "Oliy ta`lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida Nizom" bilan belgilanadi. Bakalavriat – fundamental bilimlar beriladigan asosiy oliy ta`lim bo‘lib, to‘rt yil davom etuvchi oliy ta`limning yo‘nalishlaridan biri. Bakalavriyatda o‘qish chiqarishdan ajratmagan holda ta`lim jarayonining davom etish muddati bir yildan kam bo‘lmagan vaqtga uza edi. Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko‘ra, bakalavriyat ta`lim daturining oxirida tayorlov yo‘nalishiga ko‘ra "bakalavr" akademiyak unvoni, munosib ko‘krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi. Ta`lim dasturining tarkibiy qismiga, bakalavr tayorlashning kerakli darajasiga, o‘quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining prosedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 16-avgust 2001-yilda tasdiqlangan № 343-chi "Oliy ta`limning davlat ta`lim standartlari. Asosiy nizomlar" qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O‘zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 104-bet).

Bakalavrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o‘quv fanlari bo‘yicha talablar, ta`lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish aniq tayorlov yo‘nalishi bo‘yicha davlat ta`lim standartlari orqali belgilanadi. Bakalavriyatning mos yo‘nalishlari uchun, davlat ta`lim standartlari asosida, oliy ta`limni boshqarish bo‘yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o‘quv reja va dasturlar, o‘quv fanlari ishlab chiqiladi. Bakalavriyatda bir xil profilli (umumiy kasb xunar tayyorgarligi o‘xshash) o‘rta maxsus, kasb xunar ta`limiga ega bo‘lgan shaxslarga, oliy ta`limning shu yo‘nalishidagi o‘quv rejalariga bog‘liq (ketma-ketlikni ta`minlovchi) ta`lim dasturini to‘liq gallashning tezkor imkoniyatlari beriladi.

